

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherkuziyeva,
A.Karimov, D.Abduraximova, S.Omonov**

MOLIYA BOZORI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

*(60410400-moliya va moliyaviy texnologiyalar, 60410500-bank ishi va audit,
60410200-soliqlar va soliqqa tortish, 60410100-buxgalteriya ishi va audit,
60410600-sug‘urta ishi, 60412700-baholash ishi, 60410700 - byudjet nazorati
va g‘aznachilik, 60411000-investitsion loyihalarga xizmat ko‘rsatish va
moliyalashtirish, 60412800-elektron tijorat, 60411200-Menejment,
60412100-xalqaro valyuta kredit munosabatlari yo‘nalishi bakalavriat
talabalari uchun)*

DARSLIK

**Toshkent
– « DIADEMA NUR SERVIS » OOO
2023**

UO‘K: _____
KBK: _____

**S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherkuziyeva, A.Karimov,
D.Abduraximova, S.Omonov Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar:**
Darslik – T.: « **DIADEMA NUR SERVIS** » **OOO.** – 412 b.

ISBN: _____

Mazkur darslikda moliya bozor va moliyaviy texnologiyalarning nazariy asoslari, pul bozori, obligatsiyalar bozori, aksiyalar bozori, ipoteka qimmatli qog‘ozlari bozori, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bozori, xorijiy valyutalar va kriptovalyutalar bozori, qimmatbaho metallar bozori, moliya bozori tahlili, moliya bozori risklari va portfelni boshqarish, fond bozori va uning faoliyat mexanizmi, moliya bozorida boshqa moliya institutlari ishtiroki, moliya bozorini tartibga solish, moliyaviy texnologiyalar mohiyati: yuzaga kelish shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari, raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar roli, moliya bozorida intellektual tizimlar, robo-maslahatchilar (robo-advisors), muqobil moliyalashtirish va kroudfunding, moliyaviy tashkilotlarda moliyaviy texnologiyalar xususiyatlari va ularni joriy etish kabilar yoritib berilgan.

UO‘K: _____
KBK: _____

Taqrizchilar: *i.f.d. (DSc), prof. X.X.Xudoyqulov;*
i.f.f.d. (PhD), dots. J.J.Qurbonov

ISBN: _____

© S.Elmirzayev va boshqalar, 2023
© – « **DIADEMA NUR SERVIS** » **OOO** 2023

KIRISH

Bugungi kun iqtisodiyotida real sektor singari moliyaviy sektor ham alohida dolzarblik kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy-iqtisodiy taraqqiyotida va bugungi darajaga erishishlarida moliya bozori shak-shubhasiz muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda real sektorni moliyaviy ta'minlash, bo'sh pul mablag'larini ishlab chiqarishga yo'naltirish, yangi sohalarni o'zlashtirish, davlat byudjeti defitsitini noinflyatsion yo'llar bilan mablag' jalb qilish orqali qoplash, aholi daromadlarini moliyaviy aktivlar orqali oshirish kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham moliya bozoriga xorijiy kapital oqimlarini asosan o'rta va uzoq muddatga jalb qilish, davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish, davlat ulushi mavjud korxonalarda xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini jalb qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilganligi ham yuqoridagilar bilan bevosita bog'liq. Mazkur jarayonda ehtiyojlarning keskin o'sib borishi sharoitida real sektor va xizmat ko'rsatish subyektlarining o'z faoliyatlarini kengaytirib borish maqsadida nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorlardan ham kapital jalb qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda mamlakatimizda ham moliya bozorini rivojlantirish maqsadida sohani chuqur o'rganish, bu borada xorijiy ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etishda "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar" fani muhim hisoblanadi.

"Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar" fanini o'rganish orqali talabalar moliya bozorining iqtisodiy mohiyati, vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va modellari, pul bozori xususiyatlari va moliya bozori shakllanishidagi ahamiyati, aksiyalar bozorining o'ziga xos xususiyatlari va amal qilish mexanizmi, obligatsiyalar bozorining o'ziga xos xususiyatlari va savdo mexanizmi, davlat qimmatli qog'ozlar bozori amal qilish shart-sharoitlari, hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozorining

moliya bozori boshqa sektorlari bilan bog‘liqligi, ipoteka qimmatli qog‘ozlar bozori muomalasi tartibi, xorijiy valyutalar bozorining moliya bozoridagi tashkiliy jihatlari, kriptovayutalarlar bozorining ishlash mexanizmi, qimmatbaho metallar va toshlar bozori xususiyatlari, moliya bozorining indikatorlari va indeksleri, moliya bozori risklari va ularni baholash, fond birjalari va fond bozori ishtirokchilari faoliyat mexanizmi, markaziy bank va uning moliya bozoridagi faoliyati, moliya bozorida tijorat banklari va nobank kredit institutlarining ishtiroki, investitsiya va pay fondlarining moliyaviy operatsiyalardagi ahamiyati, moliya bozorida sug‘urta tashkilotlari va nodavlat pensiya fondlarining faoliyat mexanizmi, moliya bozorini tartibga solishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari bilan yaqindan tanishadilar. Darslikda bu jihatlarga e‘tibor qaratilganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Darslikda mavzularning nazariy jihatlari atroflicha yoritilishi bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha nazorat savollari, talabalarni fikrlashga undovchi alohida topshiriqlar, test savollari, masalalar ham dasturda keltirilgan. Bunda asosiy e‘tibor talabaning mustaqil ishlashiga qaratilgan.

Mavzular yoritilishida moliya bozorining milliy amaliyoti bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribalariga ham alohida e‘tibor qaratilganligini qayd etib o‘tish lozim. Shuningdek mustaqil ta‘limni samarali tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Darslik moliya, bank ishi, soliqlar va soliqqa tortish, buxgalteriya ishi va audit, sug‘urta ishi, baholash ishi, davlat byudjetining g‘azna ijrosi, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, elektron tijorat, bank hisobi va audit, byudjet hisobi va nazorati, xalqaro valyuta kredit munosabatlari, pensiya ishi yo‘nalishi bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar” fani o‘quv dasturi asosida yozilgan.

I BOB. MOLIYA BOZORINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Moliya bozorining iqtisodiy mohiyati, ahamiyatli jihatlari, tarkibiy qismlari

Biznes samaradorligi (rentabelligi)ni oshirish masalasi bugungi iqtisodiy sharoitda eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Biznes samaradorligining oshib borishi o'z navbatida davlat moliyaviy barqarorligi ta'minlanishi bilan birga keskin raqobat sharoitida jahon bozorida mustahkam o'rin egallashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda arzon kapital jalb qilish va boshqa tomondan kapitalni samarali joylashtirish muhim omillardan biridir. Qo'yilgan har ikkala vazifani ijobiy hal qilishda moliya bozorining amal qilish mexanizmi yordamga keladi. Aynan moliya bozori iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida amal qilishi zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarning bozordan chiqib ketishiga sabab bo'ladi, kapital iste'molchisining o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etishga majbur qiladi, iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish imkonini beruvchi texnologik innovatsiyalarni doimiy qo'llab-quvvatlaydi, investitsiya loyihalaridan eng samaralisini tanlashni shart qilib qo'yadi.

Moliya bozorida pul, kredit, qimmatli qog'ozlar, valyutalar, sug'urta polislari, pensiya jamg'armalari, qimmatbaho metallar, hosilaviy moliyaviy instrumentlar va boshqalar maxsus tovar sifatida muomalada bo'ladi. Bunda tijorat banklari, birjalar, jamg'arma institutlari, jamoaviy investitsiyalash kompaniyalari va boshqalar asosiy vositachilar sifatida ko'zga tashlanadi. Moliya bozorida kapitalga bo'lgan talab va taklif asosida vositachilar yordamida kapitalni kreditor va qarz oluvchi o'rtasida qayta taqsimlash mexanizmi amal qiladi. Shundan kelib chiqqan holda amaliyotda pul mablag'lari oqimini haqiqiy egasidan qarz oluvchiga va aksincha yo'naltiruvchi moliya-kredit institutlari faoliyati tashkil etiladi. Moliya bozorining asosiy funksiyasi bo'sh pul mablag'larini ssuda kapitaliga aylantirishda ham namoyon bo'ladi. Tashkiliy nuqtai nazardan moliya bozoriga moliyaviy instrumentlar

emissiyasi, xaridi va savdosini amalga oshiruvchi iqtisodiy subyektlar, moliya institutlari jamlanmasi sifatida ham qaralishi mumkin. Har bir moliya instituti moliyaviy instrumentlarning aniq bir to'plami bilan u yoki bu operatsiyani amalga oshirish bo'yicha aniq vakolatga egaligini alohida ta'kidlash lozim.

Moliya bozorining asosiy vazifasi sifatida moliyaviy resurslarning yakuniy iste'molchilari o'rtasida jamg'armani samarali taqsimlashni ta'minlash masalasi qo'yiladi. Bu masalani hal qilish ham obyektiv, ham subyektiv sabablarga ko'ra murakkablik kasb etadi. Chunki moliya bozori ishtirokchilari manfaatlari bir-biriga qarama-qarshiligi, moliyaviy majburiyatlarni bajarish bo'yicha risklarning yuqoriligi va boshqa holatlar vazifaning to'liq bajarilishiga imkon bermaydi. Moliya bozori aholi jamg'armalarini investitsiyalarga aylantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi, u investor va jamg'aruvchi manfaatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlaydi. Yuqoridagilar asosida moliya bozori mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

G'arb iqtisodiy adabiyotlarida moliya bozorlari pul mablag'lari oqimini jamg'aruvchidan qarz oluvchiga yo'naltiruvchi bozor institutlari jamlanmasi sifatida keltiriladi.¹ Frederik Mishkin ortiqcha mablag'larga ega odamlardagi pul mablag'larini pul mablag'lari yetishmayotganlariga o'tkazib berishga xizmat qiluvchi bozorlarni moliya bozorlari deb ataydi.² Keltirilayotgan ta'riflar asosida ta'kidlash mumkinki, *moliya bozori* – moliyaviy instrumentlardan foydalanish asosida moliyaviy vositachilar orqali vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash yuz beradigan bozordir.

Moliya bozorisiz yirik kapitalni jalb qilish va yirik loyihalarga investitsiyalash murakkab masaladir. Sotuvchi va xaridorlar sonining ko'pligi natijasida shakllangan raqobat mexanizmi orqali bozorda moliyaviy aktivga nisbatan yagona bozor bahosi shakllanadi va axborot shaffofligiga erishiladi. Bugungi yuqori texnologik imkoniyatlar sharoitida maxsus vositachilik tuzilmalaridagi ko'p sonli operatsiyalar hisobiga pul va boshqa aktivlar muomalasi xarajatlari pasaytirilishi,

¹Долан Э.Дж., Кэмпбелл К.Д. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. М.; СП., 1993.с.15.


² Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliodori. The economics of money, banking and financial markets. UK. Pearson, 2013. P.3.; Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. USA. Prentice Hall, 2012. P.2.

risklar sug'urtalanishi, sotiladigan aktivlar turlari kengayishi yuz bermoqda.

Moliya bozorining rolini chuqurroq anglash uchun uning funksiyalarini bilish talab etiladi. 1997-yil iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Robert Merton moliya bozorining quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi:

- kapitalni vaqt, tarmoqlararo va mamlakatlararo qayta taqsimlash;
- kapital jamlash va korxonalarga ulush kiritish;
- to'lov-hisob-kitob;
- risklarni boshqarish;
- axborot;
- axborotlar assimetriyasi bilan bog'liq muammolarning oldini olish.

Moliya bozorining ishtirokchilari sifatida kapital jalb qiluvchilar, investorlar, vositachilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda o'z-o'zidan ayonki kapital jalb qiluvchilar mohiyatan qarz oluvchilar sifatida namoyon bo'ladi. Investorlar esa o'z kapitallarini vositachilar orqali joylashtiradilar (1.1-rasm).



1.1-rasm. Moliya bozori ishtirokchilari

Tijorat banklari, birjalar, jamg'arma institutlari, kollektiv investitsiyalash institutlari va boshqalar moliya bozorida asosiy vositachilar hisoblanadilar. Ularning barchasi alohida operatsiyalarni bajarish orqali kapital egasi va kapitalga ehtiyojmand shaxslarning o'zaro birlashishiga ko'maklashadi (1.2-rasm).


Moliya bozoriga moliyaviy instrumentlar bozori sifatida yondashiladi. Moliyaviy instrument – qarz majburiyati yoki ulush

munosabatini yuzaga keltiruvchi moliyaviy aktivdir. Moliyaviy instrumentlar bozor ishtirokchilari o'rtasidagi bitim natijasida shakllangan. Bunda bitimning bir ishtirokchisi moliyaviy aktivni qo'lga kiritganda ikkinchi tomonda moliyaviy majburiyat yuzaga keladi. Shunday qilib, moliyaviy aktiv moliyaviy majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni talab qilish huquqini beradi, tashkilot yoki fuqarolarga tegishli mulkiy huquqlarni o'zida jamlaydi.



1.2-rasm. Moliya bozorida vositachilar tiplari

Har qanday bozor o'z segmentlariga ega bo'lgani kabi moliya bozori ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra tarkibiy qismlarga ega. Moliya bozori tarkibi odatda unda muomalada bo'ladigan aktivlarga ko'ra ajratiladi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Moliya bozori tarkibi

Moliya bozori tarkibida keltirilgan har bir bozor bo'yicha keyingi mavzularda alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Instrumentlari muomalada bo'lish muddatiga ko'ra moliya bozori pul bozori va kapital bozoriga bo'linadi. Pul bozorida naqd pul, qisqa muddatli to'lov vositalari, bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli jamg'armalar muomalasi tashkil etiladi. Kapital bozorida esa "uzun pullar" muomalasi tashkil etilib, unda asosan aksiyalar va obligatsiyalar amal qiladi. Muomala muddati esa bir yildan ortiq bo'ladi. Kapital bozorining pul bozoridan asosiy farqli jihati uzoq muddatli investitsiyalardan foydalanishi bilan izohlanadi.

Moliya bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozori moliyaviy aktiv xususiyatiga ko'ra ulush munosabatini anglatuvchi va qarz munosabatini anglatuvchi qimmatli qog'ozlar bozorlariga bo'linadi. Bunda birinchi navbatda aksiyalar bozori hamda obligatsiyalar bozori yaqqol ko'zga tashlanadi.

1.2. Moliya bozori modellari

Moliya bozori modeli – iqtisodiyotni moliyalashtirishning turli usullari va turli moliyaviy vositachilar rolining ahamiyatiga bog'liq holda bozorni tashkil etish tipidir.

Iqtisodiyotni moliyalashtirishning ikkita asosiy usuli mavjud bo'lib, ular bank kreditlari yordamida moliyalashtirish hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirishdir.

Bank kreditlari yordamida moliyalashtirish kontinental Yevropada moliyalashtirishning asosiy usuli hisoblanadi. Bunda moliyaviy resurs jalb qilish maqsadida bankka murojaat qilinadi. Bank kompaniya moliyaviy holatini tekshiradi, taqdim etgan loyihasi va uning samaradorligini ijobiy baholaganda boshqa shartlarning ham bajarilishini inobatga olgan holda kredit ajratadi. Tegishli talablar bajarilmagan yoki taqdim etilgan loyihalar ijobiy baholanmagan holatlarda, shuningdek loyihalar yuqori riskli deb topilganda banklar moliyalashtirish bo'yicha arizaga rad javobini berishi mumkin. Bundan tashqari faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha bir necha kreditlarni moliyalashtirish murakkab jarayon ekanligini ham shu o'rinda qayd etib o'tish lozim. Bank stavkalari yuqoriligi, alohida bank tomonidan

mustaqil ravishda yirik summada kredit berish imkoniyati pastligi bunday amaliyotning kamchiliklari hisoblanadi. Banklar tomonidan kreditlashning kamchiliklari o'z navbatida kompaniyalar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozori orqali mablag'lar jalb qilishni rivojlantirishga zaruratni yuzaga keltiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish Amerika qo'shma shtatlarida va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy usuli hisoblanadi. Bunda kompaniyalar qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqaradi va kapital jalb qilish uchun ularni bozorda sotadi. Qimmatli qog'ozlar bozoridan mablag'lar jalb qilish kapital jalb qiluvchi uchun qulay bo'lsada, loyihalarni moliyalashtirish uchun qimmatli qog'ozlardan foydalanish har doim ham qulay hisoblanmaydi. Chunki bank kreditini jalb qilish uchun faqatgina bank ishonchini qozonish yetarli bo'lsa, qimmatli qog'ozlar orqali kapital jalb qilish ko'plab investorlar ishonchini qozonishni talab qiladi. Bunda investorlarni loyihaning samaradorligi va eng asosiysi emitentning investorni muntazam ravishda daromad bilan ta'minlashiga ishonтира olishi lozim bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bozoridan mablag'lar jalb qilish quyidagilar bilan bevosita bog'liq:

- emitent investorlar uchun ochiq va nufuzli bo'lishi lozim, uning loyihalari, moliyaviy hisobotlari va ko'rsatkichlari tanishish uchun qulay bo'lishi lozim;

- jalb qilinadigan kapital kreditga nisbatan arzonga tushishi lozim. Buning uchun odatda qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali katta miqdorda kapital jalb qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki, turli mamlakatlarda iqtisodiyot va moliya sohasi rivojiga ko'ra jahonda moliya bozorining bank va qimmatli qog'ozlar bozoriga asoslangan ikkita asosiy modeli shakllanganligi tilga olinadi. Bu modellar odatda insayderlik va autsayderlik modellari, nemis va ingliz modellari sifatida ham tilga olinadi. Moliyaviy sxemalar va munosabatlardagi yaqqol farqlarning yuzaga kelganligidan kelib chiqqan holda moliya bozorining islom modeli ham keyingi paytlarda alohida qayd etilmoqda.

Bank modeli – bank tomonidan moliyalashtirishga asoslangan tizim bo'lib, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham moliya bozori

banklar tomonidan moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsada, ma'lum bir farqli jihatlar mavjudligini qayd etish lozim. Mazkur modelning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- tijorat banklari moliyaviy vositachilar (broker, diler, anderrayter) funksiyalarini bajaradi;

- kreditlash mexanizmlari orqali kompaniyalarni uzoq muddatli moliyalashtirish ustunlik qiladi;

- mulkchilikning yuqori ulushi guruhlar qo'lida jamlanadi. Bunda davlat va yirik korporativ tuzilmalar ulushi yuqori hisoblanadi;

- qimmatli qog'ozlarni qo'shimcha joylashtirish yopiq xarakterga ega;

- aksiyadorlik kapitali tarkibi nazorat paketi va vertikal ishtirok etishga asoslanadi;

- bir foizgacha kapitalga egalik qiluvchi mayda aksiyadorlar kamchilikni tashkil qiladi, shuningdek kollektiv investitsiyalash institutlari faoliyati mayda investorlar faoliyatida ahamiyat kasb etadi.

Autsayderlik, anglo-amerika modeli kabi nomlar bilan ham ataluvchi nobank modeli – qimmatli qog'ozlar bozoriga yo'naltirilgan va institutsional investorlar (sug'urta kompaniyalari, investitsiya va pay fondlari) tizimidir. Mazkur modelning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachilar funksiyalarini nobank moliyaviy institutlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha tashkilotlar (birjalar, vositachilik tashkilotlari va hokazolar) bajaradi;

- banklar va ularning filiallari yoki vakolatxonalariga qimmatli qog'ozlar bozorida mijozlar uchun operatsiyalarni amalga oshirishlari ta'qiqlangan;

- qimmatli qog'ozlar asosan ko'plab mayda mulkdorlar o'rtasida birja mexanizmlari orqali joylashtiriladi;

- aksiyadorlik kapitali tarqoq bo'lib, mayda xususiy investorlar ulushi aksiyadorlik kapitalining 50 foizidan yuqorini tashkil etadi;

- xususiy investorlar o'rtasida moliyaviy aktivlar savdosi uchun bozor sifatida fond birjalarning rivojlanganligi;

- kompaniyalarni moliyalashtirishda qarz majburiyatlariga nisbatan aksiyalar bozorining ustunlikka egaligi.

XX asr oxiri – XXI asr boshiga kelib ko'plab Yevropa mamlakatlari moliya bozorlari anglo-amerika modeli xususiyatlarini o'zlashtira

boshladilar. Natijada moliya bozorining anglo-amerika va kontinental modellari o‘zaro yaqinlashuvi yuz berdi.

Moliya bozorining islom modeli asosan moddiy manfaat, iqtisodiy foydadan oldin axloq qadriyatlari ustunligiga asoslanadi. Bu tizim XX asr oxirlarida arab davlatlarida neft eksportidan yuqori daromadga bog‘liq holda shakllangan. Aynan neft eksporti bo‘yicha yuqori daromad tufayli kelib tushgan pul mablag‘larini qanday saqlash masalasi yuzaga kelgan. Bungacha tushumlar miqdori past bo‘lganligi sababli, mablag‘lar an‘anaviy banklarda saqlanar edi. Islom modelining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- foiz undirishga ta‘qiq mavjudligi. Lekin bunday ta‘qiq faqat banklar uchun daromadlar kafolatgan holda amal qiladi;

- ulush asosida ishtirok etishdan yoki ijaradan daromad olish imkoniyatlari;

- obligatsiyalar bozorining mavjud emasligi. Lekin obligatsiyaning maxsus turi loyihani moliyalashtirishdagi ulushi asosida daromad olish imkonini berish orqali amal qiladi;

- azart o‘yinlari, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog‘liq biznesga investitsiyalar kiritishga ta‘qiq qo‘yilganligi;

- hosilaviy moliyaviy instrumentlarning mavjud emasligi. Masalan, pishib yetilmagan bug‘doy uchun ham hosilaviy instrumentlar qo‘llanilishi mumkin emas;

- nochorlarga yordam tamoyillari amal qilishi. Bunda har bir islom banki va uning mijozlari zaxira kapitali va foydasi hisobidan kambag‘al musulmonlar foydasiga islom solig‘i ajratish asosida maxsus fond tashkil etadi.


Umumiy holda ta‘kidlash mumkinki, moliya bozori modellari ma‘lum darajada korporativ madaniyatga ham bevosita bog‘liq.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliya bozorining iqtisodiy mohiyatini izohlang.
2. Moliya bozorining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati.
3. Moliya bozorining tarkibiy qismlari.
4. Moliya bozori asosiy institutlari.
5. Qimmatli qog'ozlar bozori amal qilish mexanizmi.
6. Pul bozori va kapital bozorining umumiy va farqli jihatlari.
7. Moliya bozorining bank modeli qo'llanish xususiyatlari.
8. Moliya bozorining anglo-sakson modeli qo'llanish xususiyatlari.
9. Moliya bozorining islom modeli qo'llanish xususiyatlari.
10. Mamlakatimizda moliya bozori xususiyatlari.

2. Moliya bozorining iqtisodiy mohiyatini ochib beruvchi klaster shakllantiring.



3. Moliya bozori tasniflanishi bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Tasnifiy belgilari	Turlari	Mohiyati
Instrumentlari muomalada bo'lish muddatiga ko'ra	Pul bozori	...
	Kapital bozori	...
Segmentlariga ko'ra	Qimmatli qog'ozlar bozori	...
		...
		...

Shartnomalar ijro muddati bo'yicha	...	...
	...	...
Qamroviga ko'ra	...	...
	...	...
	...	...
Joylashtirish va muomalasiga ko'ra	...	...
	...	...
...	...	...

4. Moliya bozori modellari xususiyatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Bank modeli	Autsayderlik (nobank) modeli	Islom modeli
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

TESTLAR

1. Moliya bozorining o'ziga xos xususiyati to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) bu bozor pul mablag'lari oqimini jamg'aruvchidan qarz oluvchiga tomon yo'naltiruvchi bozor institutlari jamlanmasidir;

b) bozorda savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar asosan qisqa muddatli hamda likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan instrumentlar hisoblanadi;

d) bu bozorda qimmatli qog'ozlarni qo'shimcha joylashtirish faqat yopiq xarakterga egadir;

e) bozorda operatsiyalar asosan monitar siyosat, davlatlar va xalqaro moliya tashkilotlari darajasida amalga oshiriladi.

2. Moliyaviy instrumentlardan foydalanish asosida moliyaviy vositachilar orqali vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash yuz beradigan bozor qanday nomlanadi?

a) moliya bozori;

b) sug'urta va xususiy pensiya bozori;

d) qimmatbaho metallar bozori;

e) qimmatli qogʻozlar bozori.

3. Moliya bozorining funksiyalari notoʻgʻri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) kapitalni jamlashda qatnashmasligi;
- b) kapitalni vaqt, tarmoqlararo va mamlakatlararo qayta taqsimlash;
- d) risklarni boshqarish;
- e) axborotlar assimmetriyasi bilan bogʻliq muammolarning oldini olish.

4. Moliya bozorlarida investorlar oʻz kapitallarini qay tartibda joylashtiradi?

- a) vositachilar orqali;
- b) investorlar orqali;
- d) korxonalar orqali;
- e) banklar orqali.

5. Moliya bozorining asosiy vositachilar qatori notoʻgʻri keltirilgan javobni belgilang.

- a) emitentlar;
- b) tijorat banklari;
- d) birjalar;
- e) kollektiv investitsiyalash institutlari.

6. Qarz majburiyati yoki ulush munosabatini yuzaga keltiruvchi moliyaviy aktiv – bu ...

- a) moliyaviy instrument;
- b) moliyaviy majburiyat;
- d) konosament;
- e) indossament.

7. Instrumentlari muomalada boʻlish muddatiga koʻra moliya bozori qanday turdagi bozorlarga ajratiladi?

- a) pul bozori va kapital bozori;
- b) birlamchi va ikkilamchi bozor;
- d) birjaviy va nobirjaviy bozor;
- e) milliy va halqaro bozorlar.

8. Kontinental modelida bozordagi moliyaviy vositachi funksiyalari kim tomonidan bajariladi?

- a) tijorat banklari;
- b) nobank moliya institutlari;
- d) qimmatli qog'ozlar bo'yicha kompaniyalar;
- e) broker hamda dilerlar orqali.

9. Qaysi mamlakatlar iqtisodiyotini moliyalashtirishda asosan qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish usulidan foydalaniladi?

- a) Amerika qo'shma shtatlari, Buyuk Britaniya;
- b) Germaniya, Niderlandiya;
- d) Yaponiya, Shveytsariya;
- e) Shvetsiya, Fransiya.

10. Islom modelining shakllanish sababi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) neft eksportidan yuqori daromad kelishi sababli;
- b) obligatsiyalar bozorining mavjud emasligi sababli;
- d) foiz olishga qo'yilgan ta'qiq sababli;
- e) biznesga investitsiya kiritishdagi turli cheklovlar sababli.

II BOB. PUL BOZORI

2.1. Pul bozorining iqtisodiy mohiyati, vujudga kelishi va qo‘llanish xususiyatlari

Davlat, korporativ tuzilmalar va aholining pul mablag‘lariga bo‘lgan doimiy talabi va ma’lum shartlar asosida qisqa muddatlar uchun vaqtinchalik pul mablag‘larini boshqa shaxslardan jalb qilishga ehtiyojning mavjudligi pul bozorining yuzaga kelishiga va rivojlanishiga olib kelgan. Mamlakatimizda ham pul bozorini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.³

Pul bozori atamasi ushbu bozor uchun to‘liq mos kelmaydi. Sababi, pul bozorida pul yoki valyuta oldi-sotdisi amalga oshirilmaydi. Pul bozorida savdo qilinadigan qimmatli qog‘ozlar qisqa muddatli hamda likvidlilik darajasi yuqori bo‘lgan instrumentlar hisoblanadi ya’ni ularning pulga aylanish jarayoni tez amalga oshadi. Pul bozoridagi qimmatli qog‘ozlarning uchta asosiy xususiyatlari mavjud. Bular quyidagilar⁴:

- ular asosan yirik, ya’ni ko‘p miqdorda sotiladi;
- ulardagi defolt riski juda ham past hisoblanadi;
- ularning muddati emissiya qilingan sanadan boshlab bir yilgacha bo‘ladi.

Pul bozoridagi aksariyat qimmatli qog‘ozlarning muddati 120 kundan kam bo‘ladi. Pul bozoridagi tranzaksiyalar aniq bir joy yoki binoda amalga oshirilmaydi. Asosan treyderlar ishtirokchilar o‘rtasidagi savdolarni elektron tarzda amalga oshiradilar. Pul bozori instrumentlarining oldi-sotdi jarayoni ikkimlamchi bozorda birmuncha tezlashadi. Yuqorida ta’kidlangan xususiyatlariga ko‘ra, pul bozori instrumentlari birlamchi bozorga joylashtirilgandan so‘ng, ularni sotish uchun kelajakda xaridorlarni topish unchalik qiyin bo‘lmaydi. Pul bozorining yana bir xususiyati ushbu bozor ulgurji bozor hisoblanadi, ya’ni undagi aksariyat tranzaksiyalar yirik hajmda bo‘lishi kuzatiladi.

³ Monetar siyosatning 2018-yil uchun asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2017-yil.

⁴ Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial Markets and Institutions, US Prentice Hall, 2012. P. 255

Ilg'or xorij mamlakatlari tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, real sektor korxonalari pul bozorining muhim ishtirokchilaridan hisoblanadi. Pul bozori asosan investorlarga yuqori darajadagi daromadlilik darajasini taklif etmasada, o'zining yuqoridagi xususiyatlari sababli ham investorlar mablag'larini yo'naltiruvchi investitsiya obyekti sanaladi. Pul bozorida qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlar tuzilishi ushbu bozorning jozibadorligini ta'minlaydi.

Pul bozori vujudga kelishiga to'xtaladigan bo'lsak, 1970 yillarda AQSHda inflyatsiya darajasi oshganligi sababli, banklar taklif etadigan depozit stavkalari investorlarni qanoatlantirmagan, ushbu holatdan foydalangan brokerlik agentliklari depozit stavkalaridan yuqoriroq foiz stavkalari to'laydigan pul bozori instrumentlari reklama qilishni boshlagan. Bunga qarshi banklar depozit stavkalarini oshirish bilan javob qaytara olmagan, sababi ular to'lashi mumkin bo'lgan foiz stavkalari Markaziy Bank tomonidan chegaralab qo'yilgan. Ammo Markaziy Bank bu holat bo'yicha qonunchilik hujjatlarini tezda ko'rib chiqib, tegishli o'zgartirishlar kiritdi. Shundan so'ng yana depozitlarga nisbatan talab oshgan bo'lsada, pul bozori o'z mavqeini saqlab qoldi.

2.2. Pul bozori ishtirokchilari

Bugungi kunda xorijiy amaliyotda pul bozori ishtirokchilari quyidagilar hisolanadi (2.1-jadval).

2.1-jadval

Pul bozori ishtirokchilari⁵

Ishtirokchilar	Ularning pul bozoridagi o'rni
Moliya vazirligi yoki G'aznachilik boshqarmasi	Davlat qarzlarni qoplash maqsadida qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlarini emissiya qiladi
Tijorat banklari	Davlat qimmatli qog'ozlarini xarid qiladi; depozit sertifikatlarini sotadi; pul bozorida ishtirok etuvchi investorlarga qisqa muddatli kreditlar beradi;
Korxonalar	O'zining moliyaviy faoliyatini yaxshilash maqsadida qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni emissiya qiladi yoki sotib oladi;

⁵ Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial Markets and Institutions, US Prentice Hall, 2012. P. 259.

Investitsiya kompaniyalari	Investitsion portfelni shakllantirib, uning risklilik darajasini pasaytirish maqsadida pul bozori instrumentlarini sotib oladi;
Moliyaviy kompaniyalar	Individual investorlarga kreditlar taqdim etadi;
Sug'urta kompaniyalar	O'z likvidligini yo'qotmaslik uchun pul bozoriga investitsiya kiritadi;
Pensiya fondlari	Risklilik darajasi past bo'lganligi uchun pul bozori instrumentlariga o'z mablag'ini investitsiya qiladi;
Individual investorlar	O'z mablag'larini pul bozori investitsiya fondiga yo'naltiradi;
Pul bozorining investitsiya fondlari	Kichik investorlarga o'z mablag'larini yirik miqdorda sotiladigan pul bozori instrumentlarini sotib olish uchun investitsiya qilish imkonini beradi

Pul bozori ishtirokchilarini qimmatli qog'ozlarni sotuvchilar va sotib oluvchilar kabi ishtirokchilarga bo'lishning iloji yo'q. Sababi ishtirokchilarning asosiy qismi ikkala vazifani ham bajaradi. Misol uchun, banklar yirik miqdorda depozit sertifikatlarini emissiya qilish orqali mablag'larni jalb qilishi hamda korxonalarga qisqa muddatli kreditlarni ham berishi mumkin.

Pul bozori ishtirokchilari va ularning pul bozoridagi o'rniga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Xalqaro amaliyotga ko'ra, Moliya vazirliklarining asosiy vazifalaridan biri Markaziy bank bilan hamkorlikda davlatning monetar siyosatini barqarorlashtirish hamda byudjet defitsitini qoplash hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun ular qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar (xazina majburiyatlari)ni emissiya qiladi va joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar hisobiga jalb qilingan mablag'lar tegishli maqsadlarda ishlatiladi. Qimmatli qog'ozlarni so'ndirish vaqti kelganida esa davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ular qoplanadi.

Tijorat banklari hukumat tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning eng asosiy sotib oluvchilaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri banklarga investitsion faoliyat uchun qo'yilgan cheklovlar hisoblanadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, ko'plab mamlkatlarda banklarga risklilik darajasi yuqori bo'lgan aksiyalar hamda korporativ obligatsiyalarni sotib olish ta'qiqlangan. Risklilik darajasi pastligi hamda likvidlilik darajasi yuqori bo'lganligi sababli davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish bo'yicha cheklovlar mavjud emas.

Ko'plab korxonalar pul bozorida faol tarzda ishtirok etishadi, ya'ni ular o'z qimmatli qog'ozlarini emissiya qilib, pul bozoriga joylashtirish orqali sotishi, shuningdek qo'shimcha pul mablag'larini foyda ko'rish maqsadida pul bozori instrumentlariga investitsiya qilishlari ham mumkin. Ammo, pul bozori instrumentlariga investitsiya kiritishdan asosiy ko'zlangan maqsad bu foyda ko'rish emas, o'z mablag'larini qiymatini hamda likvidliligini ushlab turish hisoblanadi.

Investitsiya kompaniyalari pul bozorining likvidlilik darajasini ta'minlovchi vositachilar hisoblanishadi. Chunki, ular asosan individual investorlarning mablag'laridan investitsion fondni shakllantiradi va kompaniya menejeri tomonidan ma'qul ko'rilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritiladi. Agarda biror bir individual investor o'z mablag'larini qaytarib olmoqchi bo'lsa, investitsiya fondi ushbu investorga o'z mablag'larini qaytarib beradi. Shu sababli pul bozori instrumentlari uchun ikkilamchi bozor talab etilmaydi. Bundan tashqari investitsiya kompaniyalari yuqori daromadli investitsion loyihaning uchrab qolish ehtimolini inobatga olgan holda, aksariyat mablag'larini pul bozori instrumentlarini sotib olishga yo'naltiradi.

Xorijiy amaliyotga ko'ra moliyaviy kompaniyalar tijorat qog'ozlarini sotish orqali dastlab mablag'ni shakllantirib oladi, so'ngra esa ushbu mablag'ni mijozlarga qisqa muddatli kreditlar sifatida taqdim etadi va pul bozorida o'z faolligi bilan ajralib turadi.

Asosan mol-mulkni hamda tabiiy ofatlarga qarshi sug'urtalovchi sug'urta kompaniyalari pul bozorining faol ishtirokchilaridan hisoblanadi. Sababi bu turdagi sug'urta kompaniyalarida kutilmagan vaziyatda katta miqdordagi mablag'ga zarurat tug'ilishi mumkin. Shu sababdan ular o'zlarining likvidliligini yo'qotmaslik uchun o'z mablag'larining asosiy qismini pul bozoriga yo'naltiradi. Misol uchun, 2004 yilda AQSHning Florida shtatida yuz bergan kuchli to'fon tufayli sug'urta kompaniyalari qariyb 1 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan miqdordagi mablag'ni ushbu to'fondan tafolat ko'rganlarga sug'urta badali sifatida to'lagan. Ushbu majburiyatni bajarish uchun sug'urta kompaniyalari o'zlaridagi pul bozori instrumentlarining bir qismini sotgan. Pensiya fondlari o'z mablag'larining bir qismini aksiya va obligatsiya bozorida foydaliroq investitsion imkoniyatlar yuzaga kelgan vaqtda undan foydalanish maqsadida yetarli mablag'ga ega bo'lish

uchun pul bozoriga investitsiya kiritadi. Sugʻurta kompaniyalari singari pensiya fondlari ham yuqori likvidlilikga ega boʻlishi lozim. Sugʻurta kompaniyalaridan farqli oʻlaroq pensiya fondlarining majburiyatlari miqdori va ularni bajarish vaqtlarini oldindan tahlil qilish unchalik qiyin hisoblanmaydi.

2.3. Pul bozori instrumentlari

Xalqaro tajribaga koʻra, pul bozori instrumentlariga quyidagilar kiradi:

- davlat qisqa muddatli qimmatli qogʻozlari;
- qayta sotib olinuvchi shartnomalar;
- depozit sertifikatlari;
- tijorat qogʻozi;
- bankir kafolati;
- yevrodollar.

Davlat qisqa muddatli qimmatli qogʻozlari (T-Bills) asosan davlat qarzini qoplash uchun emissiya qilinadi. Yaʼni davlat oʻzining soliqlar orqali byudjetiga tushuvchi mablagʻlari kelguniga qadar qisqa muddatli qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qogʻozlarni emissiya qiladi. Ayrim davlatda bu qimmatli qogʻoz Moliya vazirligi tomonidan emissiya qilinsa, boshqalarida Gʻaznachilik tomonidan emissiya qilinadi. AQSH misolida koʻradigan boʻlsak, ushbu qimmatli qogʻoz Gʻaznachilik boshqarmasi (Treasury Department) tomonidan emissiya qiladi hamda T-Bills deb ataladi. Ularning muddati asosan 28; 91 va 182 kunni tashkil etadi. 1998-yildan beri AQSH hukumati investorlar uchun ushbu turdagi qimmatli qogʻozlarni internet orqali sotib olish imkonini yaratdi va bu oʻz navbatida ularni individual investorlar orasida yanada kengroq tarqalishiga olib keldi. Gʻaznachilik ushbu qimmatli qogʻozlar uchun hech qanday foiz toʻlovini amalga oshirmaydi. Ular oʻzining nominal narxidan past bahoda bozorga joylashtiriladi hamda soʻndirilish muddatida nominal narx boʻyicha soʻndiriladi. Ularning bozorga joylashtirilish hamda soʻndirilish baholari orasidagi farq asosan muddatga bogʻliq hisoblanadi. Ushbu turdagi qimmatli qogʻozlarning risklilik darajasi nolga teng deb hisoblanadi, sababi hattoki davlatda ularni soʻndirish uchun yetarli mablagʻ boʻlmay qolgan taqdirda ham,

davlat shunchaki qo'shimcha valyuta emissiya qilish orqali ularni so'ndirishi mumkin. Ularning muddati qisqa bo'lganligi sababli inflyatsiya darajasining ta'siri ham unchalik yuqori hisoblanmaydi.

2.2-jadval

**Davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarining
diskont stavkalari⁶**

Qimmatli qog'ozlar turlari	11.04.2018 holatiga	03.2018 holatiga	03.2017 holatiga
Bir yillik qimmatli qog'ozlar bo'yicha	2.09	2.03	1.04
91 kunlik qimmatli qog'ozlar bo'yicha	1.72	1.67	0.83
182 kunlik qimmatli qog'ozlar bo'yicha	1.88	1.85	0.95

Qayta sotib olinuvchi shartnomalar (Repurchase agreements). Korxonalar davlat qimmatli qog'ozlarini qayta sotib olish sharti bilan boshqa shaxsga sotishi mumkin. Bunda qancha miqdorda va qachon qaytarib sotib olish oldindan kelishib olinadi. Aksariyat qayta sotib olinuvchi shartnomalar 3 kundan 14 kungacha bo'lgan muddatga ega bo'lsada ayrim hollarda bu muddat 1 oydan 3 oygacha ham bo'lishi mumkin.

Depozit sertifikatleri bank tomonidan emissiya qilinuvchi qimmatli qog'oz bo'lib, o'zida muddatni hamda foiz stavkasini aks ettiradi. Ushbu turdagi qimmatli qog'oz oraliq instrument bo'lib, belgilangan muddat tugagandan so'ng ushbu sertifikatni bankga taqdim etgan shaxs asosiy summani hamda foiz to'lovini qo'lga kiritadi. AQSH misolida ko'radigan bo'lsak, depozit miqdori \$100 000 dan \$10 milliongacha bo'ladi.

Real sektor korxonalari tomonidan emissiya qilinadigan pul bozori instrumenti bu tijorat qog'ozi (Sommercial paper) hisoblanadi. Tijorat qog'ozi ta'minlanmagan qarz majburiyatini ifodalovchi, korxonalari tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'oz bo'lib, odatda muddati 270 kungacha bo'ladi. Sababi ushbu qimmatli qog'oz ta'minlanmagan bo'lib, buning muddatini uzaytirish bankrotlik riskini oshirib yuboradi. Faqatgina kreditga layoqatli korxonalar ushbu turdagi qimmatli qog'ozni emissiya qilish imkoniga ega. Ularni emissiya qilish talablari

⁶ <https://www.bankrate.com/rates/interest-rates/treasury.aspx>

mavjud bo‘lib, unga ko‘ra ularning muddati AQSH amaliyotida 270 kundan oshmasligi lozim. Bundan ko‘zlangan maqsad ushbu qimmatli qog‘ozni registratsiyadan o‘tkazishdan qochish, ya’ni qonunchilikda 270 kundan ortiq muddatga ega bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar Qimmatli qog‘ozlar va ularni ayriboshlash komissiyasidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Asosiy qimmatli qog‘ozlar asosan 20 kundan 45 kungacha bo‘lgan muddatga ega bo‘lib, asosan diskontlash asosida emissiya qilinadi. Taxminan 60% tijorat qog‘ozlari bevosita emitentdan investorga sotiladi. Bu turdagi qimmatli qog‘ozlar uchun ikkilamchi bozor mavjud emas.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Pul bozori instrumentlarining daromadlilik darajasi qanday aniqlanadi? Ular emissiya qilingandan so‘ng o‘zining nominal bahosidan past narxda sotiladi va muddati kelganda esa uni sotib olgan investor qimmatli qog‘ozni emitentga taqdim etib, qimmatli qog‘ozning nominaliga teng bo‘lgan summani qaytarib oladi. Shundan kelib chiqib, ularning daromadlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi.⁷

$$i_{\text{discount}} = \frac{F - P}{F} \times \frac{360}{n} \quad (2.1)$$

Bunda:

i_{discount} – yillik diskont stavka;

F – qimmatli qog‘ozning nominal bahosi;

P – sotish bahosi;

n – muddati (kunda);

Bankir kafolati (Banker’s acceptance) XII asrdan boshlab qo‘llanila boshlagan. Aniqrog‘i shu turdagi operatsiyalar amalga oshirilishining ilk bosqichlari o‘sha davrga to‘g‘ri keladi. Ushbu qimmatli qog‘oz sotuvchidan xaridorga hali yetkazilmagan mahsulotni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Tasavvur qilamiz, ABC kompaniyasi Yaponiyaning XYZ kompaniyasidan buldozer sotib olmoqchi, ammo XYZ kompaniyasi pulni qo‘lga kiritishdan oldin buldozerni yuborish niyatida emas, sababi u kompaniya haqida unda yetarli ma’lumot yo‘q. O‘z navbatida ABC kompaniyasi ham buldozerni qabul qilishdan avval pulni o‘tkazib berish niyatida emas. Ushbu vaziyatda bank Bankir

⁷ Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial Markets and Institutions, US Prentice Hall 2013, P. 261.

kafolatini emissiya qilish orqali eksport qiluvchi tomon nomidan import qiluvchi tomonga kafolat beradi. Ushbu qimmatli qog'oz qisqa muddatli ya'ni 30 kundan 180 kungacha bo'lib, ikkilamchi bozorda ushbu muddat tugaguniga qadar sotilishi ham mumkin. Bank bu vaziyatda o'z xizmati uchun 2-3% atrofida haq oladi.

Yevrodollar (Eurodollars). Dollarning barqaror valyuta ekanligini inobatga olgan holda aksariyat shartnomalar dunyo bo'yicha AQSH dollarida amalga oshiriladi. Shu sababdan ko'plab kompaniyalar va davlatlar dollarda zaxira saqlashni afzal ko'radi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Yevrodollar nima? Yevrodollar xorijiy banklar yoki Amerika banklarining xorijiy filiallarida dollarda shakllantirilgan depozitlar hisoblanadi.

Pul bozori instrumentlarini taqqoslaydigan bo'lsak, ularning foiz stavkalari orasida deyarli tavofut yo'q. Ularning barchasi diskontlash amaliyotini qo'llash orqali so'ndirilishini inobatga oladigan bo'lsak, diskont stavkalarining yuqori yoki past bo'lishi faqatgina ushbu qimmatli qog'ozlarning muddatiga bog'liq hisoblanadi.

Ularning likvidlilik darajasini taqqoslaydigan bo'lsak, davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarining likvidlilik darajasi tijorat qog'ozlarinikiga nisbatan yuqoriroq hisoblanadi, sababi, tijorat qog'ozlarini sotishning aksariyat hollarda imkoni yo'q, shu sababli investorlar ushbu qimmatli qog'ozni so'ndirilish muddatini kutadilar.

Tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan overdraft, overnait kreditlari ham pul bozorida keng qo'llaniladigan amaliyotlardan hisoblanadi.


Mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan overdraft kreditlari keng doirada qo'llanila boshlanganligini ham shu o'rinda qayd etib o'tish zarur.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Pul bozorining iqtisodiy mohiyati va qo'llanish xususiyatlari.
2. Pul bozorining vujudga kelishiga obyektiv zarurat.
3. Pul bozori ishtirokchilari.
4. Pul bozori instrumentlari.
5. Pul bozori instrumentlari daromadliligi va risklilik darajasi.
6. Tijorat banklarining pul bozoridagi ishtiroki.
7. Respublikamizda pul bozori amal qilish mexanizmi.
8. Davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqarilishi va joylashtirilishi.
9. Qisqa muddatli depozit sertifikatlari qo'llanilish tartibi.
10. Pul bozorida qisqa muddatli kreditlarning ajratilish tartibi.

2. Pul bozorining iqtisodiy mohiyatini ochib beruvchi klaster shakllantiring.



3. Pul bozori ishtirokchilarining bozordagi funksiyalari bo'yicha jadvalni to'ldiring.

Ishtirokchilar	Ularning pul bozoridagi funksiyalari
Moliya vazirligi	
Markaziy bank	
Tijorat banklari	
Korxonalar	

Moliyaviy kompaniyalar	
Sug'urta kompaniyalar	
Pensiya fondlari	
Individual investorlar	
Investitsiya fondlari	

4. Xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan pul bozori instrumentlari xususiyatlari bo'yicha jadval to'ldiring

Pul bozori instrumentlari	Qo'llanish xususiyatlari
Davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari	
Qayta sotib olinuvchi shartnomalar	
Depozit sertifikatlari	
Tijorat qog'ozlari	
Bankir kafolati	
Yevrodollar	

TESTLAR

1. Quyidagi bozorlarning qay birida qisqa muddatli hamda likvidlik darajasi yuqori bo'lgan qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilinadi?

- a) pul bozorida;
- b) kapital bozorida;
- d) ulgurji bozorda;
- e) intellektual tovarlar bozorida.

2. Pul bozorida qimmatli qog'ozlarning asosiy xususiyatlari noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) ularning amal qilish muddati asosan bir yildan uzoq bo'ladi;
- b) ular asosan yirik, ya'ni ko'p miqdorda sotiladi;
- d) ulardagi defolt riski juda ham past hisoblanadi;
- e) ularning muddati emissiya qilingan sanadan boshlab bir yilgacha bo'ladi.

3. Qanday omillar pul bozorining jozibadorligini ta'minlaydi?

- a) qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlar tuzilishi;

b) asosan yirik kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari bilan bitimlar tuzilishi;

d) asosan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarning tuzilishi;

e) pul bozori instrumentlarida diskont stavkalarining yuqori bo'lishi.

4. Quyidagilarning qay biri pul bozorining likvidlilik darajasini ta'minlovchi vositachilar hisoblanadi?

a) investitsiya kompaniyalari;

b) sug'urta kompaniyalari;

d) korxonalar;

e) g'aznachilik boshqarmasi.

5. Qanday sabab bilan davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari (T-Bills) emissiya qilinadi?

a) davlat qarzini qoplash uchun;

b) davlatdagi inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish uchun;

d) valyuta kursini oshirish uchun;

e) davlatdagi banklarning likvidlilikini saqlab qolish maqsadida.

6. AQSHda davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari (T-Bills)ning muddati asosan necha kunni tashkil etadi?

a) 28; 91 va 182;

b) 182; 91 va 28;

d) 20; 80 va 160;

e) 30; 90 va 120.

7. Pul bozori instrumentlarining daromadlilik darajasini aniqlash formulasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) $i_{\text{discount}} = \frac{F - T}{F} \times \frac{360}{n};$

b) $i_{\text{discount}} = \frac{P}{F} \times \frac{360}{n};$

d) $i_{\text{discount}} = \frac{F - P}{F} \times \frac{2}{n};$

$$e) i_{\text{discount}} = \frac{P}{F} \times \frac{n}{360}.$$

8. Bankir kafolati (Banker's acceptance) deb nomlanuvchi operatsiyalarni amalga oshirishning ilk bosqichlari nechanchi asrga to'g'ri keladi?

- a) XII asr;
- b) XI asr;
- d) XX asr;
- e) XIV asr.

9. Pul bozori instrumentlarida diskont stavkalarining yuqori yoki past bo'lishi qanday omilga bog'liq?

- a) ularning muddatiga bog'liq;
- b) ularning daromadligiga bog'liq;
- d) ularning bozor kursiga bog'liq;
- e) ularning nominal qiymatiga bog'liq.

10. Xorijiy banklar yoki Amerika banklarining xorijiy filiallarida dollarda shakllantirilgan depozitlar qanday nomlanadi?

- a) yevrodollar;
- b) yevrobond;
- d) yevronota;
- e) yevrovalyuta.

III BOB. OBLIGATSIYALAR BOZORI

3.1. Obligatsiyalar muomalasi nazariy jihatleri

Qimmatli qogʻozlar bozorining, umuman moliya bozorining muhim instrumentlaridan biri obligatsiyalar hisoblanadi. **Obligatsiya** – uni chiqargan shaxs va egasi oʻrtasidagi qarz munosabatni tasdiqlovchi qimmatli qogʻozdir. Oʻzbekiston Respublikasi “Qimmatli qogʻozlar bozori toʻgʻrisida”gi Qonuniga koʻra: **obligatsiya** – obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga boʻlgan huquqini yohud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qogʻoz. Obligatsiya uning egasiga obligatsiyaning nominal qiymatidan qatʼiy belgilangan foiz boʻyicha daromadni olish huquqini belgilaydi. Obligatsiya boʻyicha daromad foiz yoki diskontda ifodalanadi.

Shunday qilib, obligatsiya – oʻz ichiga ikkita quyidagi asosiy elementni mujassamlashtirgan qarzni ifodalovchi qimmatli qogʻozdir:

- emitent obligatsiya titulida koʻrsatilgan summani muddati kelganda uning egasiga qaytarishi;
- emitent majburiyati obligatsiya egasiga obligatsiya nominal qiymatidan kelib chiqqan holda qatʼiy belgilangan foiz toʻlovlarini amalga oshirishi.

Aksiya va obligatsiya oʻrtasidagi tamoyilial farq aksiya ulush munosabatini anglatishi, obligatsiya esa qarz munosabatini anglatishida namoyon boʻladi. Bunda aksiyani sotib olgan investor kompaniya emitentning mulkdoriga, yaʼni ulushidan kelib chiqqan egasiga aylanadi. Obligatsiya sotib olgan investor kompaniya-emitentning kreditoriga aylanadi. Bundan tashqari, aksiyadan farqli oʻlaroq, obligatsiyaning muomalada boʻlish muddati qatʼiy belgilangan va muddati kelganda soʻndiriladi. Obligatsiya aksiyaga nisbatan afzallikka ega boʻlib, bu afzallik kompaniya tugatilganda birinchi navbatda obligatsiya boʻyicha foiz toʻlovlari, soʻngra aksiya boʻyicha dividendlar toʻlanadi; emitent-kompaniya likvidatsiya yoki tugatilishi jarayonida mulkni

taqsimlashda aksiyadorlar kompaniyaning barcha majburiyatlari shu jumladan, obligatsiyalar bo'yicha qarz majburiyatlarini so'ndirgandan keyin qolgan mulkdan ulush olishlari mumkin. Obligatsiya qarz instrumenti bo'lganligi sababli kompaniya emitent boshqaruvida qatnashish huquqini bermaydi.

Obligatsiyalar davlat hukumati, turli davlat organlari va munitsipalitetlar mablag'larni jamg'arish instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Korxonalar ham qo'shimcha moliyaviy mablag'larga zarurati yuzaga kelganda korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarishlari va joylashtirishlari mumkin.

Obligatsiyalarni chiqarish kompaniya-emitent uchun bir qator jozibador ahamiyatga ega: obligatsiya emissiyasi orqali kompaniya zarur mablag'larni kreditorlarning kompaniya moliyaviy ho'jalik faoliyatiga aralashuviziz jalb qilishi mumkin. Ammo, obligatsiya zayomlari orqali jalb qilingan mablag'larni kompaniya xuddi bank kreditlariga qo'shimcha mablag'lar sifatida ko'rib chiqishi zarur. Hatto fond bozori yuqori rivojlangan mamlakatlarda ham emissiya qilingan obligatsiyalar korxonalarning mablag'larga bo'lgan yalpi ehtiyojlarini qoplamaydi. Obligatsiyalar o'z mohiyatiga ko'ra qarz munosabatini bildirganligi sababli bank krediti tamoyillari ularga ham xosdir. Shuning uchun obligatsiyalar emissiyasini amalga oshirish huquqi faqat kredit layoqatiga javob beruvchi korxonalarga beriladi.

Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan obligatsiyalarni emissiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" Qonunlariga asosan belgilanadi. Ushbu qonunlarga asosan aksiyadorlik jamiyatlari obligatsiyalarni emissiya qilishda quyidagi shartlarga amal qilishi zarur:

- jamiyat qonun hujjatlariga va o'z ustaviga muvofiq korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli;
- qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, korporativ va infratuzilma obligatsiyalarni chiqarish hujjatsiz shaklda chiqariladi;
- emitentning korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarori qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitali miqdori doirasida;

- keyingi uch yilda rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgan emitentlar tomonidan chiqarilishi mumkin.

Yuqoridagilarni kelib chiqqan holda, obligatsiya - bu:

- emitentning qarz majburiyati;
- byudjet daromadlaridan oshgan xarajatlar qismini moliyalashtirish manbai;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbai;
- aholi va korxonalar uchun qo'shimcha daromad olish manbai.

Obligatsiyalarning qo'llanish doirasi kengligi sababli, ularni turlari va sifati bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiqdir. Obligatsiyalarning keng tasnifini keltirish uchun respublikamiz obligatsiya bozoridagi obligatsiyalardan tashqari jahon moliya bozori va transmilliy korporatsiyalar amaliyotida keng qo'llaniluvchi obligatsiyalar turlaridan ham foydalanamiz (3.1-jadval).

3.1-jadval

Obligatsiyalar tasnifi

Obligatsiyalarning tasnifiy belgilari	Mos ravishda obligatsiya turlari
Emitent turiga ko'ra	- Davlat obligatsiyalari - Munitsipal obligatsiyalar - Korporativ obligatsiyalar - Xorijiy obligatsiyalar
Muddatiga ko'ra	- To'lov va so'ndirish muddati qat'iy belgilangan obligatsiyalar - Muddatsiz yoki qoplanmaydigan obligatsiyalar - Qoplash muddati kelguncha emitent tomonidan qayta chaqirib olinishi mumkin bo'lgan obligatsiyalar - Qoplash muddati kelguncha investor obligatsiyaning nominal qiymati bo'yicha to'lovni olish va qaytarish huquqi bilan joylashtiriluvchi obligatsiyalar - Emitentga to'lovni uzaytirish huquqini beruvchi qoplash muddati uzaytirilgan obligatsiyalar
Egalik qilish huquqi bo'yicha	- Nomi yozilgan, emitent reyestr kitobida va obligatsiya muqovasida obligatsiya egasining nomi kiritiladigan obligatsiyalar.

	- Taqdim qiluvchiga, obligatsiya egasi taqdim etgan hujjat evaziga.
Obligatsiya maqsadiga ko'ra	- Oddiy, turli loyihalarda foydalanishi ko'zda tutilgan qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish maqsadida emissiya qilingan obligatsiyalar - Maqsadli, joylashtirishdan tushgan mablag'lar aniq investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan obligatsiyalar (infratuzilma obligatsiyalari)
Joylashtirish shakli bo'yicha	- Erkin joylashtiriladigan obligatsiya zayomlari - Qat'iy joylashtirish sharti bilan emissiya qilinadigan obligatsiyalar
Nominal qoplanish sharti bo'yicha	- Nominal summa bir marta qoplanadigan obligatsiyalar - Belgilangan vaqt oralig'ida nominal summadan ulushli to'lovli obligatsiyalar - Obligatsiyalar umumiy sonidan izchil ravishda qat'iy belgilangan to'lovli obligatsiyalar (lotoreyalar, tirajli zayomlar)
Emitent tomonidan obligatsiyalar bo'yicha turli to'lovlar amalga oshirilishiga ko'ra	- Qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi va qoplanish muddati oxirida nominal summa ham qaytarilishi kafolatlanadigan obligatsiyalar - Kuponsiz yoki nollik kuponli obligatsiyalar - Qoplash vaqtida foiz to'lovlari va obligatsiya nominal qiymati to'lanadigan obligatsiyalar - Obligatsiya nominal qiymati qaytariladigan, kupon to'lovlari to'lanishi emitent kompaniya moliyaviy faoliyati natijalariga bog'liq obligatsiyalar
Kupon to'lovlariga ko'ra daromad turlari bo'yicha	- Qat'iy belgilangan kupon stavkali obligatsiyalar - Suzib yuruvchi kupon stavkali obligatsiyalar - Muomala muddati davomida kupon foiz stavkasi bir xil oshib boruvchi (indeksli) obligatsiyalar - Minimal yoki nol kuponli obligatsiyalar (daromadlilik joylashtirish (bozor) bahosi nominal qiymatdan kelib chiqib belgilanuvchi obligatsiyalar) - To'lov tanlovli obligatsiyalar - Kupon stavka yoki suzib yuruvchi stavka bo'yicha daromad to'lanuvchi aralash turdagi obligatsiyalar
Muomala xarakteri bo'yicha	- Konvert obligatsiyalar - Aksiyalarga konvertatsiyalanishi mumkin bo'lgan obligatsiyalar
Qilingan investitsiyalar himoyalangan darajasi bo'yicha	- Yuqori ta'minotga va nufuzga ega kompaniyalar tomonidan emissiya qilingan ishonchli obligatsiyalar - Ishonch nihoyatda past spekulyativ xarakterga ega obligatsiyalar

Bundan tashqari obligatsiyalarni *ta'minlanganlik darajasi* bo'yicha ham tasniflanadi. Bunda ta'minlangan va ta'minlanmagan obligatsiyalar ajratib ko'rsatiladi. Ta'minlangan obligatsiyalarda garov sifatida mol-mulk, kafillik, garov masalalari ko'riladi. Ta'minlanmagan obligatsiyalar bo'yicha esa hech qanday ta'minot ko'rsatilmaydi. Bunday obligatsiyalar odatda bozorda yuqori nufuzga hamda yuqori moliyaviy barqarorlikka ega emitentlar tomonidan muomalaga chiqariladi. Umumiy holda obligatsiyalar muomalasi emitent uchun ham, investor uchun ham ma'lum bir afzalliklarga va kamchiliklarga ega hisoblanadi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Obligatsiyalarning ayrim turlari afzalliklari va kamchiliklari

Obligatsiya turi	Afzalliklari		Kamchiliklari	
	Emitent uchun	Investor uchun	Emitent uchun	Investor uchun
Ta'minlangan obligatsiyalar	Obligatsiyani joylashtirish bo'yicha muammoning deyarli yo'qligi	Qarz majburiyatni qaytarish kafolati yuqori darajada	Moddiy aktivlarning garov riski	Boshqa obligatsiyalarga nisbatan foizli daromadning pastligi
Ta'minlanmagan obligatsiyalar	Mablag'larni moddiy aktivlar garovsiz jalb qilish imkoniyati	Ta'minlangan obligatsiyaga nisbatan yuqori foizli daromad olish	Qarz zayomi hajmi kompaniyaning ishbilarmonlik nufuzi va moliyaviy holatga bog'liqligi	Qarz majburiyati qoplanmasligi vaziyati yuzaga kelganda talab qilish imkoniyati pastligi
Qayta chaqirib olinadigan obligatsiyalar	Qoplash muddatidan avval qaytarib olish va qoplash muddatlarini tanlash imkoniyati mavjud	Qaytarib olish va nominal narxlar tafovutidan foyda olish imkoniyati	Qoplash muddatidan avval qaytarib olinganlik uchun to'lov	Obligatsiyaga egalik qilish huquqi cheklanganligi
Konvertatsiyal anuvchi obligatsiyalar	Qarz majburiyati qiymati pasayishi imkoniyati	Qo'yilmalar xavfsizligining yuqori darajasi	Aksiyadorlar tarkibining kengayishi natijasida g'arazli aksiyadorlar paydo bo'lishi	Boshqa obligatsiyalarga nisbatan daromad pastroq bo'lishi mumkin

Umumiy olganda obligatsiyalarning boshqa turlari ham investor yoki emitent nuqtai nazaridan ma'lum bir ustuvorliklarga hamda kamchiliklarga ega hisoblanadi.

3.2. Obligatsiyalar qiymati va daromadlilikini baholash

Qarz munosabatini anglatuvchi moliyaviy instrumentlar sifatida obligatsiyalar qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar toifasiga kiritiladi. Bunday toifaga qat'iy belgilangan miqdorda dividend to'lash belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalarni ham kiritish mumkin.

“Qat'iy belgilangan daromad” umumqabul qilingan atamasini qat'iy ravishda tushunmaslik lozim. Bu atama bunday qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiya o'tkazish vaqtida nazariy jihatdan to'lovlar muddatlari va miqdorlarining oldindan ma'lum qilinishini anglatadi.

Xalqaro tajribaga ko'ra obligatsiyalarning turli xil turlari amal qilishiga qaramasdan ularni daromad to'lash shakllari bo'yicha quyidagicha uchta tur keng qo'llaniladi:

- *kuponli*, qat'iy belgilangan yoki suzib yuruvchi kupon stavkali obligatsiyalar;

- *diskontli (kupsiz)*, yoki *nollik kuponli obligatsiyalar*;

- *qoplash vaqtida daromad to'lanadigan obligatsiyalar*.

Kuponli obligatsiyalar qarzning asosiy summasi qaytarilishi bilan bir vaqtda davriy ravishda pul to'lovlarini ham nazarda tutadi. Bunday to'lovlarning miqdori nominalga nisbatan foizlarda ifodalanadigan kupon stavkasida belgilanadi. Kuponli to'lovlar odatda bir yil davomida bir, ikki yoki to'rt marta amalga oshiriladi.

Bunday qimmatli qog'ozlar harakati natijasidagi pul oqimlari qat'iy belgilangan kuponda operatsiya muddatining oxirida obligatsiyaning diskontlangan nominal qiymatiga qo'shiladigan annuitetni o'zida aks ettiradi. Soddalashtirish maqsadida diskontlash yagona r stavka bo'yicha amalga oshirilishini shart qilib qilib qo'yamiz. Shunda kuponli obligatsiya qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$V = \sum_{t=1}^{mn} \frac{(N \times k) \div m}{(1 + r \div m)^t} + \frac{F}{(1 + r)^{nm}},$$

bu yerda F – qoplash summasi (qoidaga ko‘ra nominal);

k – yillik kupon stavkasi;

r – bozor stavkasi (diskont me‘yori);

n – obligatsiya muddati;

m – bir yilda kuponli to‘lovlar soni.

Misol ko‘rib chiqamiz.

Agar daromadlilik me‘yori (bozor stavkasi) 12 foizga teng bo‘lsa, har chorakda to‘lanadigan yillik kupon stavkasi 8 foiz bo‘lgan 1000 birlik nominalga ega uch yillik obligatsiyaning joriy qiymatini aniqlang.

$$V = \sum_{t=1}^{12} \frac{(1000 \times 0,08) \div 4}{(1 + 0,12 \div 4)^t} + \frac{1000}{(1 + 0,12 \div 4)^{12}} = 900,46 \text{ birlik}.$$

Shunday qilib, mazkur operatsiya bo‘yicha daromadlilik me‘yori 12 foiz bo‘lganda taxminan 900,46 birlikka teng bahoda obligatsiyani xarid qilish mumkin.

Yuqoridagi masala bo‘yicha daromadlilik me‘yori (bozor stavkasi) 6 foizga teng bo‘lganda obligatsiya qiymatini aniqlaymiz.

$$V = \sum_{t=1}^{12} \frac{(1000 \times 0,08) \div 4}{(1 + 0,06 \div 4)^t} + \frac{1000}{(1 + 0,06 \div 4)^{12}} = 1054,53 \text{ birlik}$$

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, obligatsiyalar joriy qiymati talab qilinadigan daromadlilik me‘yori va qoplash muddatiga bog‘liq. Bu bog‘liqlik teskari xususiyatga ham ega. Keltirilgan baholashning bazaviy modelidan isbot talab qilmaydigan quyidagi ikkita aksiomalar guruhini keltirish mumkin.

Birinchi aksiomalar guruhi obligatsiya qiymati, kupon stavkasi va bozor stavkasi (daromadlilik me‘yori) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘zida aks ettiradi:

- agar bozor stavkasi (daromadlilik me‘yori) kupon stavkasidan yuqori bo‘lsa, obligatsiya joriy qiymati uning nominalidan past bo‘ladi, ya‘ni obligatsiya diskont bilan sotiladi;

- agar bozor stavkasi (daromadlilik me‘yori) kupon stavkasidan past bo‘lsa, obligatsiya joriy qiymati uning nominalidan yuqori bo‘ladi, ya‘ni obligatsiya mukofot bilan sotiladi;

- bozor stavkasi (daromadlilik me'yori) va kupon stavkasi teng bo'lganda obligatsiya joriy qiymati va nominali teng bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan masalalar bunga misol bo'la oladi.

Ikkinchi aksiomalar guruhi obligatsiya qiymati va uni qoplash muddati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi:

- agar bozor stavkasi (daromadlilik me'yori) kupon stavkasidan yuqori bo'lsa, obligatsiya bo'yicha diskont summasi qoplash muddatining yaqinlashishiga qarab kamayib boradi;

- agar bozor stavkasi (daromadlilik me'yori) kupon stavkasidan past bo'lsa, obligatsiya bo'yicha mukofot miqdori qoplash muddatining yaqinlashishiga qarab kamayib boradi;

- obligatsiyani qoplash muddati qancha uzoq bo'lsa, bozor stavkasiga nisbatan uning bahosi ta'sirchanroq bo'ladi.

Kuponli obligatsiya qiymatini aniqlash formulasidagi o'zaro nisbat davriy ravishda qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi har qanday moliyaviy instrumentning qiymatini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Agar kuponli obligatsiyaning qoplash muddati yetarli darajada yuqori, masalan 50 yildan ortiq bo'lsa, tahlil jarayonida bunday muddatlarni muddatsiz sifatida qarash qulay hisoblanadi.

Muddatsiz obligatsiyalar qiymati o'zida doimiy rentani aks ettiruvchi pul oqimlari harakatiga ega degan farazdan kelib chiqqan holda aniqlanishi mumkin. Shunda uni quydagicha aniqlash mumkin bo'ladi:

$$V_{\infty} = \frac{CF}{r} \quad .$$

Agarda bir yil davomida to'lovlar m marta amalga oshirilsa, obligatsiya qiymatini hisoblash formulasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$V_{\infty} = \frac{CF}{m[(1+r)^{\frac{1}{m}} - 1]} \quad .$$

Misol ko'rib chiqamiz.

IBM kompaniyasining 100 birlik nominalga ega, qoplash muddati 100 yil bo'lgan obligatsiya qiymatini talab qilinadigan daromadlilik me'yori 8,5 foiz bo'lgan holatda aniqlaymiz. Kupon stavkasi 7,72 foiz va har yarim yilda bir marta to'lanadi.

$$V_{\infty} = \frac{7,72/2}{2[(1,085)^{\frac{1}{2}} - 1]} = 48,25 \quad \text{birlik.}$$

Muomala muddati bir yildan kam bo'lmagan kuponsiz yoki diskontli obligatsiyalar qiymatini baholash jarayoni F nominal qiymat, r foiz stavka va n qoplash muddati ma'lum bo'lgan holatda elementar to'lov oqimi hozirgi miqdorini aniqlash orqali ifodalanadi. Qabul qilingan belgilashlardan kelib chiqqan holda bunday aktiv joriy qiymati formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$V = \frac{F}{(1+r)^n} \quad .$$

Bundan kuponsiz obligatsiya nominali 100 foiz deb qabul qilinadi, uning kurs qiymati esa quyidagiga teng bo'ladi:

$$K = \frac{100}{(1+r)^n} \quad .$$

Misol ko'rib chiqamiz.

Qoplash muddati uch yil, talab qilinadigan daromadlilik me'yori 4,4 foizga teng bo'lsa nominal qiymati 1000 birlikka teng bo'lgan kuponsiz obligatsiyani investor qanchaga sotib olishi mumkin?

$$1000/(1+0,044)^3=878,82 \text{ birlik.}$$

Nol kuponli obligatsiyalar aniq belgilab qo'yilgan vaqt gorizonti bo'yicha o'tkaziladigan operatsiyalar nuqtai nazaridan investorlar qiziqishiga sabab bo'ladi. Ular foiz stavkalarining vaqtinchalik tarkibini belgilab beruvchi investitsion tahlilda muhim rol o'ynaydi.

Keltirib o'tilgan o'zaro bog'liqliklar va misollardan ko'rinib turibdiki, ko'rib chiqilgan obligatsiyalar tiplari qiymati r bozor stavkasi va n qoplash muddati o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

Uzoq muddatli *qoplash vaqtida foizlar to'lanadigan obligatsiyalar* bahosi talab qilinadigan daromadlilik me'yori (bozor stavkasi) bo'yicha daromad olish imkonini beruvchi amal qiladigan to'lovlar oqimining hozirgi qiymatiga teng. Bunda k – e'lon qilingan to'lov foiz stavkasi. Qabul qilingan belgilashlarni hisobga olgan holda obligatsiyaning V haqiqiy qiymati va K kurs qiymati talab qilinadigan daromadlilikdan kelib chiqqan holda quyidagiga teng bo'ladi:

$$V = F \left(\frac{1+k}{1+r} \right)^n \quad ;$$

$$K = 100 \left(\frac{1+k}{1+r} \right)^n .$$

Obligatsiyalarga investitsiyalar samaradorligi umumiy o'lchovi sifatida qoplash muddatigacha daromadlilik (Yield To Maturity – YTM) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Qoplash muddatigacha daromadlilik investorning qimmatli qog'ozni qoplash muddatigacha saqlashi natijasida olishi mumkin bo'lgan daromadlilik darajasini o'zida aks ettiradi. Bunda obligatsiyaning joriy bahosi va uning bozor bahosi (P) o'rtasidagi nisbatning foizdagi ifodasi olinadi.

Bir yilda bir marta to'lanadigan qat'iy belgilangan kuponli obligatsiyalar uchun belgilangan tenglikdan kelib chiqqan holda YTM quyidagicha aniqlanadi:

$$P = \sum_{t=1}^n \frac{CF}{(1 + YTM)^t} + \frac{F}{(1 + YTM)^n} ,$$


bu yerda F – qoplash bahosi (qoidaga ko'ra nominal bahosi).

Keltirilgan matematik ifodadan YTMni aniqlash mumkin. Qayd etib o'tish kerakki, formula bo'yicha hisoblanadigan YTM ko'rsatkichi investitsiya ichki daromadlilik me'yorini o'zida aks ettiradi. Bu yerda e'tibor talab qiladigan jihat shuki, obligatsiyani qoplashgacha real daromadlilik quyidagi shartlar bajarilgandagina aniqlanadi:

- obligatsiya qoplash muddatigacha saqlanishi lozim;
- olinadigan kuponli daromadlar darhol $r = YTM$ stavka bo'yicha qayta investitsiyalanishi kerak.

Shunday qilib, qoplashgacha bo'lgan daromadlilik YTM va kuponli daromadni reinvestitsiyalash stavkasi r o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik amal qiladi. Ya'ni r pasayishi bilan YTM ham pasayadi, r o'sishi bilan YTM ham o'sib boradi.

YTM ko'rsatkichiga obligatsiyaning xarid bahosi ham ta'sir ko'rsatadi. Kuponli obligatsiyaning qoplashgacha daromadliliigi YTMning uning bozor qiymati P ga fundamental bog'liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (16-rasm). Qayd etish kerakki, bu yerda teskari bog'liqlik amal qiladi.



3.2-rasm. Kuponli obligatsiyaning qoplashgacha daromadliliği YTMning uning bozor qiymati P ga bog‘liqligi

Kupon stavkasi k , qoplashgacha daromadlilik YTM va obligatsiya bozor bahosi P o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi fundamental qoidalarni quyida keltirib o‘tamiz:

- agar $P > F$ bo‘lsa, unda $k > YTM$;
- agar $P < F$ bo‘lsa, unda $k < YTM$;
- agar $P = F$ bo‘lsa, unda $k = YTM$.

Bu qoidalariga amal qilishda YTM ning kuponli to‘lovlarni reinvestitsiyalash stavkasiga bog‘liqligini unutmaslik kerak. Umuman YTM ko‘rsatkichiga qoplashgacha o‘rtacha kutiladigan daromadlilik sifatida qaralishi lozim.

Muddatsiz obligatsiyalar qoplashgacha daromadliliği YTM ni aniqlash uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$YTM = \left[1 + \frac{k}{m} \times \frac{100}{K} \right]^m - 1.$$

Misol ko‘rib chiqamiz.

IBM kompaniyasining muomala muddati 100 yilga teng bo‘lgan obligatsiyasi 92,50 birlik kurs bo‘yicha sotib olingan. Kupon stavkasi 7,72 foizga teng va har yarim yilda bir marta to‘lanadi. Operatsiya daromadliliğini aniqlang.

$$YTM = (1 + (0,0772/2) * (100/92,50))^2 - 1 = 0,0852 \text{ yoki } 8,5 \text{ foiz.}$$

Olingan natijadan ko‘rinib turibdiki, mazkur obligatsiya qoplashgacha daromadlilik kupon stavkasidan yuqori.

Kuponsiz obligatsiyalar uchun yagona daromad manbai obligatsiyaning xarid bahosi va nominal bahosi (qoplash bahosi) o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Obligatsiyaning nominali ma’lum ekan (100 foiz qabul qilingan) operatsiya daromadlilikini aniqlash uchun ikkita ko‘rsatkich xarid bahosi P (yoki kurs K) va qoplash muddati n ni bilish yetarli. Shunda kuponsiz obligatsiya bo‘yicha qoplashgacha daromadlilik quyidagi formula bo‘yicha aniqlanishi mumkin:

$$YTM = \sqrt[n]{\frac{F}{P}} - 1 = \sqrt[n]{\frac{100}{K}} - 1.$$

Misol ko‘rib chiqamiz.

Qoplash muddati uch yil, 1000 birlik nominalga ega kuponsiz obligatsiya 878,80 birlik baho bo‘yicha sotib olingan. Obligatsiyaning qoplashgacha daromadlilikini aniqlang.

$$YTM = \sqrt[3]{\frac{1000}{878,8}} - 1 = 0,044 \text{ yoki } 4,4 \text{ foiz.}$$

Kuponsiz obligatsiya bo‘yicha qoplashgacha daromadlilik obligatsiyaning xarid bahosi va qoplash muddatiga nisbatan teskari bog‘liqlikka ega.

Qoplash vaqtida foiz to‘lanadigan obligatsiyalar bo‘yicha qoplashgacha daromadlilik quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$YTM = \sqrt[n]{\frac{FV}{P}} - 1 = \sqrt[n]{\frac{100}{K}} - 1,$$

bu yerda FV – hisoblangan foizlarni o‘z ichiga olgan qoplash summasi.

Amaliyotda bunday moliyaviy instrumentlar ikkilamchi bozorda nominaldan farqli bahoda sotilishi mumkin. Shuning uchun ham

umumiy holatda qoplashgacha daromadlilik YTM kurs bahosi K orqali aniqlanishi qulayroq hisoblanadi:

$$YTM = \frac{1 + k}{\sqrt[n]{\frac{K}{100}}} - 1.$$

Misol ko'rib chiqamiz.

Qoplash muddati uch yil, nominali 100 ming birlikka teng bo'lgan qoplash vaqtida foiz to'lanadigan obligatsiya 90 ming birlikka, ya'ni nominalining 90 foiziga sotib olingan. Yillik foiz stavkasi 20 foiz. Investitsiya daromadlilikini aniqlang.

$$YTM = \frac{1 + 0,2}{\sqrt[3]{0,9}} - 1 = 0,2428 \text{ yoki } 24,28 \text{ foiz.}$$

Bunday moliyaviy instrumentlar bo'yicha qoplashgacha daromadlilik va bozor bahosi (kursi) o'rtasidagi bog'liqlikdan quyidagi qoidalarni anglash mumkin:

- agar $P < F$ ($K < 100$) bo'lsa, unda $YTM > k$ bo'ladi;
- agar $P = F$ ($K = 100$) bo'lsa, unda $YTM = k$ bo'ladi;
- agar $P > F$ ($K > 100$) bo'lsa, unda $YTM < k$ bo'ladi.


Obligatsiyalar real qiymatini aniqlash va daromadlilikini baholash bo'yicha yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda boshqa ko'rsatkichlardan ham amaliyotda keng foydalaniladi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Obligatsiyalarning iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Tasnifiy belgilariga ko'ra obligatsiyalarning turlari.
3. Davlat obligatsiyalari muomalasi xususiyatlari.
4. Korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarish shartlari.
5. Ta'minlangan va ta'minlanmagan obligatsiyalar.
6. Daromad to'lanishiga ko'ra obligatsiyalar turlari va ularning o'zaro farqli jihatlari.
7. Kuponli obligatsiyalar daromadlilikini baholash.
8. Kupsiz obligatsiyalar daromadlilikini baholash.
9. Qoplash vaqtida foizlar to'lanadigan obligatsiyalar bo'yicha daromadlilikni aniqlash.
10. O'zbekiston obligatsiyalar bozoridagi holat.

2. Obligatsiyalar bozorining iqtisodiy mohiyatini va xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi klaster shakllantiring.



3. Obligatsiyalar afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha T-sxemani to'ldiring.

Afzalliklari		Kamchiliklari	
1		1	
2		2	
3		3	
...		...	

4. Davlat obligatsiyalari va korporativ obligatsiyalar qo'llanishi bo'yicha umumiy va alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi jadvalni to'ldiring.

Davlat obligatsiyalari	Umumiy xususiyatlar	Korporativ obligatsiyalar
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

TESTLAR

1. Uni chiqargan shaxs va egasi o'rtasidagi qarz munosabatni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz turi qanday nomlanadi?

- a) obligatsiya;
- b) aksiya;
- d) yevrodollar;
- e) yevroaksiya.

2. Obligatsiyalar bo'yicha daromad qanday ko'rinishda ifodalanadi?

- a) foiz yoki diskont ko'rinishida;
- b) dividend ko'rinishida;
- d) ulush ko'rinishida;
- e) pay ko'rinishida)

3. Obligatsiyalar emissiyasini amalga oshirish huquqi qanday korxonalarga beriladi?

- a) faqat kredit layoqatiga javob beruvchi korxonalarga;
- b) moliyaviy inqiroz yoqasidagi korxonalarga;
- d) davlat ulushi mavjud korxonalarga;
- e) faqat aksiyadorlik jamiyatlariga)

4. Kompaniya tugatilganda qimmatli qog'ozlarni so'ndirish tartibi to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) birinchi navbatda obligatsiya bo'yicha foiz to'lovlari, so'ngra aksiya bo'yicha devidendlar to'lanadi;

- b) avval imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar so'ngra esa obligatsiya bo'yicha foiz to'lovlari to'lanadi;
- d) kompaniyalar tugatilganda qimmatli qog'ozlar bo'yicha hech qanday to'lovlar amalga oshirilmaydi;
- e) faqat oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi.

5. Obligatsiyalarning emitent turiga ko'ra ko'rinishlari noto'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) konvert obligatsiyalar;
- b) munitsipal obligatsiyalar;
- d) korporativ obligatsiyalar;
- e) xorijiy obligatsiyalar.

6. Ta'minlangan obligatsiyalarning emitent va investor uchun afzalliklari nimalardan iborat?

- a) emitent uchun obligatsiyani joylashtirish bo'yicha muammoning deyarli yo'qligi va investor uchun qarz majburiyatni qaytarish kafolati yuqori darajadali;
- b) emitent uchun qoplash muddatidan avval qaytarib olinganlik uchun to'lov va investor uchun obligatsiyaga egalik qilish huquqi cheklanganligi;
- d) emitent uchun qarz majburiyati qiymati pasayishi imkoniyati va investor uchun qo'yilmalar xavfsizligining yuqori darajasi;
- e) emitent uchun moddiy aktivlarning garov riski mavjudligi va investor uchun boshqa obligatsiyalarga nisbatan foizli daromadning pastligi.

7. Kuponli obligatsiyalar qiymatini aniqlash formulasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- | | |
|---|--|
| a) $V = \sum_{t=1}^{mn} \frac{(N \times k) \div m}{(1+r \div m)^t} + \frac{F}{(1+r)^{nm}};$ | b) $V = \frac{F}{(1+r)^n};$ |
| d) $V_{\infty} = \frac{CF}{m[(1+r)^{\frac{1}{m}} - 1]};$ | e) $V = \sum_{t=1}^{mn} \frac{(N \times k) \div m}{(1+r \div m)^t}.$ |

8. Daromad to'lash shakllari bo'yicha obligatsiyalarning tasniflanishi to'g'ri berilgan javobni ko'rsating.

- a) kuponli, diskontli va qoplash vaqtida daromad to‘lanadigan obligatsiyalar;
- b) nollik kuponli va qoplash vaqtida foiz to‘lanadigan obligatsiyalar;
- d) kuponsiz va nollik kuponli obligatsiyalar;
- e) qoplash vaqtida daromad to‘lanadigan va nollik kuponli obligatsiyalar.

9. Obligatsiya qiymati, kupon stavkasi va bozor stavkasi (daromadlilik me’yori) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

- a) agar bozor stavkasi (daromadlilik me’yori) obligatsiya kupon stavkasidan yuqori bo‘lsa, obligatsiya joriy qiymati uning nominalidan past bo‘ladi, ya’ni obligatsiya diskont bilan sotiladi;
- b) agar bozor stavkasi (daromadlilik me’yori) obligatsiya kupon stavkasidan past bo‘lsa, obligatsiya joriy qiymati uning nominalidan past bo‘ladi;
- d) agar talab qilinadigan daromadlilik me’yori obligatsiya kupon stavkasidan yuqori bo‘lsa, obligatsiya joriy qiymati uning nominalidan yuqori bo‘ladi;
- e) agar talab qilinadigan daromadlilik me’yori obligatsiya kupon stavkasidan past bo‘lsa, obligatsiya joriy qiymati uning nominaliga teng bo‘ladi.

10. Kuponsiz obligatsiya joriy qiymati qaysi formula yordamida aniqlanadi?

- a) $V = \frac{F}{(1+r)^n}$;
- b) $V = \frac{100}{(1+r)^n}$;
- d) $V = \frac{F}{(1+k)^n}$;
- e) $V = \frac{F_{xn}}{(1+r)^n}$.

IV BOB. AKSIYALAR BOZORI

4.1. Aksiyalarning qo‘llanishi va aksiyalar bozori o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori” to‘g‘risidagi qonunda belgilanishicha, aksiya – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz. Aksiyalar oddiy va imtiyozli aksiyalarga bo‘linadi.

Oddiy aksiya o‘z egasiga aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida o‘z ovozi bilan ishtirok etish huquqi, dividendlar olish va aksiyadorlik jamiyati tugatilganda mulkning bir qismiga ega bo‘lish huquqini beruvchi qimmatli qog‘oz. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida aksiyador yoki uning vakolatchisi ishtirok etishi mumkin.

Oddiy aksiya egalari quyidagi huquqlarga ega:

- ovoz berish huquqi yoki korporativ tuzilmani boshqarishda ishtirok etish. Oddiy aksiyalar egalariga aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishlarida va korporativ tuzilma faoliyatiga doir muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqini beradi;

- korporativ tuzilma daromadlarida qatnashish yoki dividendlar olish huquqi. Dividend bu korporativ tuzilma daromadlarining qismi bo‘lib, aksiyalar soniga qarab aksiyadolarga taqsimlanadi. Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar barcha soliqlar, kreditorlik majburiyatlar, obligatsiya bo‘yicha foizlar va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘langandan keyin to‘lanadi;


- yangi emissiya qilingan aksiyalarni boshqa shaxslarga taklif etishdan oldin sotib olish huquqi afzalliklari. Bu huquqning afzalligi yangi emissiya qilingan aksiyalarni sotib olgan yangi aksiyadorlar oldida ularning ulushini himoya qilishdadir. Bunday huquq ayniqsa

nazorat hamda yirik paket aksiyalar egalari uchun muhimdir. Ushbu huquqdan foydalangan holda aksiyadorlar o'zlarining kompaniyadagi ulushi miqdorida aksiyalarni sotib olishlari mumkin. Huquq afzalligi yana yangi aksiyalar ochiq bozorga chiqmasidan oldin nominal yoki bozor bahosidan arzon narxda aksiyador tomonidan xarid qilinishi mumkin. Buning natijasida bunday afzaliy huquq oldi sotdi obyekti bo'lishi mumkin;

– korporativ tuzilma tugatilishida mulk qismidan ulush olish huquqi. Kompaniyaning tugatilishi – bu kompaniya o'z faoliyatini to'xtatishi, barcha kreditorlar bilan qarzdorliklarni hisob kitob qilishi, qolgan mulkni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlashi va boshqalar.

Ovoz huquqi – oddiy aksiya egalari uchun muhim xususiyat. Ammo xorijiy kompaniya oddiy aksiyalarini sotib olayotganda shunga e'tibor berish lozimki, oddiy aksiyalarni chiqarayotganda kompaniyalar investorlarning ovoz huquqini cheklovchi yoki umuman rad etuvchi aksiyalarni ham emissiya qilishi mumkin. Aksincha, bunga qarshi ko'p ovoqli, ya'ni bitta aksiya egasiga bir nechta ovoz huquqini beruvchi aksiyalar ham chiqarilishi mumkin (ayniqsa, chet el kapitali ishtirokidagi kompaniyalarda).

Umumiy holda aksiyadorlar huquqlariga quyidagilarni kiritish mumkin (4.1-rasm).



4.1-rasm. Aksiya egalarining huquqlari

Aksiyadorlik jamiyati tashkil qilinayotganda uning aksiyalari ta'sischi o'rtasida taqsimlanadi. Ta'sischi aksiyadorlik jamiyatini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lib, ular yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Jamiyat yuridik shaxsni ta'sis etish

yoki qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) yo'li bilan tashkil etilishi mumkin. Jamiyatning muassislari uni tashkil etish to'g'risida o'zaro ta'sis shartnomasini tuzadilar, shartnomada ularning jamiyatni ta'sis etishga doirga birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish tartibi, jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori, muassislar o'rtasida joylashtirilishi lozim bo'lgan aksiyalarning turlari, ular uchun to'lanadigan haqning miqdori va uni to'lash tartibi, muassislarning jamiyatni tashkil etishga doir huquq va majburiyatlari belgilanadi. Aksiyadorlik jamiyatni ta'sis etish to'g'risidagi qaror muassislarning ovoz berish natijalarini hamda jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash, jamiyatning boshqaruv organlarini shakllantirish masalalari yuzasidan muassislar qabul qilgan qarorlarni aks ettiradi.

Aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash to'g'risidagi va muassis tomonidan jamiyatning aksiyalari haqini to'lash uchun kiritilayotgan qimmatli qog'ozlarning, o'zga mulkiy huquqlarning yoki pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan boshqa huquqlarning pulda ifodalanadigan bahosini haqidagi qarorlar muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Korxonalar, investitsion kompaniyalar va fondlar, banklar aksiya emitentlari bo'lishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyat tomonidan aksiyalarning dastlabki chiqarilishini joylashtirish muddati jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yilda amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyatini birlamchi ustav kapital hajmini oshirishda, ya'ni qo'shimcha aksiyalarni chiqarishda aksiyalar emissiya qilinadi.

Birinchi holatda, chiqarilgan aksiyalar, ya'ni ularning soni va nominal qiymati jamiyat ustavi bilan belgilanadi. Haqiqatda, bu aksiyalar jamiyat ta'sis qilinayotganda sotilib bo'lgan bo'ladi, aksiyalarning nominal qiymati summasi jamiyat ustav kapitali hajmini tashkil etadi. Ikkinchi holatda, ustav kapital nominal qiymat hajmidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali oshirilishi qo'shimcha aksiyalarni chiqarishni tasdiqlash va ro'yxatga olishdan keyin amalga oshadi.

Nomi yozilgan aksiyalarni chiqarish jamiyat boshqaruviga aksiyadorlik kapital harakatini va aksiyadorlar qo'lidagi qimmatli qog'ozlarni nazorat qilish imkonini beradi. Aksiyadorlik jamiyati oddiy

aksiyalar emissiyasi bilan birga imtiyozli aksiyalarni ham chiqarishi mumkin. Imtiyozli aksiyalar miqdori jamiyat ustav kapitali hajmida 20 % miqdoridan oshmagan holda chiqariladi. Aksiyalarning imtiyozli aksiyalar deb nomlanishi imtiyozli aksiya egalari oddiy aksiya egalari nisbatan bir qancha imtiyozli huquqlarga ega bo'lishi munosabati bilan ifodalanadi. Har bir aksiya turi uchun imtiyozli huquqlar jamiyat ustavida belgilanadi. Imtiyozli aksiyalarga bunday huquqlar berish taqdimotini imtiyozli aksiya egalari ovoz berish huquqiga ega emasliklari va buning uchun imtiyozli aksiya egalari qandaydir kompensatsiya tariqasida ko'rish mumkin.

Aksiyadorlar – imtiyozli aksiya egalari aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida ovoz berish huquqiga ega emas.

Jamiyat imtiyozli aksiyalari o'z egalari bir xil huquqlar hajmini beradi va bir xil nominal qiymatga ega.

Jamiyat ustavida jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalarning har bir turi bo'yicha to'lanadigan dividend hajmi yoki qiymati belgilanishi kerak. Dividend hajmi va likvidatsion qiymat qat'iy pul summada yoki imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend hajmi va likvidatsion qiymat jamiyat ustavida boshqa shartlar orqali ham belgilanishi mumkin. Dividend hajmi belgilanmagan aksiya egalari oddiy aksiya egalari qatorida dividend olish huquqiga ega. Agar jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalarning ikki yoki undan ko'p turini chiqarish nazarda tutilgan bo'lsa, har bir turi bo'yicha dividend to'lovi va muddati ketma ketligi belgilanishi, agar ushbu aksiyalar bo'yicha likvidatsion qiymat belgilansa, har bir imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan likvidatsion qiymat to'lanish navbati belgilanishi lozim.

Jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan yoki to'liq to'lanmagan, miqdori ustavda aniqlangan dividendning jamg'arib borilishi va keyinchalik to'lanishi belgilab qo'yilishi mumkin.

Jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalarning oddiy aksiyalarga ayirboshlanishi imkoniyati va shartlari belgilanishi mumkin.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo'yicha

dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab ega bo'ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan e'tiboran bekor qilinadi.

Agar jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalarni oddiy aksiyalarga ayirboshlash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyat ustavi imtiyozli aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqini nazarda tutishi mumkin. Bunda ushbu imtiyozli aksiyaning egasi o'ziga tegishli imtiyozli aksiya ayirboshlanishi mumkin bo'lgan oddiy aksiyalar bo'yicha ovozlar sonidan oshib ketmaydigan miqdordagi ovozlar ega bo'ladi.

Imtiyozli aksiyalar kumulyativ va nokumulyativ bo'lishi mumkin; konvertlanadigan va konvertlanmaydigan; daromadli (ular yana ishtirok huquqi mavjud aksiyalar deb ham nomlanadi) va muddati uzaytirilgan jamiyat foydasidan yuqori qat'iy belgilangan dividendlar olish huquqini beruvchi; qaytariluvchi va qaytarilmaydigan; suzib yuruvchi kurs bilan belgilangan va boshqalar.

Kumulyativ imtiyozli aksiyalar imtiyozli aksiyalar boshqa turlari orasida keng tarqalgan aksiyalardir. Kumulyativ aksiyalar emissiya qilinayotganida jamiyat ustavida belgilanishi lozim bo'lgan ular bo'yicha to'lanmagan yoki to'liq to'lanmagan dividendlar miqdori jamg'arilib boriladi va keyinchalik to'lanadi. Emitent tomonidan ushbu aksiyalar bo'yicha navbatdagi to'lanmagan dividendlarni to'lovni amalga oshirmasligi majburiyatlarni buzganlik deb qaralmaydi.

Kumulyativ imtiyozli aksiya egalari jamiyat umumiy yig'ilishlarida o'z vakolati doirasida barcha masalalarda ovoz berish huquqi bilan kumulyativ aksiyalar bo'yicha to'lanishi ko'zda tutilayotgan va bu masalaga doir qaror qabul qilish rejalashtirilgan kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqish va qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega. Aksiyadorlar huquqi – kumulyativ imtiyozli aksiya egalarining aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida qatnashish huquqi– ushbu aksiyalar bo'yicha jamg'arilgan dividendlarning to'liq to'lovi amalga oshirilgandan so'ng tugatiladi. Emitent kumulyativ imtiyozli aksiyalarni

chiqarayotganda ushbu aksiyalar bo'yicha dividendlar akkumulyatsiya (jamg'arish) muddatini qat'iy belgilashi shart. Bunday muddatda ushbu aksiya turi bo'yicha dividendlar to'lanmasdan, keyingi to'lov muddatigacha yig'ilib boriladi.

Nokumulyativ imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan dividendlarni jamg'arib borish mumkin emas. Agar aksiyadorlik jamiyati nokumulyativ imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lashni e'lon qilmagan bo'lsa, aksiyadorlar hech qanday kompensatsiya (aksiya uchun qoplamalar)siz dividendlarni yo'qotadi.

Konvertatsiyalanuvchi imtiyozli aksiyalar imtiyozli aksiyalar aniq bir turini oddiy aksiyalarga almashtirish yoki jamiyat ustavida belgilangan muddatda imtiyozli aksiyalar bir turini ularning egalari talabi bilan boshqa turiga almashtirishni nazarda tutadi. Bunday holatda, jamiyat ustavida konvertlanadigan imtiyozli aksiyalarni chiqarish davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasigacha ushbu aksiyalarni almashtirish tartibi, shu jumladan, soni, qaysi aksiya turiga (kategoriyasi) almashtirilishi, almashtirish boshqa shartlari va boshqalar aniq belgilanishi lozim. Chiqarilgan birinchi konvertlanadigan imtiyozli aksiyalar joylashtirib bo'lgandan so'ng jamiyat ustavida tasdiqlangan nizom o'zgartirilishi mumkin emas.

Agar konvertatsiyalanuvchi imtiyozli aksiyalar oddiy aksiyalarga almashtirilsa, jamiyat ustavida ushbu aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqi nazarda ko'rilishi mumkin. Bunday imtiyozli aksiya egasining ovoz berish huquqi, unga tegishli aksiyalarning oddiy aksiyalarga almashtirganda soni miqdorida oddiy aksiyalar ovoz berish huquqi soniga teng bo'ladi.

Konvertatsiyalanuvchi imtiyozli aksiyalarni obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga almashtirish mumkin emas, aksiyalar bundan mustasno.

Qaytarib olish huquqi mavjud imtiyozli aksiyalar – bunday aksiyalar emitentga aksiyani egasini oldindan ogohlantirmasdan qayta sotib olish huquqini beradi. Aksiyalarni qayta sotib olish aksiyadorlik jamiyatlari uchun qulay, investorlar uchun esa noqulay. Bunday aksiyalarni sotish maqsadida emitent investorlarni odatda, ushbu aksiyalarga asosiy kapitaldagi premiya miqdoridan yuqori premiya taklif qilish orqali jalb qiladi. Premiya – o'z navbatida, aksiyalarni qayta

sotib olish imkoniyati uchun mukofot sifatida qaraladi. Odatda, qayta sotib olish uchun emitent 30 kun oldin ogohlantiradi.

Qatnashish huquqi mavjud imtiyozli aksiyalar – egasiga daromad olish huquqi (qo'yilgan kapitalga qat'iy foiz tariqasida belgilangandan yuqori qo'shimcha dividendlar olish) va jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini (aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish) beradi. Aniqrog'i, bunday imtiyozli aksiyalar oddiy aksiyalar kabi bo'lib qoladi. Odatda, bunday aksiyalar aksiyadorlik kapitalda tegishli ulushga ega bo'lgan aniq aksiyadorlar uchun chiqariladi.

Qayta chaqirib olinadigan prefaksiyalar – korporatsiyalar qayta chaqirib olinadigan imtiyozli aksiyalarni emissiya qilganda, ularni nominalga nisbatan ustama bilan qayta chaqirib olish huquqini o'zida qoldiradi.

Qayta chaqirib olinmaydigan prefaksiyalar ularni muomalaga chiqargan korporatsiya faoliyat yuritayotgan muddatgacha so'ndirilmaydi. Shu bilan, qayta chaqirib olinmaydigan prefaksiyalar o'z navbatida shakllangan kapital tarkibini belgilangan bir muddatga muzlatib qo'yadi.

Qayta chaqirib olinadigan imtiyozli aksiyalarga xos xarakterli belgilari quyidagilar:

- aksiya egasi prefaksiyani qayta sotib olish holatida yuzaga keladigan noqulayliklar uchun o'zgacha qoplama sifatida bo'lgan aniq premiyaning mavjudligi (odatda, katta bo'lmaydi). Odatda, qayta chaqirib olish to'g'risida emitent 30 kun oldin ogohlantiradi (misol uchun, kumulyativ qayta chaqirib olinadigan preferensial aksiyalar ularni chiqargan kompaniya xohishiga ko'ra ogohlantirgandan keyin 30 kundan oshmagan muddat ichida istagan vaqtda qisman to'lab boriladi). To'lanish tartibi to'lov, ya'ni qoplash sanasida aksiya qiymatiga aniq belgilangan premiya va qoplanmagan barcha preferensial dividendlar summasi qo'shiladi va to'lanadi;

- ko'pgina qayta chaqirib olinadigan aksiyalarni qayta chaqirib olish sharti – qayta sotib olish uchun yoki maxsus jamg'arilgan fond mavjudligidir. Bunday jamg'arilgan fond mavjudligi kompaniya aksiyalarni qayta sotib olish uchun bozorda bunday aksiyalarning aniq belgilangan sonini kelishilgan narxda sotib olish yo'li orqali yillik to'lovlarni amalga oshirish uchun ta'minot manbai bo'ladi;

– qayta chaqirib olinadigan preferensial aksiyalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish kafolat ta'minoti. Bunday ta'minot retrektiv prefaksiyalarni muomalaga chiqarish yo'li orqali erishiladi.


Shunday qilib, aksiyani xarid qilish yo'li orqali qimmatli qog'ozni qayta chaqirib olish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi – nominalga nisbatan yuqori bahoda sotib olish (yoki premiya bilan); ikkinchi – qayta sotib olish uchun shakllantirilgan maxsus jamg'arilgan fond orqali; uchinchi – retrektiv prefaksiyalarni muomalaga chiqarish.

Aksiyalarni qaytarib sotib olish maqsadida maxsus jamg'ariladigan fond tashkil etilishi mumkin. Qayta sotib olish fondini shakllantirishdan maqsad – bu fond narxlar pasayishi holatida amortizator rolini bajaradi, misol uchun, aksiyalar muomalaga chiqarilganda tasdiqlangan narxning pasayib ketgan holat. Bunday oldindan shakllangan fond yordamida kompaniya ushbu aksiyalarni to'liq yoki qisman sotib olish mumkin. Qayta sotib olish fondi mavjud bo'lgan aksiyalarni sotib olishning ijobiy tomoni shundaki, u aksiyalarni har yili qisman qoplash (qayta sotib olish) yo'li orqali qimmatli qog'ozlar bozori muntazam ko'maklashadi. Imtiyozli aksiyalar ikkilamchi bozorda oldindan kelishilgan bahoda sotib olinadi.

Qayta sotib olish fondi funksiyasiga xos vazifani **jamg'arilgan fond** bajaradi: har yili kompaniya sof tushumdan belgilangan foiz tariqasida aksiyalarni qayta sotib olish uchun bir qancha yillar mobaynida mablag' jamg'arib boradi. Qayta sotib olish fondi singari jamg'arilgan fond ham amortizator rolini bajaradi. Ammo, qayta sotib olish fondidan farqli o'laroq, jamg'arilgan fond faqatgina narxlar pasayishi natijasida zararni qoplashdan tashqari, aksiyadorlarga aksiyalarni o'z nominal yoki haqiqiy bahosidan yuqori, dividend to'lovlarni ham mujassamlashtirgan narxda sotish uchun rag'batlantiradi.

Retrektiv prefaksiyalar. Retrektiv tamoyili yoki qimmatli qog'ozlarni qaytarib olish – qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish yo'li orqali chiqarilgan aksiyalarni sotib olish kafolatini imkoniyati mavjud bo'lmagan holatda qo'llaniladi. Retrektiv aksiyalar egalari o'z imtiyozlaridan foydalanib, emitent–kompaniyaga aksiyalarni qayta sotish muddatini o'zi belgilashi mumkin va shu muddat tugallanguncha aksiyalarni qoplash uchun qayta taqdim etadi. Bunday qaytarib olish holati avtomat tarzda amalga oshadi. Aksiyani ushlab turuvchi shaxs

aksiyalarni qaytarish muddatini o‘z xohishiga ko‘ra belgilagan bo‘lsada, bu haqda kompaniyani oldindan ogohlantirishi lozim. 4.2-rasmda qayta chaqirib olinadigan prefaksiyalarni muomalaga chiqarish tartibi ko‘rsatilgan.



4.2-rasm. Qayta chaqirib olinadigan prefaksiyalarni muomalaga chiqarish

4.2. Aksiyalar qiymati va daromadliligini baholash

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan aksiyalar egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ular turiga ko‘ra oddiy va imtiyozli bo‘lishi mumkin.

Imtiyozli aksiyalar o‘z egalariga jamiyat foyda ko‘rish-ko‘rmasligidan qat’iy nazar muayyan dividendlar olish huquqini beradi. Mamlakatimiz qonunchiligiga ko‘ra aksiyadorlik jamiyatining imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlarni qimmatli qog‘ozlar bilan to‘lashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar oldindan belgilab qo‘yilmaydi. Ularning miqdori jamiyat tomonidan olinadigan foydaga bog‘liq va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori bilan belgilanadi.

Aksiyalar obligatsiyalarga qaraganda yuqori riskli qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi. Dividendlardan va aksiyalar bahosi o‘sishi hisobiga shakllanadigan yuqori foyda olish imkoniyati investorlarni jalb

qilishga xizmat qiladi. Aksiyalarning yuqori daromadliligi odatda qarz majburiyatlari bilan taqqoslaganda inflyatsiyadan yaxshigina himoyani ta'minlaydi.

Aksiya va obligatsiyalarni baholash texnikasi pul oqimlarini diskontlashning yagona modeliga asoslanishiga qaramasdan, aksiyalar qiymati va daromadliligini aniqlash quyidagi ikkita holat sabab ancha murakkab hisoblanadi:

- oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar kafolatlanmagan, ya'ni oldindan ma'lum emas;

- aksiyalar qoplash muddatiga ega emas.

Yuqorida ta'kidlanganidek, aksiya egasining daromadi olinadigan dividendlar va aksiya bozor bahosining o'zgarishidan tashkil topadi. Investitsiyalar bitta davrli bo'lgan holatda aksiya qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanishi mumkin:

$$V = \frac{DIV_1}{1+r} + \frac{P_1}{1+r},$$

bu yerda DIV_1, P_1 – mos ravishda $t=1$ davrda dividend va aksiya bahosi.

Mos ravishda, investitsiya daromadliligi

$$Y = \frac{DIV_1 + (P_1 - P_0)}{P_0},$$

bu yerda $P_0 - t=0$ davrdagi aksiya bahosi yoki aksiyaning boshlang'ich ma'nosi;

n davrli muddatga investitsiyalar uchun.

$$V = \sum_{t=1}^n \frac{DIV_t}{(1+r)^t} + \frac{P_n}{(1+r)^n}.$$

Aksiyalarning muomala muddati formal jihatdan cheklanmaganligi sababli $n \rightarrow \infty$ sharoitida oxirgi qo'shiluvchi nolga intiladi. Shunda:

$$V = \sum_{t=1}^{\infty} \frac{DIV_t}{(1+r)^t}.$$

Olingan ifoda amerikalik olim J.Williams tomonidan ishlab chiqilgan dividendlarni diskontlash modeli (Dividend Discount Model – DDM) sifatida ma'lum. Mazkur modelga muvofiq oddiy aksiyalar qiymati joriy vaqtda diskontlangan barcha dividendlar summasiga teng.

Agar ayni vaqtdagi aksiya bozor bahosi ma'lum bo'lsa, uning ichki daromadliligi Y quyidagi tenglama yordamida aniqlanishi mumkin:

$$P = \sum_{t=1}^{\infty} \frac{DIV_t}{(1+Y)^t} = 0 \quad .$$

Aksiyalar muomala muddatining cheklanmaganligi sababli mazkur moliyaviy instrument bo'yicha investitsiyalar samaradorligini baholash uchun yuqoridagi formulalarni amaliy qo'llash DIV_t miqdorni aniqlashning murakkabligidan kelib chiqqan holda chegaralangan. Chunki investorlar tomonidan hattoki yaqin kelajakdagi dividendlarni aniq bilish mumkin emas.

Shuning uchun ham tahlil o'tkazishda odatda dividendlarning mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan o'sish sur'atlari borasidagi taxminlardan kelib chiqiladi.

Eng oddiy taxmin investitsiya butun muddati davomida dividendlar miqdorining o'zgarmay qolishi hisoblanadi, ya'ni:

$$DIV_0 = DIV_1 = \dots = DIV_n = DIV = const.$$

Shunda aksiya qiymatini baholash formulasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$V = DIV \left[\sum_{t=1}^{\infty} \frac{1}{(1+r)^t} \right] \quad .$$

$n \rightarrow \infty$ sababli kvadrat qavs ichidagi miqdor r ga intiladi va baholash modeli soddalashadi:

$$V = \frac{DIV}{r} \quad .$$

Bu ifoda J.Gordonning *nollik o'sish modeli* sifatidi ma'lum va bu modeldan qat'iy belgilangan dividend to'lanuvchi imtiyozli aksiyalarni baholash uchun foydalanish mumkin.

Misol ko'rib chiqamiz.

Yillik 6 birlik dividend to'lanadigan aksiyaning bozor bahosi 35 birlik. Agar investor uchun daromadlilik me'yori 20 foiz bo'lsa, aksiya qiymatini aniqlang.

$$V = \frac{6}{0,2} = 30 \text{ birlik} \quad .$$

Bundan ko‘rinib turibdiki, aksiya ortiqcha baholangan va boshqa shart-sharoitlar teng bo‘lganda uni sotib olishni rad etish kerak.

Nollik o‘sish modelida aksiya daromadliligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Y = \frac{DIV}{P} \quad .$$

Yuqorida keltirilgan misol bo‘yicha aksiya daromadliligi $6/35=0,1714$ ga teng va ko‘rinib turibdiki talab qilinadigan daromadlilik me‘yori 20 foizdan past. Bunday sharoitda operatsiyaning samarasizligi haqidagi xulosa tasdiqlanadi.

Aksiyalarni baholash bo‘yicha oddiy va keng tarqalgan yondashuvlardan yana biri doimiy o‘sish modeli hisoblanadi. Mazkur model asosida aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lovlari proporsional tarzda qandaydir g miqdor (ya’ni bir xil o‘sish sur‘ati)ga o‘sishi to‘g‘risidagi taxmin (faraz) yotadi. Shunda

$$DIV_t = DIV_{t-1} (1+g) \text{ yoki } DIV_t = DIV_0 (1+g)^t.$$

Bunday holatda aksiya qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$V = \sum_{t=1}^{\infty} \frac{DIV_0(1+g)^t}{(1+r)^t} = DIV_0 \left[\sum_{t=1}^{\infty} \frac{(1+g)^t}{(1+r)^t} \right] \quad .$$

Ko‘rish mumkinki, $n \rightarrow \infty$ sababli kvadrat qavs ichidagi ifoda $r > g$ bo‘lganda $(1+g)/(r-g)$ miqdorga intiladi:

Shunda doimiy o‘sish modeli quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$V = DIV_0 \left[\frac{1+g}{r-g} \right] = \frac{DIV_1}{r-g} \quad .$$

Misol ko‘rib chiqamiz.

Yuqoridagi misol bo'yicha dividendlarning doimiy o'sishi yillik 5 foiz bo'lishi kutilyapti. Boshqa shartlar o'zgarmaganda aksiya qiymatini aniqlang.

$$V = 6 \times \left[\frac{1 + 0,05}{0,2 - 0,05} \right] = 42 \text{ birlik} \quad .$$

Eslatib o'tish kerakki, nollik o'sish modeli doimiy o'sish modelining $g=0$ bo'lgandagi alohida holati hisoblanadi.

Doimiy o'sish modelida investitsiya daromadliligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Y = \frac{DIV_0(1 + g)}{P} + g = \frac{DIV_1}{P} + g \quad .$$

Agar oldingi misolda aksiyaning bozor bahosi 35 birlik bo'lsa, boshqa shartlar o'zgarmagan holatda uning daromadliligi quyidagicha bo'ladi:


$$Y = \frac{6 \times (1 + 0,05)}{35} + 0,05 = 0,23 \text{ yoki } 23 \text{ foiz} \quad .$$

Gordon modeli aksiyalarni baholashda oddiy yondashuv bo'lsa ham, uning qo'llanilishi bo'yicha qator cheklovlar mavjud. Bunda birinchi cheklov uzoq muddat davomida (mohiyatiga ko'ra muddatsiz ravishda) dividendlarning bir xil sur'atda o'sishi haqidagi faraz bilan bog'liq. Korxonaning ko'rsatkichlari, xususan foyda miqdorining bir xil sur'atda o'sishi aniq emas va amaliyotda ko'pchilik korxonalarda bunday farazlar o'z isbotini topmaydi. Ikkinchi cheklov barqaror o'sish sur'atini belgilashda kuzatiladi. Umumiy holda barqaror o'sish sur'atlarini belgilashda o'rtacha tarmoq ko'rsatkichi bilan muvofiq-lashtirish yoki farqli jihatlarni asoslash talab etiladi.

Umuman Gordon modelini barqaror moliyaviy siyosatga va tarmoq bo'yicha o'rtacha o'sish sur'atlariga yaqin o'sishga erishayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiq.

Dividendlarni diskontlashning eng umumiy va realikka yaqin modellaridan biri *o'zgaruvchan o'sish modeli* hisoblanadi.

Bunday modelni amalga oshirishning mumkin bo'lgan yondashuv-larini quyidagi rasmda keltiramiz (4.3-rasm)



4.3-rasm. O'zgaruvchan o'sish modeli

Yuqoridagi rasmda ko'rib turganimizdek, o'zgaruvchan o'sish modelini qo'llash investorga korxona rivojlanishining mos davri uchun mumkin bo'lgan o'sish sur'atlarini yoki uning qonuniy asoslangan o'zgarishlarini aniqlash imkonini beradi. Korporativ moliyani boshqarish nazariyasi va amaliyotida o'zgaruvchan o'sish modelining xususiy holatlari sifatida ikki yoki uch davrli model keng qo'llaniladi.

Ikki davrli o'sish modelida qandaydir T davrgacha dividendlarning o'zgarishi aniq bir obyektiv qonuniyatlar bilan bog'lanmagan. Lekin T davr boshlangandan so'ng ular g doimiy koeffitsient bilan o'sadi.

Shunda investor $DIV_1, DIV_2, \dots, DIV_T$ dividendlar belgilanishi, shuningdek, T davrning ham prognozini amalga oshirishi lozim. Bu holatda aksiyalar bo'yicha to'lovlar oqimi ikki qismga: T davrgacha va T davrdan keyingi dividendlarga ajratiladi. Mos ravishda aksiya qiymati V ikkala to'lovlar oqimlari qiymati yig'indisiga teng bo'ladi: $V = V_t + V_{t+1}$.

Mazkur holatda V_t miqdori T davrdan oldin dividend to'lovlarining berilgan r stavkasi bo'yicha diskontlangan summasini o'zida aks ettiradi. T davrdan keyingi to'lovlar oqimi doimiy koeffitsient bilan o'zgartirilishi nazarda tutiladi. Uning qiymati V_{t+1} doimiy o'sish modeli bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Shunda aksiya qiymati V quyidagi formula yordamida aniqlanishi mumkin:

$$V = V_T + V_{T+1} = \sum_{t=1}^T \frac{DIV_t}{(1+r)^t} + \frac{DIV_{T+1}}{(r-g)(1+r)^T} .$$

O'zgaruvchan o'sish modeli bo'yicha investitsiya ichki daromadlilikini hisoblash ma'lum bir murakkablikni o'zida aks ettiradi va quyidagi tenglik asosida aniqlanadi:

$$P = \sum_{t=1}^T \frac{DIV_t}{(1+Y)^t} + \frac{DIV_{T+1}}{(Y-g)(1+Y)^T} .$$

Zamonaviy kompyuterlar va tegishli amaliy dasturlar paketlari mazkur ko'rsatkichni tezda va samarali aniqlashga imkon beradi.

Misol ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, A kompaniya aksiyalari bo'yicha keyingi ikki davr mobaynida dividend to'lovlarining 25 foizlik o'sishi kutilmoqda. Undan so'ng dividend to'lovlari yillik o'sish 5 foiz darajasida barqarorlashadi. Talab qilinadigan daromadlilik stavkasi 12 foiz. A kompaniya aksiyasi qiymatini aniqlang.

$$V = V_T + V_{T+1} = \left(\frac{2 \times (1+0,25)}{(1+0,12)} + \frac{2 \times (1+0,25)^2}{(1+0,12)^2} \right) + \frac{2 \times (1+0,25)^2 \times (1+0,05)}{(0,12-0,05)(1+0,12)^2} = 42,08 \text{ birlik}$$

Gordon modeli kabi ikki bosqichli model ham qator kamchiliklarga ega. Ulardan eng asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish lozim:

- alohida o'sish davri davomiyligini aniqlashning zarurligi;
- yuqori o'sish bosqichida reinvestitsiya qilinadigan yoki jamg'ariladigan pul tushumlarini va to'lanadigan past darajadagi dividendlarni korxonalarining yetarlicha baholay olmasligi;
- juda past va barqaror dividendlarga o'tish jarayonining juda tez sodir bo'lishi.

Umuman bunday modellar tez rivojlanuvchi korxonalar, ya'ni mazkur bosqichda bozorning boshqa ishtirokchilari bilan taqqoslaganda qandaydir raqobat ustunligiga (masalan, nou-xau, alohida huquq, litsenziyalar, patentlar) ega korxonalarni baholash uchun ko'proq mos keladi.

Uch bosqichli model deb ataladigan aksiyalar qiymatini va daromadlilikini baholash moduli eng umumiy model hisoblanadi. Barcha korxonalar hayotiy sikli tushunchasiga hamohang tarzda mazkur model ham taraqqiyotning uchta bosqichi: o'sish bosqichi, o'tish bosqichi va rivojlanishning eng yuqori bosqichi tarzida amal qiladi. Har bir bosqich daromadlar va dividendlarning mos o'sish sur'atlari bilan tavsiflanadi. Umumiy holda birinchi bosqichda korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanishi jarayonida dividend to'lovlarining o'sishi g_1 o'rtacha tarmoq darajasigacha o'sishi yoki bir muncha pastroq bo'lishi mumkin. Undan keyin qandaydir o'tish davri mobaynida korxona rivojlanishining barqarorlashuvi kuzatiladi va bu davrda dividendlarning nisbatan barqarorligi yoki g_2 koeffitsientda o'zgarishi kuzatiladi. Oxirgi bosqich boshlangandan so'ng ma'lum darajada barqarorlashadi yoki yuqori bo'lmagan g_3 koeffitsientda o'sib boradi. Shunday qilib korxona rivojlanish bosqichlariga mos ravishda dividend to'lovlarining g_1 , g_2 , g_3 koeffitsientlardagi o'sish sur'atlarini, shuningdek, har bir bosqich davomiyligi prognozini amalga oshirish lozim. Korxona rivojlanishining real jarayonlari bilan bir xil bo'lgan bunday modelning bir xil prognozlarini yuqori aniqlikda hisob-kitob qilish amaliyotda bir muncha murakkablik kasb etadi.

DDM modelining ko'rib chiqilgan turlari kutilayotgan dividendlar va ularning o'sish sur'atini prognozlashga asoslanadi. Lekin bu model ham nazariy jihatdan asoslanganligiga qaramasdan qator kamchiliklarga ega. Masalan, bu modellar umuman dividend to'lamaydigan, nomuntazam dividend to'lovlarini amalga oshiradigan, arziyas summada dividendlar to'laydigan korxonalar aksiyalarini baholash uchun to'g'ri kelmaydi.

Pul oqimlarini diskontlashga asoslangan modellar xorijiy tajribada keng qo'llaniladigan modellardan biri hisoblanadi. Bu model shakllanishiga nisbatan ikkita asosiy yondashuv amal qiladi.

Birinchisi korxona aktivlaridan bo'sh pul oqimlari $FCFF_t$ ni prognozlashga va keyin esa korxona bozor qiymati V ni baholashga asoslanadi. Korxona qiymatini baholash umumiy formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$V = \sum_{t=1}^{\infty} \frac{FCFF_t}{(1+r)^t},$$

bu yerda r – korxona kapitalining o'rtacha qiymati ($r = WACC$).

Undan keyin xususiy kapital qiymati – $MV(E)$ ni baholash uchun V miqdordan korxonaning sof qarzi bozor qiymati ayriladi. Oxirgi bosqichda olingan natija chiqarilgan aksiyalar soniga bo‘linadi va natijada bitta aksiyaning haqiqiy qiymati aniqlanadi.

Boshqa yondashuvda $FCFF_t$ pul oqimlari diskontlanadi. Bunda diskontlash stavkasi sifatida korxona xususiy kapitali bo‘yicha talab qilinadigan daromadlilik ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Natijada xususiy kapital qiymatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$V_E = \sum_{t=1}^{\infty} \frac{FCFF_t}{(1 + r_E)^t} ,$$

bu yerda r_E – xususiy kapital bo‘yicha talab qilinadigan daromadlilik.

Bitta aksiyaning haqiqiy qiymati V_E miqdorni muomaladagi aksiyalar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Aksiyalarni baholashda keng qo‘llaniladigan yondashuvlardan yana biri turli xil moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish hisoblanadi.

Aksiyalarni baholashda ko‘pchilikka ma‘lum va keng qo‘llaniladigan koeffitsient aksiya bahosining foydaga nisbati koeffitsienti hisoblanadi (*Price/Earnings* – P/E). Bu ko‘rsatkich aksiya bozor bahosi P ning bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan sof foyda ko‘rsatkichi EPS ga nisbati sifatida aniqlanadi.

Mazkur baholash modelining mohiyati quyidagicha ifodalanadi. Dastlab kelgusi davrda korxonaning bitta aksiyasiga to‘g‘ri keladigan daromad baholanadi, ya‘ni EPS ko‘rsatkichi aniqlanadi. Undan so‘ng olingan ko‘rsatkich aynan bir xil korxonalar uchun hisoblangan yoki mazkur tarmoq uchun o‘rtacha P/E (P/EPS) koeffitsientga ko‘paytiriladi. Shunday qilib, $V_t = EPS_t \times P/E$.

Amaliyotda mazkur koeffitsientlardan hisob-kitoblar uchun joriy belgilashlarda tez-tez foydalaniladi.

Misol ko‘rib chiqamiz.

Agar oxirgi yilda bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda 30 birlikni tashkil etgan va kelajakda ham shuncha bo‘lishi kutilayotgan bo‘lsa, shuningdek, mazkur tarmoq bo‘yicha P/E o‘rtacha 150 birlikni teng bo‘lsa “M” korxona aksiya qiymatini aniqlang.

$$V=30 \times 150 = 4500 \text{ birlik.}$$

P/E koeffitsient aslida yakuniy natija – sof foyda bo'yicha korxonani baholaydi. Boshqacha aytganda bu ko'rsatkich bozor aniq bir korxonaning bir birlik foydasiga qancha to'lashga tayyorligini ko'rsatib beradi.

Uning belgilanishi butun sof foyda dividend to'lashga yo'naltiriladigan sharoitda aksiya bo'yicha investitsiyalar qoplanish muddati sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

P/E koeffitsientining yuqori belgilanishi aksiyaning jalb qiluvchanligini o'zida aks ettiradi. Natijada investorlar uning istiqbolli tarzda yanada o'sishi, daromadlarining ishonchli va barqarorligi, risklilik darajasining unchalik yuqori emasligini anglashlari mumkin bo'ladi.

P/E moliyaviy koeffitsientni hisob-kitob qilishda korxona faoliyatining qator muhim moliyaviy ko'rsatkichlari, shuningdek, ularga ta'sir etuvchi omillar, masalan kelgusi pul oqimlari, aktivlar va boshqalarning e'tiborga olinmasligini mazkur modelning kamchiligi sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari sof foyda moliyaviy hisobotlarning boshqa ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda o'zgarishlarga yuqori darajada moyil hisoblanadi va unga boshqaruvchilarning bevosita ta'siri ham kuzatiladi. Koeffitsientning yuqori belgilanishi foyda miqdorining keskin past bo'lishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, bu ko'rsatkichni zarar ko'rib ishlovchi korxonalar uchun aniqlash imkoniyati mavjud emas.

EPS ko'rsatkichi bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividend (*Dividends Per Share – DPS*) va dividend to'lovlari (*payout ratio – PR*)ning o'zaro nisbati sifatida ham aks ettirilishi mumkin:

$$EPD_t = \frac{DPS_t}{PR_t} .$$

O'z navbatida, dividend to'lovlari koeffitsientini korxonani reinvestitsiyalashga yo'naltiriladigan foydaning ulushi (*recovery rating – RR*)dan kelib chiqqan holda ham aniqlash mumkin:

$$DPS_t = EPS_t \times (1 - RR_t) .$$

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, *EPS* va *P/E* koeffitsientlari kelgusidagi dividend to'lovlarini 100 foizgacha aniq hisoblash imkoniyatini bermaydi.

Aksiyalar qiymatini baholashda yana bir koeffitsient “Baho/tushum” (*Prise to Sales*) koeffitsienti hisoblanadi. Bu koeffitsientdan foydalanish yordamida baholash metodikasi *P/E* yondashuvidan

foydalanishga o'xshash, faqat bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda o'rniga korxona tushumining joriy miqdoridan foydalaniladi:

$$V_t = \frac{P}{S} \times SAL_t \quad ,$$

bu yerda SAL_t – t davrda korxonaning tovar sotishdan tushumi.

Aksiyalarni baholash uchun P/S koefitsientidan foydalanish aksariyat korxonalar uchun foyda ko'rsatkichi emas, balki mahsulot sotish hajmining o'sishini ta'minlash maqsadiga asoslanadi. Bunday maqsadning qo'yilishiga sabab mahsulot sotishdan tushum ko'rsatkichining tovar va xizmatlar bozorida korxonaning egallab turgan o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi. Korxonaning bunday tartibda jadallik bilan o'sishi boshqa barcha shart-sharoitlar teng bo'lganda daromad olinishi va musbat pul oqimlariga erishish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Mazkur metodning afzalligi sifatida yangi, shuningdek, zarar bilan ishlovchi va manfiy pul oqimlariga ega korxonalar aksiyalarini baholash imkoniyatini berishi bilan izohlash mumkin. Aniq-ravshanki bunday holatda DDM modeli yoki P/E ko'rsatkichidan foydalanish murakkablik tug'diradi va hech qanday mazmunga ega emas. Bundan tashqari tushum ko'rsatkichining o'zgaruvchanligi odatda, foydaga nisbatan ancha past. Shuningdek, bu ko'rsatkich moliyaviy hisobotlarda ishonchli hisoblanadi va unga korxona moliyaviy siyosatining jiddiy ta'siri kuzatilmaydi.

Lekin P/S koefitsientidan foydalanish orqali aksiyalarni baholash metodi konseptual kamchilikka ega bo'lib, bu koefitsient nisbiy baholash metodi hisoblanadi va aksiyaning haqiqiy qiymatini belgilab bermaydi. Chunki bu metodda aksiya qiymati boshqa o'zaro tenglashtirilgan korxonalar guruhiga nisbatan belgilanadi.

Bundan tashqari mahsulot sotishdan tushum korxona faoliyatining yakuniy natijasiga ta'sir etuvchi omillardan faqat bittasi hisoblanadi va korxonalar bir xil tushum ko'rsatkichi bilan turli xil rentabellikka, samaradorlikka erishishlari mumkin. Aynan shu bog'liqlikdan kelib chiqqan holda P/S koefitsienti mahsulot sotish rentabelligi yoki foyda marjasi masalan, soliqlar va foizlar to'langunga qadar foyda, sof foyda ko'rsatkichlari bilan birgalikda foydalanish samaraliroq hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda keng doirada qo'llaniladigan yana bir koefitsient korxona qiymati (*Enterprise Value* – *EV*)ning soliqlar,

foizlar va amortizatsiya chegirilgunga qadar foyda (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation and Amortization – *EBITDA*)ga nisbati ko‘rsatkichi hisoblanadi. *EV/EBITDA* eng past ko‘rsatkichli aksiyalar sotib olish uchun nomzod aksiyalar hisoblanadi.

Mazkur ko‘rsatkichning afzalliklari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- zarar bilan ishlayotgan korxonalarni aniqlashga xizmat qilishi mumkin;

- qarz mablag‘lari hisobiga qo‘shib olishni baholashda foydalanish uchun qulay;

- qarz mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish, amortizatsiya siyosati, soliq siyosati va boshqalar turli xil darajada bo‘lgan korxonalarni o‘zaro taqqoslash imkonini beradi.

Amaliyotda mazkur ko‘rsatkichni hisoblashning turli xil yondashuvlari amal qiladi. Ulardan eng keng qo‘llaniladigani quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$\frac{EV}{EBITDA} = \frac{MV(E) + MV(D) - C}{EBITDA} \quad .$$

bu yerda $MV(E)$, $MV(D)$ – mos ravishda korxona xususiy kapitali va qarz kapitalining bozor qiymati;

C – balansdagi pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari.

Yuqorida keltirilgan formulaga muvofiq korxona qiymati uning xususiy kapitali va qarz kapitali yig‘indisidan pul mablag‘larini ayirish orqali aniqlanadi. Bunday yondashuv aksiyalar bozor qiymatini hisobga olgan holda korxona qiymatining tarkibiy elementlari nisbatan to‘liq kartinasi ko‘rish imkonini beradi. Shubhasiz butun korxonani naqd pulga sotib olishda investor uning barcha majburiyatlarni o‘ziga olishga yoki birdaniga to‘lashga majbur bo‘ladi. Korxona qiymatini aniqlashda pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini chegirishdan maqsad korxonani xarid qilishda balansdagi pul mablag‘i o‘zgarmas qolishi bilan izohlanadi.


Umuman yuqorida keltirib o‘tilgan aksiyalarni baholash modellarining barchasi ham o‘ziga xos afzalliklar va kamchiliklarga ega. Shunday ekan investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun korxonalar aksiyalarini baholashda ko‘rib chiqilgan modellar va koeffitsientlarning bir nechtasidan foydalanish va o‘rtachasini olish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing

1. Aksiyalarning iqtisodiy mohiyatini izohlang.
2. Aksiyalarning turlari va ularning o'zaro farqli jihatlari.
3. Imtiyozli aksiyalarni muomalaga chiqarish tartibi.
4. Oddiy aksiyalarni muomalaga chiqarish tartibi.
5. Oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend hisoblash va to'lash tartibi.
6. Korporativ obligatsiyalar va aksiyalar muomalasidagi va umumiy hamda farqli jihatlari.
7. Imtiyozli aksiyalar qiymatini va daromadlilikini baholash.
8. Oddiy aksiyalar qiymati va daromadlilikini baholash.
9. Dividendlar o'zgaruvchan holatda aksiyalar daromadlilikini prognozlash.
10. Aksiyalar asosida biznes qiymatini aniqlash.

2. Aksiyalar va aksiyalar bozorining iqtisodiy mohiyatini va xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi klaster shakllantiring.



3. Aksiyalar va obligatsiyalar alohida xususiyatlari bo'yicha T-sxemani to'ldiring.

Aksiyalar	Korporativ obligatsiyalar
1	1
2	2
3	3
...	...

4. Oddiy va imtiyozli aksiyalar qo'llanilishi bo'yicha umumiy va alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi jadvalni to'ldiring.

Oddiy aksiyalar	Umumiy xususiyatlar	Imtiyozli aksiyalar
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

TESTLAR

1. O'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz turi qanday nomlanadi?

- a) aksiya;
- b) obligatsiya;
- d) veksel;
- e) depozit sertifikatlar.

2. Imtiyozli aksiyalarning ko'rinishlari noto'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) oddiy aksiyalar;
- b) konvertlanmaydigan aksiyalar;
- d) nokumulyativ aksiyalar;
- e) kumulyativ aksiyalar.

3. O'z egasiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida o'z ovozi bilan ishtirok etish huquqi, dividendlar olish va aksiyadorlik

jamiyati tugatilganda mulkning bir qismiga ega bo'lish huquqini beruvchi qimmatli qog'oz turini aniqlang.

- a) oddiy aksiyalar;
- b) kuponli obligatsiyalar;
- d) imtiyozli aksiyalar;
- e) oltin aksiya;

4) Aksiyadorlik jamiyat tomonidan aksiyalarning dastlabki chiqarilishini joylashtirish muddati jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran qancha muddatda amalga oshiriladi?

- a) bir yilda;
- b) olti oyda;
- d) uch oyda;
- e) to'qqiz oyda.

5. Imtiyozli aksiyalar miqdori jamiyat ustav kapitali hajmida necha foizdan oshmasligi lozim?

- a) 20% miqdordan;
- b) 30% miqdordan;
- d) 10% miqdordan;
- e) 25% miqdordan.

6. Oddiy aksiyalar qiymati va daromadlilikini baholashning murakkabligini qanday izohlash mumkin?

- a) oddiy aksiyalar bo'yicha daromadning kafolatlanmaganligi va amal qilish muddatining mavjud emasligi;
- b) qat'iy summada daromadning belgilanmaganligi va amal qilish muddatining uzoqligi;
- d) oddiy aksiyalarning doimiy ravishda qo'ldan-qo'lga o'tib turishi va joriy kursni aniqlashning murakkabligi;
- e) dividendlarning o'zgarmasligi va qayta investitsiya qilinishi.

7. Nollik o'sish modelida aksiya daromadlilik qanday aniqlanadi?

- a) dividend miqdorini aksiya bozor bahosiga bo'lish orqali;
- b) divided summasini aksiya nominal bahosiga bo'lish orqali;

d) aksiya bozor bahosi va nominal bahosi o'rtasidagi farqni nominalga bo'lish orqali;

e) dividend summasini aksiya bozor bahosi va nominal bahosi o'rtasidagi farqga ko'paytirish orqali.

8. Aksiya daromadlilikini aniqlashning doimiy o'sish modeli mohiyati to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

a) dividendlar har yili bir xil foizda o'sib boradi;

b) korxona foydasi doimiy ravishda o'sib boradi;

d) aksiya kursi doimiy ravishda o'sib boradi;

e) aksiyaga bo'lgan talab doimiy ravishda o'sib boradi.

9. Agar ayni vaqtdagi aksiya bozor bahosi ma'lum bo'lsa, uning ichki daromadliliqi qanday tenglama yordamida aniqlanishi mumkin?

a) $P = \sum_{t=0;1}^{\infty} \frac{DIV_t}{(1+Y)} = 0;$

b) $P = \sum_{t=1}^{\infty} \frac{DIV_t}{(1+Y)^t} + \frac{DIV_T}{(Y-g)(1+Y)^T} = 0;$

d) $P = \sum_{t=1}^T \frac{DIV_{T+1}}{(Y-g)(1+Y)^T} = 0;$

e) $P = \sum_{t=0;1}^{\infty} \frac{DIV}{Y} = 0.$

10. O'zgaruvchan o'sish modeli bo'yicha investitsiya ichki daromadlilikini hisoblash formulasi to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

a) $P = \sum_{t=1}^T + \frac{DIV_T}{(1+Y)^T} + \frac{DIV_{T+1}}{(1+Y)(1+Y)^T};$

b) $P = \sum_{t=1}^T \frac{DIV_{T+1}}{(1+Y)(1+Y)^T};$

d) $P = \sum_{t=1}^T \frac{DIV_t}{(1+Y)^t};$

e) $P = \sum_{t=1}^T + \frac{DIV_t}{(1+Y)^t} + \frac{DIV_{T+1}}{(1+Y)^T}.$

V BOB. HOSILAVIY QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI

5.1. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning iqtisodiy mohiyati va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti turli bozorlarning jamlanmasi sifatida namoyon bo‘lar ekan, unda moliya bozorining o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin, modomiki aynan ushbu bozor izchillik bilan bir tomondan ikkinchi tomonga, iqtisodiyotning kam rentabelli tarmoqlaridan daromadli sohalariga kapitallarning oqimiga imkon yaratib beradi. Buning natijasida esa moliya bozori iqtisodiyotning tarmoqlari o‘rtasida kapitalni qayta taqsimlanishini ta‘minlab, tarmoqlarning daromadlilik darajalarini o‘zaro tenglashtirishga yordam beradi.

Bo‘sh turgan mablag‘larni investitsiyalarga aylanishi moliya bozorida amalga oshirilgan ekan, so‘nggi paytda uning tarkibida hosilaviy qimmatli qog‘ozlar segmenti tobora asosiy o‘rinni egallab borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risi”dagi Qonunida hosilaviy qimmatli qog‘ozlarga quyidagicha ta‘rif berilgan: **“Qimmatli qog‘ozlarning hosilalari** – o‘z egalarining boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsionlar, qimmatli qog‘ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar”⁸dir. Ushbu bobda biz hosilaviy qimmatli qog‘ozlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, qo‘llanilishi haqida fikr yuritamiz.

Shartnoma shartlarini bajarish muddatlari nuqtai nazaridan bozorlar **spot bozori** va **muddatli bozorga** ajratilgan ekan, bunda **spot bozori** naqd shartnomalar bozori hisoblanadi. Spot bozorida bir vaqtning o‘zida qimmatli qog‘ozlar keltiriladi va ular bo‘yicha to‘lovlar amalga oshiriladi. Turli davlatlarning qonunlarida kontragentlarning bitimlarni imzolagandan so‘ng o‘zaro to‘lovlarni necha kunlarda amalga

⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonuni. 3-modda.

oshirishlari belgilab qo'yilgan. Spot bozorida shakllanuvchi narxlar **spot narxlar** deyiladi.

Muddatli bozor esa shunday bozorki, unda muddatli shartnomalar amalga oshiriladi. Odatda hosilaviy qimmatli qog'ozlarni muddatli shartnomalar deb ham yuritiladi, negaki ular o'z mazmuniga ko'ra kontragentlar tomonidan kelishilgan shartlarda shartnoma predmetini kelajakda yetkazib berishni nazarda tutadi. Shartnomaning asosini turli xildagi aktivlar, ya'ni qimmatli qog'ozlar, fond indeksleri, bank depozitlari, valyuta, tovarlar tashkil etadi. Muddatli shartnomaning asosini tashkil etuvchi aktiv *bazis aktiv* deyiladi.

Boshqacha qilib aytganda, hosilaviy qimmatli qog'ozlar – bu ikki yoki ko'p tomonlama shartnomalar bo'lib, ularning qiymati ushbu bitimlarning asosini tashkil etuvchi ma'lum bir aktiv miqdorining xosilasi asosida hisoblanadi. Bunday miqdor bo'lib, xomashyoning yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi, aksiya va obligatsiyalar kursi, valyuta kursi, fond indeksleri, foiz stavkalari va boshqalar hisoblanishi mumkin.

Muddatli bozor ikkita muhim funksiyalarni, tadbirkorlarning kelgusidagi rejalarini boshqalarniki bilan muvofiqlashtirish va iqtisodiy holat noaniqligida narx bo'yicha risklarni sug'urtalash funksiyalarini bajaradi. Modomiki, hosilaviy qimmatli qog'ozlar moliyaviy risklarni kamaytirishda samarali usul hisoblanadi, ular moliyaviy institutlarga shartnomalar orqali risklarni xedjirlash imkonini beradi, buning natijasida esa risklar kamayadi yoki yo'qoladi.⁹

Muddatli bozorda savdo qilinadigan instrumentlarning shakliga ko'ra ularni quyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- forvard shartnomalari;
- fyuchers shartnomalari;
- opsion shartnomalari;
- svoplar.

Forvard shartnomalari bu ikki tomonning kelishuvi bo'lib, unga ko'ra bir tomon sotish majburiyatini olsa, ikkinchi tomon esa kelajakda amalga oshirishga kelishilgan ma'lum bir muddatda va o'rnatilgan narxda bazis aktivlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Forvard

⁹ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and Institutions USA: Prentice Hall, Pearson Education, 2012. P. 590

shartnomalari birjadan tashqari amalga oshiriladi va uni tuzish vaqtida kontragentlar biron bir xarajat qilishga majbur emas.

Fyuchers shartnomalari forvard shartnomalariga o'xshash keli-shuvdir. Fyucherslarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu instrument standartlashtirilgan bo'lib, u faqatgina birja savdolarining obyekti sifatida nomoyon bo'ladi. Amaliyotda fyuchers shartnomalarini sotib olish va sotish orqali risklarni xedjirlash mumkin.

Opsion shartnomalari ikki tomon o'rtasidagi shartnoma bo'lib, u uning egasiga qimmatli qog'ozlarni yoki tovarlarni bitimda qayd etilgan narxda belgilangan muddatda xarid qilish huquqini beradi.

Opsionning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning egasi qimmatli qog'ozning o'zini emas balki uni sotib olish yoki sotish huquqini opsion mukofoti evaziga sotib oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, opsion egasi vaziyatga qarab opsion yuzasidan sotib olish yoki sotish huquqidan foydalanish yoki undan voz kechishi mumkin.

Svoplar bu ikki tomonning oldindan kelishilgan shartlariga muvofiq kelajakda ma'lum bir to'lovlarni va yoki bazis aktivlarni (kelishilgan miqdorda) almashtirish bo'yicha bitimidir.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning asosini tashkil etuvchi bazis aktivlarga ko'ra ularni quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

- *tovarlar bo'yicha* (neft, neft mahsulotlari, elektr energiya, metallar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari – don, shakar va boshqalarga asoslangan hosilaviy qimmatli qog'ozlar);

- *valyutalar bo'yicha* (valyutaviy qimmatliklarga asoslangan hosilaviy qimmatli qog'ozlar);

- *fond birjalar bo'yicha* (aksiya, obligatsiya, fond indeksleri, volatillik indekslariga asoslangan hosilaviy qimmatli qog'ozlar);

- *foizlar bo'yicha* (qarz majburiyatlari bo'yicha foiz stavkalariga asoslangan hosilaviy qimmatli qog'ozlar);

- *kreditlar bo'yicha* (hosilaviy qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovlar, kreditlar bo'yicha muayyan bir holatlarning sodir bo'lishiga bog'liq);

- *nostandart bazis aktivlar bo'yicha* (ob-havo, saylov natijalariga asoslangan hosilaviy qimmatli qog'ozlar va boshqalar).

Hosilaviy qimmatli qogʻozlar aylanuvchi bozorlarga muvofiq ularni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

- *birja instrumentlari* (barcha koʻrinishdagi fyucherslar, birjada muomalada boʻluvchi standartlashtirilgan opsionlar);

- *birjadan tashqari instrumentlar* (forvardlar, nobirjaviy opsionlar, svoplar).

Muddatli bozorda quyida terminlardan foydalaniladi. Agar muddatli shartnomani imzolayotgan shaxs bazis aktivni sotib olish majburiyatini oladigan boʻlsa, u uzun pozitsiyasiga (long position) ega boʻldi deyiladi. Aksincha boʻlsa, yaʼni agar u shartnoma boʻyicha boshqa tomonga kelajakdagi maʼlum bir sanada aktivlarni sotish majburiyatini olsa, u holda qisqa pozitsiyaga (short position) ega boʻldi deb hisoblanadi.¹⁰ Oʻz navbatida “uzun kontrakt” va “qisqa kontrakt” kabi tushunchalar ham uchraydi. Bunda birinchi holat investor shartnomani sotib olganini bildirsa, ikkinchi holatda sotganini anglatadi.¹¹

5.2. Hosilaviy qimmatli qogʻozlarning rivojlanish tarixi

Hosilaviy qimmatli qogʻozlar haqidagi dastlabki fikrlar XVI–XVII asrlarga borib taqaladi. Hozirgi zamonaviy hosilaviy qimmatli qogʻozlarning oʻtmishdagi prototiplari boʻlib qishloq xoʻjaligi mahsulotlari boʻyicha tuzilgan shartnomalar hisoblanadi. Lekin ayrim maʼlumotlarga koʻra hosilaviy qimmatli qogʻozlarga oʻxshash instrumentlar ancha ilgari davrlarda ham mavjud boʻlgan. Shunday fikrlar ham borki, ularga koʻra hosilaviy qimmatli qogʻozlarning oʻtmishdagi prototiplari yozuv kashf etilishi bilan paydo boʻlgan (Mesopotamiya, eramizgacha IV ming yillik).¹²

¹⁰ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and Institutions USA: Prentice Hall, Pearson Education, 2012. p. 590

¹¹ Буренин А.Н. Рынок ценных бумаг и производных финансовых инструментов: Учебное пособие. М.: 1 Федеративная Книготорговая Компания, 1998. С. 166, 167.

¹² WeberE.J. AShort History of Derivative Markets. University of Western Australia, 2008. p.6. URL:http://www.uwa.edu.au/__data/assets/pdf_file/0003/94260/08_10_Weber.pdf.

Quyida qisqacha keltirilgan tarixiy ma'lumotlar orqali hosilaviy qimmatli qog'ozlarning ko'p asrlik rivolanishi va qo'llanilishi haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

Jumladan, XVII asr 30-yillarining oxirida Gollandiya va Angliyada lola o'simligini o'stirish va bunda ularning piyozlariga bo'lgan talab juda keskin ortib ketadi. Amsterdamda esa XVII asrning boshlaridayoq ular bo'yicha **opsionlar** savdosi amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan edi, 30-yillarga kelib esa Angliyadagi Qirollik birjasida **forward** shartnomalari ham paydo bo'ldi. Lola o'simligining piyozlari uchun tuzilgan shartnomalardan ko'rilayotgan daromadlarning o'sishi va savdoning rivojlanishidan so'ng 1636-1637 yillarda bozorda keskin pasayish kuzatildi.¹³

XVII asrning 50-yillarida tarixdagi dastlabki **fyucherslar** bilan amalga oshirilgan savdolardan biri Yaponiyaning Osako shahridagi "Yodoyo" nomli guruch bozori bilan bog'liqdir. Bu davrda renta to'lovi uchun guruch hosilidan bir qismini oluvchi, yer egalarini kutilmagan ob-havoga tobelik qoniqtirmas, bundan tashqari ularga doimo naqd pul zarur bo'lar edi. Shuning uchun ular guruchlarni saqlash uchun shahardagi omborlarga yetkazib berishni va omborxona qaydnomalari, ya'ni guruch kuponlarini sotishni boshlashdi. Bu kuponlar o'z egalariga kelajakdagi ma'lum bir sanada, oldindan kelishilgan narxlarda belgilangan sifatdagi guruchlarga ega bo'lish huquqini berar edi. Natijada yer egalari barqaror daromadga, savdogarlar esa guruchni kafolatli yetkazib berilishiga va kuponlarni sotishdan qo'shimcha foyda olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Xonma urug'idan bo'lgan Munexisa ismli savdogar narxlarni kelajakdagi o'zgarishini oldindan aytib berish maqsadida ularning o'zgarishini grafik, ya'ni "yapon shamlari" ko'rinishida aks ettira boshladi, va shu tariqa "chartizm" yoki texnik tahlilga asos solindi.

XIX asrning boshlarida aksiyalar bo'yicha **put option** (sotishga huquq) va **koll option** (sotib olishga huquq)lar bilan savdolar London fond birjasida amalga oshirila boshlandi, lekin ushbu jarayonda ma'lum bir muammolar ham yo'q emas edi. Jumladan, 1821 yilda opsionlar savdosi bilan bog'liq holat ancha qaltirlashdi. Birja

¹³ Деривативы. (Серия «Reuters для финансистов»)/Пер.с англ. М.: Альпина Паблишер, 2002. 17 с.

qo‘mitasi o‘zining bir qator a‘zolaridan put va koll opsionlarni butunlay man etish bo‘yicha talabnomalarni oldi, ularning fikricha, birjadagi shartnomalarning asosiy qismini tashkil etuvchi bu bitimlar ushbu amaliyot bilan rozi bo‘lmaganlarning huquqlarini cheklab qo‘ymoqda edi.

Lekin shu bilan birga opsionlar bilan savdoga ijobiy munosabatda bo‘lgan a‘zolar ham yo‘q emas edi va albatta bu holatda vaziyat ularning foydasiga hal bo‘layotgan edi.

Amerika birjalarida tovarlarga va aksiyalarga opsionlar bilan savdo XIX asrning 60-yillarida amaliyotga kirib keldi, XX asrning boshida esa Opsionlar bo‘yicha Brokerlar va Dillerlar Assotsiatsiyasi (Putt and Call Brokers and Dealers Association) tashkil etildi.

1848 yilda Chikago savdo palatasi (Chicago Board of Trade – CBOT) tashkil etildi va u sotuvchi hamda xaridorlar o‘zaro tovar ayirboshlash operatsiyalarini o‘tkazishlari mumkin bo‘lgan joyga aylandi. Dastlabki savdolar naqd tovarlar bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, so‘ngra esa savdolar tovarlarni kelishilgan narxlarda kelajakdagi ma‘lum bir sanada yetkazib berish bo‘yicha ham amalga oshirila boshlandi. Chikago savdo palatasida ro‘yxatga olingan birinchi forvard shartnomasi 1851 yil 13 martda qayd etilgan bo‘lib, u 300 bushel (o‘lchov birligi, 1 bushel=35,2l) makkajo‘xorini yetkazib berishga tuzilgan.

Uzoq muddat davomida turli davlatlar fyucherslar va opsionlar bilan savdo qilishni cheklab va man etib kelganiga qaramay 1972 yili Chikago tovar birjasi (Chicago Mercantile Exchange - CME)da Xalqaro valyuta bozori (International Monetary Market - IMM) deb ataluvchi yangi bo‘linma tashkil etildi, bu esa ilk marotaba tashkil etilgan moliyaviy fyuchers shartnomalari - valyuta fyucherslari bilan savdo qiluvchi maxsus birja maydonchasi hisoblandi. Bu paytgacha fyucherslarning ba‘zaviy aktivi sifatida faqat tovarlardan foydalanib kelingan edi. Shu bilan birgalikda shu yili Chikago savdo palatasi aksiyalar bo‘yicha fyuchers savdolari amalga oshirish uchun ruxsatnomasiga rad javobini oldi. Bunga javoban u 1973 yilda Chikago opsion birjasini (Chicago Board Options Exchange – CBOE) tashkil etdi. Shu bilan birgalikda aynan shu yili Fisher Blek va Mayron Shoulz o‘zlarining opsionlar narxini aniqlash formulasini e‘lon qilishdi.

70-yillarning oxiriga kelib esa moliyaviy fyucherslar ommaviy tarzda tan olindi va ular bilan savdolar dunyodagi barcha birjalarda amalga oshirila boshlandi.

Ma'lumki, birjada savdolar ochiq savdolar orqali amalga oshiriladi. Lekin hosilaviy qimmatli qog'ozlar bo'yicha shartnomalar birjadan tashqari holatda ham amalga oshirilishi mumkin. Garchi birjadan tashqari forvard va opsion bitimlaridan 70-yillargacha foydalanib kelingan bo'lsada, faqat 80-yillarga kelib bunday savdolar sezilarli darajada ortdi. Aynan mana shu davrda ilk marotaba svoplarining o'rni yaqqol ko'rindi. Dastlabki svoplar ichida shundaylari uchrar ediki, ularda majburiyatlar bo'yicha foiz to'lovlarining almashinuvi, ya'ni bir tomon o'zining qat'iy foiz stavkasini ikkinchi tomonning suzuvchi foiz stavkasiga almashtirar edi.¹⁴ Shu davrdan boshlab sotuvchi va sotib oluvchilar tomonidan moliyaviy richag samarasidan intensiv foydalanila boshlanganligi sababli hosilaviy qimmatli qog'ozlar riskni xedjirlash vositasidan yuqori daromad keltiruvchi instrumentga aylana boshladi.

XX asrning boshlarida bozor rivojlanishiga sabab bo'luvchi muhim voqea yuz berdi, ya'ni 1920 yilda muddatli birja savdolaridagi asosiy element hisoblanuvchi kliring palata tashkil etildi.

XX asrning oxiri 90-yillar va XXI asrning boshlarida muddatli savdolarning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalardan biri bu birjalarning xalqaro miqyosda birlashuvi bo'ldi. Jumladan, 1997 yili Germaniya va Shveysariya birjalari birlashtirilib, Eurex ittifoqi tashkil etildi. 2000 yil Parij, Amsterdam va Bryussel (keyinroq ittifoqqa Lissabon birjasi ham qo'shildi) birjalari birlashtirilib, Euronext yagona yevropa birjasi tashkil etildi, so'ngra, ya'ni 2008 yil ushbu birja Nyu-York fond birjasi bilan birlashdi. Shimoliy Amerikaning yirik muddatli birja bozori CME Group 2007 yil Chikago tovar birjasi (Chicago Mercantile Exchange – CME) va Chikago savdo palatasining (Chicago Board of Trade – CBOT) o'zaro birlashuvi natijasida paydo bo'ldi. Hozirgi paytda bu ittifoqqa yuqorida qayd etilganlardan tashqari Nyu-York tovar birjalari NYMEX (New York Mercantile Exchange) va COMEX (Commodity Exchange of New York) ham qo'shilgan.

¹⁴ Деривативы. (Серия «Reuters для финансистов»)/Пер.с англ. М.: Альпина Паблишер, 2002. 19 с.

Hozirgi kunga kelib hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori fond bozorining alohida segmenti sifatida rivojlanib kelmoqda, ayniqsa ushbu moliyaviy instrumentlar aylanmasini birjadan tashqariga chiqishi sababli ular cheklanmagan miqdorda muomalada bo'lish va turli bazis aktivlar bo'yicha, jumladan fond indeksleri va boshqa hisob ko'rsatkichlari bo'yicha ham muomalaga kiritilish imkoniyatiga ega bo'ldi. So'nggi paytlarda hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori boshqa moliyaviy instrumentlarga qaraganda yuqori sur'atlarda o'sishda davom etmoqda va bu esa birjalardagi asosiy volatillik (o'zgaruvchanlik)ni hosil qilmoqda.

5.3. Forvard shartnomalarining mohiyati va ularda aktivlarning forvard narxini aniqlash usullari

Forvard shartnomalari bu birjadan tashqarida tuziluvchi, kelajakda bazis aktivni yetkazib berish haqidagi tomonlarning kelishuvidir. Shartnoma shartlari bitimni tuzish paytida kelishib olinadi. Shartnoma ana shu kelishib olingan shartlar bo'yicha belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Qoidaga ko'ra forvard shartnomasi kerakli aktivlarni haqiqatda sotish yoki sotib olishni amalga oshirish va xaridor hamda sotuvchilarni narxlarni salbiy o'zgarishlaridan sug'urtalash maqsadida tuziladi.

Forvard shartnomalarini ijro etish majburiy hisoblanishiga qaramay kontragentlar uni amalga oshmay qolishidan sug'urtalanmagan, bunday holatlarga tomonlardan birining bankrotligi yoki insofsizligi ham sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun shartnoma imzolangan qadar hamkorlar bir birlarining to'lovga layoqatliklari va obro' e'tiborlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Shartnomani tuzishda tomonlar bitim amalga oshiriladigan narxni kelishib olishlari lozim bo'ladi. Ushbu narx *yetkazib berish narxi* deyiladi va forvard shartnomani amalga oshirish davrida o'zgarishsiz qoladi. Forvard shartnoma bilan aloqador *forvard narx* tushunchasi ham bordir. *Ma'lum bir davr uchun bazis aktivning forvard narxi deb – forvard shartnomani tuzish davrida unda belgilab qo'yilgan narx tushiniladi.* Forvard narxni aniqlashning bir necha xil usullari mavjud. Ularning ayrimlarini quyida ko'rib chiqamiz.

Forvard shartnoma davrida daromad to‘lanmaydigan aktivlarining forvard narxi. Keling, dastavval forvard shartnoma davrida dividend to‘lanmaydigan aksiya misolida ushbu masalani ko‘rib chiqamiz. Faraz qilaylik, investor yarim yildan so‘ng “A” aksiyadorlik jamiyatining aksiyalariga ega bo‘lmoqchi. U aksiyalarni ikki yo‘l bilan olishi mumkin: bugun ularni spot bozordan sotib olish orqali va forvard shartnoma orqali yarim yildan so‘ng unga ega bo‘lish orqali. Agar forvard shartnomani imzolashda aksiyaning spot narxi 10000 so‘mni, risksiz stavka 20%ni, shartnoma davri yarim yilni tashkil etgan bo‘lsa, forvard narxni aniqlang.

Agar investor forvard shartnoma bo‘yicha aksiyalarni sotib olmoqchi bo‘lsa, u holda u aksiyaning spot narxiga teng bo‘lgan summani foizsiz stavka bilan ayni paytda joylashtirishi mumkin. Yarim yildan so‘ng u quyidagi summani oladi:

$$10000\left(1 + \frac{0,2}{2}\right) = 11000 \text{ so'm} \quad .$$

Shunday qilib agar har bir aksiya uchun forvard narx 11000 so‘mga teng bo‘lsa, u holda birinchi va ikkinchi holatlarda ham investor xarajatlari teng bo‘ladi. Bizning misolimiz uchun forvard narx aynan 11000 so‘mga teng bo‘lishi lozim.

Forvard shartnoma bo‘yicha bazis aktivning optimal narxini quyidagi forvard narxini aniqlash formulasidan foydalanib topishimiz mumkin:

$$F = S \left(1 + r \frac{t}{365}\right) \quad (1) \quad .$$

bu yerda, F –forvard narx; S – spot narx; r – risksiz foiz stavka; t – forvard shartnomasini yakunlangunigacha bo‘lgan davr (kunlarda).

Ushbu formulani nafaqat aksiyalar uchun, balki kuponsiz obligatsiyalar uchun ham qo‘llash mumkin.

Misol. Faraz qilaylik, joriy davrda aksiyaning spot narxi 20000 so‘m, risksiz foiz stavka 12%ga teng. Agar shartnoma muddati 3 oyni tashkil etsa, forvard narxni anqlang. Demak 3 oylik shartnoma bo‘yicha forvard narx quyidagiga teng:

$$F = 20000 \left(1 + 0,12 \frac{3}{12}\right) = 20600 \text{ co'm.} \quad \text{so'm.}$$

Agar forvard shartnoma muddati bir yildan ko‘p bo‘lsa, u holda forvard narxni aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$F = S(1 + r)^T \quad (2) \quad ,$$

bu yerda, T – forvard shartnoma davri (yillarda).

Forvard shartnoma davrida daromad keltiradigan aktivlarning forvard narxi. Agar shartnoma amal qilish davrida aksiyalarga dividend to‘lansa, u holda forvard narxi uning hajmiga muvofiq korrektirovka qilinishi zarur. Zero, amaliyotda forvard shartnomani amalga oshirish davri davomida aksiya yoki obligatsiyalarga dividend yoki kupon to‘lovlarini to‘lash bilan bog‘liq holatlar ko‘p uchraydi. Bunday holatlarda forvard narx mana shu to‘lovlar miqdoriga pasaytirilishi zarur, negaki, forvard shartnomaning xaridori, qimmatli qog‘ozlar egasidan farqli o‘laroq ularni olmaydi. Dastavval oddiyroq holatni ko‘rib chiqamiz, unga ko‘ra dividend to‘lovi shartnoma muddati tugash arafasida to‘lanadi. Bunday holatda forvard narx quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$F = S \left(1 + r \frac{t}{365} \right) - Div \quad (3) \quad ,$$

bu yerda, t – shartnomaning amal qilish davri, Div – dividend.

Dividendning absolyut qiymatining o‘rniga dividend stavkasi ko‘rsatkichidan ham foydalanish mumkin. U holda (3) formula quyidagi ko‘rinishga keladi:


$$F = S \left[1 + (r - d) \frac{t}{365} \right] \quad (4) \quad ,$$

bu yerda, d –dividend stavkasi.

Misol. Aksiyaning spot narxi 10000 so‘mni, risksiz stavka 20%ni tashkil etadi. Agar shartnoma 182 kunga tuzilgan bo‘lsa, forvard narxni aniqlang.

$$F = 10000 \left[1 + (0,2 - 0,1) \frac{182}{365} \right] = 10498 \text{ so'm} \quad .$$

Keyingi holatda dividend shartnoma amal qilish davri oralig‘idagi ma’lum bir vaqtda to‘lanadi. Quyidagi rasmda t_2 – shartnomaning amal qilish davri, t_1 – dividend to‘lash kuni aks ettirilgan.



1-rasm. Shartnomaning amal qilish davri (t_2) va dividend to'lash kuni (t_1)¹⁵

Bunday holatda xaridor nafaqat dividendni, balki shartnomani amal qilish muddati tugaguniga qadar uni reinvestitsiya qilib olishi mumkin bo'lgan foizlarni ham yo'qotadi. Bu holatda (3) formula quyidagi ko'rinishga keladi:

$$F = S \left(1 + r_2 \frac{t_2}{365} \right) - Div \left(1 + r_{2,1} \frac{t_2 - t_1}{365} \right) \quad (5) ,$$

bu yerda, r_2 – t_2 davrdagi risksiz foiz, $r_{2,1}$ – $t_2 - t_1$ davrlar uchun risksiz foiz stavka.

Bu (5) formulada dividendning absolyut qiymatini o'rniga forward shartnomani imzolash davriga keltirilgan qiymatidan foydalanish mumkin.

$$D = \frac{Div}{1 + r_1(t_1/365)} ,$$

bu yerda, D – dividendning keltirilgan qiymati, r_1 – t_1 davri uchun risksiz foiz stavka. .

Mazkur holatda xaridor shartnomani ja'mi amal qilish davri davomida dividendni keltirilgan qiymati miqdoridagi summani investitsiya qilishdan olishi mumkin bo'lgan daromadlarini yo'qotadi. Bunda (5) formula quyidagi ko'rinishga keladi:

$$F = (S - D) \left(1 + r \frac{t}{365} \right) \quad (6) ,$$

bu yerda, t – shartnomani amal qilish davri, r – t davrdagi risksiz foiz stavka.

Yuqorida ko'rib chiqilgan formulalar foizli instrumentlar uchun ham qo'llanilishi mumkin. Bunday holatda dividend to'lovi o'rniga bazis aktivga nisbatan to'lanuvchi kupon to'lovlari hisobga olinadi.

Tovarlarning forward narxi. Agar forward shartnoma bazis aktivi tovar hisoblansa, u holda uning egasi forward shartnoma xaridoridan farqli ravishda tovarlarni saqlash, ularni transportda yetkazish va

¹⁵ Буренин А.Н. Рынок ценных бумаг и производных финансовых инструментов: Учебное пособие. М.: 1 Федеративная Книготорговая Компания, 1998. 174 с.

sug'urtalash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni amalga oshiradi. O'z navbatida tovarning forvard narxi ko'rsatilgan xarajatlar summasiga mos ravishda oshirilishi lozim. Agar tovarni saqlash xarajatlari, transport xarajatlari va sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlardan bir dona mahsulotga qancha to'g'ri kelishi aniq belgilangan bo'lsa, u holda bunday tovarning forvard narxi quyidagi formula bilan aniqlanishi mumkin:

$$F = S \left(1 + r \frac{t}{365} \right) + Z \quad (7),$$

bu yerda, F – tovarning forvard narxi; S – tovarning spot narxi; Z – tovarni saqlash, transport xarajatlari va sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar (bir dona mahsulotga); t – forvard shartnoma muddati (kunlarda).

Agar saqlash xarajatlari, transport xarajatlari va sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar tovarning qiymatiga bog'liq holda o'zgaruvchan bo'lsa (bunday holat kam uchraydi), u holda bunday tovarning forvard narxi quyidagicha hisoblanadi:

$$F = S \left(1 + (r + z) \frac{t}{365} \right) \quad (8) \quad ,$$

bu yerda, z – tovarni saqlash, transport xarajatlari va sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar (bir yil hisobida tovar qiymatidan foizda)

Misol. 1 unsiya oltinning spot narxi 1875 dollar. Agar risksiz foiz stavkasi yillik 7%ni tashkil etsa, tovarni saqlash xarajatlari, transport xarajatlari va sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar bo'yicha quyidagi ikki holatni inobatga olgan holda, oltinning uch oylik forvard narxi qanchaga teng bo'ladi?

- 1) Har bir unsiyaga 15 dollardan xarajat to'g'ri keladi;
- 2) Tovar qiymatidan yillik 4% miqdorida to'g'ri keladi.

Birinchi holatda forvard narxga xarajatlarni qo'shish lozim.

$$1875 \times (1 + 0,07 \times 91/365) + 15 = 1922,72 \text{ doll.}$$

Ikkinchi holatda esa risksiz foiz stavkaga oltinning qiymatidan kelib chiqib aniqlanadigan xarajatlar miqdorini qo'shish orqali tovarning forvard narxini aniqlash lozim.

$$1875 \times (1 + (0,07 + 0,04) \times 91/365) = 1926,42 \text{ doll.}$$

Umuman olganda bozor ishtirokchilari tomonidan forvard narxlarni aniqlash orqali bozordagi mavjud forvard shartnomalarining haqiqiy

qiymatini baholash hamda arbitraj operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish mumkin. Xuddi mana shu tartibda aktivlarning fyuchers narxlari ham aniqlanadi.

5.4. Fyuchers shartnomalarining mohiyati va ularning o'ziga xos jihatlari

Fyuchers shartnomalari bu ikki tomon o'rtasida bazis aktivni kelajakda yetkazib berish bo'yicha birjada tuzilgan bitimdir. Ushbu shartnomalarning sharti birja tomonidan belgilanadi va ular har bir bazis aktiv uchun standart hisoblanadi.

Forvard shartnomasi kabi fyuchers shartnomasi ham amalga oshirilishi shart hisoblanadi. Shu bilan birgalikda fyuchers shartnomalarini forvard shartnomasidan bir qator muayyan farqli tomonlari ham mavjud:

- fyuchers shartnomasi standartlashtirilgan hisoblanadi (shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bitim bo'yicha barcha shartlar (yetkazib berish narxidan tashqari) birja tomonidan belgilanadi);
- fyuchers shartnomasini amalga oshirilishi birja tomonidan kafolatlanadi;
- fyuchers bozorining ishtirokchisi shartnoma muddati tugagunicha istalgan vaqtda o'zining pozitsiyasini qarama – qarshi yo'nalishdagi shartnoma (offset) bilan yopishi mumkin (jumladan, fyuchers bozorida qisqa pozitsiyani yopish uchun huddi mana shuncha shartnomalar miqdorida uzun pozitsiyasini ochish lozim, bunday holatda savdo ishtirokchisining pozitsiyasi bekor qilinadi);
- fyuchers bozorida moliyaviy kafolat tizimi amal qiladi, bunda har bir fyuchers shartnomasi bo'yicha ma'lum bir pozitsiyani ochish uchun birja eng kam miqdorda garov ta'minotini belgilaydi hamda uni saqlaydi. Garov badali boshlang'ich yoki depozit marjasi deb atalib, u asosan shartnoma summasidan 2 – 10% ni tashkil etadi.

Fyuchers shartnomalarining asosini nafaqat tovalar, balki moliyaviy instrumentlar ham tashkil etishi mumkin. Bazis aktivlarini

moliyaviy instrumentlar, ya'ni qimmatli qog'ozlar, fond indeksleri, valyutalar, bank depozitlari tashkil etuvchi shartnomalar moliyaviy fyuchers shartnomalari deyiladi.¹⁶

Moliyaviy fyuchers shartnomasi foiz stavkalariga asoslangan forvard shartnomasiga o'xshaydi, moliyaviy instrumentlarni bir tomondan ikkinchi tomonga, kelajakda belgilangan muddatda yetkazib berilishidan darak beradi. Lekin u forvard shartnomasidan ma'lum bir tomonlari bilan farqlanadi, jumladan fyuchers shartnomalari forvard bozoridagi defolt holatlari va likvidlilik bilan bog'liq muammolarni yengib o'tadi.¹⁷ Hozirgi kunda zamonaviy fyuchers bozorlari asosan moliyaviy fyuchers shartnomalari hisobiga rivojlanib kelmoqda.

Biz yuqorida forvard shartnomalari haqida fikr yuritganimizda, forvard narxini aniqlash formulasini keltirgan edik. Ana shu formula orqali fyuchers narxini ham aniqlash mumkin, lekin bu borada fyuchers bozorining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Jumladan, fyuchers bozorlarida arbitraj operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyati ancha kam. Bu avvalo fyuchers shartnomalarining likvidliliigi yuqoriroq ekanligi bilan bog'liq.

Fyuchers narxi deganda fyuchers shartnomasini imzolashda belgilangan narx tushunilib, u investorlarning tegishli aktiv bo'yicha kelajakda kutayotgan spot narxini aks ettiradi. Fyuchers shartnomasini imzolashda bazis aktivning fyuchers narxi spot narxidan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Agar fyuchers narxi spot narxidan yuqori bo'lsa, u holda bu holat kontango deyiladi. Agarda teskarisi, ya'ni fyuchers narxi spot narxidan past bo'lsa, u holda bu holat bekuordeyshn deyiladi.

Fyuchers narxi va spot narxi o'rtasidagi farq bazis deb ataladi. Shartnoma muddatining oxirida bazis nolga teng bo'ladi, chunki fyuchers narx va spot narx o'zaro bir nuqtada kesishadi, ya'ni bazis aktivning fyuchers narxi spot narxga yaqinlashib boradi. Bazis, tovar – xomashyo mahsulotlari bilan savdolarida alohida ahamiyatga ega¹⁸.

¹⁶ Буренин А.Н. Рынок ценных бумаг и производных финансовых инструментов: Учебное пособие. М.: 1 Федеративная Книготорговая Компания, 1998. 180 с.

¹⁷ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and Institutions USA: Prentice Hall, Pearson Education, 2012. P. 593

¹⁸ Деривативы. (Серия «Reuters для финансистов»)/Пер.с англ. М.: Альпина Паблишер, 2002. 52 с.

Fyuchers narxini belgilashning asosiy nuqtasi bu “yetkazib berish narxi”ni aniqlashdir. *Yetkazib berish narxi* – bu shartnoma davri davomida bazis aktivga egalik qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlar va yo‘qotilgan foydadir. Uning tarkibi quyidagi elementlardan iborat:

- a) aktivni saqlash va sug‘urtalash bilan bog‘liq xarajatlar;
- b) bazis aktivni sotib olishga sarflangan summadan investor olishi mumkin bo‘lgan foiz; qarz uchun investor to‘laydigan foiz.

Yuqoridagilarni quyidagicha yozish mumkin:

$$\text{Fyuchersnarx} = \text{Spotnarx} + \text{Foizlar} + \text{Saqlashvasug'urtalashxarajatlari}$$

Agar ushbu tenglik amalga oshmasa, u holda arbitraj operatsiyalarini o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ya’ni,

$$F > S + I_k + Z \text{ bo'lsa,}$$

bu yerda, I_k – kredit foizi; S – bazis aktivning spot narxi; Z – saqlash va sug‘urtalash xarajatlari, u holda arbitraj:

- a) shartnomani sotadi;
- b) I_k foizda mablag‘larni qarzga olib, unga bazis aktivni sotib oladi va uni yetkazib berish davrigacha saqlaydi;
- d) shartnoma muddati tugaganidan so‘ng aktivlarni yetkazib beradi va quyidagi o‘lchamda foyda oladi $[F - (S + I_k + Z)]$. Qimmatli qog‘ozlar bilan savdoda Z nolga teng. Agar

$$F < S + I_d + I_k \text{ bo'lsa,}$$

bu yerda, I_d – depozit foizi, u holda arbitraj:

- a) shartnomani sotib oladi;
- b) aktivni I_k foizda qarzga oladi;
- d) aktivni sotadi va olingan summani I_d foiz bilan joylashtiradi;
- e) shartnoma muddati tugaganidan so‘ng depozit bo‘yicha foizlarni oladi, shartnoma bo‘yicha aktivlar uchun to‘lovni amalga oshiradi, kreditorga foizlari bilan qaytaradi. Uning foydasi esa quyidagicha bo‘ladi: $(S + I_d - I_k - F)$.

Fyucherslar orqali savdolarni amalga oshirishda bozor ishtirokchilari tomonidan ma’lum bir srategiyalar yuritilib, ularning ichida eng oddiy ko‘rinishi bu fyuchers shartnomalarini sotish va sotib olishdir. Shuningdek investor bir vaqtning o‘zida uzun va qisqa pozitsiyalarni ochishi ham mumkin. Bunday strategiya spread yoki streddl deb ataladi. Investor bunday harakatlarni turli fyuchers

shartnomalarining narxi yetkazib berish narxiga teng kelmasligini taxmin qilganda amalga oshiradi. Shu bilan birgalikda spreadni shakllantirish, faqat uzun yoki qisqa pozitsiyani ochishdan ko'ra kam riskli strategiya hisoblanadi. Spread orqali investor narxlarni umumiy o'zgarish darajasi bilan bog'liq zararlarni bartaraf etadi va ayrim sabalarga ko'ra kelib chiqqan narxlarning og'ishi hisobidan foyda olishni mo'ljallaydi.

Xulosa qilib aytganda, fyuchers bozoridagi operatsiyalar spot bozoriga qaraganda yuqori daromadlilik bilan ajralib tursada, lekin bu holat yuqori riskka ega ekanligini ham unutmaslik kerak. Haqiqatda, fyuchers bozorida narxlarning salbiy tomonga o'zgarishi oqibatida ko'rilgan zararlar spot bozoridagi zararlardan ko'ra bir necha marta oshib ketishi mumkin. Demak, fyuchers shartnomasini tuzuvchi shaxslar fond bozorini, uning hozirgi va kelajakdagi holatini hamda narx-navo qanday bo'lishini chuqur o'rganishi va uni bilishi lozim bo'ladi.

5.5. Opsionlar mohiyati va qo'llanilishi

Opsion kelishilgan muddat davomida ma'lum bir mukofot summasi hisobiga belgilangan miqdordagi tovarlar yoki moliyaviy instrumentlarni belgilangan (kelishilgan) narx bo'yicha sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi bitimni o'zida aks ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, opsionlarning ikkita asosiy turi amal qiladi. Ya'ni xarid qilish bo'yicha opsion (*option call*) kelajakda bitimda belgilangan shartlarda bazis aktivini sotib olish huquqini bersa, sotish bo'yicha opsion (*option put*) o'z egasiga kelajakda bazis aktivini bitim shartlariga muvofiq sotish huquqini beradi. Bitimda qayd etilgan bazaviy aktivlar bahosi opsionning ijro etilish (bajarilish) bahosi (*strike price*) deb ataladi. Bitimda kelishilgan sana bitim muddatining tugash sanasi (*expiration date*) yoki to'lov muddati (*maturity*) deb ataladi. Opsion bitimini amalga oshirish stiliga ko'ra Amerika opsioni va Yevropa opsioniga bo'linadi. Amerika opsion (American option)lari ular amal qilish muddatining tugaguniga qadar istalgan paytda bajarilishi mumkin. Yevropa opsion (European option)lari esa ularning tugash muddatiga kelibgina amalga oshirilishi mumkin. Opsionlar birjada va birjadan

tashqarida kotirovkalanadi. Fond birjalarida aksariyat holatlarda kotirovkalanadigan opsionlar bo'yicha bitta opsion bitimining predmeti sifatida 100 ta aksiyani sotib olish yoki sotish olinadi.

Alohida qayd etib o'tish kerakki, opsionlar uning egasiga ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish huquqini beradi va hech qanday majburiyatni yuklamaydi. Ya'ni opsionlar bazaviy aktivlarni sotish yoki sotib olish majburiyatini yuklovchi forvard va fyuchers shartnomalaridan o'zaro farqlanadi. Shuningdek, e'tibor qaratiladigan yana bir jihat borki, forvard va fyuchers shartnomalarini tuzish hech qanday xarajat talab qilmaydi, opsionlar bo'yicha esa to'lov amalga oshirilishi shart. Bu to'lov opsion bo'yicha mukofot deb ataladi.

Dunyodagi eng katta opsion birjasi sifatida Chikago opsion birjasi (CBOE – Chicago Board of Options Exchange, www.cboe.com) faoliyat yuritadi. 1973-yilda mazkur opsion birjasida birinchi marta opsion bitimi tuzilganligini ham ta'kidlash lozim.

Quyidagi jadvalda 2013-yil 29-mayda savdolarining yopilish vaqtida qayd etilgan Intel kompaniyasi aksiyalariga amerika opsionlari bahosi keltirilgan (5.1-jadval). Opsionlarning amal qilish muddatlari iyunda, iyulda va oktyabrda tugaydi. Iyundagi opsionlar 2013-yil 21-iyungacha, iyuldagi 2013-yil 19-iyulgacha, oktyabrdagi esa 2013-yil 18-oktyabrgacha amal qiladi. 2013-yil 29-mayda savdolarining yopilish vaqtida Intel kompaniyasi aksiyalari bahosi 20,83 dollarga teng.

5.1-jadval

2013-yil 29-maydagi Intel kompaniyasi aksiyalariga opsionlar bahosi, aksiya bahosi 20,83 dollar

Ijro etilish bahosi, dollarda	Opsion koll, dollarda			Opsion put, dollarda		
	Iyun	Iyul	Oktyabr	Iyun	Iyul	Oktyabr
20	1,25	1,6	2,4	0,45	0,85	1,5
22,5	0,2	0,45	1,15	1,85	2,20	2,85

Faraz qilaylik, investor brokerga Intel kompaniyasi aksiyalariga bir dona oktyabrgacha opsion kollni 22,5 dollar ijro etilish bahosi bilan sotib olish to'g'risida topshiriq berdi. Broker bu topshiriqni Chikago opsion birjasida bitim tuzuvchi treyderga yubordi. So'ngra bu treyder Intel kompaniyasi aksiyalariga oktyabrgacha opsion kollni 22,5 dollar ijro etilish bahosi bilan sotishni xohlovchi boshqa treyderni topadi.

Taxmin qilaylik, opsiya mukofoti (bahosi) yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgani kabi 1,15 dollar. Bu summa bir dona aksiyani sotib olish uchun opsiya bahosini o'zida aks ettiradi. AQSHda bir dona opsiya shartnomasi 100 ta aksiyani sotish yoki sotib olish bo'yicha tuziladi. Shunday ekan, investor broker orqali 115 dollarni birja hisobraqamiga o'tkazish kerak. Shundan so'ng birja bu summani kontragent hisobraqamiga o'tkazadi.


Yuqoridagi misolga ko'ra, investor 115 dollar hisobiga Intel kompaniyasining 100 dona aksiyasini 22,5 dollardan sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Kontragent operatsiya bo'yicha 115 dollarni oladi va investor opsiya ijro etilishiga qaror qilsa Intel kompaniyasi 100 dona aksiyasini 2013-yil 18-oktyabrgacha 22,5 dollardan sotishga rozilik beradi. Agar Intel kompaniyasi aksiyalari bahosi 2013-yil 18-oktyabrgacha 22,5 dollardan oshmasa opsiya bajarilmaydi, investor esa 115 dollarni yo'qotadi. Lekin Intel kompaniyasi aksiyalar bahosi 30 dollargacha ko'tarilsa investor 100 ta aksiyani 22,5 dollardan sotib olishi mumkin bo'ladi. Bunday holatda investor foydasi 750 dollar $((30 - 22,5) \times 100)$ ni, opsiya bahosini hisobga olgan holda 635 dollar $(750 - 115)$ ni tashkil etadi.

Ikkinchi muqobil bitimni ko'rib chiqamiz. Masalan, investor bitta iyuldagi opsiya putni 20 dollar ijro etilish bahosi bilan sotib olmoqchi. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, bu opsiya har bir aksiya bo'yicha 0,85 dollar va bitta opsiya bitimi bo'yicha 85 dollar $(100 \times 0,85)$ ni tashkil etadi. Bunda investor 85 dollar evaziga 2013-yil 19-iyulgacha Intel kompaniyasi har bir aksiyasini 20 dollardan sotish huquqini oladi. Agar Intel kompaniyasi aksiyalari 20 dollardan oshib ketsa opsiya bajarilmaydi va investor 85 dollarni yo'qotadi. Lekin aksiyalar bahosi 15 dollarga teng bo'lsa, investor tomonidan opsiya ijro etiladi va 100 ta aksiyani 20 dollardan sotish natijasida 500 dollar miqdorida foyda oladi. Bunda opsiya bahosini chegirgan holda operatsiya bo'yicha sof foyda 415 dollarni tashkil etishini ta'kidlash mumkin.

Yana bir holatni ko'rib chiqamiz. Investor eBay kompaniyasi 100 ta aksiyasiga 100 dollar ijro etilish bahosi bilan yevropa opsiya koll sotib oldi. Faraz qilaylik, aksiyalarning joriy bahosi 98 dollarga teng, opsiya bo'yicha to'lov muddati to'rt oyga teng, opsiyalar bahosi (mukofoti) esa har bir aksiyani xarid qilish uchun 5 dollar. Dastlabki investitsiya summasi 500 dollar. Opsionning yevropa opsiya ekanligi

sababli investor uni faqat to'lov muddatining tugash vaqtida bajarishi mumkin. Agar ijro etilish vaqtida aksiya bahosi 100 dollardan past bo'lsa, investor opsiyon shartnomasini bajarish uchun qabul qilmaydi. Ya'ni bozorda aksiya bahosi 100 dollardan past bo'lgan holatda ularni 100 dollardan sotib olishdan hech qanday ma'no yo'q. Bunday holatda investor o'z-o'zidan dastlabki investitsiya summasini, ya'ni 500 dollarni yo'qotadi. Lekin opsiyon muddatining tugash sanasida aksiyalar bahosi 100 dollardan yuqori bo'lsa opsiyon bajarishga qabul qilinadi. Faraz qilaylik aksiya bahosi muddat oxirida 115 dollarga teng bo'lsa, opsiyon bajariladi va investor 100 ta aksiyani 100 dollardan sotib oladi. Bu aksiyalarni darhol sotish natijasida investor har bir aksiya bo'yicha 15 dollardan foyda oladi. Umumiy operatsiya bo'yicha investor foydasi opsiyon bo'yicha dastlabki qo'yilmani hisobga olgan holda 1000 dollarni tashkil etadi.

Quyidagi rasmda opsiyon bajarilish vaqtida bir dona aksiya bahosiga investor foyda yoki zararining bog'liqligi ko'rsatilgan (5.1-rasm).




5.1-rasm. eBay kompaniyasi bir dona aksiyasiga yevropa opsiyon koll sotib olish bo'yicha foyda miqdori. Opsiyon mukofoti 5 dollar, ijro etilish bahosi 100 dollar

Ba'zida opsiyonlarning bajarilishi investor uchun zarar sifatida aks etishi mumkin. Faraz qilaylik, oldingi misolda opsiyon amal qilishining so'nggi kunida eBay kompaniyasi aksiyalari bahosi 102 dollarga teng. Investor opsiyonni bajarishi mumkin va 200 dollar samaraga ega bo'lishi mumkin. Lekin mazkur holatda uning zarari 300 dollarga teng, chunki dastlabki investitsiya (opsiyon mukofoti) 500 dollarni tashkil etadi. Bir qarashda investor mazkur holatda opsiyonni bajarmasligi kerak. Lekin


operatsiyani bajarmaslik, o'z navbatida, 500 dollarning yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, opsion muddati tugash sanasida aksiya bahosi opsionni bajarish bahosidan yuqori bo'lsa uni bajarish lozim.

Opsion koll egasi aksiyalar bahosi o'sishini, opsion put egasi esa aksiya bahosi pasayishini kutadi. Yana bir holatni ko'rib chiqamiz. Investor IBM kompaniyasi 100 ta aksiyasiga 70 dollar ijro etilish bahosi bilan yevropa opsion put sotib oldi. Faraz qilaylik, aksiyalar joriy bahosi 70 dollarga, opsion amal qilish muddati 3 oyga, bitta aksiyani sotish bo'yicha opsion mukofoti 7 dollarga, o'z navbatida dastlabki investitsiya summasi esa 700 dollarga teng. Opsion yevropa opsioni bo'lganligi sababli uning amal qilish muddati tugash vaqtida agar aksiyalar bahosi 70 dollardan past bo'lsa bajariladi. Faraz qilaylik, o'sha payt aksiyalar bahosi 55 dollarga teng. Bunday holatda investor 100 ta aksiyani 55 dollardan sotib olishi va opsion put sharti bo'yicha 70 dollardan sotishi mumkin. Natijada investor operatsiya bo'yicha 1500 dollar samaraga ega bo'ladi, opsion mukofotini hisobga olgan holda operatsiya bo'yicha sof foyda 800 dollarni tashkil etadi. Lekin investorning foyda olishiga hech qanday kafolat yo'q. Agarda muddat tugash vaqtida aksiya bahosi 90 dollarga teng bo'lsa opsion put o'z ahamiyatga ega bo'lmaydi va investor 700 dollar yo'qotadi. Quyidagi rasmda investor foyda yoki zararining aksiyaning yakuniy bahosiga bog'liqligi ko'rsatilgan (5.2-rasm).




5.2-rasm. IBM kompaniyasi bir dona aksiyasiga yevropa opsion put sotib olish bo'yicha foyda miqdori. Opsion mukofoti 7 dollar, ijro etilish bahosi 70 dollar

Amerika opsionlari yevropa opsionlariga nisbatan birmuncha ommabop hisoblanadi. Chunki amerika opsionlarini bajarish uchun yevropa opsioni kabi tugash muddatini kutish talab qilinmaydi. Shundan kelib chiqqan holda quyida asosan amerika opsionlarining muddatdan oldin bajarilishi bilan bog‘liq holatlarni ko‘rib chiqamiz.



5.3-rasm. eBay kompaniyasi bir dona aksiyasiga yevropa opsion koll sotish bo‘yicha foyda miqdori. Opsion mukofoti 5 dollar, ijro etilish bahosi 100 dollar



5.4-rasm. IBM kompaniyasi bir dona aksiyasiga yevropa opsion put sotish bo‘yicha foyda miqdori. Opsion mukofoti 7, ijro etilish bahosi 70 dollar

Har bir opsion shartnomasida ikkita tomon amal qiladi. Bunda bir tomonda uzun pozitsiyaga ega investor (opsion sotib oluvchi), ikkinchi

tomonda esa qisqa pozitsiyaga ega investor (opsion sotuvchi) turadi. Opsion sotuvchi belgilangan majburiyatni o'ziga olish uchun pul mablag'i oladi. Uning foyda yoki zararlari opsion sotib oluvchining foyda yoki zararlari teskari bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha opsion sotuvchi foyda yoki zaralarining aksiya yakuniy bahosiga bog'liqligi quyidagi rasmlarda keltirilgan (5.3, 5.4-rasmlar).

Amaliyotda opsion pozitsiyalari bo'yicha to'rtta variant amal qiladi:

- opsion kollda uzun pozitsiya;
- opsion putda uzun pozitsiya;
- opsion kollda qisqa pozitsiya;
- opsion putda qisqa pozitsiya;

Yevropa opsionlarida pozitsiyalarni opsion amal qilish muddatining tugash vaqtidagi investorga to'lovlar miqdorini ko'rsatgan holda tavsiflash birmuncha qulay. Opsionlarning dastlabki qiymati hisob-kitoblarda hisobga olinmaydi.

K – ijro etilish bahosi, S_T – bazaviy aktivning yakuniy bahosidan kelib chiqqan holda Yevropa opsion koll uzun pozitsiya bo'yicha to'lovlar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\max(S_T - K).$$

Bu formula agar $S_T > K$ bo'lgan holatdagina opsion bajarilishini o'zida aks ettiradi. Yevropa opsion koll qisqa pozitsiya bo'yicha to'lovlar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$-\max(S_T - K) = \min(K - S_T).$$


Yevropa opsion put uzun pozitsiyada opsion egasiga to'lovlar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\max(K - S_T).$$


Yevropa opsion put qisqa pozitsiyada esa opsion egasiga to'lovlar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$-\max(K - S_T) = \min(S_T - K).$$


Keltirilgan barcha variantlar quyiagi rasmda keltirilgan (5.5-rasm).




a)



b)



d)



e)

5.5-rasm. Yevropa opsiyida pozitsiyalar bo'yicha opsiy egasi to'lovlar:
a) uzun opsiy koll; b) qisqa opsiy koll; d) uzun opsiy put; e) qisqa opsiy put

Osiy shartnomalarida bazaviy aktivlar sifatida aksiyalar, valyutalar, fond indeksleri, fyucherslar olinadi.

Aksiyalar bo'yicha opsiyalar yoki fond opsiylari (stock options) Chikago opsiy birjasida, Filadelfiya fond birjasida (www.fhlx.com), Amerika fond birjasida (www.amex.com), Tinch okeani fond birjasi (www.pasifex.com) va Xalqaro qimmatli qog'ozlar birjasida (www.iseoptions.com) kotirovkalanadi. Osiyalar 1000 dan ortiq turli xil aksiyalar bo'yicha tuziladi. Bitta kontrakt uning egasiga 100 ta aksiyani belgilangan ijro etilish bahosi bo'yicha sotish yoki sotib olish

huquqini beradi. Bunday shartnoma miqdori aksiyalarning o'zi uchun ham qulay, qoidaga ko'ra 100 dona aksiya bo'yicha lotlar sotiladi.

Xorijiy valyutalar bo'yicha opsionlarning katta qismi Filadelfiya fond birjasida kotirovkalanadi. U yerda turli xil xorijiy valyutalarni oldi-sotdisi bo'yicha yevropa va amerika opsionlari kotirovkalanadi. Bitta shartnoma miqdori valyuta turiga bog'liq. Masalan, Britaniya funt sterlingi bo'yicha bitta opsion shartnomasi uning egasiga 31250 funt sterling sotib olish yoki sotish huquqini beradi. Yapon ieni bo'yicha bitta opsion shartnomasi esa 6,25 million ien sotib olish yoki sotish huquqini taqdim etadi.

Butun dunyo bo'yicha turli xil *fond indekslariga opsionlar* yoki *indeksli opsionlar (index option)* kotirovkalanadi. Ulardan keng tarqalganlari sifatida S&P 500 (SPX), S&P 100 (OEX), Nasdaq 100 (NDX) va Dou-Jons (DJX) indekslariga opsion shartnomalarini keltirish mumkin. Fond indeksleri bo'yicha opsionlar ham yevropa va amerika opsionlariga bo'linadi. Masalan, S&P 500 (SPX) bo'yicha opsion yevropa opsi, S&P 100 (OEX) bo'yicha opsion esa amerika opsi hisoblanadi. Bitta shartnoma uning egasiga indeksning 100 baravari miqdoridagi aktivni oldindan kelishilgan ijro etilish bahosi bo'yicha sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Hisob-kitoblar har doim naqd pulda amalga oshiriladi. Masalan, S&P 100 indeksi bo'yicha opsion koll ijro etilish bahosi 980 dollarga teng. Qachonki indeks bahosi 982 dollarga ko'tarilganda opsion bajariladigan bo'lsa opsion sotuvchi uning egasiga $(992 - 980) \times 100 = 1200$ dollar to'laydi. Naqd hisob-kitoblar kun oxirida qayd etilgan indekslar qiymatiga asoslanadi. Ya'ni ko'p holatlarda opsion egalari o'z sotish yoki sotib olish huquqidan foydalanishga ishonch hosil qilgandagina sotish yoki sotib olishini e'lon qiladi va odatda investorlar kun oxirigacha kutib turadi.

Fyuchers opsionlari yoki *fyuchers bo'yicha opsionlar (futures option)*da bazaviy aktiv sifatida fyuchers shartnomalari qo'llanadi. Bunday opsion aniq belgilab qo'yilgan bazis aktiv bo'yicha fyuchers shartnomasini sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Hozirgi vaqtda asosida oddiy fyuchers shartnomalari bo'lgan aksariyat aktivlar bo'yicha fyuchers opsionlari ko'pchilik uchun qulay. Qoidaga ko'ra, fyuchers shartnomalari va fyuchers opsionlar bitta birjada kotirovkalanadi.

5.6. Svoplar va ularning qiymatini baholash

Moliyaviy institutlar, forward, fyuchers va opsiyonlar bilan birgalikda yana bir muhim moliyaviy instrument hisoblanuvchi, svoplardan keng foydalanadilar. *Svop bu shunday moliyaviy shartnoma bo'lib, u bir tomonga tegishli bo'lgan kelgusidagi to'lovlarni ikkinchi tomonning kelgusidagi to'lovlariga almashtirish vazifasini yuklaydi.*¹⁹ O'z tuzilishiga ko'ra svoplar yagona tamoyilga tayanadi: ikki tomon bir yoki bir necha to'lovlarni almashishga kelishib olishadi. Bunda ko'pchilik holatlarda almashinuv qat'iy belgilangan va o'zgaruvchan foiz stavkalari o'rtasida amalga oshiriladi.

Svoplarni fyuchers shartnomalaridan farqli jihatlar quyidagilardan iborat: birjadan tashqari bozorda amalga oshiriladi, shartlar kontragentlar tomonidan belgilanadi, yirik kompaniyalar va banklar bilan tuziladi va boshqalar.

Svoplarni qo'llashdan maqsad foiz stavkalarini, valyuta kurslarini, tovarlarning narxlarini, aksiyalarga investitsiyalarni va boshqa instrumentlar bilan bog'liq risklarni xedjirlash va foyda olishdan iborat.

Svoplarning bir necha xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz.

Foizlar svopi. Svoplarning bu ko'rinishi qat'iy belgilangan foiz stavkasiga ega qarz majburiyatini, o'zgaruvchan foiz stavkaga ega majburiyatlar bilan almashtirishdan iborat. Bu svop shartnomasida ishtirok etuvchilar faqat foiz stavkalarni almashishadi (nominalni emas). Shartnoma shartlariga ko'ra tomonlar o'rtasida to'lovlarni almashtirish bir necha yillar davomida amalga oshiriladi, odatda svoplarning amal qilish muddati ikki yildan o'n besh yilgacha cho'ziladi. Svoplarda ko'pincha o'zgaruvchan foiz stavkasi sifatida LIBOR (London Interbank Offer Rate)²⁰ stavkasidan foydalaniladi.

Svoplar bo'yicha qat'iy belgilangan to'lovlarni amalga oshiruvchi shaxsni svop xaridori deyiladi. O'zgaruvchan to'lovlarni amalga oshiruvchi shaxsni esa svop sotuvchisi deb yuritiladi.

¹⁹ Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial markets and Institutions – USA: Prentice Hall, Pearson Education, 2012. P. 613

²⁰ LIBOR – bu resurslarni jalb qilish bo'yicha London banklararo stavkasi. U turli valyutalarga nisbatan hisoblanadi. Halqaro moliya bozorlaridagi qarz munosabatlarida inobatga olinuvchi o'zgaruvchi foiz stavkasi.

Valyuta svopi. Bu shartnoma turiga ko'ra shartnoma muddati tugagunga qadar kelishilgan muddatlarda bir tomon to'lovlarni bir valyutada, ikkinchi tomon to'lovlarni boshqa valyutada amalga oshiradi. Tomonlar qat'iy belgilangan va o'zgaruvchan stavkalarda to'lovlarni har ikkala valyutada ham amalga oshirishlari mumkin.

Valyuta svopini amalga oshirishning bir necha sabablari bo'lishi mumkin, masalan, valyuta konvertatsiyasidagi cheklovlar, valyuta risklarini bartaraf etish istagi yoki boshqa davlat valyutasida obligatsiyalar chiqarishga intiluvchi emitent o'zga davlatda u qadar nomi chiqmagan va buning natijasida bozorga to'g'ridan to'g'ri kira olmasa va boshqalar.

Aktivlar svopi. Aktivlar svopi doirasida bir aktiv bo'yicha qat'iy foizlar, boshqa aktiv bo'yicha o'zgaruvchan foizlarga almashtiriladi.

Tovar svopi. Bu shartnomalarga ko'ra aniq bir tovarga nisbatan qo'llaniluvchi qat'iy to'lovlar o'zgaruvchan to'lovlarga almashtiriladi. Ularning tuzilishi foizlar svopiga o'xshaydi. Hozirgi sharoitlarda tovar svoplarini sezilarli o'sishiga tovar bozorlaridagi nobarqaror narxlar sabab bo'lmoqda. Albatta bu holat birjadagi tovarlar bo'yicha muddatli savdolarini ham rivojlanishiga sabab bo'ladi. Lekin birja savdolaridan farqli ravishda aynan tovar svopi orqali shartnomalar uzoq muddatlarga tuzilishi, shu bilan birgalikda kelajakdagi bir qator muddatlar uchun ma'lum bir narxlarni belgilashi bilan ajratib turadi.

Yuqoridagilardan tashqari svoplarning bir necha xil ko'rinishlari mavjud: kep (cap), flo (floor), kollar (collar), jamg'arma svopi (accrual swaps), svopsion (swap options, swaptions), amortizatsion svop (amortizing swaps), o'suvchi svop (accreting swaps), diskontlangan svop (discount swap) va boshqalar.

Svop shartnomasi doirasida bir tomon o'zining majburiyatlaridan voz kechmoqchi bo'lsa, u o'zining majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan kompaniyani izlab topishi lozim bo'ladi. Svop tuzilgandan so'ng boshlang'ich bosqichda bunday holatni yuz berishi kontragentlarga hech qanday ta'sir etmasligi mumkin, lekin majburiyatlar amalda bo'lgan shartnoma doirasida boshqa shaxsga o'tkazilayotgan bo'lsa, u holda bunday svop ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan bo'lib, uni baholash juda zarur hisoblanadi. Bundan tashqari

hisob kitob qilish maqsadida har bir aniq vaqtdagi svopning qiymatini bilish zaruriyati paydo bo'lishi ham mumkin.

Svopni baholash uchun uni ikki obligatsiyalarning kombinatsiyasi sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Investor ularning biriga nisbatan uzun pozitsiyasini, ikkinchisiga nisbatan esa qisqa pozitsiyani tanlagan bo'lsa, bu holatda svop qiymati mana shu ikki obligatsiya narxlarining farqiga teng bo'ladi. Aytaylik, svop shartnomasi doirasida kompaniya o'zgaruvchan foizlarda to'lab, qat'iy foizlarda olsa, bunday holatda svop narxi quyidagiga teng bo'ladi:

$$P_c = P_1 - P_2.$$

bu yerda, R_s – svopning narxi; R_1 – qat'iy kuponli obligatsiya narxi; R_2 – o'zgaruvchan kuponli obligatsiya narxi.

Svop bo'yicha majburiyatlarni to'xtatish uchun kompaniya qat'iy foizli obligatsiyani sotib, o'zgaruvchan foizli obligatsiyani sotib olishi kerak. Agar kompaniya svop doirasida qat'iy foizlarda to'lab, o'zgaruvchan foizlarda olsa u holda svopning narxi quyidagiga teng:

$$P_c = SP_f - P_d.$$

bu yerda: S – valyutaning spot kursi, to'g'ridan – to'g'ri kotirovka asosida taqdim etilgan; P_f – obligatsiyaning xorijiy valyutadagi narxi; P_d – obligatsiyaning milliy valyutadagi narxi.

Obligatsiya bo'yicha to'lovlarni diskontlash uchun tegishli davrlardagi stavkalar va valyutalar olinadi.

Moliya institutlari turli xildagi moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish maqsadida, svoplar bo'yicha defolt holatlari haqida yetarlicha xabardor bo'lishlari lozim. Bunda xuddi forvard shartnomasi kabi svop shartnomasida qatnashuvchi har ikki tomonlar shartnomani amalga oshirilishini ta'minlashlari uchun bir birlari haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim bo'ladi.²¹

Shuningdek svop ishtirokchisi shartnomani baholashi va narx bo'yicha ta'sirchanligini aniqlab olishi zarur. Undan so'ng maksimal darajada mos keladigan xedjirlash instrumentini aniqlash lozim. Bunday asosiy vazifa mos keluvchi xedjni tanlab olib, u orqali svop pozitsiyalari

²¹ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and Institutions USA: Prentice Hall, Pearson Education, 2012. P. 616

bo'yicha har qanday yo'qotishlar, xedjirlash uchun qo'llanilgan shartnomadan olingan daromadlar bilan qoplanishidan iborat.²²

Xulosa qilib aytganda, hosilaviy qimmatli qog'ozlar kelajakdagi narxlar o'zgarishidan hosil bo'luvchi riskni cheklashda sug'urta sifatida qo'llanilib, kompaniyalar ulardan o'z prognozlarini barqarorlashtirish va pul mablag'larinining oqimini tartiblashtirish maqsadida foydalanishadi. Shunday ekan, forvard, fyuchers, opsion va svop bitimlarini amalga oshirilishi ularning egalariga qo'shimcha daromad topish imkoniyatini yaratadi. Lekin bunda ularning qiymatini hisoblash masalasiga alohida etibor qartilishi lozim bo'ladi.

²² Де Ковни Ш., Такки К. Стратегии хеджирования. Пер. с англ. М.: ИНФРА-М, 1996. 101,102с.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyati va turlari.
2. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
3. Svoplar bo'yicha bazis aktivlar.
4. Valyutalar bo'yicha svop shartnomalarining qo'llanilishi.
5. Fyuchers shartnomalari bo'yicha bazis aktivlar.
6. Opsionlar turlari va ularning o'zaro farqli jihatlari.
7. Opsionlar bo'yicha bazis aktivlar.
8. Opsionlar va fyucherslarning o'zaro farqli xususiyatlari.
9. Opsion pozitsiyalarini izohlab bering.
10. Forvard bitimlarining qo'llanish xususiyatlari.

2. Har bir hosilaviy qimmatli qog'oz turi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi jadvalni to'ldiring.

Fyuchers	Opsion	Forvard	Svop
1	1	1	1
2	2	2	2
3	3	3	3
...	...	...	...


3. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha quyidagi T-sxemani to'ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1	1
2	2
3	3
...	...

4. Opsionlar va fyucherslarning umumiy va o'zaro farqli jihatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1	1
2	2
3	3
...	...

5. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy mohiyatini va xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi klaster shakllantiring.



TESTLAR

1. Forvard shartnomalarining mohiyati to‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang.

a) bu shartnomalar birjadan tashqarida tuziluvchi, kelajakda bazis aktivni yetkazib berish haqidagi tomonlarning kelishuvidir;

b) bu ikki tomonning oldindan kelishilgan shartlariga muvofiq kelajakda ma’lum bir to‘lovlarni va yoki bazis aktivlarni (kelishilgan miqdorda) almashtirish bo‘yicha bitimidir;

d) bu shunday shartnomalarki, uning natijasida qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish huquqi ma’lum bir mukofot evaziga sotib olinadi;

e) bu ikki tomon o‘rtasida bazis aktivni kelajakda yetkazib berish bo‘yicha birjada tuzilgan bitimdir.

2. Forvard shartnoma davrida daromad keltirmaydigan aktivlarning forvard narxini aniqlash formulasi to‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang.

a) $F = S(1 + r \frac{t}{365});$

- b) $F = S(1 + \frac{t}{365});$
- d) $F = S(1 + r \frac{t}{365}) - Div;$
- e) $F = S(1 + \frac{t}{365}) + Div.$

3. Forvard shartnoma davrida aksiyalarga dividend to'lanishi forvard narxiga qanday ta'sir etadi?

- a) forvard narxi to'lanadigan dividendlar hajmiga muvofiq korrektirovka qilinadi;
- b) to'lanadigan dividendlar forvard narxiga ta'sir etmaydi;
- d) forvard shartnomaning bazis aktivi sifatida aksiyalar qo'llanilmaydi;
- e) dividend qiymati aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori bo'lgandagina forvard narxi dividend hajmiga muvofiq korrektirovka qilinadi.

4. $D = \frac{Div}{1 + r_1(t_1 / 365)}$ formulasi nimani anglatadi?

- a) forvard shartnomani imzolash davriga keltirilgan dividend qiymatini aniqlashni;
- b) forvard shartnomasini yakunlangunigacha bo'lgan davrni aniqlashni;
- d) fyuchers shartnomasi davrida daromad keltiradigan aktivlarning fyuchers narxini aniqlashni;
- e) dividend stavkasini aniqlashni.

5. Bazis aktivlarini moliyaviy instrumentlar, ya'ni qimmatli qog'ozlar, fond indeksleri, valyutalar, bank depozitlari tashkil etuvchi muddatli shartnomalar nima deb ataladi?

- a) moliyaviy fyuchers shartnomalari;
- b) valyuta svopi shartnomalari;
- d) forvard shartnomalari;
- e) opsiyonlar.

6. Fyuchers narxini spot narxidan yuqori bo‘lish holati nima deb ataladi?

- a) kontango; b) bekuordeyshn;
d) stredl; e) spred.

7. Bekuordeyshn atamasi qanday holatni anglatadi?

- Fyuchers narxini spot narxidan past bo‘lish holatini;
- Fyuchers narxini spot narxidan yuqori bo‘lish holatini;
- Spot narxini fyuchers narxidan past bo‘lish holatini;
- Spot narxini fyuchers narxidan yuqori bo‘lish holatini.

8. Svp shartnomalarining mohiyati to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) bu ikki tomonning oldindan kelishilgan shartlariga muvofiq kelajakda ma'lum bir to'lovlarni va yoki bazis aktivlarni (kelishilgan miqdorda) almashtirish bo'yicha bitimidir;
- b) bu shartnomalar standartlashtirilgan bo'lib, ular faqatgina birja savdolarining obyekti sifatida nomoyon bo'ladi;
- d) bu shartnomalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning egasi qimmatli qog'ozning o'zini emas balki uni sotib olish yoki sotish huquqini ma'lum bir mukofot evaziga sotib oladi;
- e) bu shartnomalar birjadan tashqarida tuziluvchi, kelajakda bazis aktivni yetkazib berish haqidagi tomonlarning kelishuvidir.

9. Svop shartnomalarida o‘zgaruvchan foiz stavkasi sifatida asosan qaysi foiz stavkasidan foydalaniladi?

- a) LIBOR;
b) FIBOR;
d) MIBOR;
e) INSTAR.

10. Kompaniya svop shartnomasi doirasida qat'iy foizlarda to'lab, o'zgaruvchan foizlarda olsa, u holda svop narxini aniqlash formulasi to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) $P_c = S \times P_f - P_d$; b) $P_c = S \times P_f - P_d$;
d) $P_c = \frac{S \times P_f}{P_d}$; e) $P_c = P_f - P_d$.

VI BOB. IPOTEKA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI

6.1. Ipoteka bozori faoliyatining nazariy jihatlar

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha ham qator islohotlar va chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida barcha hududlarda keng miqyosli ishlar davom ettirilayotganligini ham qayd etib o'tish zarur. Mazkur amaliyotda tijorat banklari faol ishtirok etayotganligi, ipoteka kreditlari taqdim etilayotganligi barchamizga ma'lum. Jahon amaliyotida ipoteka kreditlash amaliyoti bilan bir vaqtda ipoteka qimmatli qog'ozlari muomalasi ham keng doirada qo'llaniladi. Shundan kelib chiqqan holda quyida ipoteka qimmatli qog'ozlari muomalasi xususida fikr yuritamiz.

“Ipoteka – bu real aktiv bilan ta'minlangan uzoq muddatli kreditdir”.²³ Kengroq ta'kidlaydigan bo'lsak, “Ipoteka – majburiyatlarni ko'chmas mulk bilan ta'minlashning bir usuli bo'lib, bunda agar garovga qo'yuvchi o'z majburiyatlarini bajarmasa, garovga oluvchi o'z talablarini garovga qo'yilgan ko'chmas mulk hisobidan qondirish huquqiga ega bo'ladi”.²⁴ Ipoteka krediti – banklar tomonidan ko'chmas mulk garovi asosida ko'chmas mulkni sotib olish yoki qurish uchun beriladigan uzoq muddatli kredit turidir.²⁵ Bunda ipoteka krediti sotib olinayotgan ko'chmas mulk orqali beriladi va garov predmeti sifatida ko'chmas mulk amal qiladi.²⁶ Ipoteka krediti bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarilgach ko'chmas mulk ipoteka krediti oluvchining to'liq egaligigiga o'tadi. Ipoteka va ipoteka kreditlash amaliyotini moliyaviy ta'minlash maqsadida tijorat banklari tomonidan ipoteka qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqarilishi mumkin. Bunday amaliyot xalqaro tajribada keng qo'llaniladi. Ipoteka bozori rivojlanish

²³ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 324

²⁴ Саттаров Б.К. Ўзбекистонда ипотека қимматли қоғозлари бозорини шакллантириш йўллари. И.ф.н. илмий даражасини олиш тақдим этилган дисс.автореферати. Т., 2012. Б. 8.

²⁵ Косарева Н.Б. Основы ипотечного кредитования. М.: ИНФРА-М, 2007. С.5.

²⁶ Гусева И.А. Финансовые рынки и институты. М.: Юрайт, 2018. С. 105.

jarayonida bir nechta muammolarga duch kelingan. Ya'ni "birinchidan, dastlabki vaqtda ipoteka miqdori jud past bo'lgan. Natijada ko'plab institutsional investorlar bunday kichik moliyaviy instrument ishlashni lozim tompagan.

Ikkinchi muammo ikkilamchi bozorda ipoteka savdolari bilan bog'liq bo'lib, bunda savdolarning standartlashtirilmaganligi salbiy ta'sir ko'rsatgan. Unda qoplash davrining, foiz stavkalarining, bitim shartlarining turlichaligi amal qilishi ipoteka bozori kengayishiga to'sqinlik qilgan.

Uchinchidan, ipoteka kreditlari xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan qimmatligi bilan ajralib turgan.

Ipoteka kreditlariga xizmat ko'rsatishni korporativ obligatsiyalarga xizmat ko'rsatish bilan solishtirilganda bunga yaqqol guvoh bo'lish mumkin. Kreditor har oylik to'lovni undirishi, mulk bo'yicha soliqlarni to'lashi, sug'urta mukofotlari to'lab borishi va zaxira hisobi bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi lozim. Korporativ obligatsiyalar bo'yicha bunday emas.

Va nihoyat, to'rtinchidan, ipoteka bo'yicha noaniq to'lovga qobiliyatsizlik riski mavjud. Investorlar ipoteka bo'yicha kredit oluvchini baholashga ko'p vaqtlarini sarflashni xohlamaydilar. Bu muammolar ipoteka qimmatli qog'ozlari, shuningdek sekyuritizatsiyalashgan ipoteka yuzaga kelishiga olib keldi".²⁷

Ipoteka qimmatli qog'ozlari – bu, ipoteka amaliyotini moliyalashtirish maqsadida muomalaga chiqariladigan va uzoq muddatli ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlardir. Bunda ipoteka qimmatli qog'ozlari orqali jalb qilingan mablag'lar qayta moliyalashtirish natijasida ipoteka kreditlari taqdim etiladi. Ipoteka qimmatli qog'ozlari turlari va ularning tavsifini quyidagi jadvalda keltiramiz (6.1-jadval).

²⁷ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 336

Ipoteka qimmatli qog'ozlari tasnifi va tavsifi²⁸

Ipoteka qimmatli qog'ozlari turlari	O'ziga xos xususiyatlari
1. Garov qog'oz (varaqasi, xati)	Egasi yozilgan va orderli qimmatli qog'ozlar belgilarini o'zida jamlagan, uzatuv yozuvlari orqali cheksiz muomalada bo'lish xususiyatiga egaligi unga vekselning ayrim hossalari beradigan emissiyalanmaydigan qimmatli qog'ozdir
2. Uy-joysertifikati	Uy-joy sertifikati uning birinchi egasi tomonidan muayyan uy-joy maydoni va joyda qurilayotgan yoki qayta qurilayotgan uyda qurish uchun mablag' ajratilganligini tasdiqlovchi emissiyalanmaydigan qimmatli qog'ozdir
3. Ipoteka obligatsiyalari	Majburiyatlarning bajarilishi ipoteka garov ta'minoti bilan ta'minlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozdir
4. Ishtirok etish ipoteka sertifikati	Ipoteka ta'minoti umumiy mulkida o'z egasining ulush huquqini tasdiqlovchi egasi yozilgan emissiyalanmaydigan qimmatli qog'ozdir

Ipoteka qimmatli qog'ozlari ichida eng keng qo'llaniladigan qimmatli qog'oz turi bu ipoteka obligatsiyalaridir. Ipoteka obligatsiyalari muomalasi ipoteka kreditlari sekyuritizatsiyasi yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Bunday amaliyot bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagilarga imkon beradi:

- aholi va tashkilotlarning bo'sh pul mablag'larini moliya bozoriga jalb qilish va daromadlilikni ta'minlash;
- uy-joy bozorini rivojlantirish asosida aholining uy-joyga talabini samarali qanoatlantirish;
- fond bozorida savdo qilinadigan moliyaviy instrumentlar turlarini ko'paytirish va hokazolar.

Ipoteka obligatsiyalari muomalasi bo'yicha shartlar ipoteka kreditlari shartlari bilan o'zaro muvofiqlikda belgilanishini ham shu o'rinda qayd etib o'tish lozim.

²⁸ Саттаров Б.К. Ўзбекистонда ипотека қimmatли қоғозлари бозорини шакллантириш йўллари. И.ф.н. илмий даражасини олиш тақдим этилган дисс.автореферати. Т., 2012. Б. 8.

6.2. Ipoteka bozori modellari va qo'llanish xususiyatlari

Ipoteka amaliyotining yuzaga kelishi Qadimgi Gretsiyada yerga egalik qilish va quldorlik bilan o'zaro bog'lanadi. Bunda qarzga yer olgan shaxs o'z vaqtida qarzini qaytara olmagan holatda qullikka olingani manbalarda qayd etiladi. Qadimgi Rim, umuman Yevropada esa ipoteka amaliyoti o'rta asrlardan boshlab qo'llanilganligi ta'kidlanadi.

Ipoteka kreditlari bo'yicha qayta moliyalashtirish tizimi Amerika qo'shma shtatlarida 1930-yillardan boshlab keng qo'llanila boshlangan. Aynan shu davrdan boshlab mamlakatda ipoteka kreditlash amaliyotini qo'llab-quvvatlash maqsadida ixtisoslashgan tashkilotlar, shu jumladan ipoteka agentliklari tashkil etiladi. AQSHda ipoteka kreditlari bozori rivojlangan ipoteka obligatsiyalari bozori asosida faoliyat yuritadi. Chunki ipoteka obligatsiyalari ipoteka kreditlashini amalga oshirishda banklarning qayta moliyalashtirishini ta'minlaydi.

Rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan ipoteka bozori amaliyotida bugungi kunda banklar eng faol ishtirokchiga aylangan. Keltirilayotgan bu jihatlar ipoteka bozori modellari shakllanishiga xizmat qilgan.

Bunda "uchta model ajratib ko'rsatiladi: an'anaviy model (bitta bosqichli, yevropa modeli), ikki bosqichli model (amerika modeli) hamda ssuda-jamg'arma modeli".²⁹

Ipoteka bozori bo'yicha an'anaviy model (bitta bosqichli, yevropa modeli) bankning ta'minlangan obligatsiya tipidagi qimmatli qog'ozlarni mustaqil chiqarishi va shu asosda garovga qo'yilayotgan ko'chmas mulkni kreditga berishi bilan tavsiflanadi. Bu model nemis modeli deb ham ataladi. Mablag'lar jalb qilish va kredit berish muddatlari o'rtasida vaqtinchalik farq mavjudligi, bank uchun kredit va foiz riskining yuqoriligi kabilar mazkur modelning kamchiliklari hisoblanadi. Lekin bu model asosida ipoteka kreditlashni tashkil etish nisbatan jahon amaliyotida keng qo'llaniladi. Uning keng qo'llanilishi sabablaridan biri Yevropada umumiy amaliyot sifatida uzoq muddatli kreditlar bo'yicha suzib yuruvchi foiz stavkalari, banklar uchun eng

²⁹ Гусева И.А. Финансовые рынки и институты. М.: Юрайт, 2018. С. 109-111.

yuqori riskni chegaralash kabilarning qo'llanilishidir. Yevropada ipotekaga asoslangan eng yirik obligatsiyalar bozori Germaniya bozoridir. Ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalarni moliyalashtirish uchun nemis ipoteka banklari chiqaradigan obligatsiyalar keng jamoatchilik o'rtasida savdoga chiqariladi.

Ikki bosqichli model (amerika modeli) ipoteka bozorining berilgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish ko'chmas mulk bilan ta'minlangan ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hisobiga amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Bu modelning asosida risklarni taqsimlash g'oyasi yotadi. Ipoteka krediti beruvchi bank uni sekyuritizatsiya o'tkazish uchun tashkil etilgan maxsus tashkilotlar, ya'ni ipoteka agentlariga sotadi. Ipoteka agentlari o'z navbatida ipoteka qimmatli qog'ozlarini chiqaradilar va ularni bozorda sotadilar hamda bankni qayta moliyalashtiradi. Natijada ipoteka krediti bank balansidan chiqarilib, ipoteka balansiga kirim qilinadi. Kredit o'tkazilgan vaqtdan boshlab bankda bu amaliyot bo'yicha hech qanday risk qolmaydi va yangi moliyalashtirishga ega bo'ladi. Amaliyot natijasida foydaning bir qismiga ipoteka agentiga taqsimlanadi. Agarda kredit bo'yicha defolt (qaytamaslik) holati yuzaga keladigan bo'lsa, zarar ipoteka agenti zimmasiga tushadi.

Amerika qo'shma shtatlarida ipoteka agentlarining keng tarmog'i mavjud bo'lib, ulardan eng yiriklari Uy-joy ipoteka krediti federal korporatsiyasi (Federal Home Loan Mortgage Corporation, Freddie Mac), Federal milliy ipoteka assotsiatsiyasi (Federal National Mortgage Association, Fannie Mae), Davlat milliy ipoteka assotsiatsiyasi (Government National Mortgage Association, Ginnie Mae) kabilar tilga olinadi.


Ssuda-jamg'arma modelida ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish ipoteka qimmatli qog'ozlari hisobiga emas, balki aniq maqsadli yo'naltirilgan tartibda tashkil etiladigan o'zaro yordam kassalari tamoyili bo'yicha kelgusi qarz oluvchilarning jamg'armalarini jalb qilish hisobiga amalga oshiriladi. Masalan, Fransiyada uy-joy jamg'arma hisobraqamlarining bir necha turlaridan foydalaniladi. Bunda 150 ming yevro miqdorida ipoteka kreditlari olishga da'vogarlik qilish uchun 100 ming yevrogacha mablag' jamg'arish mumkin bo'lgan jamg'arma omonatlari – jamg'arma daftarchalari amal qiladi. Bunda

asosiy shart sifatida jamg'arma omonatlari miqdori belgilangan ko'rsatkichga yetishiga e'tibor qaratiladi. Ipoteka krediti olishning yana bir usuli uy-joy jamg'armasi rejasini ro'yxatga olish va jamg'arma 400 ming yevroga yetgach, 600 ming yevro miqdoridagi ipoteka krediti olishga ariza taqdim etish mumkinligi bilan izohlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki ipoteka bozorida ikkala tomon, ya'ni qarz oluvchi qarz beruvchining birgalikdagi faoliyati ko'zga tashlanadi.

6.3. Mamlakatimizda ipoteka bozori amaldagi holati

Mamlakatimizda ipoteka kreditlash amaliyoti to'g'ridan-to'g'ri kreditlash amaliyotiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 4 oktyabrdagi "Ipoteka to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar mahkamasi-ning 2007 yil 3 yanvardagi "Uy-joy qurilishiga, uni rekonstruksiya qilishga va sotib olishga ipoteka krediti berish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 2-sonli qaroriga asosan tartibga solinadi.

Mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlari quyidagilar hisobidan beriladi (6.1-rasm).



6.1-rasm. Tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlari berish manbalari

Yuqoridagilardan ham ko‘rish mumkinki, banklar tomonidan bevosita ipoteka kreditlarini moliyalashtirish yoki qayta moliyalashtirish maqsadida ipoteka qimmatli qog‘ozlari muomalasi yo‘lga qo‘yilmagan.

2005 yilda ATB O‘zuyjoyjamg‘armabank va ATB Zaminbankning birlashuvi natijasida tashkil etilgan ATIB Ipotekabank faoliyatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, faqat bir marta 2010 yilda korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarilgan 5 yildan so‘ng 2015 yilda so‘ndirilgan. Ipoteka obligatsiyalari birorta ham bank tomonidan muomalaga chiqarilmagan.

Ipoteka krediti berishda bankning (ipotekaga oluvchining) ipoteka bilan ta‘minlangan majburiyati bo‘yicha huquqlari garov xati bilan tasdiqlanishi mumkin. Garov xati qarz oluvchi (ipotekaga qo‘yuvchi) tomonidan tuziladi va ipoteka davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin, qarz oluvchi (ipotekaga qo‘yuvchi) hamda bank (ipotekaga oluvchi) ishtirokida ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan rasmiylashtiriladi va bankka (ipotekaga oluvchiga) beriladi.

Ipoteka krediti uchun berilgan xalqaro va xorijiy moliya institutlari mablag‘lari hisobiga tijorat banki tomonidan beriladigan ipoteka krediti miqdori ushbu mablag‘larni berish to‘g‘risida tijorat banki va ko‘rsatib o‘tilgan moliya institutlari o‘rtasida tuzilgan tegishli shartnomalar shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ariza beruvchi tijorat banklarining o‘z mablag‘lari va jalb etilgan mablag‘lari hisobiga ipoteka krediti olish uchun:

- quriladigan, sotib olinadigan uy-joy yoki ko‘p kvartirali uydagi kvartira qiymatining;
- uy-joyni rekonstruksiya qilish qiymatining kamida 25 foizi miqdoridagi o‘z mablag‘iga ega bo‘lishi kerak.

Ushbu mablag‘lar ariza beruvchining nomiga bankda ochilgan jamg‘arma omonat hisob raqamida milliy yoki chet el valyutasida mavjud bo‘lishi, shuningdek qurilayotgan uy-joy smeta qiymatining yoki rekonstruksiya qilish qiymatining 25 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda ariza beruvchi tomonidan o‘z mablag‘lari hisobiga sotib olingan qurilish materiallari tarzida bo‘lishi mumkin.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash masalasi mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda respublikamizda aholini munosib uy-joy bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilayotgan bir vaqtda xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llanilayotgan amaliyotlarni mamlakatimizda ham qo‘llash moliya bozori va ko‘chmas mulk bozori rivojlanishida ahamiyat kasb etadi. Bunda yuqorida ta‘kidlanganidek aholi bo‘sh mablag‘larini jalb qilish hisobiga qimmatli qog‘ozlar bozori yangi segmenti yuzaga kelishiga erishiladi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR


1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Ipoteka bozorining vujudga kelishi.
2. Ipoteka bozorining amal qilish mexanizmi.
3. Ipoteka qimmatli qog'ozlarining turlari.
4. Ipoteka bozori modellarining qo'llanish xususiyatlari.
5. Rivojlangan davlatlarda ipoteka agentlari faoliyati.
6. Ipoteka bozori Fransiya tajribasi.
7. Ipoteka bozori AQSH tajribasi.
8. Ipoteka bozori ssuda-jamg'arma modeli.
9. Ipoteka obligatsiyalarini muomalaga chiqarish va joylashtirish.
10. Mamlakatimizda ipoteka bozori joriy holati.

2. Ipoteka qimmatli qog'ozlari turlari bo'yicha mos javoblarni belgilang.

Ipoteka qimmatli qog'ozlari turlari	O'ziga xos xususiyatlari
1. <i>Garov qog'ozi (varaqaasi, xati)</i>	Majburiyatlarning bajarilishi ipoteka garov ta'minoti bilan ta'minlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozdir
2. <i>Uy-joy sertifikati</i>	Ipoteka ta'minoti umumiy mulkida o'z egasining ulush huquqini tasdiqlovchi egasi yozilgan emissiyalanmaydigan qimmatli qog'ozdir
3. <i>Ipoteka obligatsiyalari</i>	Egasi yozilgan va orderli qimmatli qog'ozlar belgilarini o'zida jamlagan, uzatuv yozuvlari orqali cheksiz muomalada bo'lish xususiyatiga egaligi unga vekselning ayrim hossalarni beradigan emissiyalanmaydigan qimmatli qog'ozdir
4. <i>Ishtirok etish ipoteka sertifikati</i>	Uy-joy sertifikati uning birinchi egasi tomonidan muayyan uy-joy maydoni va joyda qurilayotgan yoki qayta qurilayotgan uyda qurish uchun mablag' ajratilganligini tasdiqlovchi emissiyalanmaydigan qimmatli qog'ozdir

3. Ipoteka bozori amal qilishi, ipoteka qimmatli qog'ozlari qo'llanilishi bo'yicha klaster shakllantiring.



TESTLAR

1. Ipoteka – bubilan ta'minlangan uzoq muddatli kreditdir.

Nuqtalar o'rnida qanday ibora bo'lishi lozim?

- a) real aktiv;
- b) moliyaviy aktivlar;
- d) nomoddiy aktivlar;
- e) naqd pullar.

2. Banklar tomonidan ko'chmas mulk garovi asosida ko'chmas mulkni sotib olish yoki qurish uchun beriladigan uzoq muddatli kredit turi.

- a) ipoteka krediti;
- b) bank krediti;
- d) tijorat krediti;
- e) rollover kreditlari.

3. Ipoteka kreditida garov predmeti sifatida nima amal qiladi?

- a) ko'chmas mulk;
- b) naqd pullar;
- d) qimmatli qog'ozlar;
- e) texnika.

4. Ipoteka kreditlari bo'yicha qayta moliyalashtirish sxemasi dastlab qayerda va qachon qo'llanila boshlangan?

- a) Amerika qo'shma shtatlarida 1930-yillardan boshlab;
- b) Buyuk Britaniyada 1940-yillardan boshlab;
- d) Yaponiyada 1950-yillardan boshlab;
- e) Italiyada 1920-yillarda.

5. Ipoteka bozori modellari keltirilgan qatorni aniqlang.

- a) an'anaviy model, ikki bosqichli model, ssuda-jamg'arma modeli;

- b) an'anaviy model, uch bosqichli model, ssuda-jamg'arma modeli;
- d) an'anaviy model, ssuda-jamg'arma modeli;
- e) an'anaviy model, ikki bosqichli model.

6. Ipoteka bozorida bankning ta'minlangan obligatsiya tipidagi qimmatli qog'ozlarni mustaqil chiqarishi va shu asosda garovga qo'yilayotgan ko'chmas mulkni kreditga berishi bilan tavsiflanuvchi model nima deb ataladi?

- a) yevropa modeli;
- b) amerika modeli;
- d) ssuda jamg'arma modeli;
- e) aralash yoki gibril model.

7. Yevropada ipotekaga asoslangan eng yirik obligatsiya bozorini aniqlang.

- a) Germaniya bozori;
- b) Fransiya bozori;
- d) Italiya bozori;
- e) Angliya bozori.

8. Agarda ipoteka krediti bo'yicha defolt (qaytarmaslik) holati yuzaga keladigan bo'lsa, zarar kimning zimmasiga tushadi?

- a) ipoteka agenti;
- b) mulkdor;
- d) investor;
- e) kreditor.

9. Ariza beruvchi tijorat banklarining o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lari hisobiga ipoteka krediti olish uchun uy-joyni rekonstruksiya qilish qiymatining kamida necha foiz miqdoridagi o'z mablag'iga ega bo'lishi kerak?

- a) 25 foiz;
- b) 35 foiz;
- d) 50 foizda;
- e) 15 foizda.

10. Majburiyatlarning bajarilishi ipoteka garov ta'minoti bilan ta'minlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'oz turi qanday nomlanadi?

- a) ipoteka obligatsiyalari;
- b) garov qog'oz (varaqa, xati);
- d) uy-joy sertifikat;
- e) ishtirok etish ipoteka sertifikat.


VII BOB. XORIJIY VALYUTA BOZORI

7.1. Xorijiy valyutalar bozori tashkiliy jihatlar

Dunyodagi aksariyat mamlakatlarning o'zlarining milliy valyutalari mavjud. Masalan: AQSHda AQSH dollari; Yevropa ittifoqida yevro; Brazilyada real; Rossiyada rubl; Xitoyda yuan va boshqalar. Ushbu mamlakatlar orasida amalga oshiriladigan savdo sotiqalar turli xil valyutalarni ayriboshlash (yoki boshqa valyutadagi bank depozitlarini shakllantirish) jarayonlarini o'z ichiga oladi. Agarda Braziliyadagi biror bir firma xorijiy mamlakatdan biror bir mahsulot yoki aktivni sotib oladigan bo'lsa, Braziliya reali yoki ushbu valyutadagi bank depoziti boshqa valyutaga ayriboshlanadi. Valyutalar hamda ma'lum bir valyutada shakllantirilgan bank depozitlari savdosi xorijiy valyuta bozori (FOREX)da amalga oshiriladi.

Xalqaro valyuta bozori yuqorida ta'kidlanganidek turli mamlakatlarning valyutalari oldi sotdisi amalga oshiriladigan bozor hisoblanadi. Dastlab Foreks faqatgina sayohat qiluvchilar yoki savdogarlar tomonidan o'z davlatlaridan boshqa davlatga borganlarida valyutani ayriboshlash uchun ishlatilgan. Hozirgi kunda esa bu atama asosan investitsiya kiritib, foyda olish mumkin bo'lgan manba sifatida qaraladi. Statistika ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak, foreksda o'z faoliyatini boshlaydigan yangi treyderlarning aksariyat qismi aniqrog'i 90-95 foizi o'z pullarini qanday qilib yo'qotganini tushunmagan holda ushbu bozorni tark etishadi. Bugungi kunda foreks dunyoning eng katta moliyaviy bozori hisoblanib, undagi kunlik o'rtacha tranzaksiyalar miqdori taxminan 5 trillion AQSH dollarini tashkil etadi (2018 yil yanvar holatiga ko'ra) va bu ko'rsatkich yil sayin oshib bormoqda. Fond birjasidan farqli o'laroq, valyuta bozori tartibga solinmagan bozor hisoblanadi. Har bir tranzaksiya yopiq tarzda bo'lib, tomonlarning kelishuviga ko'ra amalga oshiriladi. Xalqaro valyuta bozori kuniga 24 soat, haftasiga 5,5 kun ishlaydi ya'ni yakshanba kuni 12:00 so'ng jumaga qadar ishlaydi. Foreksda markaziy banklardan tortib individual

investorlar kabi bir qator ishtirokchilar valyutalar bo'yicha kelishuvlarni amalga oshiradi. Davlatlar Markaziy banklarining o'z valyuta zaxiralarini qaysi valyutada shakllantirishidan kelib chiqqan holda Foreksda asosan qaysi valyutalar qatnashishini bilib olish mumkin.



7.1-rasm. Dunyo bo'yicha markaziy banklar zaxiralari shakllantirilgan valyutalar bo'yicha ma'lumot³⁰

7.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki ushbu valyutalar orasida eng keng tarqalgan valyuta AQSH dollari bo'lib, 60% davlatlarning markaziy banklaridagi valyuta zaxirasi ushbu valyutada shakllantiriladi, undan keyingi o'rinda yevro bo'lib, yevroda shakllantirilgan valyuta zaxiralari 24%ni tashkil etadi. Uchinchi va to'rtinchi o'rinlarda Yapon ieni hamda Buyuk Britaniya funt sterlingi bo'lib, ushbu valyutada shakllantirilgan zaxiralar mos ravishda 5,4% va 5,6%ni tashkil qiladi. Boshqa valyutalarda shakllantirilgan zaxiralar ulushi 5%ga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, foreksdagi asosiy operatsiyalarda AQSH dollari ishtirok etadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak foreksdagi taxminan 85 foiz bitimda AQSH dollari ishtirok etadi, undan keyingi o'rinda yevro bo'lib, u qariyb 39 foizni

³⁰ <https://www.bbva.com/en/foreign-currency-market-work/>

tashkil etadi. Uchinchi o'rinda Yapon iyesi bo'lib, uning hisobiga to'g'ri keladigan ulush 19 foizni tashkil etadi.

Xorijiy valyuta bozorida amalga oshirilgan tranzaksiyalar valyutalarning ayriboshlash kursini belgilab beradi. Xorijiy valyuta bozorida ikki xil ayriboshlash kurslari tranzaksiyalari mavjud. Predominant tranzaksiyalar, **spot tranzaksiyalari** deb ham yuritiladi, bunga ko'ra tranzaksiyalar tezda ya'ni ikki kunda amalga oshiriladi. Ikkinchisi esa **Forvard tranzaksiyalar** bo'lib, bu yerda ayriboshlash kelajakdagi belgilangan muddatda amalga oshiriladi. **Spot ayriboshlash kursi** spot tranzaksiyalari uchun belgilangan kurs, **forvard ayriboshlash kursi** forvard tranzaksiyalari uchun ayriboshlash kursi hisoblanadi. Ma'lum bir sabablarga ko'ra valyutaning qadri oshishi yoki tushishi mumkin. Misol uchun: 1999 yilning boshida bir yevro \$1.18ga teng bo'lgan va 2010-yilning 23-iyuniga kelib esa bir yevro \$1.23 teng deb baholangan. Bu shuni anglatadiki yevroning qadri AQSH dollariga nisbatan 4% ga oshgan: $(1.23 - 1.18) / 1.18 = 0.04 = 4\%$.

Ayriboshlash kurslarining muhim jihati shundaki ular mahalliy hamda xorijiy mahsulotlar bahosiga ta'sir qiladi. Misol uchun Fransiyada ishlab chiqarilgan mahsulotning AQSH dollaridagi bahosi ikkita omil ta'sirida belgilanadi: ushbu fransuz mahsulotining yevrodagi bahosi hamda yevro va dollar o'rtasidagi ayriboshlash kursi.³¹

Tasavvur qilamiz: Amerikalik firma Fransuz mahsulotini sotib olishni rejalashtirmoqda. Agarda ushbu mahsulotning bahosi 1000 yevro hamda yevro va dollar o'rtasidagi ayriboshlash kursi €1=\$1.18ga teng. Amerikalik firma ushbu mahsulotni sotib olishni 2 oyga kechiktirdi. Bu orada esa yevroning qadri dollarnikiga qaraganda oshdi va ular orasidagi ayriboshlash kursi quyidagi holatga keldi: €1=\$1.4. Agarda mahsulotning mahalliy narxi 1000 yevroligicha saqlanib qolgan bo'lsa, uning dollardagi narxi 1 180 dollardan 1 400 dollarga oshadi. Barcha bozorlarda sotish va sotib olish narxlari orasida farq bo'lgani kabi foreksda ham sotish va sotib olish narxlari orasida farq mavjud hamda ushbu narxlar va ular orasidagi farq quyidagicha nomlanadi:

³¹ Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial Markets and Institutions, US Prentice Hall 2013, P. 345.

Sotib olish narxi - ask price, Sotish narxi- bid price. Ular orasidagi farq- spread Ular quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (7.1-jadval).

7.1-jadval

Xorijiy valyuta kurslarining belgilanishi va ular orasidagi farq

Valyutalar juftligi	Sotish narxi	Sotib olish narxi	Ular orasidagi farq
EUR/USD	1.3350	1.3354	0.030%
USD/EUR	0.7487	0.7489	0.027%
USD/JPY	99.16	99.19	0.030%
JPY/USD	0.0101	0.0101	0.000%
USD/GBP	0.6289	0.6289	0.000%
GBP/USD	1.5904	1.5906	0.013%

7.2. Valyuta bozorida savdoni amalga oshirish tartibi

Ayriboshlash kurslarini qay tartibda belgilanishini yoki o‘zgarishini biror bir belgilangan joyga borib kuzatishning imkoni yo‘q. Sababi valyutalarni ayriboshlash Nyu York, Tokyo va shu kabi boshqa birjalarda amalga oshirilmaydi. Aksincha, xalqaro valyuta bozori birjadan tashqari tartibga solingan bozor (over-the-counter) hisoblanadi. Ushbu bozorda yuzlab dillerlar (asosan banklar) xorijiy valyutadagi depozitlarni sotish va sotib olishga tayyor turishadi. Ushbu dillerlar asosan kelishuvlarni telefon va kompyuterda amalga oshirishadi. Ushbu bozorning funksiyalari markazlashgan bozor funksiyalaridan farq qilmaydi. E’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan holat, banklar, kompaniyalar va hukumatning xalqaro valyuta bozorida valyutalarni sotib olishi hamda sotishi haqida so‘z yuritilganda bu yerda ularning valyutani o‘zini sotib olishi nazarda tutilmaydi. Ya’ni bank dollar sotib oldi deyilganda bankning *dollarda shakllantirilgan depozitni* sotib olganligi nazarda tutiladi.

Odatda xalqaro valyuta bozoridagi tranzaksiyalarning miqdori \$1 milliondan oshadi. Xalqaro valyuta bozorida belgilanadigan ayriboshlash kurslari bilan banklar valyuta ayriboshlash shahobchalardagi ayriboshlash kurslarining o'rtasida farq mavjud. Ya'ni banklarda belgilangan kurs valyuta bozoridagi kursdan balandroq bo'ladi. Sababi bank o'zidagi ayriboo'lash kurslarini o'zining siyosatidan kelib chiqqan holda ham belgilashi mumkin. Misol sifatida O'zbekiston tijorat banklaridagi ayriboshlash kurslari orasida farqni ko'rsatishimiz mumkin. Foreksda esa asosan yirik hajmdagi tranzaksiyalar amalga oshirilganligi sababli, ayriboshlash kurslari tijorat banklaridagi kursga nisbatan biroz past bo'ladi.

Xalqaro valyuta bozorida ayriboshlash kurslarining belgilanishi³²ga to'xtalib o'tamiz. Erkin bozorda har qanday aktiv va mahsulotning narxining belgilanishi kabi valyutalar bo'yicha ayriboshlash kurslari ham talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ayriboshlash kurslarining belgilanilishi bo'yicha bir qator nazariyalar mavjud. Birinchi nazariya *yagona narx* nazariyasi hisoblanadi. Unga ko'ra agarda ikkita mamlakat bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqarsa va mahsulotni yetkazib berish (transportirovka) xarajatlari kam bo'lsa hamda savdo to'siqlari mavjud bo'lmasa, ushbu mahsulot qaysi mamlakatda ishlab chiqazilganidan qat'iy nazar barcha mamlakatlarda narxi bir xil bo'ladi. Tasavvur qilamiz Amerikada ishlab chiqarilgan bir tonna po'latning narxi \$100, shunga o'xshash Yaponiyada ishlab chiqarilgan po'latning bir tonnasining narxi 10 000 iyen (Yaponiya pul birligi) deb baholanmoqda. Yagona narx qonuniga amal qiladigan bo'lsak, dollar va iyen o'rtasidagi ayriboshlash kursi $100\text{iyen}=\$1$ ($\$0.01=1\text{iyen}$) bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, Yaponiyada bir tonna amerika po'lati 10 000 iyendan sotilsa, AQSHda bir tonna yapon po'lati \$100 dan sotilishi lozim. Agarda ushbu valyutalar orasidagi ayriboshlash kursi $200\text{iyen}=\$1$ bo'lsa, Yaponiya po'latining bir tonnasi AQSHda \$50 dan sotiladi ya'ni ushbu narx AQSH po'latidan ikki barobar arzon bo'ladi, shu bilan bir qatorda AQSHda ishlab chiqarilgan po'latning bir tonnasi Yaponiyada 20 000 iyen ya'ni Yaponiya po'latidan ikki barobar qimmatga sotiladi.

³² Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial Markets and Institutions, US Prentice Hall 2013, P. 348.

Natijada, narxi yuqori bo'lganligi uchun AQSHda ishlab chiqarilgan po'latga bo'lgan talab keskin ravishda pasayib ketadi va bu holat faqatgina \$0.01=1yen bo'lgandagina barqarorlashadi ya'ni ikkala mamlakatda ham ushbu mahsulot bir xil narxda sotiladi.

Valyutalar ayriboshlash kurslarining belgilanishi bo'yicha keyingi nazariya bu *xarid qila olish pariteti nazariyasi* hisoblanadi. Ushbu nazariya yagona narx nazariyasiga o'xshash bo'lib, bunda bir davlatda narxlarining ikkinchi mamlakatdagi narxlarga nisbatan oshishi uning valyutasining ikkinchi davlat valyutasiga nisbatan devolivatsiya ya'ni qadrining pasayishiga (ikkinchi mamlakat valyutasining birinchisining valyutasiga nisbatan qadrining oshishiga) olib keladi. Birinchi misolga qaytadigan bo'lsak, Yaponiyada narxlarning AQSHdagiga nisbatan 10 foizga oshishi, AQSH dollarining Yapon iyeniga nisbatan 10 foizga oshishi (Yapon iyenining AQSH dollariga nisbatan 10 foizga pasayishi)ga olib keladi.

Yuqori ta'kidlanganidek, foreksda valyutalar ayriboshlash orqali foyda ko'riladi, ya'ni ularning ayriboshlash kurslari orasidagi farqni to'g'ri taxmin qila oladigan investorlar bu vaziyatda yetarlicha foyda ko'rishlari mumkin (7.2-jadval).

7.2-jadval

Foreksda daromad olish bosqichlari³³

Treydning amalga oshirgan operatsiyalari	Yevro	AQSH dollari
1EUR/1.1800USD kursida 10 000 yevro xarid qildi	+10 000	-11 800
Ushbu valyutalar orasidagi ayriboshlash kursi 1EUR/1.2500USD bo'lganda hisobidagi mablag'ni qayta AQSH dollariga ayriboshladi	-10 000	+12 500
Foyda miqdori	0	+700

Bir qarashda foreksda daromad ko'rishdan osonroq ishning o'zi yo'qdek tuyulsada, buning uchun yetarlicha tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi. Foreksda treyder o'zi uchun valyutalar juftligini tanlab olishi zarur. Misol uchun, yevro va AQSH dollari,

³³ <https://www.babypips.com/learn/forex/make-money-trading-forex>

shunda ularning valyuta juftligining foreksdagi ko‘rinishi EUR/USD bo‘ladi. Foreksda daromad olish uchun ushbu valyutalardan birini arzonga sotib olish va yuqoriroq kursda sotish yoki yuqoriroq kursda sotib, keyin arzon kursda sotib olish talab etiladi. Agarda treyder narxning harakatlanish yo‘nalishini to‘g‘ri tahlil qilib aniqlay olsa, unda u daromad ko‘radi, aks holda u o‘z mablag‘ining bir qismini yo‘qotadi. Shu tarzda treyder nafaqat valyuta kursining oshishidan, balki pasayishidan ham daromad olishi mumkin.

Haqiqiy savdo hisob-varag‘i ochilgandan so‘ng savol tug‘iladi: “Foreksda valyuta kurslarining farqida spekulyatsiya harakatlarining barcha turlari to‘g‘risida bilmasdan turib qanday qilib pul ishlash mumkin?”. Umuman va yaxlit holda Foreks bozorida savdo qilish mutlaqo oson. Agar treyder kotirovkalarning harakati yo‘nalishini oddiygina oldindan tahlil qilish orqali yoki taxmin qilish orqali aniqlay olsa, unda uning savdosi muvaffaqiyatli va daromadli bo‘ladi. Agar treyder yevroning qiymati pasayayotganini sezsa, u darhol EUR/USD valyuta juftligida dollarni sotib olishi lozim ya‘ni treyder SELL pozitsiyasini ochadi (bunda u yevroni sotadi) va foyda oladi, agar uning taxmini o‘zini oqlamasa, mablag‘ining bir qismini yo‘qotadi. Sezgiga qarab savdo qilish ko‘pincha foyda keltirsa ham professional treyderlar faqatgina sezgiga tayangan holda operatsiyalarni amalga oshirishmaydi. Lekin uning yordamida Foreksda ma‘lum darajada pul ishlab olishi mumkin! Professional treyderlar ishlash vaqtida turli xil vositalar to‘plamlaridan foydalanishadi: OAVlaridagi axborotdan tortib (fundamental tahlil asoslari) to‘ juda ko‘p miqdordagi indikatorlar, maslahatchilar va ekspertlargacha.

Foreks dunyodagi eng yirik bozor bo‘lishiga qaramasdan uning bir qator afzallik va kamchiliklari mavjud.

Foreks bozorining afzalliklari orasida eng muhimlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

- barqarorlik, chunki Foreks indeksining tushib ketishidan va bozordagi yagona tovar bo‘lgan valyutaning o‘ziga xosligi tufayli moliyaviy inqirozga uchrashdan himoyalangan;

- tovarning likvidligi. Valyutani to‘la hajmda va kerakli qiymatda sotilishida muammolar yuzaga kelmaydi, chunki xalqaro Foreks bozorida xaridorlar juda ko‘p;

- kunu tun foydalanish imkonining mavjudligi. Istagan payt va internetga kirish mumkin bo'lgan istagan joyda bitim tuzish mumkin;
- o'zgaruvchanlik ancha past darajada. Valyuta narxlarining har kunlik o'zgarishlari 1%dan oshmaydi;
- birinchi badal uncha katta emas. Hatto bir dollar bilan ham Foreksda ish boshlash mumkin;
- bozorga yangi kirganlar va boshqalar uchun DEMO hisobvarag'ini ochish mumkinligi.

Foreks bozorining ayrim kamchiliklari:

- savdo intizomi darajasi uncha yuqori emas. Yo'qotishlarni treyderning o'zidan boshqa hech kim nazorat qilmaydi;
- bitim hajmlarini noto'g'ri tanlash tufayli mablag' yo'qotish ehtimoli mavjud.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Xalqaro valyutalar bozori vujudga kelishiga obyektiv zaruratni izohlang.
2. Oltin-valyuta zaxiralarida valyutalar ulushi.
3. Xalqaro valyutalar bozorida operatsiyalar tashkil etish.
4. FOREX savdo tizimining ishlash mexanizmi.
5. FOREX savdo tizimining afzalliklari.
6. FOREX savdo tizimining kamchiliklari.
7. FOREX savdo tizimida daromad olish bosqichlari.
8. Xalqaro valyuta bozorida ayriboshlash kurslarining belgilanishi.

2. FOREX savdo tizimining afzalliklari va kamchiliklaridan kelib chiqqan holda T-sxema shakllantiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari

TESTLAR

1. Valyutalar hamda ma'lum bir valyutada shakllantirilgan bank depozitlari savdosi qanday bozorda amalga oshiriladi?

- a) xorijiy valyuta bozorida;
- b) dillerlar bozorida;
- d) qimmatli qog'ozlar bozorida;
- e) kapital bozorida.

2. Foreks – bu ...

- a) xalqaro valyuta bozori;
- b) bank;
- d) birja;
- e) korporatsiya.

3. Bugungi kunda foreksda taxminan qanday summadagi o'rtacha kunlik tranzaksiyalar amalga oshiriladi?

- a) 5 trillion AQSH dollari;
- b) 4 trillion AQSH dollari;
- d) 3 trillion AQSH dollari;
- e) 2 trillion AQSH dollari.

4. Foreksdagi asosiy operatsiyalarda qaysi valyuta ishtirok etadi?

- a) AQSH dollari;
- b) Yevro;
- d) Yapon iyesi;
- e) Buyuk Britaniya funt sterlingi.

5. Xalqaro valyuta bozorida belgilanadigan ayriboshlash kurslari bilan banklar valyuta shahobchalardagi ayriboshlash kurslarining o'rtasida qanday farq mavjud?

- a) banklarda belgilangan kurs valyuta bozoridagi kursdan balandroq bo'ladi;
- b) banklarda belgilangan kurs valyuta bozoridagi kursdan pastroq bo'ladi;
- d) banklarda belgilangan kurs valyuta bozoridagi kursga teng bo'ladi;
- e) banklarda belgilangan kurs talab va taklif omili asosida belgilanadi va uning valyuta bozoridagi kursga hech qanday aloqasi yuq.

6. Foreks bozorining afzalliklari noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) o'zgaruvchanlik juda yuqori darajada;
- b) kunu tun foydalanish imkoninig mavjudligi;
- d) tovarning likvidliligi;
- e) bozorga yangi kirganlar va boshqalar uchun DEMO hisobvarag'ini ochish mumkinligi.

7. Valyutalar ayriboshlash kurslarining belgilanishi bo'yicha nazariyalar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) yagona narx, xarid qila olish pariteti nazariyalari;
- b) turli narx, xarid qila olish pariteti nazariyalari;
- d) yagona narx, arbitraj baho shakllanish nazariyasi;
- e) portfel nazariyasi, xarid qila olish pariteti nazariyalari.

8. Foreks bozorining ayrim kamchiliklari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) savdo intizomi darajasi uncha yuqori emas;
- b) bitim hajmlarini noto'g'ri tanlash tufayli mablag' yo'qotish ehtimoli mavjud emas;

- d) har bir tranzaksiya ochiq tarzda amalga oshirilishi;
- e) valyuta narxlarining har kunlik o'zgarishlari 1%dan oshmasligi.

9. Agar treyder yevroning qiymati pasayayotganini sezsa, bunday holatda u qanday yo'l tutishi lozim?

- a) EUR/USD valyuta juftligida dollarni sotib olishi lozim;
- b) USD/EUR valyuta juftligida yevroni sotib olishi lozim;
- d) USD/EUR valyuta juftligida yevroni sotishi lozim;
- e) bozordagi holat o'zgarishini kutishi lozim.

10. Bir davlatda narxlarning ikkinchi mamlakatdagi narxlarga nisbatan oshishi uning valyutasining ikkinchi davlat valyutasiga nisbatan devalvatsiya ya'ni, qadrlining pasayishiga (ikkinchi mamlakat valyutasining birinchisining valyutasiga nisbatan qadrlining oshishiga) olib keladi. Ushbu talqin valyutalar ayriboshlash kurslarining belgilanishi bo'yicha nazariyalarning qay biriga asoslanadi.

- a) xarid qila olish pariteti nazariyasi;
- b) yagona narx nazariyasi;
- d) arbitraj baho shakllanish nazariyasi;
- e) portfel nazariyasi.

11. Valyuta tranzaksiyalarning tezda ya'ni ikki kunda amalga oshiriluvchi turi nima deb ataladi?

- a) spot tranzaksiyalari;
- b) forward tranzaksiyalari;
- d) onlayn tranzaksiyalar;
- e) offlayn tranzaksiyalar.

VIII BOB. XALQARO QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI

8.1. Xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy mohiyati, qo‘llanish xususiyatlari va turlari

Emitentlar faoliyatining kengayib borishi natijasida ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning xorijiy mamlakatlarda ham muomalada bo‘lishi bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda oddiy holatga aylandi. Bunda “moliya bozorining globallasuvi kuchayishi muhim tendensiyaga aylangan”.³⁴ Hattoki, ma’lum bir mamlakat yoki kompaniyalar o‘z qimmatli qog‘ozlarini xorijiy valyutada emissiya qilib mamlakat ichida emas balki xorijiy davlatlarda joylashtirish amaliyotlari ham tez-tez kuzatilayotgan holatlardan biridir. “1980 yilgacha amerika moliya bozori AQSHdan tashqaridagi moliya bozoridan kattaroq edi, lekin oxirgi yillarda bu holat barham topgan”.³⁵ Bunday amaliyot birinchi marta Amerika qo‘shma shtatlari emitentlari tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini Yevropada joylashtirishda ro‘y berganligi sababli xorijda xalqaro miqyosda joylashtiriladigan qimmatli qog‘ozlarga nisbatan yevroqog‘ozlar tushunchasi qo‘llaniladi.

Yevroqog‘ozlar – xorijiy investorlar o‘rtasida joylashtirish maqsadida emitent uchun xorijiy valyutada chiqariladigan qimmatli qog‘ozlardir. Yevroqog‘ozlar muomalasi xalqaro darajada muomalada bo‘lishi bois xalqaro qimmatli qog‘ozlar deb ham yuritiladi. Yevroqog‘ozlarning asosiy turlari quyidagilar (8.1-rasm).


8.1-rasmda keltirilgan yevroqog‘ozlar turlarining har biri iqtisodiy mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz.

Yevroaksiyalar – kompaniyalar, umumiy holda transmilliy kompaniyalar, banklar, investitsion fondlarning ham milliy bozorda, ham boshqa mamlakatlar bozorlarida savdoga qo‘yiladigan aksiyalaridir. London, Singapur, Lyuksemburg yevroaksiyalar savdosi amalga oshiriladigan asosiy moliyaviy markazlar hisoblanadi. Investorlar turli

³⁴ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 20.

³⁵ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 20.

mamlakatlardan sotib oluvchilar bo'lganligi uchun bitimlar mamlakatlar milliy valyutalarida tuzilishi mumkin.



8.1-rasm. Yevroqog'ozlar turlari

Yevroobligatsiyalar (ingl. *eurobond*) mamlakatdan tashqarida qat-tiq valyutada sotiladigan obligatsiyalardir. Bugungi kunga kelib yevroobligatsiyalar har qanday mamlakatda chiqarilishi mumkin va aksariyat holatlarda yevro yoki AQSH dollarida muomalaga chiqaril-moqda. Ularga misol sifatida yevrodollar obligatsiyalari, yevroiye-n obligatsiyalarini keltirish mumkin. Yevroobligatsiyalar emitentlar nuqtai nazaridan davlat (suveren) yevroobligatsiyalari va korporativ yevroobligatsiyalarga bo'linadi.

Yevrodepozitsertifikatlari – amerika banklari bo'linmalari va sho'-ba kompaniyalari va boshqa davlat banklari tomonidan xorijiy valyu-tada (asosan AQSH dollarida) chiqarilgan qimmatli qog'ozlar. Bunda depozit sertifikatlari bankda depozit joylashtirilganligi haqida ma'lu-motnama hisoblanadi. Yevrodepozit sertifikatlari bozorida eng katta ulush Londonga to'g'ri keladi. Yevrodollar depozit sertifikatlari asosan yirik institutsional investorlar uchun mo'ljallab chiqariladi.

Qisqa muddatli yevroqog'ozlar – seriyali tarzda chiqariladigan xalqaro darajada joylashtiriladigan qimmatli qog'ozlardir. Bunda eng yirik emitentlar amerika transmilliy kompaniyalari hisoblanadi.

Xorijiy moliya bozorlaridagi keskin yuqori darajadagi o'sishga xorijiy mamlakatlarda, masalan Yaponiyada jamg'armalarning

sezilarli darajada ortishi hamda moliya bozorlarida xorijiy investorlar ustidan davlat nazoratining bekor qilinishi ham sabab bo'lgan. Aynan keltirilgan ikki jihat ko'plab emitentlarning o'z faoliyatlarini tashqi bozorlarda ham kengaytirishga imkon bergan. "Amerika korporatsiyalari va banklarining zarur moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadida xalqaro kapital bozoriga chiqishi odatiy hol hisoblanadi. O'z navbatida amerikalik investorlar ham investitsion imkoniyatlarni xorijdan qidiradilar. Natijada xorijiy korporatsiyalar va banklar ham amerikalik investorlardan mablag' jalb qilishga intiladilar, xorijliklar esa AQSHda muhim investorlar sifatida faoliyat yuritadi. Xalvaro obligatsiyalar bozori va jahon fond bozorlaridagi bunday holat bizga moliya bozori-ning globalashuvi yuz berganligi va davom etayotganligini ko'rsatadi".³⁶

8.2. Xalqaro obligatsiyalar va ular muomalasini tashkil etish

Bugungi kunga kelib davlatlar tomonidan suveren obligatsiyalarni, yirik korporativ tuzilmalar tomonidan korporativ obligatsiyalarni xorijiy valyutada xorijiy davlatlarda joylashtirish amaliyotining muntazam ravishda amalga oshirilib kelinayotganligi xalqaro obligatsiyalar bozori rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu o'z navbatida emitentlarning xalqaro moliya bozoridan katta miqdorda kapital jalb qilish orqali zarur sohalarni rivojlantirishga imkon bermoqda.

"Xalqaro obligatsiyalar bozorida xorijiy obligatsiyalar an'anaviy instrumentlar hisoblanadi. Xorijiy obligatsiyalar xorijiy davlat tomonidan unga nisbatan xorijiy bo'lgan valyutada sotilgan obligatsiyalardir".³⁷ Bunday obligatsiyalar yevroobligatsiyalar tushunchasi bilan ham qo'llaniladi va bunga sabab birinchi maxsus xalqaro obligatsiyalar AQSH kompaniyalari tomonidan Yevropa fond birjalarida sotish uchun chiqarilganligi bilan izohlanadi.

Yevroobligatsiyalar muomalaga chiqarish ma'lum bir tayyorgarlik ishlarini va xarajatlarni talab qiladi. Lekin boshqa tomondan nisbatan

³⁶ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 20.

³⁷ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 20.

past foizlarda uzoq muddatli yuqori miqdordagi moliyaviy resurslar jalb qilish imkonini beradi.

Odatda yevroobligatsiyalar kamida 3 yilga chiqariladi, eng keng tarqalgan muddat sifatida 5 yillik muddat keltiriladi. Dunyoga mashhur kompaniyalar tomonidan muomalaga chiqariladigan yevroobligatsiyalar 15 yildan 30 yilgacha bo'lgan muddat bo'yicha amal qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, yevroobligatsiyalar bozoriga chiqish aniq dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va emissiya qilish, chet eldan moliyaviy konsultantlar va anderrayterlar jalb qilish, xalqaro investorlar uchun taqdimotlar o'tkazish, huquqiy xizmat uchun to'lovlar va boshqalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan yuqori miqdordagi xarajatlarni talab qiladi. Yevroobligatsiyalarni muomalaga chiqarish bilan shug'ullanuvchi dunyoga mashhur tashkilotchilar sifatida Deutsche Bank, ABN Amro, CSFB, UBS, DrKW, Citigroup, J.P.Morgan kabilarni keltirish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar hukumati tomonidan yevroobligatsiyalar bozorini tartibga solishning biror bir mezonini o'rnatilmaganligiga qaramasdan emitentlar odatda Xalqaro obligatsiyalar birlamchi bozori ishtirokchilari assotsiatsiyasi Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari assotsiatsiyasi standartlari va talablari asosida boshqarib boriladi. Mazkur qimmatli qog'ozlarning asosiy savdo markazi tarixan London hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda yevroobligatsiyalar muomalasi Angliya moliya xizmatlari agentligi tomonidan ham tartibga solinadi va bu agentlik tegishli hujjatlarni tayyorlash bo'yicha talablar bajarilishining qat'iy nazoratini amalga oshiradi. Bunda xalqaro standartlar bo'yicha tuzilgan uch yillik ijobiy auditorlik hisoboti, S&P, Fitch, Moody's va boshqa yetakchi agentliklarning kredit reytingi majburiy talablar sifatida belgilangan. Shuningdek, kompaniya egalari haqidagi axborotlarning to'liq ochiqligi, qarz oluvchining asosiy aksiyadorlari pasport nusxasigacha talab qilinadi.

Yevroobligatsiyalarni muomalaga chiqarish jarayonida yuristlar xizmatlari bo'yicha xarajatlar miqdori 600 mingdan 1 million AQSH dollarigacha tashkil etishi kuzatiladi. Anderrayterning o'rtacha komissiya haqi esa odatda muomalaga chiqarilgan yevroobligatsiya umumiy summasining 0,5 – 0,7 foizini tashkil etadi.

Yevroobligatsiyalar odatda London yoki Lyuksemburg fond birjalarida sotiladi. Lekin ular savdosining kattagina qismi birjadan tashqari bozorlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Moliyalashtirish manbasi sifatida yevroobligatsiyalarning ham o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar (8.1-jadval).

8.1-jadval

Yevroobligatsiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

№	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	Jalb qilinadigan mablag‘ miqdorining yuqoriligi (muomalaga chiqarishning o‘rtacha qiymati – 300 million AQSH dollari)	Axborotlarni oshkor etish bo‘yicha qarz oluvchiga nisbatan jiddiy talablarning mavjudligi
2	Muomala muddatining uzoqligi (3 yildan – 30 yilgacha)	Yevroobligatsiya muomalaga chiqarish jarayonining yuqori miqdorda xarajatlar talab qilishi
3	Foiz stavkalarining juda pastligi (yillik 5%)	Qimmatli qog‘ozlarni tayyorlash va joylashtirishning ko‘p vaqt talab qilishi (4–6 oy)
4	Ta‘minot va garov bo‘yicha talablarning mavjud emasligi	Valyuta riskining yuzaga kelishi va boshqalar
5	Xalqaro miqyosda kredit tarixi yuzaga kelishi	Davlat moliyaviy siyosati bilan bog‘liq risk

Yuqori miqdordagi xarajatlar va ko‘p vaqt talab qilishiga qaramasdan 500 million dollarlik yevroobligatsiyani 5 yil muddatga joylashtirish bugungi xalqaro amaliyotda o‘zini oqlamoqda. Bundan tashqari xalqaro bozorlarda IPO o‘tkazish uchun yaxshigina repititsiya vazifasini ham o‘tamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xalqaro moliya bozorlaridan kapitalni jalb qilish masalalariga doir quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, xorijiy bank kreditlarini jalb qilish bo‘yicha qo‘yilgan talablarning murakkabligini alohida qayd etib lozim. Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korporativ tuzilmalarning aksariyati uchun moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini baholash uchun dunyoga mashhur auditorlik kompaniyalarini jalb qilish qimmatlik qiladi. Chunki eng yirik yuzta auditorlik kompaniyalari tahlil qilinganda ularning xizmat

haqlari 2,8 million AQSH dollaridan 86,5 million AQSH dollarigacha ekanligini ko'rish mumkin.³⁸

Ikkinchidan, yevroobligatsiyalarni muomalaga chiqarish bo'yicha ham xalqaro reyting agentliklarining kredit reytingi talab qilinishi, tashkiliy xarajatlarning yuqoriligi mahalliy aksiyadorlik jamiyatlari korporativ obligatsiyalarining xalqaro darajada joylashtirilishiga to'sqinlik qilmoqda.

8.3. Xalqaro aksiyalar va ular muomalasini tashkil etish

Bugungi kunga kelib xalqaro amaliyotda yirik korporativ tuzilmalar o'z faoliyatlarini moliyalashtirish maqsadida milliy moliya bozori bilan bir vaqtda xalqaro moliya bozorlaridan ham kapital jalb qilishga intilmoqdalar. Bunda yuqorida ko'rib chiqqanimiz yevroobligatsiyalar bilan bir qatorda yevroaksiyalar, ya'ni xalqaro aksiyalar muomalasiga ham e'tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda quyida xalqaro aksiyalar va ular muomalasini tashkil etish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

Xalqaro aksiyalar bozoriga chiqish faoliyatni moliyalashtirish imkoni bilan birga quyidagilarda ham muhim ahamiyat kasb etadi (8.2-rasm):

- kompaniyalar aksiyalari birja listingiga kiradi va turli mamlakatlardagi xalqaro sindikatlarda sotiladi;
- kompaniyalarning aksiyalari savdosi mamlakatdagi birja bilan bir vaqtda boshqa mamlakatlardagi bitta yoki bir nechta birjalarda ham amalga oshiriladi;
- xalqaro aksiyalar chiqarilishi xorijiy valyutada kapital jalb qilish imkonini beradi. Bunda ham aksiyalar milliy va xalqaro fond birjalarida listingdan o'tadi.

Aksiyalarning milliy fond birjalari bilan bir vaqtda xalqaro fond birjalarida ham listingdan o'tish va savdosi yo'lga qo'yilishi depozitar tilxatlar orqali amalga oshiriladi. Aksiyalarning xalqaro bozorlarga chiqarilishi katta miqdorda kapital jalb qilishga imkon beradi, kompaniya nufuzining oshishiga xizmat qiladi.

³⁸ <https://big4auditorcarousel.wordpress.com/category/audit-fees/>

Xalqaro aksiyalarni muomalaga chiqarish ham oddiy aksiyalar birlamchi va ikkilamchi chiqarilishlar asosida amalga oshiriladi. Bunda birlamchi xalqaro aksiyalar muomalaga chiqarilishi natijasida kompaniya qo‘shimcha kapitalga ega bo‘ladi. Ikkilamchi chiqarilishida esa bevosita aksiyadorlar tarkibida o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Xalqaro aksiyalar chiqarilishi va muomalasini tashkil etish jarayoni yevroobligatsiyalar chiqarilishiga o‘xshash. Bunda ham andarrayterlar faoliyati muhim va ular aksiyalarni bevosita joylashtirishga mas’ul hisoblanadi. Bundan tashqari xalqaro aksiyalar chiqarishdan oldin yetakchi reyting agentliklari va auditorlik tashkilotlaridan xulosalar olish ham o‘ziga xos reklama vazifasini bajaradi. Shuningdek bunday aksiyalarni joylashtirishda xalqaro fond birjalarining listing talablarini chuqur o‘rganish asosida qaror qabul qilish talab etiladi. Chunki malum bir talablar o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlaridagi emitentlar uchun og‘irlik qilishi mumkin.

Xalqaro aksiyalar bozori xorijiy aksiyalar bozori va yevroaksiyalar bozoriga bo‘linadi. Xorijiy aksiyalar kompaniyalar tomonidan boshqa mamlakatlar fond bozorida joylashtiriladigan aksiyalardir.

Xorijiy aksiyalarning afzalliklari va kamchiliklari quyidagi jadvalda keltirilgan (8.2-jadval).


8.2-jadval

Xorijiy aksiyalar afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari	Kamchiliklari
Aksiyalar oldi-sotdisida valyuta konvertatsiyasini amalga oshirishga zarurat yo‘qoladi, valyuta riski kamayadi. Investorlar belgilangan soliqlar va chegaralashlardan qochadi. Siyosiy, iqtisodiy risklar, likvidlilik riski pasayadi.	Mamlakatda xorijiy aksiyalarga nisbatan ma’lum tartib qoida belgilab qo‘yilishi. Xorijiy kompaniyalarga nisbatan aksiyalar miqdori, moliyaviy hisobotlar va boshqa jihatlar bo‘yicha qat’iy talablar belgilanishi.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda xalqaro aksiyalar bozori yetakchi va rivojlanayotgan bozorlarga bo‘linadi. Bunda yetakchi xalqaro aksiyalar bozoriga AQSH, Buyuk

Britaniya, Yaponiya, Yevropa ittifoqi mamlakatlari, Kanada, Avstraliya kabilar kiritiladi va ularda aksiyalar savdosi rivojlangan tashkiliy va huquqiy tizimga, yuqori kapitallashuv darajasiga, birja orqali tashkillashtirilgan savdo hajmining keskin yuqoriligi kabilar bilan tavsiflanadi. 2017 yil holatiga ko‘ra aksiyalar bo‘yicha kapitallashuv darajasi eng yuqori savdo maydonlari quyidagi rismda keltirilgan (8.2-rasm).



8.2-rasm. Aksiyalar bozori kapitallashuvi bo‘yicha eng katta birjalar o‘ntaligi, milliard AQSH dollarida³⁹

Rivojlanayotgan xalqaro aksiyalar bozoriga rivojlanayotgan davlatlar va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari kiritilgan holda ular o‘sish sur‘ati yuqoriligi, risk darajasi yuqoriligi, kapitallashuv darajasining pastligi va huquqiy tartibga solish mexanizmining takomillashmaganligi, ayni paytda rivojlanishda ekanligi kabilar bilan tavsiflanadi.

Jahondagi mashhur moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro aksiyalar indekslari xalqaro aksiyalar bozori rivojlanish indikatorlari hisoblanadi. Dastlabki xalqaro fond indekslaridan biri EAFE Index (Yevropa, Avstraliya va Uzoq sharq fond indeksi) hisoblanib, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Gonkong, Shveysariya, Avstraliya, Italiya, Gollandiya, Malayziya, Avstriya va boshqa jami 21ta davlatdagi 2000dan ortiq kompaniyalar

³⁹ <https://www.statista.com/statistics/264661/domestic-market-capitalization-worldwide-top-10/>

aksiyalari asosida aniqlanadi. Shuningdek xalqaro aksiyalar bozori indeksleri sifatida Buyuk Britaniya aktuariylari instituti tomonidan ishlab chiqilgan FTW indeksi (The Financial Times World Index), GlobalIndex, SB-RGE kabilarni ham keltirish mumkin. Shuningdek, 1999 yildan DJGTIndex ham hisoblanib, dunyodagi 8 ta yirik fond bozorlariga ega davlatlar – AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Shveysariya va Gollandiyadagi 50 ta kompaniya asosida hisoblanadi.

1998 yil martdan AQSH fond bozorida savdo qilinadigan amerika depozitar tilxatlarining birinchi indeksi sifatida Bank of New York (Nyu-York banki) indeksi hisoblana boshlandi. Bu indeks real vaqt rejimida umumiy kapitallashuvi 3,1 trillion AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 36ta mamlakatdan 431ta kompaniya ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

Aksiyalarni xalqaro fond bozorlarida joylashtirishda depozitar tilxatlar qo'llanilishini yuqorida ham ta'kidlagan edik. Depozitar tilxatlar – ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bo'lib, nominal qiymatga ega bo'lmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning muayyan soniga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog'oz emitentidan depozitar tilxat o'rniga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi.

Xalqaro aksiyalar bozorida qo'llaniladigan depozitar tilxatlarning asosiy turlari quyidagilar:

- amerika depozitar tilxatlari (ADR);
- yevropa depozitar tilxatlari (YEDR);
- global depozitar tilxatlari (GDR).

Amerika depozitar tilxatlari – ma'lum bir miqdordagi amerika depozitar aksiyalariga egalikni tasdiqlovchi sertifikatdir. Yevropa depozitar tilxatlari Yevropa banklari tomonidan Yevropa ittifoqi mamlakatlaridan tashqarida joylashtirilgan kompaniyalar aksiyalariga egalik qilishni tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Global depozitar tilxatlar esa AQSH fond bozorlarida, shuningdek boshqa davlatlar fond

bozorlarida taklif qilinadi va joylashtiriladi. Umumiy holda amerika depozitar tilxatlari va global depozitar tilxatlarni muomalaga kiritish bosqichlari quyidagilar (8.3-jadval).

8.3-jadval

Amerika va global depozitar tilxatlarni muomalaga kiritish bosqichlari⁴⁰

Bosqichlar	Bosqichlarning mohiyati
Birinchi bosqich	Emitentning o‘z mamlakati fond bozoriga aksiyalar chiqarishi
Ikkinchi bosqich	Amerika fond bozorida xalqaro darajadagi vositachi orqali emitent aksiyalarini deponentlash
Uchinchi bosqich	Deponentlangan aksiyalarni xalqaro darajadagi vositachi orqali AQSHda ro‘yxatdan o‘tkazish
To‘rtinchi bosqich	Xalqaro darajadagi vositachi orqali deponentlangan aksiyalarga nisbatan amerika depozitar aksiyalarini emissiya qilish. Bunday aksiyalar amerika fond bozorlarida mustaqil muomalada bo‘lmaydi.
Beshinchi bosqich	Ma’lum miqdordagi amerika depozitar aksiyalari hisobiga amerika depozitar tilxatlari (ADR)ni chiqarish
Oltinchi bosqich	AQSH fond bozorida ADRLarni muomalaga kiritish
Yettinchi bosqich	Global depozitar tilxatlar (GDR) sifatida AQSHda ro‘xatdan o‘tkazish. Bunday qimmatli qog‘ozlar ADR-1, ADR-4 va ta’minlanmagan amerika depozitar tilxatlaridan yuzaga keladi. AQSHdan tashqari jahonning boshqa mamlakatlari fond bozorlarida muomalada bo‘ladi

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “alohida milliy korxonalar

⁴⁰ Алимардонов Э. ва бошқ. Глобал молиявий-иқтисодий инқироз шароитида молия бозори барқарорлигини таъминлаш: назарий-концептуал ва амалий жиҳатлар. Монография. Т.: Академнашр, 2012. Б. 132.

aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylash-tirilishiga erishish (IPO), ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta'minlash" kabi vazifalar belgilangan. Shu boisdan yuqorida keltirilgan xalqaro moliya bozori instrumentlari hisoblangan xalqaro qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish uchun jiddiy tayyorgarlik shart hisoblanadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori vujudga kelishiga obyektiv zaruratni izohlang.
2. Xalqaro qimmatli qog'ozlarning asosiy turlari.
3. Yevroobligatsiyalar muomalasini tashkil etish.
4. Yevroobligatsiyalar muomalaga chiqarishda emitentlarga qo'yilgan talablar.
5. Depozitar tilxatlarning amal qilish mexanizmi.
6. Xalqaro aksiyalar muomalasini tashkil etish.
7. Xalqaro aksiyalar chiqarishda emitentlarga qo'yiladigan talablar.
8. Xalqaro aksiyalar bozori kapitallashuvi.
9. Qisqa muddatli yevroqog'ozlar muomalasi.
10. Mamlakatimizdagi emitentlar tomonidan xalqaro qimmatli qog'ozlarni joylashtirish.

2. Xalqaro qimmatli qog'ozlar har bir turining iqtisodiy mohiyati, xususiyatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Yevroobligatsiyalar	Yevroaksiyalar	Qisqa muddatli yevroqog'ozlar	Yevrodepozit sertifikatlar
1	1	1	1
2	2	2	2
3	3	3	3
...	...	...	...

3. Xalqaro obligatsiyalar afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha T-sxema shakllantiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1	1
2	2
3	3
...	...

4. Amerika depozitar tilxatlari va global depozitar tilxatlarning amal qilish bo'yicha umumiy farqli jihatlarni o'zida aks ettiruvchi quyidagi jadvalni to'ldiring.

ADT	Umumiy jihatlar	GDT
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

TESTLAR

1. Yevroqogʻozlar – bu ...

a) xorijiy investorlar oʻrtasida joylashtirish maqsadida emitent uchun xorijiy valyutada chiqariladigan qimmatli qogʻozlardir;

b) kompaniyalar, umumiy holda transmilliy kompaniyalar, banklar, investitsion fondlarning ham milliy bozorda, ham boshqa mamlakatlar bozorlarida savdoga qoʻyiladigan aksiyalaridir.

d) Amerika banklari boʻlinmalari va shoʻba kompaniyalari va boshqa davlat banklari tomonidan xorijiy valyutada (asosan AQSH dollarida) chiqarilgan qimmatli qogʻozlar.

e) maʼlum bir miqdordagi amerika depozitar aksiyalariga egalikni tasdiqlovchi qimmatli qogʻoz;

2. Amerika banklari boʻlinmalari va shoʻba kompaniyalari va boshqa davlat banklari tomonidan xorijiy valyutada (asosan AQSH dollarida) chiqarilgan qimmatli qogʻoz turi qanday nomlanadi?

a) yevrodepozit sertifikatlari;

b) yevroaksiya;

d) yevroobligatsiya;

e) depozitar tilxat.

3. Mamlakatdan tashqarida qattiq valyutada sotiladigan obligatsiya turini aniqlang.

a) yevroobligatsiya;

b) konvert obligatsiyalar;

d) munitsipal obligatsiyalar;

e) korporativ obligatsiyalar;

4. Dastlabki xalqaro fond indekslaridan biri EAFE Index (Yevropa, Avstraliya va Uzoq sharq fond indeksi) nechta kompaniya aksiyalari asosida aniqlanadi?

- a) 2000 dan ortiq kompaniya;
- b) 1000 dan ortiq kompaniya;
- d) 300 dan ortiq kompaniya;
- e) 500 dan ortiq kompaniya.

5. Xalqaro aksiyalar bozorida qo'llaniladigan depozitar tilxatlarning asosiy turlari noto'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) osiyo depozitar tilxatlari (ODR);
- b) amerikadepozitar tilxatlari (ADR);
- d) yevropa depozitar tilxatlari (YEDR);
- e) global depozitar tilxatlari (GDR).

6. Yevroaksiyalar – bu ...

a) kompaniyalar, umumiy holda transmilliy kompaniyalar, banklar, investitsion fondlarning ham milliy bozorda, ham boshqa mamlakatlar bozorlarida savdoga qo'yiladigan aksiyalaridir;

b) transmilliy kompaniyalar, banklar, investitsion fondlarning boshqa mamlakatlar bozorlarida savdoga qo'yadigan aksiyalaridir;

d) ma'lum bir miqdordagi amerika depozitar aksiyalariga egalikni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz;

e) amerika banklari bo'linmalari va boshqa davlat banklari tomonidan xorijiy valyutada (asosan AQSH dollarida) chiqarilgan qimmatli qog'ozlar.

7. Yevroaksiyalar savdosi amalga oshiriladigan asosiy moliyaviy markazlar nomi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- a) London, Singapur, Lyuksemburg;
- b) Fransiya, Italiya, Angliya;
- d) Shveysariya, Avstriya;
- e) Italiya, Angliya, Shveysariya.

8. Bank of New York (Nyu-York banki) indeksi qanday ma'lumotlar asosida hisoblanadi?

- a) umumiy kapitallashuvi 3,1 trillion AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 36ta mamlakatdan 431ta kompaniya ma'lumotlari asosida;
- b) umumiy kapitallashuvi 2,1 trillion AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 36ta mamlakatdan 331ta kompaniya ma'lumotlari asosida;
- d) umumiy kapitallashuvi 3,6 trillion AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 36ta mamlakatdan 435ta kompaniya ma'lumotlari asosida;
- e) umumiy kapitallashuvi 2,2 trillion AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 36ta mamlakatdan 300ta kompaniya ma'lumotlari asosida.

9. Xorijiy aksiyalar afzalliklari to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

- a) siyosiy, iqtisodiy risklar, likvidlilik riski pasayadi;
- b) mamlakatda xorijiy aksiyalarga nisbatan ma'lum tartib qoida belgilab qo'yilishi;
- d) aksiyalar oldi-sotdisida valyuta konvertatsiyasini amalga oshirishga zarurat ortadi;
- e) xorijiy kompaniyalarga nisbatan aksiyalar miqdori, moliyaviy hisobotlar va boshqa jihatlar bo'yicha qat'iy talablar belgilanishi.

10. Yevroobligatsiyalardan foydalanish amaliyotidagi o'ziga xos kamchiliklar qaysi javobda keltirilgan?

- a) Axborotlarni oshkor etish bo'yicha qarz oluvchiga nisbatan jiddiy talablarning mavjudligi;
- b) Yevroobligatsiya muomalaga chiqarish jarayonining yuqori miqdorda xarajatlar talab qilmasligi;
- d) Qimmatli qog'ozlarni tayyorlash va joylashtirishning ko'p vaqt talab qilmasligi;
- e) Foiz stavkalarining juda pastligi (yillik 5%).

IX BOB. QIMMATBAHO METALLAR BOZORI

9.1. Qimmatbaho metallar bozori xususiyatlari, ishtirokchilari

Bugungi kunda moliya bozorida qimmatbaho metallar savdosi keng doirada kuzatiladigan amaliyotlardan biridir. Bunga har bir mamlakatda oltin-valyuta zaxirasini muntazam oshirib borishga alohida e'tibor qaratilishi ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Valyutalar bo'yicha oltin standart amal qilgan vaqtda oltinga talab keskin yuqori bo'lgan va bu o'z navbatida qimmatbaho metallar bozorida oltinning ulushi keskin yuqoriligiga ham xizmat qilgan. Valyutalar bo'yicha oltin standart bekor qilingach qimmatbaho metallar bozorida oltinning ulushi nisbatan pasaygan holda kumush, olmos, platina, palladiya va boshqa qimmatbaho metallar bozori ham rivojlana boshladi.

Qimmatbaho metallar o'z xususiyatiga ko'ra sanoat ishlab chiqarish sohasi mahsuloti hisoblanadi. Qimmatbaho metallarning kamyoblighi, ixchamlighi, ko'p marta va uzoq muddat davomida foydalanish mumkinligi, savdo tarmog'ining rivojlanishi va doimiy talabning mavjudligi moliyaviy aktiv sifatida qimmatbaho metallarning ham qo'llanilishiga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda qimmatbaho metallar ikkita funksiyani bajarishini qayd etish mumkin.

Qimmatbaho metallardan yombilar va tangalar bank va birja aylanmasi obyekti, davlat va xalqaro oltin-valyuta zaxiralari tarkibiy qismi hisoblanishi davlatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bank barqarorligini kafolatlash, shuningdek alohida shaxs moddiy jihatdan ta'minlanganligi yuqoriligini belgilab beradi.


Jahon bozorida qimmatbaho metallarning strategik roli yuqorida ta'kidlanganidek, bunday aktivlarga talabning yuqori darajadaligi bilan izohlanadi. Xususan, xalqaro darajada oltin yombilari va tangalarining yuqori likvidliligi kapital qo'yimlarning asosiy uchta asosiy sohalari o'rtasidagi tenglikka asoslangan:

- qimmatbaho metallarni qazib olish va ishlab chiqarish;

- zargarlik buyumlari ishlab chiqarish va ular savdosi;
- qimmatbaho metallardan yombilar va tangalarning moliyaviy muomalasi.

Bugungi kunda jahonda qimmatbaho metallar bozori oltin bozori, kumush bozori, platina bozori, palladiya bozori va boshqa sektorlar bo'yicha faoliyat yuritmoqda. Qimmatbaho metallar bozorida aynan qimmatbaho metallar savdo predmeti bo'lib xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda qimmatbaho metallar bozorini intitutsional va funksional nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin.

Bugungi kunda qimmatbaho metallar bozorining muhim ishtirokchilari quyidagilar hisoblanadi (9.1-rasm):



9.1-rasm. Qimmatbaho metallar bozori ishtirokchilari

Bunda qimmatbaho metallar qazib oluvchi korxonalardan kelib tushadi. Ularning bozorga ta'sir ko'rsatishi yetkazib berayotgan mahsulot hajmiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Qazib olingan qimmatbaho metallar sanoat korxonalari hamda zargarlik ustaxonalari tomonidan tayyor mahsulotga, zargarlik buyumlariga aylantiriladi. Birjalarning qimmatbaho metallar bozorining muhim ishtirokchisi sifatida qaralishi ayrim mamlakatlardagi birjalarda aynan qimmatbaho metallar bilan savdo qilinuvchi seksiyalar mavjudligi bilan izohlanadi.

Investorlar ishtiroki esa bunday aktivlar orqali faoliyatni diversifikatsiyalashda namoyon bo'lishini qayd etish mumkin. "Markaziy banklar qimmatli metallar bozorida ko'p qirrali o'rinni egallaydi. Ular oltin bozoridagi eng yirik operatorlar bo'lib hisoblanadi va bir vaqtda bu oltin bilan savdo qilish qoidalarini belgilab beradi. Shuni ham ta'kidlash zarurki, zaxira oltinni faol sotish bosh maqsad bo'lib hisoblanmaydi, ammo zaxiralardan oqilona foydalanishga intilishni namoyish qiladi. Markaziy banklar bozor konyunkturasiga katta ta'sir ko'rsatadi, bu ayniqsa XX asrning 90-yillarida sezilarli bo'ldi".⁴¹ Tijorat banklari tomonidan oltindan ishlangan zargarlik buyumlari garov sifatida qabul qilinganda baholash qiymati to'liq olinishi asosida kredit ajratilishini ham shu o'rinda ta'kidlash maqsadga muvofiq. Qimmatbaho metallar bozorida professional vositachilar va dilerlar faoliyati ham muhim hisoblanadi. Bunda ixtisoslashgan kompaniyalar va tijorat banklari vositachilar sifatida ishtirok etadi.

Xalqaro metallar bozorida ham hosilaviy instrumentlar ham keng doirada qo'llaniladi. Bunda svoplar, fyucherslar, opsiyonlar, forvardlar qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

9.2. Oltin bozori amal qilish mexanizmi⁴²

Hozir deyarli har bir manfaatdor kishi jahon oltin bozoriga kirish va o'z mablag'larini bu qimmatbaho metallga sarflashi mumkin. Bunda oltin faqat moddiy yuk tarzida emas, balki foizli depozit sifatida ham ishtirok etishi mumkin. Bundan tashqari, oltindan sezilarli daromad keltiruvchi shoshilinch bitimlarda foydalaniladi. Ayniqsa inqirozli vaziyatlar davrida, yig'ilgan mablag'larning boshqa vositalari va mablag'larini investitsiya qilish kerakli samarani ko'rsatmasa, oltinga investitsiya qilish nisbatan risksiz hisoblanadi.

Oltin kapitalni, boylikni yoki farovonlikni o'lchashning eng eski va samarali o'lchovi hisoblanadi. Oltin bilan birga shu maqsadlarda boshqa rangli metallardan ham foydalanilgan. Insoniyat tarixi davomid uzoq davrlar mobaynida oltin pul vazifasini bajarib keldi, keyin pul ekvivalenti bo'lib hisolana boshladi. XIX-XX asrlarda iqtisodiyotning

⁴¹ <https://www.instaforex.com/oz/gold>

⁴² Mazkur paragraf <https://www.instaforex.com/oz/gold> sayti ma'lumotlari asosida kiritildi.

rivojlanishiga uning negizida qaror topgan “Oltin standarti” tizimi katta ta’sir ko’rsatdi. Oltin oldida milliy chegaralar ham chekindi va XX asrning taxminan 70-yillarigacha u jahon valyuta tizimining asosi bo’lib xizmat qildi, shu munosabat bilan qimmatli metallar bilan bajariladigan operatsiyalar qattiq nazoratga olingan edi. Asosan operatsiyalar monitar siyosat, davlatlar va xalqaro moliya tashkilotlari darajasida amalga oshirilar edi. Biroq tizimda to’planib qolgan ziddiyatlar natijasida sifat jihatidan o’zgarishlar yuz berdi va valyuta kurslari qat’iy belgilangan kurslardan o’zgaruvchi kurslarga aylandi. Natijada, oltinning roli o’zgardi, yuridik jihatdan u jahon valyuta aylanmasidan chiqib ketdi. Oltin bilan bitimlarning liberallasuvi boshlandi, xususiy shaxslarning metallga egalik qilish huquqi kengaydi. Qimmatli metallar bozori butunlay o’zgarib ketdi, bozorning tuzilmasi ham, uning ishtirokchilari tarkibi ham, bozordagi operatsiyalar spektri ham o’zgardi. Hozir oltin to’lov vositasi sifatida boshqa ishlatilmaydi, biroq u iqtisodiy munosabatlar tizimini tark etgani ham yo’q. Bugungi kunga kelib jahon oltin bozori davlat tomonidan juda kam tartibga solinadigan ichki va xalqaro bozorlar yig’indisidan iborat. Bu qimmatbaho metallning o’zi bilan ham, hosilaviy vositalar bilan ham kunu-tun va global savdo qilishni ta’minlaydi. Jahon oltin bozorida talab tuzilmasini shartli ravishda uchta sektorga ajratish mumkin – barcha darajalarda tezavratsiya, sanoat-maishiy iste’mol, chayqovchilik bitimlari. Taklif yangi qazib olingan qimmatli metallar, xususiy va davlat zaxiralarini sotishdan, ikkilamchi oltinni bo’lgan xomashyoni qayta ishlash va kontrabandadan iborat. Taklifning asosiy manbalari yangi oltinni ishlab chiqaruvchilar, asosiy xaridorlar - uni sanoat maqsadlarida foydalanuvchilar hisoblanadi. Bularning ikkalasi ham turli omillar munosabati bilan bozorda muntazam paydo bo’lmaydi. Ammo qimmatli metallar bozoridagi ko’tarilishlar va tushishlar to’g’risida biz keyinroq gaplashamiz.

Xalqaro oltin bozorlari Syurix, Gonkong, London, Nyu-York, Dubay kabi shaharlarda joylashgan. Xalqaro bozorlarning uncha ko’p bo’lmagan ishtirokchilariga nisbatan yuqori talablar qo’yiladi. Bunday ishtirokchilar odatda obro’si yuqori va moliyaviy ahvoli yaxshi bo’lgan ixtisoslashgan kompaniyalar va yirik banklardir. Qimmatbaho metallar bilan yirik operatsiyalar bozorlarda kunu-tun o’tkaziladi, bu esa oltinga

aloqasi bo'lgan keng tarmoqlangan mijozlar tarmog'i bilan ta'minlanadi. Operatsiyalar qat'iy tartibga solinmagan, qoidalarini bozor ishtirokchilarining o'zlari belgilashadi. Oltinning ichki bozorlari - bular bitta yoki bir nechta mamlakatning bozorlari bo'lib, ular asosan mahalliy investorlarga mo'ljallangan. Ular erkin va tartibga solinuvchi bozorlarga bo'linadi. Erkin bozorlarga ko'pchilik Yevropa bozorlari, masalan, Milan, Parij, Amsterdam, Frankfurt-na-Maynedagi bozorlar kiradi. Tartibga solinuvchi bozorlarga – ko'pchilik uchinchi dunyo mamlakatlari bozorlari kiradi. Ichki bozorlarda bitimlar asosan mayda quymalar va tangalar bilan amalga oshiriladi, hisob-kitob vositasi sifatida esa mahalliy valyutalar ishtirok etadi. Qora bozorlar toifasiga Osiyo qit'asidagi ayrim mamlakatlarning oltin bozorlari kiradi. Ularning vujudga kelishi oltin bilan operatsiyalarni amalga oshirishga yoppasiga davlatlar tomonidan cheklashlar kiritilishi bilan bog'liq. Qora bozorlar yopiq bozorlar bilan parallel ravishda mavjuddir. Qora bozorlar - bu radikal tarzda tashkil etilgan ichki bozorlarning bir shakli bo'lib, bu yerda oltinni olib kirish/olib chiqish taqiqlangan va soliq tartibi tufayli qimmatli metallar bilan savdo qilish ichki narxlar jahon narxlaridan ortiq bo'lgani sababli foyda keltirmaydi.

Tabiiy oltin bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning eng katta hajmi London va Syurixga to'g'ri keladi. Dastlab oltin bilan savdo qilishning katta qismi Londonga to'g'ri kelar edi, bunga, xususan, metallni Britaniya hamkor mamlakatlaridan (avvalo, JARdan) yetkazib berilishi imkoni bo'lgan. Oltin Londondan Yevropa qit'asiga, u yerdan Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlariga ko'chirilardi.

Metallni oldi-sotdi qilishning joriy operatsiyalari bitim tuzilgan kundan keyin 2 ish kunida valyutalash sanasi (metall va valyutani hisobdan chiqarishni belgilash sanasi) bilan spot sharti bilan amalga oshiriladi. Joriy amallarning xalqaro bozori spot-bozori (spot market) deb ataladi. Spot shartlaridagi lotning stardart o'lchami besh ming troya unsiyasini tashkil etadi. Troya unsiyasi – jahon amaliyotida umum qabul qilingan qimmatli metallarning og'irligini o'lchovi bo'lib, u 31,1034807 grammdan iborat. Mazkur amallarni bajarishdan maqsad kredit tashilotining qimmatbaho metallar fondini shakllantirish yoki mijozlar buyurtmasini bajarish hisoblanadi. Tabiiy oltin bilan narx parametrlarini aniqlash uchun tayanch nuqtasi London bozori narxi,

loko London (“loko” atamasi metallni yetkazib berish joyini anglatadi) qimmatbaho metallar bilan bitim tuzishning muhim sharti hisoblanadi.

“Svop” turidagi amallar. Mazkur atama iqtisodiy adabiyotda tez-tez foydalaniladi. Oltin bozoriga nisbatan qo‘llanilganda u bir vaqtda teskari bitimni amalga oshirish bilan metallni oldi-sotti qilish kabi talqin qilinishi mumkin. Mazkur bitimlarning hajmi spot turidagi amallar hajmidan ortadi, chunki oltin svoplar qimmatbaho metallar bozorining holatiga spot bitimlari kabi uncha kuchli ta’sir qilmaydi. Bu amallar bo‘yicha standart bitim 32 ming unsiyani (1 tonnani) o‘z ichiga oladi.

Amalda oltinli svoplarning uch turini ajratish qabul qilingan:

- vaqt bo‘yicha svop (moliyaviy svop);
- metallning sifati bo‘yicha svop;
- joylashgan joyiga ko‘ra svop.

Vaqt bo‘yicha svop (moliyaviy svop) svoplarning klassik turidir. U naqd va shoshilinch kontrbitimning qo‘shilishidan iborat: aynan bir xil miqdordagi metallni spot shartida xarid qilish (sotish) va forward sharti bilan sotish (xarid qilish). Ancha yaqin bitimning ijro etilish sanasi valyutalash sanasi deb aytiladi, muddati bo‘yicha ancha uzoqlashtirilgan ijro etish sanasi esa - svopni tugatish sanasi deb aytiladi. Bitim amalda istalgan muddatga tuzilishi mumkin: bir kundan bir necha yilgacha bo‘lgan muddatga. Svop bitimining odatdagi muddatlari 1, 3, 6 oy va bir yil hisoblanadi. Operatsiyaning mohiyati svop muddati o‘tishi bilan oltinni sotib olish huquqini saqlab qolgan holda oltinni valyutaga konvertatsiya qilish imkoniyatidan iborat. Shartnomaning amal qilish muddati oxirida tomonlar bitimning muddatini uzaytirish yoki teskari hisob-kitoblarni amalga oshirib svopni bekor qilish to‘g‘risida kelishib olishlari mumkin. Keyingi yillarda svop operatsiyalari keng ommalashdi. Dastavval, shu usulda mablag‘larni jalb qilish dollarli depozitlarni jalb qilishga qaraganda foydali ekanligi ravshan, chunki svoplar bo‘yicha foizli stavkalar ancha past. Bundan tashqari, oltinni zararsiz jalb qilish imkoniyati yaratilib, bundan bank, masalan, metall hisob-varaqlari bo‘yicha qoldiqlarni boshqarish uchun foydalanish mumkin. Nihoyat, bu operatsiyalar markaziy banklar o‘rtasida ommabopdir. Bu hol, o‘z oltin zaxiralarini konvertatsiya qilishni istab, ular o‘z harakatlari oltin bozoriga jiddiy ta’sir

qilmasligidan xavotir olmasalar ham bo‘ladi; bevosita sotuvlar o‘rniga bozorda oltin kontragentlar o‘rtasida ko‘chib yuradi.

Metallning sifati bo‘yicha svop. Amalda shunday holat ham vujudga kelishi mumkinki, bunda bozor ishtirokchisiga unda mavjud bo‘lgandan ko‘ra yuqoriroq probali oltin kerak bo‘lib qolishi mumkin. Bunday xohish metall sifati bo‘yicha svop doirasida amalga oshirilishi mumkin. Bunday svop bir sifatdagi metallni bir vaqtda xarid qilish (sotish) o‘rniga boshqa sifatdagi oltinni sotish (xarid qilishni) nazarda tutadi. Bunda ancha yuqori sifatga ega metallni sotayotgan tomon oltinning bir turini boshqa turiga almashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimning miqdoriga va xarajatning miqdoriga bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan mukofotni oladi.

Joylashgan joyiga ko‘ra svop. Bunday svop oltinni bir joyda xarid qilib (sotib), uni boshqa bir joyda sotishni (xarid qilishni) nazarda tutadi. Oltin bir joyda qimmatroq bo‘lishi mumkinligi uchun bu holda tomonlardan biri mukofot oladi.

Depozit amallari. Oltin moliyaviy aktiv hisoblangani uchun u o‘z egasiga u qarz obyekti bo‘lib qolganda daromad keltirishi mumkin. Mazkur amallar metallni hisobvarag‘iga jalb qilish zarur bo‘lganda amalga oshiriladi. Bunda oltin bo‘yicha depozit stavkalari valyuta stavkalaridan odatda pastroq bo‘lib qoladi, bu valyutaning ancha yuqori likvidligi bilan izohlanadi. Standart depozit muddatlari - 1, 2, 3, 6 va 12 oy, lekin ular kamaytirilishi yoki, aksincha uzaytirilishi mumkin. Bank, depozit shartnomalar doirasida qimmatbaho metallarni jalb qilib, ma’lum bir muddat mobaynida ulardan foyda olish uchun, masalan oltin qazib olishni mablag‘ bilan ta’minlash sxemasida, arbitraj operatsiyalari uchun va h.k. foydalanishi mumkin. Oltin egalari ega kiritilgan oltindan daromad olishadi, shuningdek tabiiy metallni saqlash bilan bog‘liq xarajatlardan ozod bo‘ladi.

Forvardlar. Yuqorida sanab o‘tilgan bitimlardan tashqari jahon bozorida boshqa operatsiyalar almalga oshirilishi mumkin: metallni ikkinchi ish kunidan oshuvchi muddatga yetkazib berishni nazarda tutuvchi forvard bitimlar to‘g‘risida gap boradi. Bunday bitimni tuzib, xaridor kelajakda spot bozorida metallning narxi oshib ketishidan himoyalanaadi. Sotuvchi, o‘z navbatida kelajakda narxlarning pasayib ketishidan o‘zini himoya qilishni nazarda tutadi. Sug‘urta qilish

kelajakda o‘zaro hisob kitoblarni amalga oshirish rejalashtirilayotgan narxni qayd etish yo‘li bilan ta’minlanadi. Biroq, bunday bitim yanada qulayroq konyunkturadan foydalanish imkonini bermaydi.

Forward bekor qilinishi mumkin emas. Uni faqat bitimda kelishilgan tovar miqdorini joriy kurs bo‘yicha oldi-sotti yo‘li bilan keyinchalik uni forward bitimida belgilangan kurs bo‘yicha sotib uni faqat muvozanatga keltirish (forward pozitsiyasini yopish) mumkin. Banklararo oltin bozorida mazkur bitimlar juda kamdan-kam tuziladi. Metallni muddatga sotish zarur bo‘lganda sotuvchi, odatda, uni spot sharti bilan sotadi, keyin esa svop bitimini tuzadi: metallni spot shartlarida xarid qiladi va shu bilan bir vaqtda uni forward shartlarida sotadi.

Hosilaviy vositalar CFD operatsiyalari. Oltin bozoridagi investorlar o‘rtasida eng ommabop vosita valyutalarning farqiga asoslangan (CFD) bitimlar hisoblanadi. Shu vaqtgacha biz tabiiy metall bozorlarini tashkil etishni va faoliyat yuritishni ko‘rib chiqqan edik. Biroq virtual vositalar bilan sado qilish bilan bog‘liq boshqa qism ham katta qiziqish uyg‘otadi. Jahon moliya bozorlari tendensiyasini o‘zgartirib yuborgan amaliyotlar ichida savdoni tezkor vositalar orqali amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. 1970-yillarda boshlangan foizli stavkalarining va valyuta kurslarining o‘zgarishi davri ortib borayotgan xatarlarni boshqarish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan yangi moliyaviy vositalarga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Hosilaviy moliya vositalari industriyasining rivojlanishi ko‘p jihatdan ularning bozordagi o‘zgaruvchan yo‘nalishlarga tez va samarali aks ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlari bilan bog‘liq.

Fyuchers. Jahon amaliyotida oltin fyuchers bitimlari bir necha birjalarda savdo qilinadi, bunda oltin bilan savdo qilish uchun tuziladigan bitimlarning eng ko‘p hajmi Nyu-York Tovar birjasi (COMEX)da tuziladi. U yerda oltin bilan operatsiyalar 1974 yildan boshlab amalga oshirila boshladi. Fyucherslar bilan operatsiyalarning asosiy maqsadi xedjirlash va spekulyatsiyalardir. Mazkur bitimlarning jozibadorligi shundaki, uni tuzish uchun katta pul yoki ko‘p miqdordagi tovar bo‘lishi shart emas. Nisbatan uncha katta bo‘lmagan kapitalga kiritiladigan mablag‘lar katta foyda keltirishi mumkin.

Shoshilinch bitimning boshqa ommabop shakli 1976 yilda birinchi marta kiritilgan oltinga opsion hisoblanadi, bunday shakl Amerikada u bilan o'tkazilgan operatsiyalardan so'ng 1982 yilda keng tarqalib ketdi.

Xedirlashning boshqa vositalariga nisbatan **opsion** shunisi bilan jozibadorki, u konyukturaning noqulay o'zgarishidan muhofaza qilish maqsadida ijro etish narxini qayd qilishdan tashqari u qulay konyukturadan foydalanish imkonini beradi. Opsion xaridorining yo'qotishlari maksimal miqdori to'plangan mukofot bilan chegaralangan, yutuq esa imkoniyatli tarzda chegaralanmagan. Mos ravishda, opsion sotuvchisi uchun aksincha vaziyat paydo buladi. Opsionlar birjadan tashqari bozorda ham muomalada bo'lishi mumkin. Bunday opsionlar dilerlik opsionlari deyiladi. Ular farq qiluvchi jihatlari shundaki, u birja tomonidan emas, balki aniq yuridik shaxs tomonidan emitatsiya qilinib, u opsionning ijro etilishini kafolatlaydi. Bunda dilerlik opsionlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- xususiy spekulativ talabni qondirish uchun chakana bozorda sotish uchun mo'ljallangan opsionlar;
- oltin savdo opsionlari.

Xususiy spekulativ talabni qondirish uchun chakana bozorda sotish uchun mo'ljallangan opsionlar dastlab yuqori riskli edi. Chunki 1970-yillarning ikkinchi yarmida AQSHda bozorning yuqori dajada o'zgaruvchi bo'lganligi tufayli juda ko'p firibgarlik holatlari qayd etilgan. Dilerlik opsionlari bilan savdo qilishni tashkil etish yangi talablarning kiritilishi hokimiyatning bunga aks ta'siri bo'ldi. Xususan, kastodial bankda oltinni deponentlash, shuningdek diler uchun opsionni ijro etguncha yoki uning amal qilish muddati o'tib ketguncha opsion mukofotini deponentlash nazarda tutilgan edi.

Oltin savdo opsionlari. Bu yerda bitimlar subyektlari tarzida oltin qazib oluvchi korxonalar, sanoat iste'molchilari va yirik dilerlar ishtirok etadilar. Bunday opsionlar bilan amalga oshiriladigan bitimlar katta hajmlari va amal qilish muddatlari uzoq vaqt talab qilishi bilan ajralib turadi. Bunday opsionlarning vazifasi metall ishlab chiqaruvchilarning va iste'molchilarining narxdagi xatarlarini silliqlash hisoblanadi, ya'ni jarayon ishtirokchilarini spekulativ motivi emas, balki xedjirlashdir.

Birja opsionlaridan farqli ravishda, uning muhim parametrlariga nisbatan axborotning har tomonlama ochiqligi bilan tavsiflanib, dilerlik

opsionlari yoki to'g'ridan to'g'ri sotiladi yoki dilerlik tarmog'i orqali sotiladi. Har qanday holatda ham opsionlar bilan amalga oshiriladigan barcha bitimlar tegishli hisobotni taqdim etish bilan birga kechishi kerak, bu esa opsion bitim shartlarini bajarilishini kafolatlashi va ishtirokchilarning xatarlarini kamaytirishi kerak. Fyucherslar va opsionlar bilan (qog'ozdagi oltin) savdo qilish sariq metallni xarid qilish-sotish aylanmasidan ko'p karra yuqoriroqdir (ular faqat bir necha foizni tashkil etadi). Shu bilan birga, tabiiy oltin bozoriga iqtisodiy ma'no bo'yicha ikkilamchi bo'lgan hosilaviy vositalar industriyasi keyingi vaqtlarda hajmi ko'p karra ortiq bo'lgani tufayli baza aktivining narx dinamikasiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Oltin bilan birja bitimlari ishtirokchilari bozorning yuqori darajada o'zgaruvchanligidan manfaatdorlar, chunki bu daromadni oshirish imkonini yaratadi. Aynan spekuliyantlarning harakatlari ko'pincha bozorning harakatini keskin kuchaytiradi. 1980 yilda oltin narxining misli ko'rilmagan darajada ko'tarilib ketishi va 1997-1999 yillarda keskin tushib ketishi ko'p jihatdan ana shu holat bilan izohlanadi.

Odatda, oltin narxi jahon iqtisodiyotidagi vaziyatga bog'liq bo'ladi. Undan tashqari, oltinning qiymati doim muqobil investitsion vositalarning samaradorligi yoki zararli ekanligining indikatori bo'lgan. Mablag'larning aylanishi o'sgan, shuningdek oltin kapitali o'sishining turli xil vositalari keng qo'llanilgan davrda oltin tabiiy ravishda narxi mos holda tushgan edi. Aksincha, iqtisodiyot stagnatsiyasi holatida, uning orqaga ketishi yoki retsessiyasi pastida oltin investorlar tomonidan kapitalni qayd etishning va uning bundan keyingi saqlanishining eng barqaror va likvid vositasi sifatida idrok qilingan edi. Bu yerda valyuta bozori bilan o'xshashlikni qayd etish va oltinni shveysariya franki bilan taqqoslash mumkin bo'lib, bu valyuta o'zgarishlarini kutib o'tkazish mumkin bo'lgan bufer sifatida hisoblangan. Boshqacha aytganda, bozorda "buqalar" hukmronlik qilganda, ehtiyoj ortadi va iqtisodning barcha sektorlarini o'z ketidan tortadi, oltin soyaga o'tadi. Lekin faqat vaqtincha... Biroq, iqtisodiyotning hamma o'zgarishlari ham global umumjahon tavsifga ega bo'lavermaydi. Misol uchun, ikki tanazzulli vaziyatni tahlil qilamiz: biri Rossiyada 1998 yilda yuzaga keldi; ikkinchisi hozir kechmoqda va butun jahon hamjamiyatida aks etmoqda.

1998 yilning avgust oyida Rossiya ancha qiyin davrni boshidan o'tkazdi: davlat qisqa muddatli obligatsiyalari narxining tushishi, neft inqirozi, shuningdek buning ketidan yuz bergan rublning devalvatsiyasi har bir kishiga ta'sir ko'rsatdi. Shunda rossiyaliklar o'z jamg'armalarini saqlab qolish uchun banklarda mavjud bo'lgan barcha oltinni sotib olishdi va yutqazishmadi. 1998 yilning avgustidan boshlab, oltinning bir unsiyasi narxi uch martadan ortiq ko'tarildi. Hatto o'sha vaqtlar undiriladigan 20% QQSni hisobga olganda ham oltin investorlarning ishonchini oqladi. Biroq o'sha vaqtda jismoniy shaxslar oltinni faqat o'z mamlakatlari banklaridan sotib olish imkoniyatiga ega edilar. Bunda oltinning unsiyasi qiymati aynan ichki bozorda shakllanar edi, unda uning narxi yetkazib beruvchilarning cheklanganligi va Rossiya ichida talabning yuqoriligi tufayli umumjahon darajasidan mos ravishda yuqori bo'lgan. Hozir esa rossiyaliklar uchun inqirozning mahalliylikiga bog'liq bo'lmagan holda jahonning ochiq bozorida oltinni sotib olish uchun barcha imkoniyatlar bor. Bu Rossiyada moliyaviy va birja institutlarining rivojlanishi tufayligina mumkin bo'lmay, balki xalqaro bozorlardagi chiqish imkoniyatini taqdim etuvchi ko'p sonli brokerlarning paydo bo'lishi bilan ham mumkin bo'ldi.

2008 yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi birmuncha fundamental xususiyatga ega. U turli xil mamlakatlarning faqat iqtisodiyotigagina singib kirmay, balki retsessiyani ham vujudga keltiradi. Shuning uchun oltinni xarid qilish ham jamg'armalarini saqlab qolishning eng ishonchli usullaridan biri sifatida qaraladi.

Oltinning qiymatiga boshqa omillar ham shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Masalan, dollar va neftning qiymati. Bunda oltin qiymatining dinamikasi dollar kursi bilan teskari bog'lanishda, neft narxlari bilan esa to'g'ridan to'g'ri bog'lanishda bo'ladi. Buning sababi shu bilan izohlanadiki, valyuta bozorining o'zg'aruvchanligida va dollar kursining pasayishida oltin yana muqobil investitsion gavan sifatida ishtirok etadi. Neftga keladigan bo'lsak, u holda bir barel neft narxining o'sishida oltin neftdollarlarini ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Qimmatbaho metallar bozorining qo'llanish xususiyatlari.
2. Qimmatbaho metallar bozori ishtirokchilari va ularning faoliyat xususiyatlari.
3. Banklarning qimmatbaho metallar bozori ishtiroki.
4. Oltin bozori rivojlanishiga valyuta bo'yicha oltin standartining bekor qilinishining ta'siri.
5. Qimmatbaho metallar savdosida hosilaviy instrumentlar qo'llanilishi.
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari sharoitida oltin savdosi.
7. Oltin savdosida opsionlarning qo'llanish mexanizmi.
8. Oltin savdosida fyucherslarning qo'llanilishi.
9. Oltin savdosida svop operatsiyalari qo'llanish mexanizmi.
10. Oltin savdosida spot opreatsiyalari qo'llanilishi.

2. Qimmatbaho metallar bozori ishtirokchilari faoliyat xususiyatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Ishtirokchilar	Faoliyat xususiyatlari
Qazib oluvchi sanoat korxonalari	
Qayta ishlovchi sanoat korxonalari	
Birjalar	
Banklar	
Investorlar	
Professional vositachilar	

3. Amalda ajratiladigan oltinli svoplar turlari qo'llanish xususiyatlari bo'yicha jadvalni to'ldiring.

Vaqt bo'yicha svop (moliyaviy svop)	Metallning sifati bo'yicha svop	Joylashgan joyiga ko'ra svop
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

TESTLAR

1. Oltin, kumush, platina, palladiya va boshqa metallarlar bilan bog‘liq bozor munosabatlari Moliya bozorining qaysi turida qaysi sohasida amalga oshiriladi?

- a) valyuta bozorida;
- b) sug‘urta bozorida;
- d) qimmatli qog‘ozlar bozorida;
- e) qimmatbaho metallar bozorida.

2. Quyidagilardan qaysi biri qimmatbaho metallar bozori ishtirokchisi hisoblanmaydi?

- a) qazib oluvchi sanoat korxonalari, Qayta ishlovchi sanoat korxonalari;
- b) birjalar, Investorlar;
- d) banklar, Professional vositachilar;
- e) yuqoridagilarni barchasi Qimmatbaho metallar bozori ishtirokchisi hisoblanadi.

3. Ular oltin bozoridagi eng yirik operatorlar bo‘lib hisoblanadi va bir vaqtda bu oltin bilan savdo qilish qoidalarini belgilab beradi. Ushbu xususiyat qimmatbaho metallar bozorining qaysi ishtirokchisiga hos hisoblanadi?

- a) qayta ishlovchi sanoat korxonalari;
- b) qazib oluvchi sanoat korxonalari;
- d) banklar (Markaziy Bank);
- e) professional vositachilar.

4. Oltin bozorida svop operatsiyalarining nechta turi amalga qiladi.

- a) 2ta;
- b) 3ta;
- d) 4ta;
- e) 5ta.

5. Bunday svop oltinni bir joyda xarid qilib (sotib), uni boshqa bir joyda sotishni (xarid qilishni) nazarda tutadi. Oltin bir joyda

qimmatroq bo‘lishi mumkinligi uchun bu holda tamonlardan biri mukofot oladi. Bunday operatsiyalar SVOP operatsiyalarining qaysi turiga mansub?

- a) vaqt bo‘yicha svop (moliyaviy svop);
- b) vetallning sifati bo‘yicha svop;
- d) joylashgan joyiga ko‘ra svop;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

6. Qimmatbaho metallar bozorida metallni ikki ish kunidan oshuvchi muddatga haqiqiy yetkazib berishni nazarda tutuvchi bitmilar qanday ataladi?

- a) depozit amallari;
- b) xosilaviy vositalar;
- d) forvardlar;
- e) svop.

7. Qimmatbaho metallar bozorida shoshilinch bitimning 1976 yilda birinchi marta amaliyotga kiritilgan shakli qaysi? Bunday shakl Amerikada u bilan o‘tkazilgan operatsiyalardan so‘ng 1982 yilda keng tarqalib ketdi.

- a) Fyuchers;
- b) oltin savdo opsionlari;
- d) hosilaviy vositalar CFD operatsiyalari;
- e) forvardlar.

8. Troya unsiyasi – jahon amaliyotida umum qabul qilingan qimmatli metallarning og‘irligini o‘lchovi bo‘lib, u nechi grammga teng?

- a) 31,1034807 gr;
- b) 51,1034807 gr;
- d) 25,1034807 gr;
- e) 21,1034807 gr.

9. Qimmatbaho metallar bozorida quyidagi operatsiyalarni qaysi biri amalga oshirilmaydi?

- a) svop, spot;
- b) fyucherslar;
- d) opsionlar, forvardlar;

e) yuqoridagtlarni barchasi amlga oshiriladi.

10. Xalqaro Spot-bozori (spot market) spot shartlaridagi lotning stardart o'lchami qancha troya unsiyasini tashkil etadi?

- | | |
|----------|----------|
| a) 4000; | b) 5000; |
| d) 6000; | e) 7000. |

X BOB. MOLIYA BOZORI TAHLILI

10.1. Moliya bozori tahlilining tashkiliy xususiyatlari

Investitsion jarayonning asosiy masalalaridan biri – bu qimmatli qogʻozlar tahlili (security analysis) hisoblanib, oʻz ichiga qimmatli qogʻozlarning alohida turlarini (yoki guruhlarini) va ularning bozorlarini oʻrganadi. Bunday tahlilning investitsion jarayondagi asosiy maqsadlaridan biri – bu vaqtning tanlab olingan joriy momentida notoʻgʻri baholangan qimmatli qogʻozlarni aniqlash.

Xorijiy amaliyotda moliya bozori boʻyicha fundamental (fundamental analysis) va texnik (technical analysis) tahlil keng qoʻllaniladi. Fundamental tahlil ham, texnik tahlil ham, shuningdek boshqa tahlil usullari ham oʻziga xos afzalliklarga va kamchiliklarga ega. Bunga moliya bozorlarining oʻzaro farqli jihatlari, tartibga solish mexanizmlari, ichki va tashqi omillar taʼsiri kabilarni sabab sifatida koʻrsatish mumkin.

Qimmatli qogʻoz tahlilida uni real (fundamental usulga asoslangan) yoki bozor (texnik usulga asoslangan) bahosi hamda uning real va bozor daromadlilikiga koʻrsatkichlari baholanadi, chunki ular fond bozori qatnashchilarini koʻproq qiziqtiradi. Yuqoridagi misoldan kelib chiqib, na texnik va na fundamental, na aralash usul ushbu koʻrsatkichlarning obyektiv bahosini bera olmasligini tushunish qiyin emas.

Chunki qimmatli qogʻozning oʻz bazisiga ekvivalentlilik darajasi har ikkala usulda har doim aytilgan mezonlar talabiga mos toʻliq namoyon boʻlavermaydi, demak, ularning yordamida hisoblangan koʻrsatkichlar bahosi obyektiv boʻlmaydi. Ushbu qonuniyatni koʻrish uchun quyidagi nazariy fikr-mulohazalarni keltirish mumkin.

Maʼlumki, aksiyaning real bahosi fundamental usul yordamida emitentning moliyaviy hisobotlari koʻrsatkichlari asosida hisoblanib, aksiyaning joriy ichki (balans) bahosini ifodalaydi. Lekin aksiyaning bozordagi talab va taklif (bozor konyunkturasi) asosida shakllanuvchi bozor narxi aksiyaning real bahosidan qandaydir mavhumligi bilan farq

qilishi mumkin, chunki bozor narxi ko‘pincha ko‘zga tashlanmaydigan spekulativ bozorda vujudga keluvchi sirli tendensiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Bunday tendensiyalar odatda spekulativ bozorning oldindan har doim ham to‘liq idrok qilib bo‘lmaydigan jarayonlarni risklar va turli omillar (jumladan spekulativ savdo qatnashchilarining subyektiv tarzda xohish va imkoniyatlarining ehtimoliy o‘zgarishi, ya’ni refleksivlik nazariyasiga asosan) ta’siri ostida kechishi evaziga hosil bo‘ladi. Demak, aksiyaning o‘z bazisiga ekvivalentlilik darajasi asosida obyektiv bahosini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bularning barchasi va boshqa vaqtinchalik idrok qilinishi murakkab bo‘lgan omil va jarayonlar tahlil amaliyotining mavjud usullari uzluksiz takomillashuv jarayonida yoki ularning asosida yangilari paydo bo‘lib kelmoqda. Bu jarayonning obyektiv mahsuli sifatida qimmatli qog‘ozlarni sekyurimetrik tahlili usulini alohida ko‘rish maqsadga muvofiq, chunki u yuqorida keltirilgan ba’zi holatlarni bartaraf qilishning ozmi ko‘pmi imkonini berishi mumkin.

10.2. Fundamental tahlil

Fundamental tahlilda qimmatli qog‘ozlarni bozor narxlari bilan taqqoslash uchun qimmatli qog‘ozlarning obyektiv ravishda asoslangan ichki qiymatini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Aktivlar narx darajasining o‘ssishi, pasayishi yoki ularning barqaror holatiga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash fundamental tahlil tadqiqotlarining mavzusi hisoblanadi.

Fundamental yondashuvni amalga oshirish natijasi moliyaviy aktivlar narxiga va butun moliya bozoriga bevosita yoki bilvosita ta’sir etadigan omillarni aniqlash va monitoring qilish hisoblanadi. Bu aktivning ichki yoki haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida bajariladi. “Ichki qiymat” aksariyat holatlarda fond bozoridagi talab va taklif nisbati bilan belgilanadigan kompaniya aksiyalari narxi bilan mos kelmaydi.

O‘z faoliyatida fundamental tahlildan foydalanadigan investorlarni birinchi navbatda kompaniya aksiyalarining “ichki qiymati” aksiyalarining birjadagi narxdan katta bo‘ladigan vaziyat qiziqtiradi. Bunday

aksiyalar **yetarlicha (munosib) baho berilmagan** aksiyalar sanaladi va potensial investitsiya obyektlari hisoblanadi. Yetarlicha (munosib) baho berilmagan aksiyalar xarid qilishda investorlar bozor samaradorligi sharoitlarida aksiyalarning fond bozoridagi narxi “ichki qiymat”ga qarab intilishi, ya’ni aksiyalar yetarlicha (munosib) baho berilmagan hollarda – o‘lishidan umid qiladi.

Fundamental tahlil – mamlakat va tarmoq iqtisodiyotining fundamental omillarini, kompaniya faoliyati ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga asoslangan, aktivning bozor qiymatini aniqlash va bashorat qilish usullari tizimi.

Fundamental tahlil mazmunan har qanday moliyaviy aktivning “haqiqiy” (yoki ichki real) bahosi kelajakda aktiv egasi olishi mumkin bo‘lgan barcha naqd pul oqimlarining keltirilgan bahosiga teng degan fikrdan kelib chiqadi. Shunga mos ravishda tahlilchi (analitik)-“fundamentalchi” naqd pul oqimlari miqdorini va uni tushum vaqtini aniqlashga intiladi, keyin esa unga mos diskontlash stavkasini qo‘llab ularning keltirilgan bahosini hisoblaydi.

Aniqroq aytilsa, analitik nafaqat diskontlash stavkasini baholaydi, balki kelajakda aksiya bo‘yicha to‘lanadigan dividendlar miqdorini ham prognoz qilishi lozim. Dividendlar miqdorini prognoz qilish kompaniyaning foyda ko‘rsatkichlarini bir aksiyaga va dividendlar to‘lash koeffitsiyentiga nisbatan hisoblashga ekvivalent bo‘lib, bir vaqtning o‘zida diskontlash stavkasiga ham baho berishni taqozo etadi.

Kompaniya aksiyasining ichki bahosi aniqlanganidan so‘ng bu baho aksiyalarning joriy bozor kursi bilan solishtiriladi. Bundan maqsad bozorda aksiya to‘g‘ri baholanganligini aniqlashdan iborat. Agar aksiyaning ichki bahosi joriy bozor kursidan past bo‘lsa, unday aksiya oshirilib baholangan deyiladi, aksincha bo‘lsa – past baholangan aksiya deyiladi.

Bunda aksiyaning ichki va joriy bozor kursi orasidagi tafovut to‘g‘risidagi informatsiya tahlilchi uchun muhim ahamiyatga ega. Analitik-fundamentalchilarning fikricha: aksiyani noto‘g‘ri baholani-shining har qanday holati keyinchalik bozor tomonidan to‘g‘rilanadi: past baholangan aksiyalar kursi tezroq oshadi, oshirilib baholangan aksiyalarning kursi esa o‘rtacha bozor kursiga qaraganda sekinroq o‘sadi.

Fundamental tahlilga ta'sir e'tuvchi *omillarni* keltirib o'tamiz:

- iqtisodiy omillar;
- siyosiy omillar;
- turli mish-mishlar va kutilishlar;
- fors-major holatlari.

Fundamental tahlil quyidagi yo'nalishlar doirasida amalga oshiriladi:

1. Makroiqtisodiy tahlil, bunda quyidagi omillarni hisobga olingan holda iqtisodiyot va moliya bozorining holati baholanadi:

- YAIM, bandlik, inflyatsiya, foiz stavkasi, valyuta kurslari va h.k.;
- monetar va fiskal siyosat, ularning bozorga va investitsiya muhitiga ta'siri ko'rib chiqiladi;

2. Industrial tahlil, bunda iqtisodiyotdagi faollik sikli (davri), uning indikatorlari hamda tarmoqlarni faollik darajasiga nisbatan va rivojlanish davrlari bo'yicha tasniflash amalga oshiriladi, umuman olganda tarmoqlarning parametrlarni bozor konyunkturasi trendidan og'ishlari tahlil qilinadi va prognozi amalga oshiriladi, tarmoq rivojlanishining sifati tahlil qilinadi;

3. Aniq bir kompaniya tahlili, bunda kompaniyadagi korporativ boshqaruv holati va rivojlanishi istiqbollari, tashkiliy va biznes faoliyati sharoitlari, moliyaviy ko'rsatkichlari, biznes bahosi, bozordagi nufuzi va boshqa ko'rsatkichlari tahliliy baholanadi;

4. Qimmatli qog'ozlar bahosini va ularning portfelini modellash-tirish. Qimmatli qog'ozlar bahosini modellashtirishda fond bozorining tuzilmasi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning kichik miqdori bilan bog'liq bitishuvlar har kuni amalga oshiriladigan tor bozor ularning sezilarsiz miqdoriga o'ta sezgir bo'lganligi uchun narxlar bunday bozorda boshqarilishi mumkin, ya'ni bir nechta bitishuvlarni amalga oshirish hisobiga kursning kutilgan darajadagi oshishi yoki pasayishiga erishish mumkin. Keng bozorda esa yirik bitishuvlar ham undagi narxlarga unchalik ta'sir ko'rsatmaydi, chunki bunday bitishuvlar har kuni amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, fundamental tahlil usulidan 1974 yilga kelib Benjamin Grexem va Djeys Ri voz kechib, yangicha yondashuvni

ishlab chiqqanlar.⁴³ Ularning fikricha, fond bozori samarali bo‘lganligi sababli, noeffektiv qismlari kamayib bormoqda, bu esa o‘z navbatida aniqlanishi mumkin bo‘lgan ba’zi samarasiz kompaniyalar aksiyalari bilan bog‘liq. Shu maqsadda ular bunday kompaniyalarni aniqlash uchun ma’lum mezonlar to‘plamini taklif qildilar.

Grexem-Ri yondashuvini texnik tarzda qo‘llash mumkin, chunki kompaniyaning joriy moliyaviy holatini formal tekshirish va moliyaviy hisobotlaridan olingan ba’zi ko‘rsatkichlarni kompaniyaning aksiyalarini joriy kursi va daromadlilikini obligatsiyalarning AAA reytingi bilan solishtirishdan iborat. Bunda quyidagi 10-ta sodda savolga “ha yoki yo‘q” degan javob berish talab qilinadi 10.1-jadvalda keltirilgan.

10.1-jadval

Korxonalarning joriy moliyaviy holati fundamental tahlili

<i>A. Moddiy rag‘bat</i>	<i>B. Risk</i>
1. “Narx-daromad” nisbati AAA reytingli obligatsiyalar daromadlilikini-ning teskari yarim miqdoridan kammi? Masalan, AAA reytingli obligatsiyalar daromadlilikini 12 foiz bo‘lsa, unda teskari miqdori $1/0,12=8,33$, undan yarmisi esa 4,16. Shunday qilib, bu aksiya uchun savolga javob “ha” bo‘lishi holatida uning “narx-daromad” nisbati miqdori 4,16-dan kam bo‘lishi kerak.	6. “Qarz-kapital” nisbati 1 (birdan) kammi? Bu nisbat – umumiy qarzni balans hisobotiga mos keluvchi aksiyadorlik kapitaliga bo‘linmasi.
2. “Narx-daromad” nisbati miqdori oxirgi besh yil uchun “narx-daromad” nisbatining “o‘rtacha” eng katta miqdoridan 40 foiz kammi? Bunda aksiya uchun bir yildagi “narx-daromad” nisbatining “o‘rtachasi” – bu aksiyaning o‘rtacha yillik narxini shu yil uchun aksiya bo‘yicha daromad miqdoriga bo‘linmasiga teng.	7. Joriy nisbat 2 (ikkidan) kattami? Bu nisbat – joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga bo‘linmasi.

⁴³ Paul Blustein, “Ben Graham’s Last Will and Testament”, Forbes (August 1, 1997), P.43-45; and James B.Rea, “Remembering Benjamin Graham-Teacher and Friend”, Journal of Potfolio Menegement, 3, no.4 (Summer 1997), P. 62-72; Шарп У., АлександерГ., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ. М.: Инфра М, 1999. С. 579-580.

3. Aksiya bo'yicha dividend daromadliligi AAA obligatsiyalar bo'yicha daromadlilikning 2/3 qismidan kam bo'lmagan miqdoriga tengmi?	8. Umumiy qarz joriy aktivlarning sof bahosini ikkiga ko'paytirilgan miqdoridan kammi? Bunda joriy aktivlarning sof bahosi – bu joriy aktivlar va umumiy qarz ayirmasi.
4. Aksiya narxi bir aksiyaga hisoblangan real balans bahosining 2/3 qismidan kammi? Bunda bir aksiyaga hisoblangan real balans bahosi – bu jami aktivlar va umumiy qarz ayirmasini muomaladagi aksiyalar-ning umumiy miqdoriga bo'linganiga teng.	9. oxirgi 10 yilda bir aksiyaga daromadlar o'sishi sur'ati yiliga o'rtacha 7 foizdan kam emasmi? Bunda g o'sish sur'ati $Ye_0 = Ye_{-10}(1+g)^{10}$ formuladan topiladi (Ye_0 – oxirgi yil uchun bir aksiya bo'yicha daromadlar, Ye_{-10} – 10 yildan tugaganidan keyingi yil uchun bir aksiyaga daromadlar). Agar savolga “ha” javobini olish kerak bo'lsa, unda g 7 foizdan kam bo'lmasligi lozim.
5. Aksiya narxi bir aksiyaga hisoblangan joriy aktivlarning sof bahosining 2/3 qismidan kammi? Bu baho joriy aktivlar va umumiy qarz ayirmasini muomaladagi aksiyalar-ning umumiy miqdoriga bo'linganiga teng.	10. 9-chi savoldagi vaqt muddatida (ya'ni 8 yoki undan ko'p yilda) g 5 foizga tengmi yoki kammi? Bunda daromadlilikning yillik o'sish sur'atini 10ta ko'rsatkichlarini aniqlash kerak, keyin ularning kamida ikkitasi 5 foizdan ko'p bo'lishini tekshirish lozim, masalan, 4 foizga tengligini.

Savollarning birinchi 5 tasi moliyaviy rag'batga, qolgan 5tasi esa riskka bag'ishlangan. Bu savollarga javob topishdan maqsad eng katta “rag'bat-risk” nisbatiga ega aksiyalarni topishdir. Grexem-Ri bo'yicha aksiyani sotib olishni taklif qilish uchun barcha savollarga ijobiy javob berishi shart emas. Masalan, avval 6-chi savol bo'yicha salbiy javob olingan aksiyalarni hisobdan chiqariladi. Keyin 1, 3 yoki 5-chi savolga “yo'q” degan javob olingan aksiyalar inobatga olishmaydi. Qolgan aksiyalar esa sotib olish uchun nomzod bo'ladilar.

Qaysi aksiyalarni sotish kerak degan qarorga investor Grexem-Ri yondashuviga asosan kelmoqchi bo'lsa, ikki hol ko'rsatiladi: aksiyalar kursi 50 foizga ko'tarilganida yoki ularni sotib olinganidan ikki yil o'tsa (bu holatlarning qaysi biri oldinroq sodir bo'lsa) sotib yuborishi lozim bo'ladi. Agarda bu ikki hol ham sodir bo'lmasa, aksiyalar dividend bermasa yoki ko'rsatilgan savollarga “yo'q” degan javob bo'lsa, unda aksiyalar tezdan sotilishi shart bo'ladi.

Fundamental tahlilining *afzalligi* quyidagilardan iborat:

- kompaniya-emitent aksiyasining bozordagi haqiqiy kursini belgilaydi;
- portfel tarkibidagi “nedootsenenniy” va “pereotsenenniy” aksiyalar aniqlanadi, portfel riski kamaytiriladi va daromadlik oiriladi;
- yuqori daromad keltiruvchi va mablag‘lar xavfsizligini ta’minlovchi optimal portfel shakllantiriladi.

10.3. Moliya bozori texnik tahlili

Texnik tahlil – bu fond bozori holatini o‘rganishga qaratilgan tahlildir. Texnik tahlil o‘tgan savdo narxlarini o‘rganish maqsadida, ularning kelajakdagi ehtimoliy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Joriy narxlar dinamikasi o‘tgan savdo narxlari dinamikasi bilan solishtiriladi va shu orqali narxlarning kelajakdagi o‘zgarishi prognoz qilinadi.

Shuning uchun, texnik tahlil bilan shug‘ullanuvchi tahlilchi bozorga ta’sir etuvchi tashqi omillarni e’tiborga olmasdan, faqat uning dinamikasi ko‘rsatkichlarini o‘rganadi.

Texnik tahlilning boshqacha nazariy asosi shundaki, bozorning o‘tgan savdo holatlari davriy takrorlanadi. Shu bilan birga, investorning vazifasi shundan iboratki, bozorning o‘tgan savdo dinamikasini o‘rganish asosida, uni keyingi o‘zgarish dinamikasini aniqlash.


Bozor konyunkturasi talab va taklifning o‘zaro harakatlanishiga bog‘liq.

Texnik tahlil talab va taklifning o‘zaro to‘g‘ri kelmaslik momentini aniqlaydi va moliyaviy instrumentni qachon sotib olish va sotish mumkin degan savollarga javob beradi.


Texnik tahlilchi asosan bozorning qisqa muddatli dinamikasini prognoz qilishga harakat qiladi.

Tahlil mobaynida investor qimmatli qog‘oz dinamikasi va narx trendi yo‘nalishi haqida ma’lumot beruvchi **grafiklardan foydalanadi**. Ularning asosiy turlari quyidagilar:

- ustunli diagrammalar;
- narx harakati grafiklari;
- x-o diagrammalari.




10.1-rasm. Texnik tahlil tamoyillari



10.2-rasm. Ustunli diagramma


Diagrammadagi har bir ustun o'tgan savdo kunidagi aksiya narxining tebranishini ifodalaydi. Ustunning yuqori nuqtasi savdo kunidagi eng yuqora narxni ifodalasa, pastki nuqtasi savdo kunidagi eng past narxni ifodalaydi. Yopilish bahosini ifodalash uchun esa ustunga perpendikulyar chiziqcha o'tkaziladi.




10.3-rasm. Savdo hajmi ma'lumotlari bilan to'ldirilgan ustunli diagramma

Bu holatda absissa o'qi bo'yicha chap tomonda narx, o'ng tomonda esa savdo hajmi ifodalanadi. Rasm pastidagi ustunchalar savdo kunidagi hajmni ko'rsatadi.

Aniqroq aksiya narxi harakati tasvirini olish uchun ularning narxlarini birlashtirish mumkin. Masalan, to'g'ri chiziqlar orqali yopilish bahosini:



10.4-rasm. Aksiya narxi tebranishi grafigi



10.5-rasm. Aksiya narxi trendi yo‘nalishi

Tahlilchi narx har bir o‘zgarishini qayd qilib boradi. Agar narx bir pog‘ona o‘ssa, u holda diogrammaga X belgisi qo‘yiladi. Keyingi narx o‘shida yuqoriga yana bir X belgisi qayd qilinadi. Agar narx bir pog‘ona pasaysa, u holda o‘ng tomondan yangi ustun ochiladi va shu ustundan O belgisi bilan belgilanadi.

Texnik tahlil mazmunan har qanday moliyaviy aktivning bozor narxini moliya bozori obyektiv baholaydi, degan fikrdan kelib chiqadi. Bu usul umuman olganda aksiyalar bozori kurslari konyunkturasini konkret kompaniya aksiyalari kurslari dinamikasiga prognoz berish uchun o‘rganadi. Bunda avval kurslar dinamikasida sikllar (davrlar) yoki qaytariladigan tendensiyalarni aniqlash maqsadida oldingi davrlar uchun bozor kurslari tadqiq qilinadi. Keyin esa avvalgi davrlarda aniqlangan tendensiyalarga o‘xshash joriy tendensiyalarni aniqlash maqsadida vaqtning oxirgi davri uchun aksiyalar kurslari tahlil qilinadi. Tahlilning oxirida hozirgi mavjud va avvalgi aniqlangan aksiyalar kurslari tendensiyalari o‘zaro solishtiriladi. Bunda narx trendlari davriy qaytariladi deb qabul qilinadi. Shunday qilib, analitik ko‘rilayogan aksiyalar bo‘yicha avvalgi va joriy bozor tendensiyalarini aniqlagan holda, kurslarning kelajakdagi dinamikasini yetarlicha aniq prognoz qilishga ishongan holda tahlil qiladi.

Texnik tahlil yordamida fond bozoridagi narxlar dinamikasini iqtisodiy hodisalarning mazmuniga kirmasdan tadqiqini amalga oshirsa

bo‘ladi. Uni yana grafik tahlil (grafiklar, gistogrammalar, nuqtali diagrammalar, narxlar harakati, indekslar usuli) ham deyiladi. Bunda fond indeksleri bozor holatini yaxshiroq ifodalaydi.

Texnik tahlilni amalga oshirishga quyidagi muhim tahminlarga asoslaniladi:

- tashqi omillarning har qanday o‘zgarishlari qimmatli qog‘ozlarni bozor narxlari (kurslari) dinamikasida o‘z aksini topadi;

- fond bozoridagi narxlar dinamikasi oldindan idrok qilinadigan ma’lum qonuniyatlarga bo‘ysunadi, bunday qonuniyatlar barqaror bo‘lishi mumkin;

- qimmatli qog‘ozlar kurslarining avvalgi va joriy bozor tendensiyalarini o‘rganish asosida ularning kelajakdagi o‘zgarish dinamikasini prognoz qilish mumkin.

Grafik tahlil quyidagi uch asosiy masalani yechishda qo‘llaniladi – fond bozoridagi narxlar darajasini prognoz qilish; qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish vaqtining optimal momentini topish; fundamental tahlil natijalarining to‘liqligi va to‘g‘riligini tekshirish.

Hozirda har ikkala usul bir-birida farqlansada, o‘zlarida birbirlarining u yoki bu komponentlarini qo‘llaydilar. Bundan tashqari ular boshqa tahlil nazariyalari unsurlarini ham o‘z ichiga olishgan, masalan, “effektiv bozor” modellarini, “ehtimoliy asosda behosdan qilingan tanlov” konsepsiyasini. Bunga qaramasdan har ikkala usul ham hozirda fond bozorlarini tahlil qilishda bosh mavqega ega bo‘lib kelmoqda. Lekin, bu usullar yangi yondashuvlarni paydo bo‘lishi evaziga takomillashib bormoqda. Masalan, I.Fisherning foiz stavkalar nazariyasini, Uilyamsning kapital aktivlarni baholash nazariyasini, Naytning aniq bo‘lmagan omillar va risklarni sifat tahlili metodini, Markovichning (keyinchalik Sharp, Tobin, Lintner, Mossin, Blek, Shoulzlarning) optimal portfelni tanlash nazariyasini, SARM modellarini, Elliotning to‘lqinlar nazariyasini, Sorosning refleksiv nazariyasini, Rossning ART modellarini, Molilyani va Millerning nazariyalarini, va h.k. nazariyalarni keltirish mumkin.

Ta’kidlash joizki, texnik tahlil usuli barcha mutaxassislar tomonidan oson qo‘llanilishi mumkin, fundamental tahlil usulini esa har qanday mutahassis tomonidan oson qo‘llashi qiyinroq kechadi. Chunki

fundamental tahlil ancha qiyin ish bo'lib, yetarli ma'lumotlar bazasini shakllantirishni va mos ravishda moliyalashtirilishni talab qiladi.

Sekyurimetrik tahlil yordamida bozordagi qimmatli qog'ozlarning ekvivalentlilik potentsiali darajalari asosida fond bozorining potentsialini baholash mumkin. Bunda ekvivalentlilik potentsialini natijaviy vektorning miqdoriga (natijaviy yo'naltirilgan kuch sifatida) ko'paytmasi qimmatli qog'ozning quvvati kuchini, bu quvvatlarning yig'indisi esa qimmatli qog'ozlar bozori muhitining quvvati kuchini bildiradi.

10.4. Trend turlari va shakllari

Qimmatli qog'ozlar bozorida turli xildagi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshiriladi. Operatsiyalar chog'ida qimmatli qog'ozlarning narxlari doimo o'zgaruvchan tendensiyaga ega bo'ladi. Narxlarning o'zgarishi natijasida trendlar hosil bo'ladi.

Trend – bu baholarning, ya'ni fond bozorida qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisida belgilanadigan baholarning muayyan yo'nalishlar bo'yicha o'zgarishidir.

Trendlar davom etish muddatiga ko'ra:

1. Uzoq muddatli (birlamchi) trend, ya'ni bunda qimmatli qog'ozlar narxi uzoq muddat (1 yil hatto undan ortiq) o'zgarishi kuzatiladi.

2. Yonlanma (ikkilamchi) trend – bozorining asosiy tendensiyasi harakatini to'g'irlovchi (korrektiruyushiy) trend hisoblanadi.

3. Kichik trendlar – narxlarning kunlik o'zgarishi, tebranishdir.

Trendlar narxlarning harakati yo'nalishiga ko'ra:

1) O'suvchi yoki "buqa" lar trendi.

2) Pasayuvchi yoki "ayiqalar" trendi.

3) Gorizontaal trend yoki flet.

1. O'suvchi yoki "buqalar" trendi (uptrend, upward, bullish trend) shunisi bilan xarakterlanadiki, bozordagi tebranishlarning past narxlari ko'tarila boshlaydi. Ko'tariluvchi (o'suvchi) trendda bizga pastdan chegara belgilashimiz juda muhimdir, chunki bunday holatda stavkalar narxlarning ko'tarilishiga qo'yiladi.

Narxni pastda chegaralovchi chiziqni kesishuvi, narxlar ko'tarilgandagi trend so'nayapti yoki umuman yo'nalishini o'zgartirmoqda deb signal beradi.

Narxlarni pastdan chegaralab turuvchi to‘g‘ri chiziq qo‘llab-quvvatlovchi chiziq deb ataladi.

2. Pasayuvchi yoki “ayiqqlar” trendi (downtrend, downward, bearish trend) bozorda maksimal tebranuvchi narxlar pasaya boshlashidan vujudga keladi.

McDonalds kompaniyasi aksiyalarining bozordagi kursi 6 oy davomida o‘suvi trendga ega bo‘lgan, lekin avgust oyida narxlardagi burilish pasayuvchi tendensiyaga o‘zgargan va bozorda “ayiqqlar” trendi hukmron. Investor esa, McDonalds kompaniyasi aksiyalarini avgust oyida sotishi kerak, aks holda katta zarar ko‘rishi mumkin.

Pasayuvchi trendda narxlarni yuqoridan chegaralab turuvchi to‘g‘ri chiziq qarshilik chizig‘i deb ataladi.

“Ayiqqlar” bozorida biz narxlarning pasayishiga qo‘yamiz, chunki biz uchun narxlarni yuqoridan chegaralab turuvchi to‘g‘ri chiziq muhimdir. Qarshilik to‘g‘ri chizig‘ining pasayishi, kesishuvi trend bilan o‘zgarayotganidan dalolat beradi.

Bir vaqtning o‘zida aniq qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ri chizig‘iga hamda qarshilik to‘g‘ri chizig‘iga ega bo‘lgan trend ko‘plab qiziqishlar uyg‘otadi (3-rasmga qarang). Bu trendda narxlarning ham yuqori ham past darajalarini prognozlashtirishga imkon bo‘ladi.

3. Uchinchi trend turi – gorizontall trend (trendning mavjud emasligi). Bu trendda narxlar gorizontall diapazonda tebranadi. (sideways, Flat market, trendless). Bu trendning qo‘llab-quvvatlash yoki qarshilik chiziqlari bo‘ladi, lekin narxlarning yuqoriga yoki pastga harakatining aniq tasviri bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, trendlarni shakli bo‘yicha tasniflashimiz mumkin. Fond bozori savdolarida eng ko‘p uchraydigan trend shakllaridan biri, bu “bosh” va “yelka” trendidir.

Bu chizmada narxlarni o‘zgarishi natijasida “bosh” va “yelka” trend turlari o‘z aksini topgan. Bunda savdo boshlangandagi ochilish bahosidan boshlab narxlar ko‘tarilib boradi va eng yuqori nuqtaga yetib, pastga o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradi. Agar biz bu nuqtalarni tutashtirib chiqsak, bosh va yelka tasvirlari hosil bo‘ladi.

“Ikki qoya” trendida narxlar faqat 2 marta maksimal nuqtaga erishadi. Bu holda A nuqtada qimmatli qog‘ozlarni albatta sotib yuborish kerak. “Ikki jarlikda” esa buning aksi.

Bu rasmda ko‘rishimiz mumkinki, RTS indeksining fond bozoridagi dinamikasi orqali 10 oy ichida “ikki qoya” trend shakli hosil bo‘lgan. Trendning ikkinchi maksimum nuqtasi narxlarining qayrilishini, burilishini ifodalab, bozorda RTS indeksi trendi tendensiyasining o‘zgarishini anglatadi, ya’ni “buqalar” trendidan “ayiqalar” trendiga. Investor uchun bu trend shaklining ahamiyati shundaki, ikkinchi maksimum nuqta RTS indeksining keyingi savdolarida pasayishini ogoh qiladi.

10.5. Yapon shamlari turlari va modellari

Yapon shamlari uzoq yillardan buyon yapon treyderlari tomonidan texnik tahlil uchun qo‘llanib kelingan. Yaqin yillardan boshlab esa boshqa davlat treyderlarining diqqatini tortgan.

Umuman olganda, qimmatli qog‘ozlar bozorida sek’yurimetrik tahlil usullaridan foydalanish bozor ishtirokchilari uchun (emitent, investor, professional qatnashchilar) qimmatli qog‘ozlarning kurslarini kelajakdagi o‘zgarishlarini yoki muayyan tendensiya bo‘yicha harakatini prognoz qilishga yordam beradi. Emitent aksiyalarini fond bozorida sek’yurimetrik tahlil usullaridan foydalanib tahlil qilish, uning aksiyalari bo‘yicha oldi-sotdi bitimlarini tuzish, emitent obro‘sig a ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida oldi-sotdi qilinayotgan moliyaviy instrumentlar narxi yoki kursi talab va taklifga qarab tez-tez o‘zgarib turishi mumkin. Shuning uchun, bozor professionallari kursning ijobiy va salbiy o‘zgarishida katta foyda yoki zarar ko‘rishi mumkin. Zararni kamaytirish va maksimal foyda ko‘rish uchun bozor professionallari qimmatli qog‘ozlar kurslarining kelajakdagi o‘zgarishini prognoz qilishlari mumkin. Bunday holda, texnik tahlil usulidan foydalaniladi.

Rivojlangan fond bozorlarda qimmatli qog‘ozlar kursining kelajakdagi o‘zgarishini prognoz qilishda texnik tahlil usullaridan biri yapon shamlaridan foydalaniladi. Texnik analizda markaziy o‘rinni yapon shamlari grafigini tahlili egallaydi. Yapon shamlari grafiklari orqali prognozlash 80-90 yillarning eng mashhur metodlaridan edi. Yapon shamlari odatda bar (kesmali)li grafikka mos ravishda yasaladi.

Jahon amaliyotida quyidagicha metod qabul qilingan, agar bar

ochilish bahosiga nisbatan yuqori darajada yopilsa, oq rangdan; agar yopilish bahosi ochilish bahosidan past bo'lsa qora rangdan ifodalaniladi. Quyidagi 4.3.1 rasmda Boenig Co. kompaniyasi aksiyalarining dinamikasini yapon shamlarida ko'rishimiz mumkin.

Bu rasmda Boenig Co. kompaniyasi aksiyalari o'suvchi tendensiyada ochilgan bo'lib, 1-raqamigacha davom etgan. 2-raqamida bozorda "ayiqalar" trendining kuchli namoyon bo'lishi ko'rsatilgan bo'lsa, 3-raqamda yapon shamining shakli asosiy ahamiyatga ega bo'lib, bu trend aksiya narxlarining o'zgarishiga, qayrilishiga olib kelgan, ya'ni keyingi savdo sessiyalarida bozorda "buqalar" hukmron bo'lishgan. Investor esa sotib olgan aksiyalarini 3-raqamdagi savdo sessiyasida sotishi kerak, aks holda katta zarar ko'rishi mumkin.

Sham chizig'i ochilish va yopilish bahosi, maksimal va minimal ko'tarilish baholariga bog'liq holda turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Yapon shamlarining turlari va modellarini bilish va o'rgansh investor uchun fond bozorida mavjud risklarni xedjirlashi yoki qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni oldini olishi mumkin.

An'anaviy yapon shamlari keng qo'llanilishi bilan birga quyidagi turlari mavjud:

Marubozu – bu yapon shami turida o'suvchi tendensiyaning saqlagan holda, bozorda "buqalar"ning kuchli namoyon bo'lishi.

Uzun tanli sham – bu yapon shami turida savdo sessiyasida qimmatli qog'ozning ochilish va yopilish narxlari o'rtasidagi anchagina farqni ko'rishimiz mumkin.

Doji – savdo sessiyasida qimmatli qog'ozlarni ochilish va yopilish narxlarining bir xil bo'lishida kuzatiladi. Boshqa yapon shamlarining turlari bilan kombinatsiyasida uning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin, lekin asosiy ahamiyatli yapon shamlari turlariga kiradi. Bundan tashqari, doji ahamiyatli sham modellari tarkibiga kiradi. Doji bozor ishtirokchilari harakatidagi ishonchsizlik holatlarini ko'rsatadi, shuningdek, bozordagi narxlarning qayrilishini, o'zgarishini bildiradi. Doji har doim ham fond bozorlarda uchramaydi, shuning uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, agar fond bozorlarda tez-tez uchraydigan bo'lsa, doji o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Dojining quyidagi turlarini mavjud:

1. Qimmatli qog'ozning maksimal va minimal nuqtalari bo'lmagan doji turi.

2. Dojining eng ko'p uchraydigan turi.

3. Uzun oyoqli doji – uzun maksimal va minimal nuqtalarga ega. Agar dojining maksimal nuqtasi qanchalik uzun bo'lsa, uning shunchalik “ayiq” trendi imkoniyati kuchli bo'ladi.

Uzun oyoqli dojining ahamiyati, o'suvchi tendensiyada bu doji turining namoyon bo'lishi narxlarning qayrilishiga, ya'ni pasayuvchi tendensiyaga o'zgarishiga olib keldi. Fond bozori ishtirokchilari uchun foyda ko'rish yoki zararni oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Doji “qabr toshi” - uning minimal nuqtasi bo'lmagan doji, lekin maksimal nuqtaga ega, ya'ni savdoning ochilish va yopilish bahosi tahlil etayotgan vaqtimizdagi minimumga to'g'ri keladi.

Dojining bu turi ham uzun oyoqli dojiga o'xshab uning “buqalar” trendida paydo bo'lishi keyingi savdolarida “ayiq” trendi imkoniyatlarini oshirayapti, ya'ni keyingi savdolarida fond bozorida “ayiq” trendi hukmron bo'ladi. Investor uchun bu doji turining ahamiyatli tomoni shundaki, “qabr toshi” dojinii bozorda namoyon bo'lishi bilan investor o'z aksiyalarini sotishga tushadi va keyingi savdolarida aksiyalarni yanada arzon bahodan sotib olishga harakat qiladi.

Doji “ninachi” – “qabr toshi”ning teskarisi: bu dojida yuqori maksimal nuqtaga mavjud emas, lekin uzun minimal nuqtaga ega. Hisoblanadiki, doji “ninachi” qanchalik uzun minimal nuqtaga ega bo'lsa, shunchalik bozor ishtirokchilari optimistik kayfiyatda bo'lishadi.

Doji “ninachi”ning ahamiyati doji “qabr toshi”ning teskarisi, faqatgina doji “ninachi” pasayuvchi trendda namoyon bo'lib narxlarning qayrilishi, burilishiga sabab bo'ladi, ya'ni o'suvchi trendga o'zgarishiga.

Fond bozori professional qatnashchilari, investorlar qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida ishtirok etishar ekan, ularning maqsadi katta foyda olish bilan bog'liq. Shuning uchun, bu bozor qatnashchilari qimmatli qog'ozlar narxlarining kelajakdagi o'zgarishini prognoz qilishi uchun yapon shamlaridan foydalanadilar. Lekin faqat doji turlari bilangina fond bozori holatini tahlil qilish mumkin emas, hamda investor doji turlarini o'rganish orqali fond bozorida o'z strategiya va

taktikalarini bajara olmaydi, ammo doji yapon shamlari modellarida ham ahamiyatli hisoblanadi.

Shunday ekan, yapon shamlarining modellarini bilish va o'rganish fond bozorining bugungi va kelajakdagi holatlarini prognoz qilishda katta ahamiyatga ega. Yapon shamlari modellarining quyidagi turlari mavjud:

1. Yutish (qo'shib olish) modeli.
2. Tongi va tungi yulduz modellari.
3. Uch qora qarg'a modeli.
4. Uchta oq askar modellari va boshqalar.

Yutish (qo'shib olish) modeli "buqalar" va "ayiqalar" turlariga ajraladi.

Yutish modeli ikkita sham orqali shakllanayapti. Bunda 2-shamning tanasi 1-shamnikidan uzun bo'lib uni yutib yuborayapti, ya'ni 2-shamda savdolar hajmi oshgan, shuning uchun savdolarining ochilish va yopilish baholari o'rtasida katta farq mavjud va bu holat 2-sham tanasiga ta'sir qilgan. "Buqalar" modelida 2-shamning namoyon bo'lishi va 1-shamning yutib yuborilishi qimmatli qog'ozlar savdolaridagi trendning pasayuvchidan o'suvchi trendga o'zgarishiga olib keladi. Investor esa, 1-shamda, ya'ni pasayuvchi trendda aksiyalarni xarid qiladi ikkinchi va undan keyingi shamlarda, ya'ni o'suvchi trendda sotadi. "Ayiqalar" modeli "buqalar" modelining teskarisi.

Yapon shamining tonggi va tungi yulduz modellari o'suvchan hamda pasayuvchan tendensiyada shakllanadi.

Fond bozorida may oyigacha qimmatli qog'ozning narxlari "ayiqalar" trendiga bo'ysungan bo'lib, kichik oq tanali va uzun minimal nuqtasiga ega bo'lgan shamning paydo bo'lishi (savdo hajmlarining kichik bo'lishi) aksiya narxlarning burilishiga, ya'ni "buqalar" trendiga o'zgarishiga olib keldi. May oyining oxirigacha o'tkazilgan savdolarida bozor o'suvchi tendensiyaga bo'ysungan. Bu modelning namoyon bo'lishi orqali investorlar "ayiqalar" bozoridan "buqalar" bozorida harakat qilishlari mumkin.

Uch qora qarg'a modeli baland narx atrofida paydo bo'lsa yoki uzoq muddat davom etgan o'suvchan tendensiyadan so'ng narx tushishini o'lchab beradi. Uch qora qarg'ada narxning yopilishi minimal narx atrofida yoki ularning yaqinida bo'lishi kerak. Har bir shamda narxning

ochilishi bundan oldingi sham tanasining “ichida” bo‘lishi kerak. Uchta qora shamning ketma-ket namoyon bo‘lishi keyingi savdolarida fond bozorida to‘la-to‘kis “ayiqalar” trendining hukmronligini ko‘rsatayapti. Investorlar bu modeldan o‘z manfaatlari uchun foydalanishi mumkin, ya’ni ular qimmatli qog‘ozlar juda arzon bahodan sotib olishga harakat qilishadi va ma’lum savdo kuni o‘tganidan keyin yoki bozor tendensiyasi “buqalar” trendiga o‘zgarganida qimmat narxda sotadilar.

Yapon shamlarining boshqa modellari ham fond bozoridagi narxlarning muayyan yo‘nalishini o‘rganishda, ya’ni qimmatli qog‘ozlar trendining o‘rishini yoki pasayishini o‘rganishda, oldindan bilishda foydalaniladi.


Xulosa qilib shuni aytish joizki, qimmatli qog‘ozlar bozorida sek’yurimetrik tahlil usulini qo‘llanilishi bu fond bozori infratuzilmasini rivojlanishiga, qatnashchilar sonining oshishi, bilimli mutaxassislarni ish bilan ta’minlanishi, yangi texnologik majmualarni qo‘llanilishi, bozor volatilligining o‘rishi kabi ijobiy holatlarga olib kelishi mumkin. Bu rivojlanish o‘z navbatida mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotining o‘rishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliya bozorini tahlil qilishdan maqsad.
2. Moliya bozori tahlili usullari.
3. Moliya bozorida fundamental tahlil qo'llanilishi.
4. Moliya bozorida texnik tahlil qo'llanilishi.
5. Yapon shamlari.
6. Trendlar mohiyati va moliya bozori tahlilidagi o'rni.

2. Moliya bozori tahlili bo'yicha klaster shakllantiring.



3. Fundamental tahlil va texnik tahlil alohida xususiyatlari bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Fundamental tahlil	Texnik tahlil
1	1
2	2
3	3
...	...

TESTLAR

1. Xorijiy amaliyotda moliya bozori bo'yicha keng qo'llaniluvchi tahlil usullari qaysilar?

- a) fundamental tahlil (fundamental analysis);
- b) texnik tahlil (technical analysis);
- d) qimmatli qog'ozlar tahlili (security analysis);
- e) a va d javoblar to'g'ri.

2. Qimmatli qog'ozlar-ning alohida turlarini (yoki guruhlarini) va ularning bozorlarini o'rganib, investitsion jarayonda vaqtning tanlab olingan joriy momentida noto'g'ri baholangan qimmatli qog'ozlarni aniqlashga asoslanagan tahlil – ...

- a) fundamental tahlil (fundamental analysis);
- b) qimmatli qog'ozlar tahlili (security analysis);
- d) texnik tahlil (technical analysis);
- e) statistik tahlili (statistical analysis).

3. Aktivlar narx darajasining o'sishi, pasayishi yoki ularning barqaror holatiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashga asoslangan tahlil - ...

- a) fundamental tahlil (fundamental analysis);
- b) qimmatli qog'ozlar tahlili (security analysis);
- d) texnik tahlil (technical analysis);
- e) statistik tahlili (statistical analysis).

4. Fundamental tahlilga ta'sir e'tuvchi omillarni ko'rsating.

- a) iqtisodiy omillar, siyosiy omillar;
- b) turli mish-mishlar va kutilishlar;
- d) fors-major holatlari;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

5. Quyidagilardan qaysi biri Yapon shamlari modellariga kirmaydi?

- a) yutish (qo'shib olish) modeli;
- b) tongi va tungi yulduz modellari;

- d) uch qora qarg'a modeli, uchta oq askar modellari;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

6. An'anaviy yapon shamlarining qaysi turida savdo sessiyasida qimmatli qog'ozlarni ochilish va yopilish narxlarining bir xil bo'lishida kuzatiladi?

- a) marubozu;
- b) uzun tanli sham;
- d) doji;
- e) barcha javoblar noto'g'ri.

7. An'anaviy yapon shamlarining qaysi turida o'suvchi tendensiyani saqlagan holda, bozorda "buqalar"ning kuchli namoyon bo'lishi kuzatiladi.

- a) marubozu;
- b) uzun tanli sham;
- d) doji;
- e) barcha javoblar noto'g'ri.

8. Baholarning, ya'ni fond bozoridagi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisida belgilanadigan baholarning muayyan yo'nalaishlar bo'yicha o'zgarishi – bu...

- a) trend;
- b) o'sish;
- d) tushish;
- e) turg'unlik.

9. Fond bozori holatini o'rganishga qaratilgan tahlil bo'lib, o'tgan savdo narxlarini o'rganish maqsadida, ularning kelajakdagi ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat tahlil – bu ?

- a) fundamental tahlil (fundamental analysis);
- b) qimmatli qog'ozlar tahlili (security analysis);
- d) texnik tahlil (technical analysis);
- e) statistik tahlili (statistical analysis);

10. Bozordagi tebranishlarning past narxlari ko‘tarila boshlaydi, ko‘tariluvchi (o‘suvchi) trendda bizga pastdan chegara belgilashimiz juda muhimdir, chunki bunday holatda stavkalar narxlarining ko‘tarilishiga qo‘yiladi...

- a) “ikki qoya” trendi;
- b) “buqa” lar trendi;
- d) “ayiqalar” trendi;
- e) gorizontal trend yoki flet.

XI BOB. MOLIYA BOZORI RISKLARI VA PORTFELNI BOSHQARISH

11.1. Moliya bozori risklari: mohiyati, asosiy turlari va baholash usullari

Investor tomonidan qabul qilinayotgan har qanday moliyaviy qaror risk bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘ladi. Bu moliya bozorida yaqqol o‘z aksini topadi. Bunga 2008 yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, uning sabablari va oqibatlari misol bo‘lishi mumkin. Bozor nuqtai nazaridan risk – bu aktiv narxini ko‘zda tutilmagan va kutilmagan tarzda o‘zgarishidan kelib chiqadigan yo‘qotishlar riski hisoblanadi.

Moliyaviy instrumentlarni sotib olish bilan bog‘liq risklar moliya bozorida salbiy iqtisodiy hodisalar vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘ladi va quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin: (1) foyda darajasi kutilayotgan darajadan past bo‘lishi yoki umuman kuzatilmaslgi; (2) qimmatli qog‘ozning qiymati tushganda investor kiritgan kapitalining ma’lum qismini yo‘qotilishi; (3) qimmatli qog‘ozning qadrsizlanishi.

Bunday oqibatlar shubhasiz potensial investor qaroriga ta’sir o‘tkazadi. Investorlar moliya bozoridagi risklar mohiyatini bilish, to‘g‘ri baholash va ularni samarali boshqarish uchun moliya bozoridagi risklarni ikkiga bo‘lishida, ya’ni: bozor (yoki tizimli, diversifikatsiya qilinmaydigan) risklari va bozordan tashqari (yoki o‘ziga xos, tizimsiz, diversifikatsiyalanadigan) risklar.

Bozor risklari

Bozor risklari – bu bozor omillari o‘zgarishi oqibatida aktiv qiymatini pasayishi riski hisoblanadi. Shuningdek narxlarni noaniqlik bilan o‘zgarishiga ham bog‘liq hisoblanadi. Bozor riski makroiqtisodiy tabiatga ega bo‘ladi, ya’ni riskni vujudga kelish manbasi moliya tizimidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ushbu risk butun tizimga bog‘liq bo‘lgani sababli butunlay bartaraf qilib bo‘lmaydi. Bozor riskini quyidagi uchta standart shakli mavjud:

1. Fond (yoki narx) riski – bu aksiyalar narxining tushishi riski.
2. Foiz riski – bu foiz stavkasi o‘zgarishi riski.
3. Valyuta riski – bu valyuta kurslari o‘zgarishi riski.

Bozor risklarini baholash uchun amaliyotda VaR usulidan keng foydalaniladi.

2008 yildagi inqirozdan keyin bozor risklarini aniqlash va baholash muammosi dolzarb bo‘lib qoldi. Ushbu davr talabiga munosib iqtisodchi olimlar tomonidan qator statistik usullar va yangi miqdoriy baholash usullari tadqiq qilindi. Iqtisodchi olimlar Dimitrios Bisias, Mark Flood, Andrew W. Lo, Stavros Valavanis tomonidan tadqiq qilingan “A Survey of Systemic Risk Analytics” nomli asarda tizimli riskni turli tomondan miqdoriy baholashning 31ta uslubiyotining sharhi berilgan.⁴⁴ Ulardan amaliyotga joriy qilish imkoniyati nuqtai nazaridan eng samarador va eng keng tarqalgan to‘rtta usulni quyida ko‘rib chiqamiz.

1. Stress-test usuli. Stress-testlar alohida moliyaviy institutni yoki butun tizimni makroiqtisodiy yoki makromoliyaviy o‘zgarishlariga nisbatan qanchalik zaifligini baholashga xizmat qiladi. Stress-testlar boshqa usullardan farqli tarzda tizimli riskni vujudga kelish ehtimolligini emas, balki agar o‘zgarish (shok) ro‘y bersa, oqibatlar qanaqa bo‘lishini aniqlaydi. Stress-test o‘tkazilishida odatda bir yoki bir nechta (pozitiv, o‘rta, negativ) ssenariylardan foydalaniladi. Ular dastlabki shok kattaligi, prognozlash gorizonti, risk omillarini stress-test obyektining barqarorligiga salbiy ta’sirining darajasi kabi parametrlar bo‘yicha farqlanadilar.

Stress-testning quyidagi yo‘nalishlari mavjud:

- pastdan tepaga usuli. Masalan banklar o‘zining yo‘qotishlar darajasini har bir ssenariy bo‘yicha mustaqil aniqladilar va umumlashtirish uchun yuqori turuvchi megaregulyator (Markaziy Bank)ga taqdim etadilar.

- tepadan pastga usuli. Masalan Markaziy Bank tomonidan yagona metodologiya bo‘yicha butun tizim (tijorat banklari)ni testdan o‘tkazilishi.

⁴⁴ Nicolas Blancher, Srobona Mitra, Hanan Morsy, Akira Otani, Tiago Severo, and Laura Valderrama. Systemic Risk Monitoring (SysMo) Toolkit – A User Guide. IMF Working paper, July 2013.

Pastdan tepaga usulda har bir bank o'zining riski va yo'qotishlari tizim yoki kontragentlarga ta'siri yoki o'zaro ta'sirini emas, balki o'z faoliyatiga ta'sirini baholaydi.

11.1-jadval

Stress-test kamchiliklari va afzalligi

Kamchiliklar	Afzallik
Statistik ma'lumotlarni to'plashda yo'qotishlar kuzatilishi; Stress sharoitida banklar chiziqli harakatlanmasligi (har bir bank o'zga-cha reaksiya ko'rsatishi).	Nazorat organiga murakkab tizimli modellarni ishlab chiqishi uchun moliyaviy institularda to'plangan riskning konsentratsiyasi va ko'lami haqida dastlabki ma'lumot berishi.

2. Tizimli riskni erta aniqlash indikatorlari. Ushbu usulning mohiyati tizimdagi risk darajasini taqriban aniqlaydigan iqtisodiy indikatorlar aniqlagan chegaraviy qiymatdan yuqori bo'lgan davrlarni aniqlaydi va bu inqiroz boshlanishiga xabar vazifasini bajaradi. Inqiroz bo'yicha erta xabar berish tizimiga misol tariqasida Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari majmuini keltirsa bo'ladi.⁴⁵ Ushbu tizim ikkita indikatorlar guruhiga bo'linadi:

1. CAMELS⁴⁶ indikatorlari moliyaviy inqirozning mikroiqtisodiy tarkibini xarakterlaydi. U asosiy kapital darajasi, aktivlar sifati, boshqaruvning ishonchliligi, foydalilik, likvidlilik va bozor riskiga ta'sirchanlik kabi ko'rsatkichlardan tarkib topadi.

2. Makroiqtisodiy indikatorlar. Ularga iqtisodiy o'sish sur'ati, to'lov balansi holati, inflyatsiya darajasi, foiz stavkasi va valyuta kursi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi.

Erta xabar berish indikatorlari usuli bo'yicha tanqidlar shundan iboratki, ular inqirozdan keyingi siljishlar ta'sirini, ya'ni inqiroz boshlanganidan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishini inobatga olmaydi.⁴⁷

⁴⁵ Indicators of financial stability. Compilation Guide – Washington, DC, USA: International Monetary Fund, 2007

⁴⁶ CAMELS indekatorlari guruhining nomi uning tarkibiga kiruvchi indikatorlarning bosh harfidan tuzilgan abbreviatura hisoblanadi, ya'ni Capital adequacy, Asset quality, Management, Earnings, Liquidity, Sensitivity kabi moliyaviy ko'rsatkichlardan iborat.

⁴⁷ Solntsev O.G., Pestova A.A., Mamonov M.E., Magomedova Z.M. Experience in Developing Early Warning System for Financial Crisis and the Outlook for the Banking Sector in Russia in 2012. // Journal of the New Economic Association, № 12, 2011], URL: http://www.forecast.ru/_ARCHIVE/Analitics/EcoAs/CMASF12-2011.pdf

Shuningdek hech bir kafolat yo'qki oldingi yil qayd qilingan qonuniyatlar kelgusi yilda ham o'z kuchida qolishiga.

3. VaR (*Value at Risk*)ga⁴⁸ asoslangan hisoblash uslubi. 1990-yillar yarmidan to hozirgi kunga qadar yirik xalqaro banklar va regulyatorlar boshchiligida deyarli barcha moliyaviy institutlar risk metrikasi⁴⁹ sifatida VaR (*Value at Risk* – riskning qiymatdagi o'lchovi, risk ostidagi qiymat yoki riskning qiymati)dan foydalanishadi. VaRning bunday umumqabul qilinishi ko'plab munozaralarga sabab bo'ldi. Aksar olimlar metrika subadditiv bo'lmagani, ya'ni divesifikatsiya tamoyillariga va bundan kelib chiqib zamonaviy portfel nazariyasi asoslariga teskari bo'lishi sababli, unga qarshi chiqishdi.

VaR ko'rsatkichi ma'lum shartlar ostida t vaqt oralig'ida investorning maksimal yo'qotishlarini ifodalaydi.⁵⁰ Rasman bu ko'rsatkich t davr uchun va berilgan α aniqlik darajasi bilan ma'lum aktiv yoki aktivlar portfeliga egalik qilishdan kutilayotgan maksimal yo'qotishlar VaR qiymatidan oshmaslik ehtimolligi α -ga teng bo'lgan qiymatni baholaydi. Boshqacha aytganda, α ehtimollik bilan V_t aktiv (portfel) qiymatit vaqtda o'zining V_0 dastlabki qiymatidan $[0; t]$ davr oralig'ida VaRdan ortmaydigan qiymatga og'maydi:

$$p(V_t - V_0 < VaR) = \alpha.$$

Agar, ehtimollik *VaRdan ortiq holda zarar ko'rish ehtimolligi* $1-\alpha$ ga teng bo'ladi:

$$p(V_t - V_0 > VaR) = 1 - \alpha.$$

E'tibor qilsak, matematik nuqtai nazardan *VaR* ko'rsatkichi α tartibdagi tasodifiy ifoda taqsimotining kvantili hisoblanadi.

Umumiy holatda $F(x)$ uzluksiz taqsimot funksiyasiga ega tasodifiy X ning α tartibdagi kvantili (quantil) deb $X < u_\alpha$ ni qanoatlantiradigan shunday u_α qiymatki, u uchun hodisaning ehtimolligi α ga teng bo'ladi:

⁴⁸ VaR ko'rsatkichi Bazel qo'mitasi, Xalqaro svop va hosilaviy instrumentlar assotsiatsiyasi, AQSH milliy sug'urtachilar assotsiatsiyasi tomonidan tartibga solish instrumenti sifatida foydalanish uchun tavsiya etilgan. .

⁴⁹ Bozor risk metrikasi – bu portfel kelgusi qiymatining noaniqligini o'lchash mezoni, ya'ni portfel daromadi (foyda yoki zarar)ning noaniqligini hisoblash o'lchov birligi hisoblanadi. Uning bosh maqsadi – kutilayotgan (muljallangan) qiymatdan chetlanishlar ehtimolligini aniqlash hisoblanadi.

⁵⁰ Crouhu M., Galai D., Mark R. Risk management. – N.Y.: McGraw Hill, 2001

$$F(u_\alpha) = p(X < u_\alpha) = \alpha$$

Quyidagi jadvalda o'rta qiymatdan chetlanish ehtimolliklariga mos keluvchi, standart chetlanishlar sonida ifodalangan normal taqsimot kvantillari keltirilgan.

11.2-jadval

Normal taqsimot kvantillari

Ehtimollik α , %	99,99	99,00	97,72	95,00	90,00	84,13	50,00
Kvantil i_α	3,715	2,326	2,000	1,645	1,282	1,000	0,000

Ushbu ko'rsatkichdan α ehtimollikdan ortmaydigan yoki $1-\alpha$ ehtimollikdan ortishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar yoki zarar ko'rishning chegaraviy qiymatini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Agar narxlar o'zgarishining ehtimolli taqsimoti normal taqsimot qonuniga bo'ysunsa, VaRmiqdorini quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$\text{VaR} = V_0 * u_\alpha * \sigma_t,$$

bu yerda

V_0 – aktiv (portfel)ning dastlabki qiymati;

t – ko'rilayotgan davr (risk gorizonti);

σ_t – t vaqt davomida aktiv (portfel) qiymati yoki daromadining standart chetlanishi;

α – ahamiyatlilikning tanlangan darajasi.

Demak VaR ikkita parametr bilan ifodalanadi:

1) ahamiyatlilik darajasi (significance level) – α yoki ishonchlilik darajasi (confidence level) – $1-\alpha$;

2) savdo kunlari orqali o'lchanadigan risk gorizonti (risk horizon) – h .

Odatda ahamiyatlilik darajasi tashqi subyekt tomonidan belgilanadi. Misol uchun Bazel II kelishuvi doirasida tijorat banklari o'zlarining bozor risklarini VaR yordamida baholayotganlarida ahamiyatlilik darajasini 1% deb olishadi, ya'ni bu 99% ishonchlilik darajasi hisoblanadi. Kredit reytingi agentliklari esa bundan ham jiddiyroq daraja belgilashadi, ya'ni yuqoriroq ishonchlilik darajasi (0,03% ahamiyatlilik yoki 99,97% ishonchlilik darajasi)ni qo'llashadi. Bunday tashqi regulyatorlar bo'lmagan taqdirda VaRning ahamiyatlilik/ishonchlilik darajasi foydalanuvchining riskka nisbatan yondashuviga bog'liq hisoblanadi. Foydalanuvchi qancha konservativ bo'lsa,

shuncha α qiymati past bo‘ladi va mos ravishda ishonchlilik darajasi ham shuncha yuqori qo‘llaniladi.

Risk gorizonti – bu potensial (istiqboldagi mumkin bo‘lgan) yo‘qotishlarni qancha davr oralig‘i uchun hisoblanishini anglatadigan muddat. Turli risklar tabiiy ravishda ularning likvidliligiga qarab turli vaqt oralig‘i bo‘yicha baholanadi. Misol uchun Bazel kelishuviga muvofiq VaRning risk gorizonti 10 kunni tashkil etadi. Ichki yoki tashqi tartibga solish mexanizmlari mavjud bo‘lmagan holatlarda VaRning risk gorizonti sifatida riskka uchrashning kutilayotgan davr oralig‘i olinadi. Likvid aktivning riskka uchrashi likvid bo‘lmagan aktivga nisbatan ancha tez kutiladi va muvofiq tarzda tez to‘liq xedjirlanadi. Shuningdek riskdan holi bo‘lish muddati uning sodir bo‘lishining ko‘lami (razmeri) va bozor likvidligiga bog‘liq hisoblanadi.

4. Spetsifik (o‘ziga xos) risklar.

Maxalanobis tafovuti. 1927 yilda hind statistigi Chandra Maxalanobis tomonidan bosh chanog‘ining o‘xshashligini tekshirish uchun ishlab chiqilgan modeldan Kritsman va Li moliya bozoridagi nobarqarorlikni aniqlash uchun foydalanilgan. Ushbu d_t – “nobarqarorlik indeksi” quyidagicha aniqlanadi:

$$d_t = (y_t - \mu) \sum^{-1} (y_t - \mu)^T ,$$

bu yerda,

y_t – t davr uchun aktivlar daromadliligining vektori;

μ – oldingi davrlarning o‘rtacha daromadlilik vektori;

Σ – oldingi davrlar daromadliliklarining kovariatsion matritsasi.

Ushbu indeks aktivlar daromadliligining tarixiy o‘rtacha daromadlilikdan chetlanishga moyilligini o‘zida aks ettiradi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida d_t o‘zgarishi moliya bozorining muvozanatsizligiga olib keladigan hodisalar bilan mos kelishi aniqlandi.

Qoplash koeffitsiyenti. 2010 yilda Kritsman va Li tomonidan tizimli riskni o‘lchash bo‘yicha yana bir statistik instrument taqdim (taklif) qilindi. Ushbu yondashuv asosida asosiy komponentlar usuli (Principal Component Analysis, PCA) yotadi. Bunda maksimal ma’lumot sonini saqlagan holda ma’lumotlar hajmini qisqartirish qo‘llaniladi. RSA dastlabki ko‘rsatkichlar (asosiy komponentlar)ning

kovariatsion matritsasini umumiy variatsiyaning ulushi bo'lgan o'z qiymatlari bo'yicha yoyishga asoslanadi.

Mualliflar qoplash koeffitsiyentini vaqt oraliqlarining o'zaro bog'liqligi ko'rsatadigan o'lchov birligi sifatida ishlatishni taklif qilishadi. koeffitsiyent quyidagi ko'rinishga ega:

$$AR = \frac{\sum_{i=1}^N \sigma_i^2}{\sum_{j=1}^N \sigma_j^2}$$

bu yerda:

AR – o'z vektorlari guruhi bilan ifodalanadigan (qoplanadigan) umumiy variatsiya ulushi;

$\sigma_1^2, \sigma_2^2, \sigma_3^2 \dots \sigma_N^2$ – kamayib borish tartibi bo'yicha kovariatsion matritsaning o'z vektorlari;

N – matritsa rangi.

AR qiymatining ortishi ko'chmas mulk bozorida pufak hosil bo'layotgani va xavf yaqinlashayotgani haqida ogohlantiradi. Keyingi qadamda koeffitsiyentning standart o'zgarishini hisoblash ko'riladi:

$$\Delta AR = \frac{AR_{15days} - AR_{1year}}{\sigma},$$

bu yerda:

$AR(15days)$ va $AR(1year)$ – mos ravishda AR ning 15 kunlik va 1 yillik o'rtacha qiymatlari;

σ – AR ning oldingi hisobot davridagi standart chetlanishi.

AQSH fond bozorining qulashini bir oy oldin bashorati doim AR ko'rsatkichini bir birlik sigma og'ishiga olib kelgan.

Bozordan tashqari risklar

Bozordan tashqari risklar bozor holati bilan emas, balki alohida aktivning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq risk hisoblanadi. Misol uchun ushbu risk turiga asosan korxonaning noiqtisodiy omillari (rahbariyatni nokompetentligi) tufayli uning aksiyasiga ta'sir riski sifatida ko'rish mumkin. Ushbu riskni portfelni diversifikatsiya qilish orqali umuman bartaraf qilinishi mumkin. Diversifikatsiya samarasini korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tushuntirish mumkin.

Ikkita o'zgaruvchanning birga harakatlanish tendensiyasi korrelyatsiya deyiladi va korrelyatsiya koeffitsiyenti ushbu tendensiyani

o'lchab beradigan ko'rsatkich hisoblanadi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti +1dan -1gacha ifodalanadi va ρ grek harfi bilan belgilanadi. $\rho = +1$ ga teng bo'lgan holatda ikkita o'zgaruvchan mutlaq bir xil harakatlanadi, $\rho = -1$ bo'lsa ikkita o'zgaruvchan mutlaq teskari harakatlanadi va $\rho = 0$ vaziyatda ikkita o'zgaruvchan umuman bir biriga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni bir o'zgaruvchan ikkinchisidan mustaqil hisoblanadi.

Oldingi davrlardagi ma'lumotlardan kelib chiqib korrelyatsiyani hisoblansa, R harfi bilan ifodalanadi. Quyida ikkita (i va j) aksiya o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentining hisoblash formulasi keltirilgan.

$$\rho = R = \frac{\sum_{t=1}^T (\bar{r}_{i,t} - \bar{r}_{i,Avg})(\bar{r}_{j,t} - \bar{r}_{j,Avg})}{\sqrt{[\sum_{t=1}^T (\bar{r}_{i,t} - \bar{r}_{i,Avg})^2][\sum_{t=1}^T (\bar{r}_{j,t} - \bar{r}_{j,Avg})^2]}}$$

bu yerda:

R – oldingi davrlardagi ma'lumotlardan kelib chiqib aniqlangan korrelyatsiya;

$\bar{r}_{i,t}$ – i aksiyasining t davr uchun haqqoniy daromadliligi;


$\bar{r}_{i,Avg}$ – T davrlar mobaynidagi i aksiyasining o'rtacha daromadliligi.

Agar ikkita aksiyaning korrelyatsiya koeffitsiyenti -1ga teng bo'lsa, har biri uchun shunday ulush tanlasa bo'ladiki, natijada ularni birining o'z o'rta (kutilayotgan) qiymatidan chetlanishi boshqasining o'z o'rta qiymatidan chetlanishini neytrallashtiradi (bartaraf qiladi). Bunda ular yordamida shakllantirilgan portfelning standart chetlanishi nolga teng bo'ladi, lekin shu bilan bir qatorda uning kutilayotgan daromadliligi aksiya kutilayotgan daromadliligining o'rtacha tortilganiga teng bo'ladi. Demak korrelyatsiya -1ga teng bo'lganda portfelning tarkibidagi aksiyalar ulushi to'g'ri proporsiyada tanlansa, uning standart chetlanishi nolga teng bo'ladi va risk bartaraf qilinadi. Ya'ni portfel shakllantirib diversifikatsiya qilish orqali riskni bartaraf qilinadi.

Agar korrelyatsiya +1ga teng bo'lsa, portfelning standart chetlanishi aksiyaning standart chetlanishlarining o'rtacha tortilganiga teng bo'ladi. Bunday holatda diverifikatsiya naf keltirmaydi va risk ro'y bersa undan ko'riladigan ehtimolli yo'qotishlari muqarrar hisoblanadi.

Shunday qilib -1 va +1 oralig'ida korrelyatsiya kuzatilsa, portfelning standart chetlanishi aksiyalarning o'rtacha tortilgan standart chetlanishlaridan past bo'ladi va risk darajasini diversifikatsiya qilish

orqali pasaytirsam bo‘ladi. Amaliyotda diversifikatsiya maqsadida portfel shakllantirish uning tarkibidagi aksiyalarni korrelyatsiyasi ko‘pincha aynan shu oraliqda bo‘ladi. Bunda diversifikatsiya riskni to‘laqon bartaraf qila olmaydi.



11.1-rasm. Portfelning hajmi uning riskiga ta’siri⁵¹

Diversifikatsiya va portfel. Quyidagi rasm-3da Nyu-York Fond Birjasidan ixtiyoriy tanlanma asosida shakllantirilgan portfelning aksiyalar soni gorizontali o‘q bo‘ylab oshib borishi sari ushbu portfel riski vertikal o‘q bo‘ylab kamayib borish tendensiyasini grafik yordamida ko‘rsatib berilgan. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra birjaning bitta aksiyadan iborat portfelining standart chetlanishi taqriban 40%ga teng. Biroq bozor portfelining (birjadagi barcha aksiyalar yig‘indisidan iborat portfel) standart chetlanishi σ_M taxminan 20%ga teng va grafikda bu to‘g‘ri shtrixli gorizontali chiziq bilan ifodalangan. Ushbu chiziqgacha bo‘lgan riskni portfel shakllantirib diversifikatsiyalab bo‘lmaydi va aksiyaning ushbu diversifikatsiyalanmaydigan (yoki tizimli) riski – bozor riski deb nomlanadi. Chunki bozor riskini vujudga

⁵¹ Brigham & Ehrhardt. Financial management/Theory and practice /15th edition

keltiradigan omillar sifatida siyosiy nobarqarorlik, inflyatsiya, retsessiya va yuqori foiz stavkalar kabi tashqi omillar qatnashadi.

Aksiya diversifikatsiyalanadigan riski – kompaniyaga xos yoki tizimsiz risk deyiladi. Ushbu riskni paydo bo‘lishiga sababchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: sudlashuv jarayoni, ish tashlashlar, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz marketing dasturlari, yirik shartnomani qo‘lga kiritish yoki boy berish va boshqa shu kabi alohida firma uchun xos bo‘lgan hodisalar. Bir firmaning bunday yomon hodisalari boshqa bir firmaning yaxshi hodisalari bilan diversifikatsiya yordamida bartaraf etish mumkin.

11.2. Portfel nazariyasi:

Markovisgacha va undan keyingi baholash usullari

Investorlar yuqori darajadagi riskka mos keladigan ehtimolli daromadlilikni ta’minlashlari uchun riskning xolisona baholashlari kerak bo‘ladi.

Riskni baholash trillion dollarlarga teng qiymatga ega bo‘lgan derivativlarning uzluksiz savdosini ta’minlash, narxini saqlab qolish va ular bozorini barqaror bo‘lishi uchun juda ham muhim hisoblanadi.⁵²

Riskni noto‘g‘ri baholash riskdan keladigan yo‘qotishlarni yetarlicha baho bermaslikka olib keladi va natijada bankrotlikka va hatto butunlay moliya sektori qulashiga (inqirozga duch kelishiga) sabab bo‘ladi.⁵³

Riskni miqdoriy baholash evolyutsiyasi quyidagi uch bosqichga bo‘linadi:

1. Markovisgacha bo‘lgan riskni baholash uslubiyotlari;
2. Markovisning “Portfel nazariyasi”ga asoslangan riskni baholash uslubiyotlari;
3. Riskdagi qiymat (Value at Risk) hamda unga bog‘liq riskni baholash uslubiyotlari.

⁵² L.A. Stout. Why the Law Hates Speculators: Regulation and Private Ordering in the Market for OTC Derivatives. Duke Law Journal, 48(4):701–786, 1999.

⁵³ M.H. Kabir and M.K. Hassan. The Near-Collapse of LTCM, US Financial Stock Returns, and the Fed. Journal of Banking and Finance, 29(2): 441–460, 2005.

Ushbu evalyutsion bosqichlarni tarixiy ketma-ketlikda yoritib riskni baholashning kelajakdagi istiqbolli yo‘nalishlarini quyida muhokama qilib o‘tamiz.

Olimlar risk va noaniqlikni iqtisodiy kategoriyalar sifatida farqlashadi va bunga birinchi bor o‘z izlanishlarida amerika iqtisodchi olimi Frenk Nayt e‘tibor qaratgan va bu kategoriyalarni batafsil yoritib, chegaralab bergan.

Nayt fikricha risk – bu ma‘lum ehtimollik bilan ifodalangan tasodifiylik, noaniqlikda esa tasodifiylik noma‘lum ehtimollik bilan ifodalanadi degan fikrni ilgari surgan.⁵⁴ Biroq moliyaviy risklar bo‘yicha adabiyotlarda bunday farqlash deyarli uchramaydi.

Risk va riskni baholashning muhim jihat – bu portfel diversifikatsiyasi hisoblanadi. Diverifikatsiya deganda bir nechta aktivlarga investitsiya kiritish orqali hamda ehtimolli daromadlilikni o‘zgarmas saqlab qolish bilan umumiy risklarni kamaytirishni tushiniladi. Chunki barcha risklar barcha aktivlarga ham teng ta‘sir ko‘rsatmaydi. Shu bilan birga albatta diversifikatsiya orqali kamaytirib bo‘lmaydigan risklar ham iqtisodiyotda mavjud (masalan foiz stavkasi riski).

Ko‘pchilikni fikridan farqli o‘laroq riskni baholash va diversifikatsiyalash Markovisning portfel nazariyasidan oldin tadqiqi qilingan. Rubinshteynnning ta‘kidlashicha rossiya iqtisodchi olimi Bernulli 1938 yilda⁵⁵ riskli qarorlarni kutilayotgan naflilikka asosan baholash mumkinligini isbotlaganida diversifikatsiya orqali daromadlilikni pasaytirmasdan riskni kamaytirish haqida to‘xtalgan.⁵⁶

Markovisdan oldin 1906 yilda Irving Fisher iqtisodiy riskni dispersiya yordamida baholagan.⁵⁷ Tobin esa investitsion portfel risklarini daromadlilikning dispersiyasiga bog‘lagan.⁵⁸

Zamonaviy qimmatli qog‘ozlar tahlilining otasi sanalgan Benjemin Grem riskni baholashga o‘zining xavfsizlik marjasi g‘oyasini hamda riskni kamaytirish uchun diversifikatsiya amaliyotini taklif qilgan.⁵⁹

⁵⁴ F.H. Knight. Risk, uncertainty and profit. Houghton Mifflin Company, 1921.

⁵⁵ D. Bernoulli. Exposition of a new theory on the measurement of risk. *Econometrica: Journal of the Econometric Society*, pages 23–36, 1954.

⁵⁶ M. Rubinstein. Markowitz’s “Portfolio Selection”: A Fifty-Year Retrospective. *The Journal of Finance*, 57(3):1041–1045, 2002.

⁵⁷ Irving Fisher. *The Nature of Capital and Income*. Macmillan, 1906.

⁵⁸ J. Tobin. Liquidity preference as behavior towards risk. *The Review of Economic Studies*, pages 65–86, 1958.

⁵⁹ B. Graham. *The intelligent investor*. Harper Collins, 2003.

Ushbu qiymatga asoslangan investitsiyalash metodologiyasi tarafdorlaridan taniqli Djeremi Grentem va Uorren Baffetlar gavdalansa-da, moliyaviy matematiklar jamiyati tomonidan bu ilmiy qarashlar keyinchalik tadqiq etilmagan.⁶⁰

Iqtisodchi olimlar risk haqida ko‘plab qarashlarni shakllantirganiga qaramasdan riskni baholash standart moliyaviy hisobot tahlili sifatida qaralgan. Markovis birinchi bor portfel riski, diversifikatsiya va aktivlarni tanlashga matematik yondashuv bilan tavsiflab bergan.⁶¹ Bu matematik apparat aktivning kutilayotgan (o‘rta) qiymati, dispersiyasi va kovariatsiyasidan tashkil topgan edi. Markovisning portfel nazariyasi riskni baholashda o‘ta muhim innovatsiya edi va bu uchun muallif Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

Demak Markovis portfel riskini uning daromadliligining dispersiyasiga teng deb hisobladi.⁶² Agar portfelning kutilayotgan (o‘rta) daromadliligi quyidagicha aniqlansa,

$$\mu_p = \sum_{i=1}^N \omega_i \mu_i$$

unda portfelning dispersiyasi quyidagi formula bilan ifoda:

$$\sigma_p^2 = \sum_{i=1}^N \sum_{j=1}^N \sigma_{ij} \omega_i \omega_j$$

bu yerda:

N – portfel tarkibidagi aktivlar soni;

i, j – portfel tarkibidagi aktivlar va $i, j \in \{1, \dots, N\}$;

ω_i – i -nchi aktivning portfeldagi ulushi, quyidagi cheklovchi shartni hisobga olgan holda:

$$0 \leq \omega_i \leq 1,$$

$$\sum_{i=1}^N \omega_i = 1;$$

σ_{ij} – i va j aktivlarining kovariatsiyasi;

μ_i – i -nchi aktivning kutilayotgan daromadliligi.

Markovisning portfel nazariyasi birinchi bo‘lib portfel diversifikatsiyasi samarasini portfelning tarkibidagi aktivlarni o‘rtasidagi korrelyatsiya (yoki kovariatsiya) orqali batafsil tushuntirib

⁶⁰ R.G. Hagstrom. The Warren Buffett Way. Wiley, 2005.

⁶¹ H. Markowitz. Portfolio Selection. The Journal of Finance, 7(1):77–91, 1952.

⁶² H.M. Markowitz. Portfolio selection: efficient diversification of investments. Blackwell Publishing, 1991.

hisoblab bergan. Yuqoridagi (2) formuladan portfelning kutilayotgan daromadliligini kamaytirmasdan kovariatsiya orqali ham dispersiya darajasini pasaytirish mumkinligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek ushbu nazariya “samarali chegara”da⁶³ joylashgan aktivlarni tanlash orqali optimal portfelni shakllantirish g‘oyasiga asos soldi. Bunga muvofiq samarali chegara portfelning kutilayotgan daromadligi konstanta degan shartni hisobga olgan holda aktivlarni ulushini riskni minimallashtirish orqali belgilash bilan topiladi. Natijada bunday portfel minimal risk darajasida eng yaxshi daromadlilikni ta’minlaydi.⁶⁴ Samarali chegara portfel daromadligi va dispersiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik, ya’ni botiq chiziq bilan ham ifodalanadi. Bunda risk oshishiga qarab kutilayotgan nafillik botiq chizig‘i ham oshib borish qonuniyati kuzatiladi. Markovisning portfel nazariyasiga asoslangan portfel riskini bahosi boshqa bir amerikalik iqtisodchi olim Uilyam Sharp tomonidan tadqiq qilindi va u Sharp koefitsiyenti nomi bilan tanildi. Ushbu koefitsiyent quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:⁶⁵

$$S = \frac{\mu_p - R_f}{\sigma_p}$$

bu yerda R_f – risksiz foiz stavka hisoblanadi.

Sharp koefitsiyentini Markovis portfel nazariyasi yordamida aniqlangan har bir risk uchun risksiz foiz stavkasiga qo‘shimcha daromadlilik sifatida talqin qilish mumkin. Sharp koefitsiyenti berilgan risk darajasiga mos keladigan portfel daromadligining sifatini aniqlash nuqtai nazaridan kelib chiqib portfel riskini hisoblaydi. Sharp koefitsiyenti t-statistikasiga⁶⁶ o‘xshashligi borligini ko‘rish mumkin.⁶⁷

Sharp koefitsiyentining boshqa bir varianti Sortino koefitsiyenti bo‘lib, farqli jihati maxrajdagi portfelning standart chetlanishi portfelning kutilayotgan daromadligi (μ_p)dan past bo‘lgan qiymati

⁶³ Samarali chegara – bu risk va daromadlilikni ifodalaydigan grafikdagi chiziq bo‘lib, aniqlangan risk darajasi uchun eng yuqori daromadlilikni yoki berilgan daromadlilik darajasi uchun eng past darajadagi riskni beradigan va ushbu chiziqda joylashgan optimal portfel hisoblanadi. Chiziqdan pastda bo‘lsa, yetarli daromadlilikni ta’minlamaydi yoki yuqorida bo‘lsa, risk darajasi yuqori bo‘ladi va har ikkala holatda ham portfel samaraiz hisoblanadi. <https://www.investopedia.com/>

⁶⁴ H.M. Markowitz. Foundations of portfolio theory. Journal of Finance, pages 469–477, 1991.

⁶⁵ W.F. Sharpe. Mutual Fund Performance. The Journal of Business, 39(1):119–138, 1966.

⁶⁶ T-statistika yoki Student statistikasi – bu bog‘liq o‘zgaruvchanni o‘zgarishini ifodalashda regressiya tenglamasi koefitsientining statistik ahamiyatini ko‘rsatkichi hisoblanadi (koefitsient qiymatini standart xatolik koefitsientiga bo‘lish orqali topiladi).

⁶⁷ Uilyam Sharpning ramiy veb sahifasi: www.stanford.edu/wfsharpe

qo'yiladi. Bu koeffitsiyent Sharp bilan bir xil ko'rsatkichga ega bo'ladi, faqat μ_p dan yuqori bo'lgan holat uchun portfel daromadliligidagi o'zgarishni hisobga olmaydi, ya'ni bunday holatda portfel daromadliligi kamaytirilishi kerak bo'ladi.⁶⁸

Markovis bilan bir vaqtda uning portfel nazariyasini boshqa bir amerikalik iqtisodchi olim ham tadqiq qilgan.⁶⁹ Markovis ta'kidlashicha: "Markovisning (1952) tadqiqotiga asosan Men zamonaviy portfel nazariyasi (ZPN) otasi deb tez-tez tilga olinaman, lekin Roy (1952) bunday e'tirofga da'vo qilishga teng huquqli hisoblanadi".⁷⁰

Kapital aktivning baholash modeli (SARM)

Markovisning portfel nazariyasini 1960-nchi yillarda kalkulyatsiya qilish imkoniyati mavjud masligi sababli (chunki 100dan ortiq aktivlarning kovariatsiyasini kalkulyatsiya qilish talab qilinadi), boshqa bir riskni hisoblash texnikasiga zarurat paydo bo'ldi va MPNga asoslangan kapital aktivning baholash modeli Uilyam Sharp tomonidan taklif qilindi. Model quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\mu_i = R_f + \beta_i(\mu_m - R_f)$$

$$\beta_i = \frac{\sigma_{im}}{\sigma_m}$$

bu yerda:

R_f – risksiz foiz stavka;

μ_m – bozor porfelining kutilayotgan daromadliligi;

β_i – i-nchi aktivning beta koeffitsiyenti;

σ_{im} – i-nchi aktiv va bozor porfelining kovariatsiyasi;

σ_m – bozor porfelining standart chetlanishi.

Beta koeffitsiyenti aktiv daromadliligining bozornikiga nisbatan ta'sirchanligini aniqlaydi. SARM modelidagi bozor riski uchun mukofot ($\mu_m - R_f$) ifodasi riskli aktivga investitsiya kiritish uchun risksiz foiz stavkasiga qo'shimcha daromad hisoblanadi.

SARM nazariyasiga ko'ra barcha investorlar riskka bo'lgan yondashuvlaridan qat'iy nazar bir xil portfelga egalik qilishadi va

⁶⁸ F.A. Sortino and L.N. Price. Performance measurement in a downside risk framework. Journal of investing, (FALL 1994), 1994.

⁶⁹ A.D. Roy. Safety First and the Holding of Assets. Econometrica, 20(3):431–449, 1952.

⁷⁰ M. Rubinstein. Markowitz's "Portfolio Selection": A Fifty-Year Retrospective. The Journal of Finance, 57(3):1041–1045, 2002.

bunday portfel ham risksiz va ham riskli aktivlardan tarkib topadi. Shuningdek investorlar indeks fondlariga⁷¹ egalik qilishadi deb qabul qilinadi. Bunda SARM nazariyasi indeks samaradorligiga nisbatan hisoblanganda portfel samaradorlik mezonini beradi. Portfel mezoniga quyidagi jadvalni misol tariqasida keltirsak bo‘ladi.

SARM modelining turlaridan biri Yensen riskni baholash modeli bo‘lib, unga ko‘ra SARM bilan baholangan portfel daromadliligidan ortiqcha daromadlilik aniqlanadi va bu α bilan quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha = \mu_p - [R_f + \beta_p(\mu_m - R_f)].$$

Bu yerda:

α – portfel menejerining investitsion qobiliyati yoki “bozordan o‘zib ketish”ining o‘lchov birligi sifatida ifodalanadi;

μ_p – portfelning kutilayotgan daromadliligi;

β_p – portfel beta koeffitsiyenti.

11.2-jadval

Indeksga bog‘langan portfel samaradorlik mezon⁷²

Indekslar	Portfel samaradorlik mezon
S&P 500	Yirik xususiy kapital bozori fondlari
S&P 400	O‘rta xususiy kapital bozori fondlari
Russell 2000	Kichik xususiy kapital bozori fondlari
NASDAQ Composite	Texnologik sektor xususiy kapital fondlari

Va nihoyat boshqa bir deyarli tanilmagan portfel koeffitsiyenti amerikalik iqtisodchi olim Treynor tomonidan portfel nazariyasiga Treynor koeffitsiyenti nomi bilan kiritilgan.⁷³ U quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$T = \frac{\mu_p - R_f}{\beta_p}$$

Treynor koeffitsiyenti Sharpniki singari har bir birlik risk uchun R_f ustiga qo‘shiladigan portfel daromadliligining “sifati” deb talqin

⁷¹ Indeks fondi – investitsion pay fondning bir turi bo‘lib, ma’lum qoidalar bo‘yicha bazaviy instrumentlarga investitsiya kiritishni oldiga maqsad qiladi. Ushbu qoidalarga ko‘ra indeks fondi fond birjasi indekslarini (masalan S&P 500 indeks fondi) kuzatib boradi va ularga investitsiya kiritishni ko‘zlaydi. Birinchi indeks fondi AQSHda 1972 yil 31 iyulda Dou-Djons 30 indeksiga asoslangan fond sifatida ro‘yxatdan o‘tgan.

⁷² W. Jiang. A nonparametric test of market timing. Journal of Empirical Finance, 10(4):399–425, 2003.

⁷³ G. Hübner. The generalized Treynor ratio. Review of Finance, 9(3):415–435, 2005.

qilinadi. Koeffitsiyentda Sharpdan farqli ravishda Treynor riskni SARM asosida aniqlaydi.

Riskdagi qiymat(VaR – Value at Risk)

Markovis portfel nazariyasidan keyingi davrni VaR usulini boshlanishi va rivojlanishi hisoblanadi. Bu riskni baholash yo‘nalishida quyidagi sabablarga asosan keskin ijobiy o‘zgarishga olib keldi:

Birinchidan, VaR riskni baholash ahamiyatini riskni boshqarish uchun foydalanish darajasiga olib chiqdi. 1994 yilda JP Morgan kompaniya (yoki institut) miqyosida riskni hisoblash uchun riskni baholashning yaxlit tizimi, ya’ni VaR usulini ishlab chiqdi.⁷⁴ Ushbu usuldan oldin hech bir riskni hisoblash yondashuvi risklarni baholash va boshqarish bo‘yicha yaxlit tizimni yechim sifatida taklif qilishmagan.

Ikkinchidan, xalqaro banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishga oid norma va qoidalarni o‘rnatadigan Bazel Qo‘mitasi 1995 yilda bozor riski bo‘yicha kapitalga bo‘lgan talabni VaRga asosan aniqlash talabini joriy etdi. Ushbu omil pirovardida VaR va VaR bilan bog‘liq baholash usullariga qiziqishni orttirdi hamda uni amaliyotda keng tarqalishiga sabab bo‘ldi.⁷⁵

Uchinchidan, oldingi hisoblash usullari asosan risk va daromadlilik o‘rtasidagi bog‘liqlikning ba’zi nazariy modellariga asoslanib, aktivning daromadlilikini tushuntirib berishga qaratilgan edi, misol uchun SARM modeli. VaR esa kutilayotgan daromadlilikdanmas, balki yo‘qotishlar nuqtai nazaridan riskni o‘zini miqdoriy baholashga etiborni qaratgan.

VaRning maqsadi: “Berilgan T muddat oralig‘i uchun va kumulyativ ehtimollik bilan qancha yo‘qotish kutilishi mumkin?” degan savol javobiga qaratilgan. Shundan kelib chiqib VaR quyidagicha ifodalanadi:⁷⁶

$$F(Z(T) \leq VaR) = \zeta,$$

bu yerda:

$F(_)$ – kumulyativ ehtimollikning taqsimot funksiyasi;

$Z(T)$ – yo‘qotish qiymati.

Yo‘qotish quyidagicha aniqlanadi:

⁷⁴ K. Dowd. An Introduction to Market Risk Measurement. J. Wiley Hoboken, NJ, 2002.

⁷⁵ J. Danielsson, H.S. Shin, and J.P. Zigrand. The impact of risk regulation on price dynamics. Journal of Banking and Finance, 2004.

⁷⁶ G. Szego. Measures of risk. European Journal of Operational Research, 163(1):5–19, 2005.

$$Z(t) = S(0) - S(t)$$

bu yerda:

$S(0)$ – bazis davr uchun aksiyaning narxi;

$S(t)$ – t davr uchun aksiyaning narxi.

$\zeta - Z(t)$ yo‘qotish taqsimotidagi VaR chegaraviy qiymati bilan bog‘liq kumulyativ ehtimollik.

Misol uchun portfelning VaR qiymati 90%lik kumulyativ ehtimollik bilan bir kunlik 10 000 000 p.b.ni tashkil qilishi portfelning maksimal kunlik yo‘qotishi 90%lik kumulyativ ehtimollik bilan 10 000 000 p.b.ga tengligini anglatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, 10%lik kumulyativ ehtimollik bilan portfelning kunlik yo‘qotishi 10 000 000 p.b.dan ortiqcha bo‘lishi mumkin. Odatda ζ qiymati 0,90, 0,95 va 0,99 deb olinadi.

VaRning tadbiiq qilinishi

Portfel VaRining hisoblanishi qiyinchilik tug‘diradi chunki tarkibida yuzlab va undan ham ortiq aktivlar mujassamlangan portfelning ma’lum davr oralig‘ida evolyutsiyasi (shakllanishi/o‘zgarib borishi)ni modellashtirish mushkil hisoblanadi.⁷⁷⁷⁸ VaRning amaliyotga joriy qilish nafaqat industriyaga, balki akademik tadqiqotchilar uchun ham ahamiyatlik darajasi yuqori hisoblanadi va hozirgi kunda uni to‘rtta asosiy usuli mavjud, ya’ni:

Retrospektiv⁷⁹ simulyatsiya (Historical Simulation) usuli. Bunda uzoq davrni ichiga olgan statistik ma’lumotlarga tayanib portfel yo‘qotishlarining empirik⁸⁰ ehtimolli taqsimotini aniqlanadi. Keyin mos keladigan kvantildan keltirib chiqish orqali VaR qiymatini aniqlanadi. Bu yondashuvni tadbiiq qilish qulay hisoblanib, statistik usullar yordamida takomillashtirish mumkin.

Parametrik yondashuv. Ushbu usul istalgan kumulyativ ehtimollik uchun VaRni aniqlash bo‘yicha analitik yechimni talab etadi. Afsuski taqsimotning barchasi ham yechimga ega emas, biroq VaRni hisoblash uchun chekli qiymat nazariyasi (chegaradan ortadigan cho‘qqi va umumiy chekli qiymat taqsimoti)dan foydalanish mumkin.⁸¹

⁷⁷ M. Musiela and M. Rutkowski. *Martingale Methods In Financial Modelling*. Springer, 2005.

⁷⁸ J. Hull. *Options, futures and other derivatives*. Prentice Hall, 2000.

⁷⁹ Retrospektiv – oldingi davr statistik ma’lumotlarini hisobga olgan holda.

⁸⁰ Empirik – real kuzatuvlarga asoslanib yoki tajriba yo‘li bilan.

⁸¹ Qo‘shimcha ma’lumot uchun: R. Cont and P. Tankov. *Financial Modelling with Jump Processes*. CRC Press, 2004.

Monte Karlo Simulyatsiyasi usuli. Monte Karlo simulyatsiyasi aktivlar yoki portfelni o‘zida aks ettiradigan biror bir tasodifiy jarayonni (misol uchun stoxastik differensial tenglama) simulyatsiya qilish uchun umumiy usul hisoblanadi. Yetarli simulyatsiyalar sonidan keyin yo‘qotishlar taqsimotini va buni natijasida retrospektiv simulyatsiya singari turli ehtimolliklar uchun VaRni keltirib chiqish mumkin. Ushbu yondashuvni ahamiyatliligi bo‘yicha tanlanma, stratalashgan⁸² tanlanma va anitetik⁸³ tanlanmalarni amalga oshirish kabi turli hisoblash texnikalari bilan takomillashtirish mumkin.⁸⁴

Variatsion-kovariatsion (delta-normal, korrelyatsion, parametrik, analitik) usul. Ushbu usulga muvofiq portfel yo‘qotishlarining taqsimotini quyidagi ikkita shartga asosan modellashiriladi:

Portfel to‘g‘ri chiziqli hisoblanadi, ya’ni portfel narxi ($V(t)$)ning o‘zgarishi uning tarkibidagi aktivlar narxlari ($S_i(t)$)ga to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlikda hisoblanadi. Buni quyidagi funksiya bilan ifodalanadi:

$$\Delta V(t) = \sum_{i=1}^N \Delta S_i(t) \quad .$$

E’tibor qilish kerak tarkibida derivativlar bo‘lmasagina portfel chiziqli bo‘ladi. Amaliyotda ba’zi model ishlab chiquvchilar chiziqli bo‘lmagan portfellarni ham tahlil qilish uchun qulay bo‘lishi uchun chiziqli deb faraz qilib olishadi.⁸⁵

Tarkibidagi aktivlarning daromadliligi umumiy (qo‘shma) normal taqsimotga ega bo‘lishi, portfelning daromadi ham normal taqsimotga ega bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish joizki, normal taqsimot funksiyalarining yig‘indisi doim ham aniq normaldek bo‘lmaydi, lekin umumlashtirilgan normal taqsimotning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u portfel daromadliligining normal bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday qilib portfelning chiziqli bo‘lish shartini o‘zi portfel daromadliligining normal bo‘lishiga yetarli bo‘lmaydi.

Yuqoridagi uchta shartdan ikkitasi bajarilsa ham Normal taqsimot orqali portfelning yo‘qotishlarini ifodalash mumkin. Buning uchun

⁸² Qatlamlashgan, ya’ni umumiy tanlanmani ma’lum bir sifati bo‘yicha bir xil qatlamlarga – stratalarga ajratishni tushuniladi.

⁸³ O‘zida, tarkibida antiteza bo‘lgan.

⁸⁴ P. Glasserman. Monte Carlo Methods in Financial Engineering. Springer, 2004.

⁸⁵ R.T. Rockafellar and S. Uryasev. Optimization of conditional value-at-risk. Journal of Risk, 2(3):21–41, 2000.

qator tahliliy ko'rsatkichlar (formulalar) hamda taqsimotga mos keluvchi usullar mavjud. Shu sababdan VaRni hisoblash va joriy qilish sezilarli osonlashadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliya bozorida risklar investor nuqtai nazaridan nechtaga bo'linadi?
2. Bozor risklari bozordan tashqari risklardan qanday farqli jihatlari bor?
3. Bozor risklarining nechta va qanday turlari mavjud?
4. Bozor risklarini aniqlash va baholashning qaysi usullaridan amaliyotda keng foydalaniladi?
5. Stress-testning qanday yo'nalishlari mavjud?
6. Tizimli riskni erta aniqlash indikatorlari qanday indikatorlar oilasi bilan ifodalanadi?
7. Spetsifik (o'ziga xos) risklar, Maxalanobis tafovuti, Qoplash koeffitsiyenti o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
8. Bozordan tashqari risklarni diversifikatsiya samarasi orqali qanday bartaraf qilish mumkin?
9. Riskni miqdoriy baholash evolyutsiyasi nechta bosqichga bo'linadi?
10. Sharp koeffitsiyentini Markovis portfel nazariyasi yordamida qanday aniqlanadi?

TESTLAR

1. Bozor omillari o'zgarishi oqibatida aktiv qiymatini pasayishi bog'liq bo'lgan risklar hisoblanadi?

- a) bozor risklari;
- b) foiz risklari;
- d) kredit riski;
- e) valyuta riski.

2. Quyidigilardan qaysi biri bozor riskini standart shakli hisoblanmaydi?

- a) investitsion risklar;
- b) fond (yoki narx) riski;
- d) foiz riski;
- e) valyuta riski.

3. Kritsman va Li tomonidan moliya bozoridagi nobarqarorlikni aniqlash uchun foydalanilgan "nobarqarorlik indeksi" qanday aniqlanadi?

- a) $d_t = (y_t - \mu) \Sigma^{-1} (y_t - \mu)^T$;
- b) $d_t = (y_t + \mu) \Sigma^1 (y_t - \mu)^T$;
- d) $d_t = (y_t - \mu)$;
- e) $d_t = \Sigma^{-1} (y_t - \mu)^T$.

4. 1990-yillar yarmidan to hozirgi kunga qadar yirik xalqaro banklar va regulyatorlar boshchiligida deyarli barcha moliyaviy institutlar risk metrikasisifatida qaysi risklarni hisoblash uslubiyoti qo'llaniladi?

- a) VaR(Value at Risk);
- b) stress-test usuli;
- d) tizimli riskni erta aniqlash indikatorlari;
- e) spetsifik (o'ziga xos) risklar.

5. Narxlar o'zgarishining ehtimolli taqsimoti normal taqsimot qonuniga bo'ysunganda, VaR miqdorini qanday formula bo'yicha hisoblanadi?

- a) $VaR = V_0 * u_\alpha * \sigma_t$;

- b) $VaR = (y_t - \mu)$;
- d) $VaR = V_0 * \sigma_t$;
- e) $VaR = V_0 * u_\alpha$.

6. Aktivlar yoki portfelni o‘zida aks ettiradigan biror bir tasodifiy jarayonni simulyatsiya qilish uchun umumiy usul – bu...

- a) Monte Karlo Simulyatsiyasi usuli;
- b) variatsion-kovariatsion (delta-normal, korrelyatsion, parametrik, analitik) usul;
- d) retrospektivsimulyatsiya (Historical Simulation) usuli;
- e) parametrik yondashuv.

7. Markovisning portfel nazariyasiga asoslangan portfel riskini bahosi boshqa bir amerikalik iqtisodchi olim Uilyam Sharp tomonidan tadqiq qilindi va u Sharp koeffitsiyenti nomi bilan tanildi. Ushbu koeffitsiyent qaysi tenglama bilan ifodalanadi?

- a) $S = \frac{\mu_p - R_f}{\sigma_p}$;
- b) $S = \frac{\mu_p}{\sigma_p}$;
- d) $S = \frac{R_f}{\sigma_p}$;
- e) $S = \mu_p - R_f$.

8. Bunda uzoq davrni ichiga olgan statistik ma’lumotlarga tayanib portfel yo‘qotishlarining empirik ehtimolli taqsimotini aniqlanadi. Keyin mos keladigan kvantildan keltirib chiqish orqali VaR qiymatini aniqlanadi. Bu yondashuv ...

- a) Retrospektivsimulyatsiya (Historical Simulation) usuli;
- b) Variatsion-kovariatsion (delta-normal, korrelyatsion, parametrik, analitik) usul;
- d) Parametrik yondashuv;
- e) FMonte Karlo Simulyatsiyasi usuli.

9. Potensial (istiqboldagi mumkin bo‘lgan) yo‘qotishlarni qancha davr oralig‘i uchun hisoblanishni anglatadigan muddat –nima deb ataladi?

- a) risk gorizonti;
- b) foiz riski;

- d) riskni baholash;
- e) kredit riski.

10. Bazel kelishuviga muvofiq VaRning risk gorizonti necha kunni tashkil etadi.

- a) 10 kun;
- b) 12 kun;
- d) 15 kun;
- e) 20 kun.

XII BOB. FOND BIRJALARI VA FOND BOZORI ISHTIROKCHILARI

12.1. Fond birjasi funksiyalari va tashkiliy tuzilmasi

O‘zbekiston Respublikasida fond birjasi faoliyati 12.09.2014 yilda qabul qilingan O‘zRQ-375 sonli “Birjalar va birja faoliyati” to‘g‘risida qonunning yangi tahriri orqali tartibga solinadi. Ushbu qonun birjalarning tashkil etilishi va faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida” qonunga muvofiq, **birja** – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs. Qonunning 3–moddasiga ko‘ra, birjalar belgilangan tartibda litsenziya olganidan keyin birja faoliyatini amalga oshirish huquqini qo‘lga kiritgan va o‘z nomida “birja” so‘zidan foydalanishlari lozim bo‘lgan yuridik shaxslardir.

Birjalar o‘z faoliyatini tovar-xomashyo, fond va valyuta birjasi turida amalga oshiradi. Birja o‘z ustav hujjatlariga ega bo‘lishi kerak va bu hujjatlar quyidagilardan iborat:

- birjaning to‘liq va qisqartirilgan firma nomi, joylashgan yeri, elektron pochta manzili;
- birja ustav fondining miqdori;
- birja tomonidan chiqariladigan aksiyalarning soni, nominal qiymati, turlari;
- birja boshqaruvining tuzilmasi, birja kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a‘zolari soni, ushbu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.


Fond birjasi o‘z faoliyatini amalga oshirishda bir qator huquqlarga ega: kotirovkalash; arbitraj; listing; nazorat va boshqa birja komissiyalarini tashkil etish; birja tovarlari narxlari birja tomonidan belgilangan chegaraviy miqdordan o‘zgarib ketsa, birja savdolarini to‘xtatish; qonun hujjatlariga muvofiq tanlov, kimoshdi, ko‘rgazma-yarmarka savdolarini, davlat xaridlari va korporativ xaridlarni tashkil

etish hamda o‘tkazish; birja axborotnomalari, ma’lumotnomalari hamda boshqa axborot va reklama materiallarini chiqarish; birja savdolarini tashkil etish; birja tovarlariga bo‘lgan talab va taklifning nisbati asosida ularni kotirovkalash.

Fond birjaning o‘z majburiyatlari ham mavjud. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: savdo maydonchalarida va seksiyalarda birja savdolari o‘tkazish joyi hamda vaqti to‘g‘risida birja a‘zolarini o‘z vaqtida xabardor qilish; birjada tuzilgan bitimlarning bajarilishini ta’minlash uchun shart sharoitlar yaratish; birja a‘zolarining va ular mijozlarining o‘zaro majburiyatlarini belgilash, aniqlashtirish hamda hisobga olish, shuningdek bankda ochilgan maxsus hisobvaraqlar orqali ular o‘rtasidagi o‘zaro hisob kitoblarni amalga oshirish; birja, birja a‘zolari va ularning mijozlari pul mablag‘larining alohida-alohida hisobini yuritish; muntazam ravishda o‘z rasmiy veb-saytida birja tovarlarining kotirovkalarini joylashtirish, shuningdek birja a‘zolarini har bir birja savdosining yakunlari to‘g‘risida xabardor qilib borish.

Fond birjaning faoliyati birja tovarlari bozorini tashkil etish va tartibga solishga hamda talab va taklif asosida birja tovarlarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirishdan tashkil topadi.

Quyidagi rasmda fond birja tamoyillarini ko‘rib chiqishimiz mumkin.



12.1-rasm. Fond birja tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasidagi fond birja bo‘lib, “Toshkent” Respublika fond birjasi hisoblanadi va ushbu birja O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish,

xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" № 745-sonli farmoniga ko'ra 8 aprel 1994 yilda shakllangan. Uning faoliyati respublikada olib borilayotgan islohotlar bilan va aksionerlik jamiyatlar ochish siyosati bilan yaqindan bog'liq.

Bugungi kunda RFB "Toshkent" – bu 100 ortiq brokerlik tashkilotlar va eng yangi uskunalarga ega bo'lgan birjadir.

Fond birja – tijorat tashkilot bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir. Fond birja asosiy maqsadiga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshirishi mumkin: oldindan tayinlangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida ommaviy va oshkora birja savdolarini tashkil etish va o'tkazish; talab va taklifning haqiqiy nisbatini aniqlash asosida qimmatli qog'ozlarning narxini shakllantirish orqali qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish hamda ular to'g'risidagi axborotlarni belgilangan tartibda oshkor qilish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarning erkin muomalasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ta'minlash, birja a'zolariga birja bitimlarida va birja faoliyatida ishtirok etish huquqini beruvchi birja joyi (brokerlik o'rni) berish, birja savdolarida teng huquqlilik asosida ishtirok etishi uchun savdo tizimiga masofadan ulanish imkoniyatini yaratish; qimmatli qog'ozlar bozorida ochiqlik va oshkoralikni hamda raqobat sharoitini ta'minlash uchun birja a'zolariga savdo natijalari haqidagi axborotlarni yetkazish, investitsiya vositachisi faoliyatini professional tarzda amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish hamda ro'yxatdan o'tkazishni elektron shaklda amalga oshirish; birja savdolarini tashkil qilish va o'tkazishga zamonaviy texnologiya va uslublarni tadbiq qilish; birja listingiga kiritilgan qimmatli qog'ozlarning kotirovkalanishini birja savdosi qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshirish; birja a'zolari, birja savdolari ishtirokchilari va ularning mijozlari o'rtasida birja savdosi qoidalarida nazarda tutilgan masalalar yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida hal etishga ko'maklashish; qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini amalga oshiruvchi mutaxassis-treyderlarning kasbiy malakasini oshirib borishi uchun sharoitlar yaratish; birja faoliyati bilan bog'liq axborotnomalarni,

ma'lumotnomalarni hamda boshqa axborot va reklama nashrlarini chiqarish; qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish.

Fond birjasining asosiy vazifalari quyidagilar:

- birja savdosi qoidalarini belgilash, o'z internet saytida joylashtirish;

- birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish;

- qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklifning nisbati asosida ularning narxini chiqarish;

- muntazam ravishda o'z internet-saytida va ommaviy axborot vositalarida qimmatli qog'ozlarning kotirovka narxlarini e'lon qilish, birja a'zolarini birja savdosi yakunlari to'g'risida xabardor qilish;

- birja o'z a'zolari va ularning qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi jarayonlarini bevosita amalga oshiradigan treyderlari uchun malaka talablarini ishlab chiqish va tasdiqlash, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash;

- amaldagi qonunchilik, fond birja ustavi va birjaning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda yangi a'zolar qabul qilish va a'zolikdan chiqarish;

- birja a'zolarining akkreditatsiyasini amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amaldagi qonunchilikka muvofiq birja bitimlari amalga oshiriladigan maxsus seksiyalar tashkil etish;

- qimmatli qog'ozlarni birja listingiga kiritish va delisting qilish tadbirlarini amalga oshirish hamda qimmatli qog'ozlarning kotirovka qilinish tartib va qoidalarini ishlab chiqish;

- birja faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan narx belgilash, hakamlilik, listing, nazorat va boshqa birja komissiyalarini tuzish;

- agar birja bitimlarining narxi kun davomida birja tomonidan belgilangan qiymatdan ham ortiqroq o'zgarib ketsa, birja savdosini to'xtatish;

- birja tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lanadigan haq miqdorini belgilash;

- birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun jarimalar hamda penyalar belgilash va undirish;
- birja axborotnomalari, ma'lumotnomalari hamda boshqa axborot va reklama nashrlarini chiqarish;
- birja savdolarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan hujjatlarning standart shakllarini ishlab chiqish;
- axborot-tahliliy ishlarni amalga oshirish uchun qimmatli qog'ozlar emissiyalarining hajmi va turi hamda ularning birjada va fond bozorida aylanish darajasini taqqoslash yo'li orqali o'rganish;
- fond birja ustavida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun amaldagi qonunchilik asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- qonunchilik asosida birja faoliyatini samarali ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

12.2. Fond birjasi infratuzilmasi va birja savdolari qatnashchilari

Fond birja savdolari birja tomonidan birja savdosi qoidalariga muvofiq tashkil etiladigan fond birja tovari savdolari, ushbu savdolarida fond birja barcha ishtirokchilari bir vaqtda ishtirok etish imkoniyati berilgan holda, markazlashtirilgan tarzda elektron shaklda o'tkazililishi lozim.

Fond birja savdolarida qatnashuvchi ishtirokchilar mavjud. Ushbu ishtirokchilar professional ishtirokchilar deyiladi va fond birja professional ishtirokchilariga birja tomonidan belgilangan tartibda birja savdolarida ishtirok etish huquqi berilgan investitsiya vositachisi, investitsiya maslahatchisi, investitsiya fondi, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi, tranfer-agent, qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi, dilerlar, market-meykerlar va brokerlar hisoblanadi, odatda ular yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishlari darkor. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi ushbu ishtirokchilarni kengroq ko'rib chiqamiz:

Investitsiya vositachisi – mijozning topshirig'iga binoan, mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining

professional ishtirokchisidir. Investitsiya vositachisi mijozlarining qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari investitsiya vositachisining o'z hisobvaraqlaridan alohida hisobvaraqlarda turadi. Investitsiya vositachisi har bir mijozning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari hisobini yuritadi, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi, tuzilgan bitimlar va amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida unga hisobot beradi.

Investitsiya vositachisi mijozlarning qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishga buyurtma berish mumkin, o'tkazish borasidagi topshiriqlarini vijdonan hamda ularning kelib tushishi tartibida bajarishi lozim. Mijozlarning topshirig'iga binoan amalga oshiriladigan bitimlar investitsiya vositachisining o'z dilerlik operatsiyalariga nisbatan ustun ravishda bajariladi. Agar investitsiya vositachisi tomonidan tegishli topshiriq olinguncha investitsiya vositachisi va uning mijozi o'rtasidagi mijoz xabardor qilinmagan manfaatlar to'qnashuvi mijozga zarar yetkazsa, investitsiya vositachisi zararning o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplab beradi. Investitsiya vositachisi tomonidan investitsiya vositachisi sifatidagi faoliyatni to'xtatib turish, tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan yoki u tugatilgan taqdirda, tegishli axborot qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran ikki ish kuni ichida ommaviy axborot vositalarida va fond birjasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Investitsiya vositachisi sifatida o'z faoliyatini to'xtatib turayotgan, tugatayotgan yoki tugatilayotgan investitsiya vositachisida hisobi yuritilayotgan qimmatli qog'ozlar mijozning qaroriga ko'ra bir haftalik muddatda boshqa investitsiya vositachisiga o'tkazilishi lozim, bunday qaror mavjud bo'lmagan taqdirda esa, qimmatli qog'ozlarning egasi tanlagan investitsiya vositachisiga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan muddatlarda keyinchalik o'tkazish uchun Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga o'tkaziladi.

Investitsiya maslahatchisi – qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi masalalari, qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari holatini tahlil etish hamda istiqbolini belgilash bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatadi, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarini qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

Investitsiya fondi – investorlarning pul mablag‘larini va qo‘yilmalarini investitsiya aktivlariga jalb qilish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir.

Investitsiya fondi yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o‘zgartirilishga haqli emas. Investitsiya fondini qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalga oshirish uchun investitsiya fondiga berilgan litsenziyaning amal qilishini tugatish yoki uni bekor qilish investitsiya fondining belgilangan tartibda tugatilishiga olib kelishi mumkin. Investitsiya fondi o‘z huquq va majburiyatlariga ega. Ushbu huquqlar investitsiya fondi ustavida belgilanadi. Ammo, investitsiya fondi faoliyatida ayrim huquqlarga ega emasligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

- korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini, shuningdek imtiyozli aksiyalarni chiqarish;

- fond sof aktivlarining 10 foizidan ortig‘ini bir emitentning qimmatli qog‘ozlariga yoki mas’uliyati cheklangan jamiyatning ulushiga investitsiyalash;

- to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzning jami hajmi kredit va (yoki) qarz bitimi imzolanadigan sanadagi holatga ko‘ra investitsiya fondi sof aktivlari qiymatining 15 foizidan oshib ketgan taqdirda kredit va (yoki) qarz mablag‘larini jalb etish. Kredit va (yoki) qarz muddati uch oydan oshib ketmasligi kerak;

- kafil bo‘lish, mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni garovga qo‘yish;

- tashkiliy-huquqiy shakli o‘z ishtirokchilarining qo‘shimcha javobgarligini nazarda tutadigan yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlariga investitsiyalarni amalga oshirish;

- investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi, auditorlik tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni amalga oshirish;

- boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini olish va ularga ega bo‘lish;

- umumiy summasi fond sof aktivlarining 10 foizidan ortiq investitsiyalarni amalga oshirish.

Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi – yuridik shaxsning – ishonchli boshqaruvchining o‘ziga egalik qilish uchun topshirilgan va boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan:

-qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan qimmatli qog‘ozlarni;

-qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish uchun mo‘ljallangan va investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan pul mablag‘larini shu shaxsning yoki u ko‘rsatgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab, o‘z nomidan ishonchli boshqaruvni belgilangan muddat mobaynida amalga oshirishi investitsiya aktivlarini boshqarish.

Transfer-agent – qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish tizimiga taalluqli hujjatlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va ularning o‘tkazilishi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxsdir.

Emitentlar, shuningdek qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar tuzuvchi shaxslar transfer-agentning mijozlaridir. Transfer-agent emitentga aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan xizmatlar ko‘rsatadi.

Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi – investorlarga vositachilarni jalb etmay turib savdoda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni buyurtmalar qabul qilish punktlaridan, maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.

Qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyatini amalga oshirish tartibi qonun hujjatlarida belgilangan.

Diler – fond birja bitimlarini o‘z nomidan va o‘z hisobidan tuzuvchi birja a’zosidir.

Market-meyker – fond birja tovarlari narxlarining, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun o‘z zimmasiga birja bitimlarini tuzish majburiyatini olgan dilerdir.

Broker – mijozning topshirig‘iga ko‘ra, uning hisobidan birja bitimlarini tuzuvchi birja a’zosidir.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisi va uning mijozlari munosabatlari qonun hujjatlari hamda shartnoma bilan tartibga solinadi. Mijozlar hisobidan bitimlar tuzish mijozlar bilan tuzilgan

shartnomalar asosida faqat investitsiya vositachisi va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Fond birjasida savdolarini amalga oshirish, yuqorida aytib oʻtilgan fond birja, jumladan, qimmatli qogʻozlar ishtirokchilarining turli faoliyati bilan bogʻliq boʻladi. Fond birja savdolarida asosan broker, diler, market meyker bevosita qatnashadi. Aytib oʻtish joizki, fond birjasida emissiyaviy qimmatli qogʻozlarga doir bitimlar tuzilganda, sotuvchi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga bitim summasining 0,01 foizi miqdorida yigʻim toʻlaydi. Bunda sotuvchining, shu jumladan Oʻzbekiston Respublikasi norezidentining tuzilgan bitim boʻyicha daromadlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi solinmaydi.

Qimmatli qogʻozlarga doir narxlarning, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun birja bitimlari tuzilganda market-meyker birjaga, Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysiga, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga yigʻimlar va boshqa toʻlovlar toʻlashdan ozod qilinadi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Qimmatli qogʻozlar bozori” toʻgʻrisida Qonunning 21-moddasida belgilanishicha, qimmatli qogʻozlar savdosining tashkilotchilari sifatida quyidagilar belgilangan:

- fond birjasi;
- fond boʻlimini tashkil etgan valyuta birjasi;
- qimmatli qogʻozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Barcha qimmatli qogʻozlar savdosining tashkilotchilari oʻz faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega boʻlishlari lozim.

Tashkil etilgan tovar savdolarida qatnashishga Oʻzbekiston Respublikasi qonun osti hujjatlarida belgilangan ravishda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarga ruxsat beriladi. Bunda, savdoda qatnashayotgan ishtirokchi boshqa bir shaxs manfaatini koʻzlab, uning nomidan harakat qilsa, brokeryoki tegishli professional litsenziyaga ega boʻlgan qimmatli qogʻozlar bozori qatnashchisi hamda markaziy kontragent savdo tashkilotchisining savdoda qatnashish roʻyxatiga kiritilishi mumkin. Ushbu roʻyxatga savdo qatnashchilarini kiritish va

ro'yxatdan chiqarish tartibi va shartlari savdo tashkilotchisi tomonidan qat'iy belgilanadi.

Fond birjasi yopiq birja turiga kiradi. Bu degani, faqat birja a'zolari (ya'ni, professional ishtirokchilar) qimmatli qog'ozlar savdosini amalga oshirishi mumkin. Odatda, fond birja a'zolari yuridik shaxslardir, lekin xalqaro amaliyotda fond birja a'zolari kategoriyasiga ham yuridik, ham jismoniy shaxslar kirishi mumkin. Ayirim mamlakatlarda, masalan AQSHda jismoniy shaxslarga, boshqa davlatlarda, misol uchun, Yaponiya, Kanada – yuridik shaxslarga va boshqa ko'pgina davlatlarda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida farqlilik qilmaydi, fond birja a'zosi bo'lish afzalligi beriladi.

Fond birjaning barcha ishtirokchilari bir xil sharoit va vaziyatda bo'ladi, ya'ni har xil kategoriyaga ega bo'lgan ishtirokchilar bo'lishi mumkin emas, misol uchun, tovar birjalaridagi ishtirokchilar singari.

Birja infratuzilmasi – birja savdolarining professional ishtirokchilari bo'lib, birja faoliyatini amalga oshirishini ta'minlovchi tashkilotlardir. Ularga quyidagilarni kiritish lozim:

- qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;
- qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga oluvchi tashkilot;
- kliring (hisob palatalari);
- netting;
- axborot agentliklari.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi – depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakatining yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysidir.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi hamda faoliyatini xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar va boshqa tushumlar hisobidan amalga oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi xizmatlari uchun tariflarning miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Shu borada qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariy vazifalari to'g'risida ham aytib o'tish lozim.

Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qimmatli qog'ozlarni hisobga qo'yish;
- hujjatli qimmatli qog'ozlarni saqlash;
- qimmatli qog'ozlar chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni saqlash;
- qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritish;
- davlatning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini, shuningdek qimmatli qog'ozlarni boshqarish bo'yicha davlat vakolat bergan shaxslarning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish;
- investitsiya vositachilarining depo hisobvaraqlarini yuritish;
- qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblarni belgilangan tartibda amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish;
- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish;
- agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish;
- Deponentlarning yagona bazasini yuritish;
- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarga xalqaro kodlarni berish;
- depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati to'g'risidagi axborotni to'plash va tizimlashtirish.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariy huquqlariga: qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritishga doir vazifalarini bajarayotganda investitsiya vositachilaridan mazkur reyestrlarni shakllantirish uchun zarur ma'lumotlarni so'rash va olish hamda boshqa huquqlarni ham kiritish mumkin.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida saqlash va hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;

- saqlash uchun qabul qilib olingan hujjatli qimmatli qog'ozlarning but saqlanishini ta'minlashi;

- o'zining har bir deponentiga tegishli qimmatli qog'ozlar sonining va nominal qiymatining hisobini yuritishi;

- qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;

- o'z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;

- o'z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi;

- o'z deponentining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag'idan tegishli ko'chirma bergan holda tasdiqlashi;

- depo hisobvaraqlari bo'yicha qimmatli qog'ozlarning mavjudligi va harakati, holati to'g'risidagi axborotning maxfiyligini ta'minlashi;

- o'z deponentining depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turishi va boshqalar.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi tashkilot amalga oshiradi. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan emitentning arizasi asosida amalga oshiriladi. Emitentning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror;
- qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi;
- blank namunasi;
- ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadigan boshqa hujjatlar.

Qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organi emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning chiqarilishini roʻyxatdan oʻtkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar olingan sanadan eʼtiboran oʻttiz kun ichida davlat roʻyxatidan oʻtkazishi yoki emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning chiqarilishini davlat roʻyxatidan oʻtkazishni rad etish toʻgʻrisida asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning chiqarilishi davlat roʻyxatidan oʻtkazilayotganida emissiyaviy qimmatli qogʻozlarni chiqarish toʻgʻrisidagi qarorning har bir nusxasida emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning chiqarilishi davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisida belgi qoʻyiladi va emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning chiqarilishiga berilgan roʻyxatdan oʻtkazilganlik raqami koʻrsatiladi.

Emissiyaviy qimmatli qogʻozlar chiqarilishini davlat roʻyxatidan oʻtkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlarning toʻgʻriligi uchun javobgarlik emitent zimmasida boʻladi.

Kliring – qimmatli qogʻozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan roʻyxatdan oʻtkazilgan qimmatli qogʻozlarga doir bitimlar boʻyicha oʻzaro majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olishdir. Kliring qimmatli qogʻozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bitimlar natijalari boʻyicha qimmatli qogʻozlardagi va pul mablagʻlaridagi hisob-kitoblar qimmatli qogʻozlar savdosi tashkilotchisining kliring topshirigʻi asosida amalga oshiriladi. Kliringni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari va qimmatli qogʻozlar savdosini tashkil qilish qoidalari bilan belgilanadi.

Netting – mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usulidir.

Axborot agentligi – maxsus axborot tashkiloti boʻlib, ommaviy axborot vositalarini fond birjasi savdolari va faoliyati toʻgʻrisida maʼlumotlar berib boradi. Uning asosiy vazifasi – fond birja faoliyatida yuz berayotgan muhim voqealar, misol uchun, aksiyalarning yangi emissiyasi, IPO jarayoni, aksiyalar kotirovkasi, qarz qimmatli qogʻozlar emissiyasi, savdosi, qoplanishi, daromadliligi va boshqalar haqida axborotlar yigʻish, ularni tahlil qilish, ommaviy axborot vositalariga uzatish kabilarni amalga oshiradi.

12.3. Fond birja savdolari mexanizmi.

Birja auksioni turlari

Fond birja savdosi mexanizmi birja ustavida alohida belgilanadi. Fond birja ustavida savdo qoidalari keng yoritiladi va savdoni amalga oshirish tartib qoidalari ko'rsatiladi. Odatda, savdo mexanizmi qoidalari birja tomonidan mustaqil yoki chetdan mutaxassislar yoki ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilgan holda ishlab chiqilishi mumkin.

Fond birja savdo qoidalarini ishlab chiqishda birja xodimlaridan ishchi guruhi tuziladi hamda boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar mutaxassislarini shartnoma asosida jalb qiladi. Savdo mexanizmi qoidalarini ishlab chiqish jarayonida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi vakillari ishtirok etishi talab qilinadi. Savdo mexanizmi qoidalarini ishlab chiqishda birjaning yuridik xizmati, birja savdolarini o'tkazishga hamda birja savdo tizimi dasturiy-texnik majmuasi qatnashadi.

Fond birjasi savdo mexanizmini ishlab chiqish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- savdo mexanizmi qoidalari matnini ishlab chiqish;
- savdo mexanizmi qoidalarini birja a'zolari yig'ilishida kelishishi;
- savdo mexanizmi qoidalarining birja Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi;
- birja savdolari elektron tizimining dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;
- birjaning ichki me'yoriy hujjatlariga tegishli o'zgartishlar kiritish.

Birja savdosi mexanizmi qoidalarida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- birjada amalga oshiriladigan birja bitimlarining turlari;
- birja bitimlari qatnashchilarining tarkibi va ularga nisbatan qo'yiladigan talablar yig'indisi;
- birja savdolarini amalga oshirish va ularning natijalarini ro'yxatga olish tartibi;
- birja bitimlari va ularning rasmiylashtirish tartibi;
- qimmatli qog'ozlarni kotirovka qilish tartibi;
- qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishni amalga oshirish tartibi (listing);

- birja bitimlari ishtirokchilari o‘rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;
- birja savdosida muomalada bo‘lgan standart kontraktlarning ta’rifi;
- savdo maydonchalari va seksiyalarining ro‘yxati va nomlari, agar ular birja tomonidan tashkil etilgan bo‘lsa;
- birja savdolarini o‘tkazish tartibi;
- birja a‘zolariga axborot xizmati ko‘rsatish tartibi;
- birjada narx-navoning yuzaga kelish jarayoni ustidan nazorat qilish tartibi;
- birjadagi nizolarni hal etish tartibi;
- birja savdolari qoidalarini buzganligi uchun birja a‘zolari va xodimlarining javobgarligi to‘g‘risidagi qoidalar.

Ishlab chiqilgan fond birjasi savdo mexanizmi qoidalarini birja a‘zolarining umumiy yig‘ilishida kelishilib, birjaning Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng qabul qilinishi lozim. Birja a‘zolarining umumiy yig‘ilishida qoidalar kelishiladi va fond birja kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi. Agar fond birja savdo mexanizmi qoidalarining matni birja a‘zolari bilan keliishish yoki Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanish jarayonida qabul qilinmasa, qoidalarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganidan so‘ng kelishish va tasdiqlash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fond birja savdolarida ishtirok etishga ruxsat quyidagi talablar bajarilganda beriladi:

- qimmatli qog‘ozlar prospekti ro‘yxatga olinishi;
- emissiya natijalari hisobotini davlat ro‘yxatidan o‘tish;
- qimmatli qog‘ozlar emitenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida” qonunining to‘liq bajarilishi.

Savdoni tashkillashtiruvchi savdoni birja nizomi talabi va hujjatlariga binoan tashkil etishi lozim. Savdoni o‘tkazish vaqti savdo tashkilotchisi tomonidan erkin belgilanishi mumkin, lekin savdoni o‘tkazish qoidalarini bo‘yicha savdoni o‘tkazish vaqti asosiy savdo sessiyasi mobaynida belgilanishi kerak. Savdolar qo‘shimcha savdo sessiyalarda ham o‘tkazilishi mumkin, kun tartibidagi savdolarga

kiritilgan qimmatli qog‘ozlar savdosi asosiy savdo sessiyasiga kiritilishi talab etiladi.

Savdolar amalga oshishi va bajarilishi tartibi tegishli talablar bajarilganidan keyin savdoni tashkil etuvchi tomonidan belgilanadi. Savdolarida bitimlar kelib tushgan arizalar asosida kelishiladi. Kliring tashkiloti tomonidan amalga oshgan bitimlar natijalarini aniqlashtirish savdoni tashkil etuvchi majburiyatlari bo‘yicha amalga oshadi.

Savdoda qatnashuvchi nomi yozilmagan arizalar bo‘yicha bitimlar tuzish market meyker tomonidan qilinadi.

Fond birja savdolari turli shakllarda tashkil etilishi mumkin.

O‘tkazish shakli bo‘yicha savdolar:

- a) doimiy va sessiya shaklida;
- b) kontakt (an’anaviy) va kontaktsiz (elektron).

Amalga oshish shakli bo‘yicha:

- a) ishonchnoma asosida birja savdosi (brokerlar);
- b) mustaqil birja savdolari (dilerlar).

Tashkil etish shakli bo‘yicha savdo auksionlari oddiy va murakkab auksionlarga bo‘linadi.

Oddiy auksion yo xaridorlardan kelib tushgan arizalarni qabul qilgan sotuvchi tomonidan (sotuvchi auksioni) yoki potensial sotuvchilardan manfaatli takliflar qidirayotgan xaridor tomonidan (xaridor auksioni) tashkil etilishi mumkin.

Oddiy auksionning bir necha turlari mavjud.

Xususan ingliz auksioni – sotuvchilar savdo boshlanishidan oldin fond instrumentlarini boshlang‘ich narxda sotish uchun arizalar beradi. Ular kotirovka byulletenida kelishtirilib, birja savdo ishtirokchilariga tarqatiladi. Auksion davomida agar xaridorlar raqobati mavjud bo‘lsa, moliyaviy instrument narxi oshib boradi va natijada auksion aktivi taklif etilgan eng yuqori narxda bitta xaridorga sotiladi.

Golland auksioni –sotuvchining boshlang‘ich narxi yuqori va qachonki xaridor narxni ma’qullamagunicha auksionni olib boruvchi mutaxassis narxni pasaytirib boradi. Bunday holatda qimmatli qog‘ozlar narxiga rozi bo‘lgan xaridor tomonidan sotib olinadi.

Qorong‘u auksion –barcha xaridorlar bir paytda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun o‘zlarining narxlarini taklif qilishadi va eng yuqori narx taklif qilgan shaxs qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi.

Ayrim rivojlangan mamlakatlar qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini – uch oyli, olti oyli, bir yillik – “qorong‘i” auksion orqali joylashtiradi.

Murakkab auksion (uzluksiz, “chaqiriqli” yoki “olomonli”). Auksionning bunday turi sotuvchilar va xaridorlar raqobatining yuqori bo‘lishini taqozo etadi. Birja savdosini tashkil etish shakli sifatida murakkab auksionlar fond bozori xususiyatiga boshqa auksionlarga nisbatan mos ravishligi bilan ajralib turadi.

Murakkab auksionlar quyidagicha farqlanadi.

Chaqiriqli bozor (on call market). Fond bozorida bitimlar kamdan kam tuzilsa, sotuvchi va xaridor narxlari o‘rtasida katta farq yuzaga keladi va u birja kotirovkasida spread, deb nomlanadi. Buning natijasida, bitimlardagi narxlar tebranishi yuqori va muntazam xarakterga bo‘ladi, bunday bozor likvid emas, birja savdolari uzluksiz auksion shaklida tashkil etilishi umuman, murakkab hisoblanadi. Chaqiriqli bozorda birja savdosini tashkil etilishi kam kuzatiladi, bozor likvidligi past bo‘lganligi sababli, qimmatli qog‘ozlar savdosida qatnashish uchun arizalar tushish muddati uzaytiriladi va tashkil etilgan birja savdosida deyarli barcha qimmatli qog‘ozlar savdosi bo‘lib o‘tadi.

Uzluksiz auksion. Broker muqaddam bergan arizasini o‘zgartirishi mumkin emas, shuning uchun vaqt mezonini yozma auksionda muhim element hisoblanadi. Natijada, qimmatli qog‘ozning kliring narxi aniqlanadi va shu narxda sotuvchi va xaridorlar bitim tuzadilar. Shunday holat bozorni katta hajmda yig‘ilib qolgan moliyaviy aktivlarga bo‘lgan buyurtmalarni barobariga sotib turadi. Likvid bozorda bunday “barobariga sotishlar” bir birja kunida bir necha marotaba sodir bo‘lib turadi. Jahonda barobariga sotish amaliyotidan keng foydalanadigan yirik bozorlar –Avstriya, Belgiya, Germaniya va Isroil davlati birjalaridir. Bunday barobariga sotish savdolari – qimmatli qog‘ozlarga doimiy talab va taklif, bozor likvidligi, uzluksiz auksionga o‘tish imkoniyati mavjudligini bildiradi. O‘z navbatida, uzluksiz auksion uch turga ega.

Birinchi turi – *buyurtmalar kitobidan foydalanish*, unga brokerlardan kelib tushgan og‘zaki arizalar kiritiladi, keyin klerk (birja vakili) arizalarni kelib tushish muddati va qimmatli qog‘ozlarni sotib olish hajmi bo‘yicha ajratadi.

Ikkinchi turi – *tablo*, unda qimmatli qog‘ozlarga nisbatan tanlangan eng yaxshi ikkita narx (eng yuqori – sotib olish uchun va eng past – sotish uchun narxlar) ko‘rsatiladi. Makler kelib tushgan arizalarni narxlar bo‘yicha guruhlaydi va har bir qimmatli qog‘ozga kurs taklifini belgilaydi. Ushbu narxlar broker ish joyi ekraniga yoki tabloga chiqariladi. Misol uchun, Nyu York fond birjasida biror bir korporatsiya aksiyalari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi “17 va $\frac{3}{8}$ 17 va $\frac{3}{4}$ nisbatan” yoki “ $\frac{3}{8}$, $\frac{3}{4}$ ”. Bu 17 va $\frac{3}{8}$ – talabning eng yaxshi narxi, 17 va $\frac{3}{4}$ – taklifning eng yaxshi narxini bildiradi. Bunday narxlar birja savdosi jarayonida savdo o‘yinlari strategiyasini belgilash va arizalar korrektirovkasini qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Vaziyatni tahlil qilib, savdo zalidagi treyderlar ko‘rishi uchun brokerlar o‘zlari tabloga aktivlar narxini chiqaradi. Buyurtmalar tabloga xronologik tarzda joylashtiriladi shuning uchun vaqt omili hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Agar o‘xshash buyurtmalar xuddi shunday narxlarda avvalroq kelib tushsa va bozorning qarshi tomonidagi buyurtmalar bajarilishiga yo‘l qo‘ymasa, buyurtmalar bajarilmaydi. Ushbu buyurtmaning bajarilmaslik sababi aksiyaga “avvalroq” ariza kelib tushgani bo‘lishi mumkin. Agar “avvalroq” arizalarning narxlari diapazoni bozor taklif qilinayotgan narxlar bilan keskin farq qilsa, savdo jarayonida makler “avvalroq” kelib tushgan arizalarni chiqarib tashlab, birja savdosiga korrektirovkalar kiritishi mumkin. Birja savdosi tashkil etilishining o‘zi chegaraviy spread o‘rnatish yo‘li orqali bozor likvidligini oshirishga imkon beradi.

Uzluksiz aukсионning uchinchi turi – *olomon*. Treyderlar faqat savdoga kelib tushayotgan aksiyalarni e‘lon qiluvchi klerk (birja vakili) atrofida to‘planishadi va kontragentga o‘zlari taklif qilayotgan narxlarni ovoza qilishadi. “Olomon”dagi savdolar turli narxlarda amalga oshadi va ko‘p hollarda bitta xaridor aniq narxni belgilamagan holda bir nechta sotuvchilar bilan turli narxlarda aksiyalarni xarid qiladi. Zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlangan yirik birjalarda “olomon” shaklida birja savdosi tashkil qilinishini tasavvur qilish qiyin, ayniqsa, jahon yirik kompaniyalar tomonidan aktiv emissiyalar oshirilganda. Lekin, bunday uzluksiz birja savdosining yarim ijobiy jihatlari mavjud, qarz bozoridagi buyurtmalarni birlashtiradi va shu orqali ushbu bozorni

qimmatli qog'ozlardan "tozalab" bajarilayotgan buyurtmalar sonini maksimal darajaga ko'taradi.

Birjada savdolarni tashkil qilish uchun operatsion zalga alohida talablar belgilanadi:

- har bir savdo ishtirokchisi uchun zarur sharoitlar yaratib berish;
- har bir savdo tovari uchun alohida zal, unda xona tagi amfiteatr shaklida bo'lishi kerak. Shuning uchun, bitimlar amalga oshadigan joyni "pol", "chuqurlik" yoki "birja xalqasi" deyiladi;
- zal markazida, balandlikda joylashgan maxsus joyda savdoni olib boruvchilar, operatsiya va narxlarni ro'yxatga oluvchilar bo'lishi darkor;
- zal atrofida (400 gacha ... 500) birja savdolarida qatnashish huquqi mavjud bo'lgan, maxsus jihozlangan kabinalarda brokerlar joyi bo'ladi;
- axborot tablo mavjudligi;
- axborot agentliklar vakillari uchun maxsus ish joylari tashkil etish;
- birja zali yonida axborotlari ro'yxatga olish va ombor xodimlari uchun bo'limlar bo'lishi darkor.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Fond birjalari faoliyatining nazariy asoslari.
2. Fond birjalari faoliyatining huquqiy asoslari.
3. Qimmatli qog'ozlar savdo tizimlari.
4. Qimmatli qog'ozlar savdolari ishtirokchilari.
5. Diler, broker, market-meyker faoliyatidagi umumiy va farqli jihatlar.
6. Birja savdolarida auksionlar tashkil etish va o'tkazish.
7. Qimmatli-qog'ozlar depozitariysi faoliyat mexanizmi.
8. Hisob-kitob-kliring palatasi faoliyat mexanizmi.
9. Birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar savdosi.
10. Investitsiya vositachilari faoliyat mexanizmi.

2. Fond birjasi, qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi, hisob-kitob kliring palatasi faoliyat mexanizmi bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Fond birjasi	Markaziy depozitariy	Hisob-kitob kliring palatasi
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

3. "Toshkent" Respublika fond birjasi va Elsis-Savdo birjadan tashqari savdo tizimi faoliyat mexanizmi bo'yicha jadvalni to'ldiring.

"Toshkent" RFB	Elsis-Savdo
1	1
2	2
3	3
...	...

TESTLAR

1. Bozor omillari o'zgarishi oqibatida aktiv qiymatini pasayishi bog'liq bo'lgan risklar hisoblanadi?

- a) bozor risklari;
- b) foiz risklari;
- d) kredit riski;
- e) valyuta riski.

2. Quyidigilardan qaysi biri bozor riskini standart shakli hisoblanmaydi?

- a) investitsion risklar;
- b) fond (yoki narx) riski;
- d) foiz riski;
- e) valyuta riski.

3. Kritsman va Li tomonidan moliya bozoridagi nobarqarorlikni aniqlash uchun foydalanilgan “nobarqarorlik indeksi” qanday aniqlanadi?

- a) $d_t = (y_t - \mu) \Sigma^{-1} (y_t - \mu)^T$;
- b) $d_t = (y_t + \mu) \Sigma^1 (y_t - \mu)^T$;
- d) $d_t = (y_t - \mu)$;
- e) $d_t = \Sigma^{-1} (y_t - \mu)^T$.

4. 1990-yillar yarmidan to hozirgi kunga qadar yirik xalqaro banklar va regulyatorlar boshchiligida deyarli barcha moliyaviy institutlar risk metrikasisifatida qaysi risklarni hisoblash uslubiyoti qo'llaniladi?

- a) VaR(Value at Risk);
- b) stress-test usuli;
- d) tizimli riskni erta aniqlash indikatorlari;
- e) spetsifik (o'ziga xos) risklar.

5. Narxlar o'zgarishining ehtimolli taqsimoti normal taqsimot qonuniga bo'ysunganda, VaR miqdorini qanday formula bo'yicha hisoblanadi?

- a) $VaR = V_0 * u_\alpha * \sigma_t$;

- b) $VaR = (y_t - \mu)$;
- d) $VaR = V_0 * \sigma_t$;
- e) $VaR = V_0 * u_\alpha$.

6. Aktivlar yoki portfelni o‘zida aks ettiradigan biror bir tasodifiy jarayonni simulyatsiya qilish uchun umumiy usul – bu...

- a) Monte Karlo Simulyatsiyasi usuli;
- b) variatsion-kovariatsion (delta-normal, korrelyatsion, parametrik, analitik) usul;
- d) retrospektivsimulyatsiya (Historical Simulation) usuli;
- e) parametrik yondashuv.

7. Markovisning portfel nazariyasiga asoslangan portfel riskini bahosi boshqa bir amerikalik iqtisodchi olim Uilyam Sharp tomonidan tadqiq qilindi va u Sharp koeffitsiyenti nomi bilan tanildi. Ushbu koeffitsiyent qaysi tenglama bilan ifodalanadi?

- a) $S = \frac{\mu_p - R_f}{\sigma_p}$;
- b) $S = \frac{\mu_p}{\sigma_p}$;
- d) $S = \frac{R_f}{\sigma_p}$;
- e) $S = \mu_p - R_f$.

8. Bunda uzoq davrni ichiga olgan statistik ma’lumotlarga tayanib portfel yo‘qotishlarining empirik ehtimolli taqsimotini aniqlanadi. Keyin mos keladigan kvantildan keltirib chiqish orqali VaR qiymatini aniqlanadi. Bu yondashuv ...

- a) Retrospektivsimulyatsiya (Historical Simulation) usuli;
- b) Variatsion-kovariatsion (delta-normal, korrelyatsion, parametrik, analitik) usul;
- d) Parametrik yondashuv;
- e) FMonte Karlo Simulyatsiyasi usuli.

9. Potensial (istiqboldagi mumkin bo‘lgan) yo‘qotishlarni qancha davr oralig‘i uchun hisoblanishni anglatadigan muddat –nima deb ataladi?

- a) risk gorizonti;

- b) foiz riski;
- d) riskni baholash;
- e) kredit riski.

10. Bazel kelishuviga muvofiq VaRning risk gorizonti necha kunni tashkil etadi.

- a) 10 kun;
- b) 12 kun;
- d) 15 kun;
- e) 20 kun.

XIII BOB. MOLIYA BOZORIDA BANKLAR VA NOBANK KREDIT INSTITUTLARI

13.1. Moliya bozorida banklarning ishtiroki

Banklar moliya bozorining faol ishtirokchilari hisoblanadi. Zamonaviy moliya bozori murakkab tizimga ega bo'lib, pul bozori, kredit bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, valyuta bozori va boshqalarni o'z ichiga oladi hamda ularning har birida banklar ishtiroki kuzatiladi. Umumiy holda banklar moliya bozorida emitent, investor, investitsion vositachilar sifatida ishtirok etadi. Ayrim davlatlarda banklar depozitariy vazifasini ham bajaradi.

Banklarning emitent sifatida faoliyati aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, depozit sertifikatlari muomalaga chiqarishi va investorlar o'rtasida joylashtirishi bilan izohlanadi. Shuningdek, "Markaziy bank davlatning qimmatli qog'ozlari, shuningdek Markaziy bankning o'zi chiqargan qarz majburiyatlarini xarid qilishi va ochiq bozorda sotishi mumkin".⁸⁶

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga asosan tijorat banklari "qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish"⁸⁷ kabilarni amalga oshiradi. Umumiy holda banklar qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin:

- qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotib olish, sotish, saqlash;
- qimmatli qog'ozlarga mablag'lar kiritish;
- ishonchli boshqaruvchi sifatida mijoz topshirig'i asosida qimmatli qog'ozlarni boshqarish;
- qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi jarayonida mijoz topshirig'i asosida uning hisobidan vositachilik funksiyalarini bajarish, broker vazifasini bajarish;

⁸⁶ "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni, 25-modda.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 4-modda.

- qimmatli qog'ozlar chiqarish va muomalasi masalalari bo'yicha konsultatsion xizmatlar ko'rsatish (investitsiya maslahatchiligi);
- investitsion kompaniya, anderrayter sifatida qimmatli qog'ozlar chiqarilishini tashkil etish;
- qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha uchinchi shaxslar foydasiga kafolat berish.

O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuniga asosan, mamlakatimizda korporativ obligatsiyalar investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.

Infratuzilma obligatsiyalari chiqarilganda esa ularni joylashtirishdan tushgan mablag'lar alohida bank hisobvarag'ida jamlanadi va emitentning ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi yoki yuqori boshqaruv organi qaroriga ko'ra sarflanadi.

Emitent majburiyatlarining bajarilishi garov, bank kafolati yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qo'shimcha ta'minlanadigan obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda qo'shimcha ta'minot bergan shaxs to'g'risidagi va ta'minot shartlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak. Bu holda obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror qo'shimcha ta'minot bergan shaxs tomonidan ham imzolanishi kerak. Bundan ham ko'rinib turibdiki tijorat banklari kafolati ostida ham obligatsiyalar chiqarilishida chiqarilishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan depozit sertifikatlarini chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bunda **depozit sertifikati** – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'ozdir.

Veksellarni chiqarish esa qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga

muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz veksel hisoblanadi.

Mamlakatimizda va xorijiy emitentlar qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega.

Ayni paytda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy baki tomonida "Kvars" aksiyadorlik jamiyati aksiyalari joylashtirilayotganligi bunga yaqqol misol bo'ladi. Shu o'rinda "qimmatli qog'ozlarga doir narxlarning, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun birja bitimlari tuzilganda market-meyker birjaga, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga yig'imlar va boshqa to'lovlar to'lashdan ozod qilinganligini"⁸⁸ ta'kidlash lozim.

Emitentlar qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega. Bunda banklar va investitsiya vositachilari emitentlar tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishining joylashtirilmagan qismini sotib olish majburiyatini olib yoki olmagan holda emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni emitent nomidan sotish to'g'risida emitentlar bilan shartnomalar tuzishi mumkin. Bunda emitent, shuningdek u bilan shartnomaga ko'ra emissiyaviy qimmatli qog'ozlar joylashtirilishini amalga oshiruvchi banklar va investitsiya vositachilari mazkur qimmatli qog'ozlar olinguniga qadar investorga qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha pul mablag'larining hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblar esa Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va (yoki) investitsiya vositachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Moliya bozorida tijorat banklari kredit operatsiyalari orqali faol ishtirok etishi barchaga ma'lum holat. Shuningdek valyuta bozorida

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni, 16-modda.

ham banklarning faolligi bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga ega.

13.2. Aksiyadorik tijorat banklari aksiyalar emitenti sifatida

Banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari bo'lishi mumkin.

Har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ishtirokining eng ko'p ulushi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar.

Bankning boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va sho'ba banklar tashkil etish hollari, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno.

Bank ustavida ustav faoliyatga doir qator masalalar bilan birga tijorat banki ustav kapitalining miqdori, muassislar ro'yxati va ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimoti belgilab qo'yiladi.

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi. Kreditga va garovga olingan mablag'lardan hamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanilishi mumkin.

Eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro'yxatga olish paytigacha to'lanishi kerak.


Ustav kapitali uchun to'lanadigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankida yoki boshqa banklarida ochilgan jamg'arish hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanish mumkin.

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Hozirgi kunda yangidan tashkil etilayotgan tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori 100,0 milliard so'm qilib belgilandi.

Ilgari bu talab aksiyadorlik tijorat banklari va xususiy banklar uchun alohida-alohida belgilangan bo‘lib, 10 million yevro va 5 million yevro ekvivalentida edi.

Tijorat banklari tomonidan ustav kapitalini shakllantirishda oddiy va imtiyozli aksiyalar muomalaga chiqarilishi mumkin.

2018 yil 15 fevral holatiga respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan 26ta tijorat banki tomonidan jami 11704,63 milliard so‘mlik aksiyalar joylashtirilgan (13.1-rasm).



13.1-rasm. Respublikamizda moliya institutlari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, milliard so‘mda (05.01.2018 yil holatiga)

Yuqoridagi rasm ma‘lumotlaridan ham ko‘rinib turibdiki, respublikamiz aksiyalar bozorida moliya institutlari ichida banklar keskin yuqori ulushga ega.

Banklar o‘z faoliyati davomida aksiyalar shaklidagi o‘z qimmatli qog‘ozlari bilan kafolatlangan kredit berishga; oldindan Markaziy bankning roziligini olmay turib, o‘z aksiyalarini sotib olishga haqli emaslar.

Yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud o‘zaro kelishuv bilan bog‘langan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir necha bitim natijasida bank aksiyalarining 5 foizidan ortig‘ini olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xabardor qilinishini, 20 foizidan ortig‘ini olish uchun esa, oldindan uning roziligini olishni talab qiladi.


O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining oldindan roziligini olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliya bozorida banklar ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Markaziy bankning moliya bozoridagi ishtiroki alohida jihatlari.
3. Tijorat banklari moliya bozorida investitsiya vositachisi sifatida.
4. Tijorat banklarining emitent sifatidagi faoliyatining amal qilish mexanizmi.
5. Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish tartibi.
6. Mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar tahlili.
7. Moliya bozorida nobank kredit institutlarining ishtiroki.
8. Pul bozorida nobank kredit institutlari faoliyat mexanizmi.
9. Mikro kredit tashkilotlari va lombardlarning moliya bozoridagi faoliyati xususiyatlari.

2. Moliya bozorida banklar ishtiroki bo'yicha klaster shakllantiring.



3. Tijorat banklari tomonidan aksiyalar va obligatsiyalar joylashtirish tartibi bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Aksiyalar joylashtirish tartibi	Obligatsiyalar joylashtirish tartibi
1	1
2	2
3	3
...	...

TESTLAR

1. Tijorat tashkiloti bo‘lib, yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish, to‘lovlarni amalga oshiradigan yuridik shaxs - ...

- a) bank;
- b) markaziy depozitariy;
- d) sug‘urta tashkiloti;
- e) investitsiya jamg‘armasi.

2. Talab qilinishi bilanoq yoki to‘lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to‘lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o‘rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to‘lagan holda yoxud bunday to‘lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi - ...

- a) omonat (depozit);
- b) investitsiya;
- d) kredit;
- e) qarz.

3. Moliya bozorida Banklar quyidagi qaysi ko‘rinishda ishtirok etishi mumkin?

- a) emitent;
- b) investor;
- d) investitsion vositachi;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

4. O‘zbekiston Respublikasining qaysi qonunida tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan

qimmatli qogʻozlarni boshqarish, qimmatli qogʻozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish kabilarni amalga oshiradi deb keltirilgan?

- a) “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”;
- b) “Qimmatli qogʻozlar bozori toʻgʻrisida”;
- d) “Birjalar va birja faoliyati toʻgʻrisida”;
- e) “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”.

5. Mamlakatimizda korporativ obligatsiyalar investorlarga tegishli mablagʻlarning emitentlar tomonidan toʻlanishi boʻyicha toʻlov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqarilishi qaysi qonunda belgilangan?

- a) “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”.
- b) “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”.
- d) “Birjalar va birja faoliyati toʻgʻrisida”;
- e) “Qimmatli qogʻozlar bozori toʻgʻrisida”.

6. Oʻzbekiston Respublikasida yangi tashkil etilayotgan tijorat banklarining ustav kapitali shakllantirilishining eng kam miqdori qancha soʻmni tashkil etadi?

- a) 100 mlrd soʻm;
- b) 50 mlrd soʻm;
- d) 150 mlrd soʻm;
- e) 400 mlrd soʻm.

7. Yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud oʻzaro kelishuv bilan bogʻlangan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir necha bitim natijasida bank aksiyalarining qancha miqdorini olishida Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki xabardor qilinishi kerak?

- a) 5 foizidan ortigʻini (20 foizigacha);
- b) 10 foizidan ortigʻini (20 foizigacha);
- d) 12 foizidan ortigʻini (20 foizigacha);
- e) 15 foizidan ortigʻini (20 foizigacha).

8. Yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud oʻzaro kelishuv bilan bogʻlangan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi yuridik

va jismoniy shaxslar guruhi tomonidan bir yoki bir necha bitim natijasida bank aksiyalarining 20 foizdan oshiq miqdorini olishida kimdan ruxsat olishi talab qilinadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;
- b) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi;
- d) Toshkent RFB;
- e) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

9. Infratuzilma obligatsiyalari chiqarilganda esa ularni joylash-tirishdan tushgan mablag‘lar alohida bank hisobvarag‘ida jamlanadi va emitentning ulardan maqsadli foydalanilishini kim tomonidan belgilanadi?

- a) nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi yoki yuqori boshqaruv organi qaroriga ko‘ra;
- b) ijrochi direktor qaroriga ko‘ra;
- d) moliyaviy menejer qaroriga ko‘ra;
- e) investor qaroriga ko‘ra.

10. Qimmatli qog‘ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar natijalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarda-gi hisob-kitoblar kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi va (yoki) investitsiya vositachisi;
- b) bank;
- d) sug‘urta tashkiloti;
- e) investitsiya jamg‘armasi.

XIV BOB. INVESTITSIYA VA PAY FONDLARI

14.1. Investitsiya fondlarining iqtisodiy mohiyati, paydo bo'lishi va ahamiyatli jihatlari

Bugungi kunda investitsiya va pay fondlari moliya bozorining muhim ishtirokchilari qatorida tilga olinadi. Investitsiya fondlari rivojlangan davlatlar moliya bozorlarida ham keng miqyosda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda quyida mazkur masala xususida to'xtalib o'tamiz.

Investitsiya fondlari ko'plab investorlar tomonidan tanlangan investitsion vositachilar hisoblanadi. Bunda "Investitsiya fondlari moliyaviy vositachilar sifatida individual investorlarga aksiyalarni sotish orqali fond shakllantiradilar va fond mablag'larini aksiya va obligatsiyalar bilan diversifikatsiyalangan investitsiya portfelini sotib olishga yo'naltiradilar".⁸⁹

Investitsiya fondlari faoliyati o'z aksiyalarini joylashtirish orqali jalb qilingan kapitalni boshqa moliyaviy aktivlarga, xususan qimmatli qog'ozlarga kiritish orqali daromad olish hamda olingan daromadni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash asosida tashkil etiladi. Bunda daromad olish deganda kurs oshganda qimmatli qog'ozlarni (xorijiy valyutalarni) qayta sotish, olinadigan foiz yoki dividend ko'rinishilagi tushumlar nazarda tutiladi.

Investitsiya fondlari aksiyalar muomalaga chiqarishidan ham ko'rinib turibdiki, milliy va xalqaro amaliyotda ular aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi.

"Investitsiya fondlarining paydo bo'lishi 1800-yillar o'rtalarida Angliya va Shotlandiyaga to'g'ri keladi. Investitsion kompaniyalar cheklangan resurslarga ega investorlarning pul mablag'larini

⁸⁹ Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 30.

birlashtirish hisobiga tashkil etilgan bo‘lib, o‘z navbatida yig‘ilgan pullar turli qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan. Amerika qo‘shma shtatlari iqtisodiy o‘sishi uchun Amerika temir yo‘l kompaniyalari obligatsiyalariga kapital kiritila boshlangach, bunday investitsion kompaniyalar nihoyatda ommalashadi. 1824 yilda Bostonda birinchi investitsiya fondi asosiy sohalarga investitsiyalar kiritish uchun mablag‘lar jalb qilish maqsadida aksiyalar muomalaga chiqargan”.⁹⁰


Birinchi investitsiya fondi faoliyat muvaffaqiyatli kechgach, bunday fondlar ko‘plab tashkil etila boshlandi. 1929–1933 yildagi jahon iqtisodiy inqirozi investitsiya fondlari rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Xususan, “1929 yildagi fond bozorining qulashi investitsiya fondlari rivojlanishini bir necha o‘n yillar davomida to‘xtatib qo‘ydi, chunki mayda investorlarning aksiyalarga investitsiyalar va qisman investitsiya fondlariga ham ishonchini pasaytirdi. 1940 yilda AQSHda to‘lovlar va investitsiya siyosati bilan bog‘liq munosabatlarni oshkor qilish siyosatiga doir ko‘plab talablarni o‘z ichiga olgan “Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Natijada investitsiya fondlari faoliyatida barqaror o‘sinh va sanoatni qo‘llab-quvvatlash qaytadan boshlandi”.⁹¹

Investitsiya fondlariga investorlar jalb qilinishidagi asosiy jihat investitsion faoliyatni markazlashgan tartibda diversifikatsiyalashdir. Bunda kapital egalarining investitsiya fondlari bilan hamkorlikda ishlashiga yetakchi tarmoq va sohalardagi aksiyadorlik kompaniyalari aksiyalarini mayda investorlarning sotib ololmasligi, investitsiya fondlari tomonidan risklarni hisobga olishga alohida e‘tibor qaratishi ham sabab bo‘ladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, investitsiya fondlari faoliyati fond bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha hech qanday tajribaga ega bo‘lmagan kapital egalari uchun ham ahamiyatga ega. Chunki ularning risklarni to‘g‘ri baholay olmasligi natijasida moliyaviy yo‘qotishlar yuzaga kelishi mumkin.

⁹⁰ Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 490.

⁹¹ Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 490.

Umumiy holda investitsiya fondlari afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (14.1-rasm):



14.1-rasm. Investitsiya fondlari afzalliklari

Yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, investitsiya fondlari risklarni professional baholashdan tashqari afzalliklarga ega. Shu boisdan ko‘plab mamlakatlarda investitsiya fondlari faoliyati bo‘yicha soliq imtiyozlari qo‘llaniladi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda investitsiya fondlari faoliyatlari quyidagilarda ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- moliya bozorining rivojlanishida;
- aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilishda;
- mayda investorlarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishida va hokazo.

Umumiy holda investitsiya fondlari tomonidan investitsiya portfelini diversifikatsiyalash bo‘yicha qat’iy talablar har bir mamlakatda belgilab qo‘yilganligi ham yuqoridagi afzalliklarga erishishda muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda xorijiy mamlakatlar amaliyotida investitsiya fondlari boshqaruvida professional mutaxassislarni jalb qilishga e’tibor qaratiladi (14.2-rasm).



14.2-rasm. Investitsiya fondlari tashkiliy tuzilmasi⁹²

AQSH tajribasiga ko'ra, investitsiya fondlari o'z faoliyatlarini tashkil etishda boshqaruvchi kompaniyalar bilan birga investitsiya maslahatchilari, asosiy anderrayterlar, administratorlar, transfer-agentlar, kastodian va mustaqil auditorlar xizmatlaridan ham foydalaniladi.

14.2. O'zbekistonda investitsiya va pay fondlari faoliyat mexanizmi

Mamlakatimizda investitsiya va pay fondlari faoliyati 2015 yil 25 avgustda O'RQ-392-son bilan qabul qilingan "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, "Investorlarning pul mablag'larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo'yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir".⁹³ Investitsiya fondi o'z faoliyatini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblangan Qimmatli qog'ozlar

⁹² Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 496.

⁹³ O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi qonuni, 3-modda.

bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Investitsiya fondi quyidagi turda bo'lishi mumkin:

- o'zi chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lgan investitsiya fondi;

- o'zi chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lmagan investitsiya fondi.

Investitsiya fondining turi fondning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi.

Investitsiya fondi yangi yuridik shaxsni ta'sis etish yoki boshqa investitsiya fondini qayta tashkil etish yo'li bilan tashkil etiladi. Investitsiya fondini investitsiya fondi bo'lmagan boshqa yuridik shaxsni qayta tashkil etish orqali tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi. Investitsiya fondi tijorat tashkiloti bo'lib, u o'zining alohida hisobga olinadigan mol-mulkiga, shu jumladan ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi. Yuridik va jismoniy shaxslar investitsiya fondining muassislari (aksiyadorlari) sifatida ish yuritishi mumkin.

Investitsiya fondini davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiya fondini tashkil etishda uning aksiyalari qiymatini to'lash pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar, shuningdek ko'chmas mulk va boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar bilan amalga oshiriladi. Bunda uning ustav kapitalining kamida 75 foizi pul shaklida to'lanishi kerak. Investitsiya fondining aksiyalarini joylashtirish fond birjasida amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi, shuningdek vakolatlarini ishonchli boshqaruvchi amalga oshiradigan ijroiya organi investitsiya fondining boshqaruv organlaridir.

Investitsiya fondi:

- faoliyatni litsenziya olmasdan amalga oshirishga;
- korporativ obligatsiyalar va infratuzilma obligatsiyalari, shuningdek imtiyozli aksiyalar chiqarishga;
- investitsiya fondi sof aktivlarining 10 foizidan ortig'ini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatning ulushiga investitsiya qilishga;
- to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarning jami hajmi kredit va (yoki) qarz bitimi imzolangan sanadagi investitsiya fondi sof aktivlari

qiymatining 15 foizidan oshib ketgan taqdirda, kredit va (yoki) qarz mablag'larini jalb etishga (bunda kredit va (yoki) qarz muddati uch oydan oshib ketmasligi kerak);

- kafil bo'lishga, mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni garovga qo'yishga;

- tashkiliy-huquqiy shakli o'z ishtirokchilarining qo'shimcha javobgarligini nazarda tutadigan xo'jalik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga va ulushlariga investitsiyalarni amalga oshirishga;

- ishonchli boshqaruvchi, auditorlik tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni amalga oshirishga, shuningdek ularning ustav kapitalidagi ulushlarini olishga;

- boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini olishga va ularga ega bo'lishga;

- investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan bitimlar tuzishga, opsionlar yoki fyucherslar olishga;

- umumiy summasi fond sof aktivlarining 10 foizidan ortiq investitsiyalarni amalga oshirishga (bundan qimmatli qog'ozlarga qo'yish mustasno) haqli emas.

Investitsiya fondi investitsiya fondi sifatida o'z faoliyatini tugatmasdan yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o'zgartirilishga haqli emas.


Ishonchli boshqaruvchi bo'lmagan taqdirda, investitsiya fondining kuzatuv kengashi uch oy ichida ishonchli boshqaruvchi yollashi yoxud investitsiya fondini tugatish tashabbusi bilan chiqishi shart.

Investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, shuningdek ularni saqlash, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiya aktivlari ishonchli boshqaruvchida alohida balansda aks ettiriladi va u bo'yicha mustaqil hisob yuritiladi. Ishonchli boshqarish bilan bog'liq faoliyat bo'yicha hisob-kitoblar uchun alohida bank hisobvarag'i ochiladi.

Investitsiya fondining buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliya, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzish ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ishonchli boshqaruvchi fond investitsiya aktivlarining alohida hisobini yuritadi, ularning yaxlitligini va but saqlanishini ta'minlaydi, shuningdek investitsiya fondining moliya, soliq hisobotlari hamda boshqa hisobotlarining to'g'riligi va ishonchliligi uchun javobgar bo'ladi. 2018 yil 15 fevral holatiga mamlakatimizda 9ta investitsiya fondi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar emissiya hajmi 2,32 milliard so'mni tashkil etadi (14.3-rasm).



14.3-rasm. Mamlakatimizda moliya institutlari tomonidan chiqarilgan aksiyalar emissiya hajmi, mlrd so'mda

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, moliya institutlari ichida aynan investitsiya fondlari ulushni nihoyatda past.

14.3. Pay fondlari faoliyat mexanizmi

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida ikki va undan ortiq shaxslarning – investorlarning o'zi ishonchli boshqaruvga bergan pul mablag'lari yig'indisi **pay fondidir**. Pay fondi quyidagi turda bo'lishi mumkin:

- chiqarilgan investitsiya paylarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan fondning mablag'lari hisobidan qaytarib sotib olish majburiyatiga ega bo'lgan pay fondi;

- chiqarilgan investitsiya paylarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan fondning mablagʻlari hisobidan qaytarib sotib olish majburiyatiga ega boʻlmagan pay fondi.

Pay fondining turi pay fondini ishonchli boshqarish shartnomasida koʻrsatiladi.

Pay fondi yuridik shaxs boʻlmaydi.

Oʻz egalarining pay fondidagi ulushini tasdiqlovchi hujjatsiz qimmatli qogʻoz investitsiya payidir. Investitsiya payiga boʻlgan huquqlar Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysi tomonidan investitsiya paylari egasining depo hisobvaragʻidan beriladigan koʻchirma bilan tasdiqlanadi.

Pay fondini tashkil etish toʻgʻrisidagi qaror ishonchli boshqaruvchi tomonidan qabul qilinadi. Investor ishonchli boshqaruvchi bilan tuziladigan, investorlarning pul mablagʻlarini umumiy ulushli mulk huquqi asosida pay fondiga birlashtirish nazarda tutiladigan shartnoma asosida pay fondiga pul mablagʻlarini kiritadi. Ishonchli boshqaruvchi oʻzining alohida bank hisobvaragʻiga investorlar pul mablagʻlarini kiritganidan keyin ikki ish kuni ichida ularga investitsiya paylarini beradi. Investitsiya paylarini joylashtirish barcha investorlar uchun yagona narx boʻyicha amalga oshiriladi.

Pay fondining pul mablagʻlari investitsiya deklaratsiyasiga binoan investitsiya qilinadi. Pay fondini ishonchli boshqarish jarayonida olingan daromadlar ishonchli boshqaruvchining alohida bank hisobvaragʻida jamlanadi.

Pay fondi u Pay fondlarining yagona reyestriga kiritilgan va tegishli axborot qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organining hamda Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysining rasmiy veb-saytlarida eʼlon qilingan paytdan eʼtiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi. Pay fondlarining yagona reyestrini yuritish qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Pay fondining hisobi pay fondi Pay fondlarining yagona reyestriga kiritilganidan keyin investitsiya paylarini hisobga qoʻyish orqali Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysi tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiya paylari pay fondini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran bir hafta ichida hisobga qo'yilishi kerak.

Investitsiya paylarini hisobga qo'yish chog'ida investorlarga Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida depo hisobvaraqlari ochiladi, bu hisobvaraqlarda investorlarga tegishli investitsiya paylariga bo'lgan huquqlarning hisobi yuritiladi.

Ishonchli boshqaruvchi pay fondi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida hisobga qo'yilganidan keyin investorlarning pul mablag'larini tasarruf etishga haqli. Pay fondining pul mablag'lari ishonchli boshqaruvchining rahbari va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadigan to'lov hujjati asosida sarflanadi.

Pul mablag'laridan hamda boshqa investitsiya aktivlaridan foydalanishning maqsadi va yo'nalishlari ishonchli boshqarish shartnomasi shartlariga, shu jumladan investitsiya deklaratsiyasiga muvofiq bo'lishi kerak.

Investitsiya aktivlari bo'yicha olingan daromadlar pay fondining investitsiya paylari egalari o'rtasida yilda bir marta taqsimlanadi yoxud investitsiya paylarining barcha egalari roziligiga ko'ra qayta investitsiya qilinadi. Pay fondining investitsiya paylari egalari daromatlarni to'lash ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ishonchli boshqaruvchi tomonidan pay fondi nomidan va ushbu fond mablag'lari hisobidan tuziladigan shartnomalar Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Pay fondining pul mablag'lari:

- fond investitsiya aktivlarining 10 foizidan ortiq miqdorda bir emitentning qimmatli qog'ozlariga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatning ulushlariga investitsiya qilinishi;

- tashkiliy-huquqiy shakli o'z ishtirokchilarining qo'shimcha javobgarligini nazarda tutadigan xo'jalik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga va ulushlariga investitsiya qilinishi;

- ishonchli boshqaruvchi, auditorlik tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga, shuningdek ularning ustav kapitalidagi ulushlarini olishga investitsiya qilinishi;

- investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yo'nalishlar bo'yicha foydalanilishi;

- fond investitsiya aktivlari umumiy summasining 10 foizidan ortiq miqdorda investitsiya qilinishi (bundan qimmatli qog'ozlarga qo'yish mustasno) mumkin emas.

Investitsiya payining muomalasi uning fond birjasidagi oldi-sotdisi va investitsiya payining egasi almashishiga olib keladigan boshqa harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

Ishonchli boshqarish shartnomasida pay fondining investitsiya paylarini ularning egasi talabiga ko'ra, ayni bir ishonchli boshqaruvchining ishonchli boshqaruvida bo'lgan boshqa pay fondining investitsiya paylariga almashtirish imkoniyati nazarda tutilishi mumkin. Bunda bir pay fondining investitsiya paylarini boshqa pay fondining investitsiya paylariga almashtirilishi lozim bo'lgan investitsiya paylarini muomaladan chiqarish sanasi almashtirilayotgan investitsiya paylarini berish sanasiga mos kelgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.

Pay fondini tugatish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ishonchli boshqarish shartnomasining amal qilish muddati tugaganda;

- barcha investitsiya paylarini muomaladan chiqarish uchun buyurtmalar kelib tushganda;

- ishonchli boshqaruvchining litsenziyasi bekor qilinganda, agar uning pay fondini ishonchli boshqarish shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlari litsenziya bekor qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida boshqa ishonchli boshqaruvchiga berilmagan bo'lsa;

- pay fondi hujjatlarida ko'rsatilgan pay fondini tashkil etish va uning faoliyatini amalga oshirish maqsadiga erishilganda;

- investitsiya paylari egalarining pay fondini tugatish to'g'risida bir ovozdan qabul qilingan qarori mavjud bo'lganda.

Pay fondining investitsiya aktivlari ishonchli boshqaruvchi tomonidan fond birjasida (qimmatli qog'ozlar uchun) va kimoshdi savdosida realizatsiya qilinishi lozim. Pay fondining investitsiya aktivlarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lar pay fondining investitsiya paylari egalariga o'zlariga tegishli bo'lgan investitsiya paylari soniga mutanosib ravishda to'lanishi kerak.

Pay fondi investitsiya paylari egalarining pay fondi negizida investitsiya fondini ta'sis etish to'g'risida bir ovozdan qabul qilingan qarori pay fondini tugatish haqidagi qaror deb e'tirof etiladi.

Pay fondi tugatilganda mazkur pay fondi ishonchli boshqaruvchisining faoliyati auditorlik tashkiloti tomonidan majburiy auditdan o'tkazilishi kerak.

Investitsiya payini muomaladan chiqarish pay fondi tugatilganda amalga oshiriladi. Investitsiya payini muomaladan chiqarish quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- investitsiya payining qiymatini ishonchli boshqaruvchi tomonidan pay fondi mablag'lari hisobidan pul mablag'lari bilan to'lash;
- investitsiya payini pay fondi negizida tuzilgan investitsiya fondining aksiyalariga ayirboshlash.

Investitsiya va pay fondlari faoliyatini tartibga solish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- investitsiya va pay fondlarini ishonchli boshqarish tartibini, shu jumladan ushbu fondlarning investitsiya aktivlari hisobini yuritish hamda ularning faoliyati to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibini belgilash;
- ishonchli boshqaruvchi mansabdor shaxslarining hamda affillangan shaxslarining investitsiya va pay fondlari operatsiyalarida ishtirok etishini cheklash;
- investitsiya deklaratsiyasining mazmuniga hamda investitsiya va pay fondlarining boshqa hujjatlariga doir talablarni belgilash;
- investitsiya va pay fondlarining, ishonchli boshqaruvchilarning va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining faoliyatini nazorat qilish.

Ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnoma asosida ishonchli boshqaruvchi nomidan va uning hisobidan faoliyat yurituvchi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysigina investitsiya paylarini berish, muomaladan chiqarish va almashtirish bo'yicha agent bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining investitsiya paylarini berish, muomaladan chiqarish va almashtirishga doir faoliyati tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Investitsiya aktivlarining hisobini yuritish va ushbu aktivlar bo'yicha hisobotlar tuzish ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Investitsiyalar pay fondining mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan taqdirda, qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrda va xo'jalik jamiyatlarining ta'sis hujjatlarida ishonchli boshqaruvchi ko'rsatilib, u pay fondining ishonchli boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritayotganligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

Investitsiya va pay fondlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni oshkor etish ishonchli boshqaruvchi tomonidan quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- axborotni investitsiya fondlarining, pay fondlari ishonchli boshqaruvchisining, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, shuningdek fond birjasining rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlariga muvofiq e'lon qilish;
- axborotni belgilangan tartibda so'rovga ko'ra taqdim etish.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi va fond birjasi yuqorida nazarda tutilgan axborotni o'z rasmiy veb-saytlarida e'lon qilganlik uchun haq olishga haqli emas.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR


1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Investitsiya fondlarining iqtisodiy mohiyati va yuzaga kelishi.
2. Investitsiya fondlarining bozor sharoitidagi ahamiyatli jihatlari.
3. Xorijiy amaliyotda investitsiya fondlari tashkiliy tuzilmasi.
4. Mamlakatimizda kollektiv investitsiyalash amaliyotining tashkiliy-huquqiy asoslari.
5. Investitsiya fondlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.
6. Investitsiya fondlari investitsiya portfelini diversifikatsiyalash.
7. Mamlakatimizda investitsiya fondlari faoliyatining amaliy jihatlari.
8. Pay fondlari tashkiliy jihatlari va faoliyat tartibi.

2. Investitsiya fondlari afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha T-sxemani to'ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1	1
2	2
3	3
...	...

3. Investitsiya va pay fondlari faoliyati bo'yicha umumiy hamda farqli jihatlardan kelib chiqqan holda quyidagi sxemani to'ldiring.



TESTLAR

1. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida ikki va undan ortiq shaxslarning - investorlarning o‘zi ishonchli boshqaruvga bergan pul mablag‘lari yig‘indisi - ...

- a) Pay fondi;
- b) jamg‘arma;
- d) sug‘urta puli;
- e) investitsiya.

2. Pay fondining pul mablag‘lari fond investitsiya aktivlarining nechi foizidan ortiq miqdorda bir emitentning qimmatli qog‘ozlariga yoki mas‘uliyati cheklangan jamiyatning ulushlariga investitsiya qilinishi mumkin emas?

- a) 10%;
- b) 15%;
- d) 20%;
- e) 25%.

3. Mamlakatimizda investitsiya va pay fondlari faoliyati tartibga soluvchi O‘zRQ-392-son “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 2015 yil 25 avgustda;
- b) 2014 yil 25 avgustda;
- d) 2015 yil 7 aprelda;
- e) 2014 yil 7 aprelda.

4. Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi O‘zR qonuniga ko‘ra, “Investorlarning pul mablag‘larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo‘yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyati – ...

- a) investitsiya fondi;
- b) jamg‘arma;
- d) kredit;
- e) valyuta fondi.

5. Investitsiya fondini tashkil etishda uning aksiyalari qiymatini to‘lash pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, ulushlar, shuningdek ko‘chmas mulk va boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar bilan amalga oshiriladi. Bunda uning ustav kapitalining kamida qancha foizi pul shaklida to‘lanishi kerak?

- a) 75%;
- b) 50%;
- d) 65%;
- e) 25%.

6. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi fond ustavida belgilangan maqsad va siyosatga muvofiq, fond portfelini boshqarish vazifasini bajaradi?

- a) investitsiya maslahatchisi;
- b) asosiy anderrayter;
- d) transfer agent;
- e) kastodian.

7. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi fond aksiyalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki boshqa firmalar (broker-dilerlar) orqali sotadi?

- a) asosiy anderrayter;
- b) investitsiya maslahatchisi;
- d) transfer agent;
- e) kastodian.

8. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi aksiyador o‘tkazmalarini bajaradi, boshqa faoliyatlar hisobini yuritadi va aksiyadorga hisobraqamdan ko‘chirma va hujjatlarni taqdim etadi?

- a) transfer agent;
- b) asosiy anderrayter;
- d) investitsiya maslahatchisi;
- e) kastodian.

9. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi fond aktivlarini aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida alohida saqlaydi, fond aktivlarini tartibga soladi?

- a) kastodian;
- b) transfer agent;
- d) asosiy anderrayter;
- e) investitsiya maslahatchisi.

10. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi Fond faoliyatini kuzatib boradi, boshqaruvchi kompaniya va boshqa xizmat ko'rsatuvchilar bilan shartnomalarni ma'qullaydi?

- a) direktorlar kengashi;
- b) administrator;
- d) asosiy anderrayter;
- e) investitsiya maslahatchisi.

XV BOB. MOLIYA BOZORIDA SUVEREN FONDLAR

15.1. Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda suveren fondlar faoliyatining nazariy jihatlar

Jahonda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda tarixan ko'p yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan, boy tajribaga ega suveren fondlari yuqori sur'atlar bilan rivojlanib kelsada, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari davlat suveren fondlar faoliyati sust darajada rivojlanmoqda. Bu fondlar mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanishida asosiy dastak vazifasini bajarishini inobatga olgan holda respublikamizda ham Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatini kengaytirish, jamg'arma moliyaviy mablag'lar manbalari ko'lamini ko'paytirish va moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz zarur.

Shu munosabat bilan suveren fondlarining mohiyatini, tasniflarini hamda moliyaviy globallashuv va xalqaro investitsiyalar uchun raqobat sharoitidagi rolini aniqlovchi nazariy qoidalarni yanada rivojlantirish talab etiladi. O'zbekistonda suveren fondlari rivojlanishining shart-sharoitlari, tendensiyalari va muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Davlatning samarali makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosatida suveren fondlarining roli, suveren fondlari rivojlanishining regulativ mexanizmi va retrospektiv tahlili o'rganilmagan. O'zbekistonda suveren fondlari taraqqiyotini ta'minlash yo'nalishlarini, uning konseptual asoslarini o'rganish masalalari alohida strategik va metodologik ahamiyat kasb etmoqda. Nihoyat, suveren fondlarini majmua doirasida o'zaro aloqador va ayni bir paytda alohida vazifalarni bajaruvchi elementlar tizimi sifatida ko'ruvchi tadqiqotlarni amalga oshirish juda muhimdir.

Oxirgi paytlarda iqtisodchilar tomonidan "suveren farovonlik fondi", "suveren boylik fondi" "suveren fond", "milliy farovonlik fondi", "barqarorlashtirish fondi", "davlat moliya zaxirasi", "taraqqiyot

fondi” va shunga o‘xshash bo‘lgan boshqa tushunchalar ko‘p qo‘llanilmoqda.

Yuqoridagi tushunchalar haqidagi nazariy qarashlarni tadqiq etish jarayonida shunga amin bo‘ldikki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida shakllantiriladigan bunday fondlar to‘g‘risidagi tushunchalarda yagona yondashuv mavjud emas.

“Suveren fond” atamasini ilk bora qo‘llagan A. Rozanov suveren fondlarni davlat investitsiya fondlari sifatida ta’riflagan va pul-kredit siyosatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan oltin-valyuta zaxiralari va davlat pensiya fondlaridan funksional farqlariga e’tibor qaratgan. Uning ta’kidlashicha, “iqtisodiyotda suveren fondlarni boshqaruvchilar, ular xoh markaziy banklar yoki mamlakatlar hukumati bo‘lsin, davlat zaxiralarini an’anaviy boshqaruvdan suveren boylikni boshqarishga o‘tishi jarayoni kuzitilmoqda. Bunda suveren fondlarga ma’lum bir majburiyatlar yuklab qo‘yilmaydi va davlat pensiya fondlari yoki oltin-valyuta zaxiralaridan farqli ravishda, ularning mablag‘lari risklilik darajasi yuqori bo‘lgan aktivlarga investitsiya qilinmaydi”.⁹⁴

Suveren fondlarni qolgan davlat moliya zaxiralaridan ajratishda asosiy jihat, bizningcha, davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish vositasi hisoblanadi va ularning mablag‘lari belgilangan makroiqtisodiy maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi. Bu maqsadlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- byudjet xarajatlarini va milliy valyuta kursini barqarorlashtirish;
- kelgusi avlodlar uchun jamg‘armalar shakllantirish;
- investitsion daromad hisobiga kelajakdagi pensiya ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni moliyalashtirish;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash.

Makroiqtisodiy ko‘lamda byudjet daromadlari umumiy hajmida bozor konyunkturasiga bog‘liq daromadlarining ulushi sezilarli yuqori bo‘lgan har qanday davlat byudjeti daromadlarning noqulay ravishda o‘zgarib turishidan himoya qiladigan mexanizm yaratishga, shuningdek, qulay davrlarda olingan byudjetdagi ortiqcha mablag‘larni

⁹⁴ Rozanov A. Who holds the wealth of nations? / A. Rozanov // Central Banking Journal. 2005. May. Volume XV.- Number 4. P. 52-57.

boshqarish samarali tizimini tashkil qilishga intiladi. Bunda suveren fondlar faoliyatini tashkil etish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

M.G.Baronova fikriga ko'ra, "suveren fond – fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan, bilimga asoslangan va iqtisodiy samarador investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda byudjet defitsitini moliyalashtirish maqsadida davlat tomonidan foydalaniladigan pul mablag'larining alohida jamg'armasi hisoblanadi".⁹⁵ Bundan suveren fondlarning barqarorlashtirish xususiyatini ko'proq ochib berishga harakat qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodchi olim K.Klimbetov o'zining tadqiqot ishlarida "Suveren fond" tushunchasini qo'llagan holda unga quyidagicha ta'rif bergan "suveren fond – bu iqtisodiy institut va bir vaqtning o'zida davlat siyosatini amalga oshiruvchi instrument hisoblanib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik vazifalarini amalga oshirishga mo'ljallangan, shuningdek, davlatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini (milliy va xalqaro darajada) ta'minlash maqsadida moliyaviy (davlat byudjeti bundan istisno) va moddiy aktivlar jamg'armasidir".⁹⁶

Byudjet profitsiti nazariyasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan S.Yu. Vittening ta'kidlashicha, "byudjet profitsitini zaxira fondlarida saqlanishini maqsadga muvofiq".⁹⁷ Bundan ko'rinadiki byudjet profitsiti soliq yukini pasaytirishda yoki davlat qarzini qoplashda zarurligini ko'rsatib, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bunday fondlar tashkil qilishga ahamiyat bermaslik foydaliroq deb hisoblanadi. Lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda "taraqqiyot fondlari" byudjetning normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart bo'lgan bo'lardi.

⁹⁵ Бароновская М.Г. Суверенные фонды благосостояния: институциональная организация и роль на мировом финансовом рынке // Вестник экономической интеграции. М., 2010. № 8. С. 143-148.

⁹⁶ Келимбетов К.Н. "Роль суверенных фондов в обеспечении устойчивой международной конкурентоспособности Казахстана". Автореферат. дисс на соис учен степ. д.э.н. М., 2017. С-46

⁹⁷ Витте С.Ю. Конспект лекций о народном и государственном хозяйстве, читанных его императорскому высочеству великому князю Михаилу Александровичу в 1900-1902 годах / С.Ю. Витте. Предисл. Мст. П. Афанасьев. М. : Издательство Юрайт, 2011. 629 с. С-515

Suveren fondlar tashkil qilishga Keynsning “tsikllarga qarshi iqtisodiy siyosat” paradigmasi asos qilib olingan. Keyns nazariyasi tarafdori bo‘lgan ingliz iqtisodchisi R.F. Xarrod suveren fondlar faoliyatini bir tomondan, “Davlatning sikllarga qarshi siyosati”, boshqa tomondan esa – davlat inqirozga qarshi boshqaruv funksiyasini amalga oshirish bilan izohlagan.

Xarrodning fikriga ko‘ra, “suveren fondlar faoliyat ko‘rsatishi sikllarga qarshi byudjet siyosatining maqsadlariga erishish va vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim bo‘lib, bunda fond mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish davlat tomonidan yuritiladigan monetar siyosat bilan bog‘langan bo‘lishi lozim”.⁹⁸ Olimning nazariyasida eng muhim jihat shunda ediki, fondning mablag‘lari iqtisodiyot uchun inqirozli bo‘lgan davrlarda soliqlarni pasaytirishga, ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni moliyalashtirishga, byudjet taqchilligini qoplashga sarflanishi lozim. Bunda fondlarning mablag‘lari yordamida bandlikka va “xarid kuchiga”, ya’ni “samarali talab”ga ta’sir ko‘rsatish amalga oshirilishi lozim.

E.X. Xansen suveren fondlarni mamlakatda pul massasini tartibga solish uchun vosita sifatida ko‘rib chiqqan.⁹⁹ Xansenga ko‘ra, suveren fondlarning bajarishi lozim bo‘lgan asosiy vazifasi milliy valyuta kursi barqarorligini ta’minlash, valyutaning xarid qobiliyatini yaxshilashdan iborat bo‘lib, bu fuqarolar tasarrufida bo‘lgan real daromadlar o‘rishini rag‘batlantiradi. Shunday qilib, suveren fondlarning mablag‘lari yordamida dastlabki va asosiy ta’sir obyekti valyutaning xarid qiymati hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar 15.1-jadvalda aks ettiramiz.

Jahon iqtisodiyotida suveren fondlar nafaqat ma’lum bir davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda katta o‘rin egallaydi, balki mintaqalar iqtisodiyotiga, halqaro suveren fondlari esa dunyo miqyosida iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatishga qodir. Shu sababli suveren fondlarining nazariy asoslari va uslubiy jihatlarini o‘rganish asnosida, mashhur

⁹⁸ Харрод Р.Ф. К теории экономической динамики / Р.Ф. Харрод. М. : Гелиос АРВ. 1999. С. 146.

⁹⁹ Хансен Э.Х. Денежная теория и финансовая политика / Э.Х. Хансен. М. : Дело, 2006. С. 279.

iqtisodchi olim va mutaxassislar tadqiqot natijalarida yuzaga kelgan ta'rif va tushunchalarni ko'rib chiqish, shuningdek, ba'zi davlatlarda ushbu masalaga tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlari bilan ham tanishish zarur hisoblanadi.

15.1-jadval

**Suveren fondlar haqidagi nazariy qarashlarning
rivojlanish bosqichlari**

Bosqichlar	I	II	III	IV
Iqtisodchilar	S.Yu. Vitte [5]	E.X. Xansen [6]	R.F. Xarrod [7]	E.Sojli, V.T.Ving [16]
Fond tashkil qilishning shart-sharoitlari	Byudjet daromadlari manbalarining diversifikatsiyasi past	To'lov balansi tebranishlari	Sanoat sikli bosqichlari	Fond bozoridagi o'zgaruvchanlik
Fond mablag'lari yordamida ta'sir ko'rsatish obyekti	Byudjet tizimi holati	Ichki pul tizimi holati	"Xarid kuchi" - samarali talab	Milliy va xalqaro moliya bozori holati
Makroiqtisodiy samara	Fiskal	Monetar	Fiskal va monetar	Fiskal va monetar
Inflyatsiyaga ta'sir	Ishonchli sanoat o'sishi, byudjet taqchiligining tugatilishi	Milliy valyutaning kuchaytirilishi	Foiz stavkalarining pasaytirilishi	Ochiq bozordagi operatsiyalarning faollashuvi

Suveren fondlar haqida nazariy tasavvurlarni tahlil qilish natijalari bo'yicha suveren fondlarni qolgan davlat aktivlaridan ajratish va identifikatsiya qilishga imkon beradigan qator asosiy xususiyatlarni keltirib o'tamiz. Xususan, qolgan davlat aktivlaridan farqli ravishda suveren fondlar:

- Davlat byudjetidan alohida faoliyat ko'rsatishi davlatning ichki normativ-huquqiy hujjatlari bilan, xalqaro miqyosda esa xalqaro huquq hujjatlari bilan tartibga solinadi;
- Davlat tomonidan belgilangan makroiqtisodiy maqsadlarga erishish uchun bozor konyunkturasiga bog'liq daromadlarining bir qismi sifatida jamg'ariladigan pul mablag'lari yig'indisini ifodalaydi;

- Markaziy yoki mintaqaviy darajada xususiy yoki davlat tashkiloti, ma'lum bir hukumat instituti boshqaruvi ostida bo'ladi;

- Yuridik, moliyaviy va operatsion jihatdan qolgan davlat aktivlaridan alohida ajratilgan bo'ladi;

- Davlat tomonidan ta'xis etiladi va davlat mulkida bo'ladi;

- Aholi manfaatlarini hisobga olgan holda boshqariladi;

- Investitsiya asosida faoliyat ko'rsatadi;

- Fond mablag'lari turli investitsion strategiyalarga muvofiq foydalaniladi, jumladan, xorijiy moliyaviy aktivlarga joylashtiriladi.

Suveren fondlar tashkil qilish va ularni boshqarish borasida xorij tajribasini tahlil qilish natijalari fondlarning rivojlanishida quyidagi tendensiyalarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- resurslarga qaram bo'lmagan mamlakatlarda vujudga keladigan suveren fondlar sonining o'sishi;

- tobora ko'p sonli fondlarning xomashyo bilan bog'liq bo'lmagan manbalar hisobiga shakllanishi;

- yangi fondlar tashkil topadigan asosiy mintaqa oltin-valyuta zaxiralari katta bo'lgan Osiyo bo'lib qolaverishi;

- suveren fondlar investitsion portfelining strukturasi risk va daromadlilik ko'rsatkichining eng yaxshi uyg'unlashuvi hisobiga riskliroq aktivlar tomon o'zgarishi;

- suveren fondlar tarkibida ularning mablag'lari rivojlanish nuqtai nazaridan eng muammoli bo'lgan iqtisodiyot sohalarida mamlakat ichkarisidagi investitsiyalarga yo'naltiriladigan infratuzilma quyi fondlari tashkil qilinishi.

Fond mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonlarida, investitsion strategiyalar va fondlarni boshqarishga yondashuvlarda jiddiy tafovutlarga ega bo'lgan mamlakatlar suveren fondlari tashkil qilish va faoliyat ko'rsatishi tajribasini o'rganish suveren fondlar faoliyatida bir biridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Deyarli barcha suveren fondlarning asosiy xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- suveren fondlar tarkibining, jumladan, tashkiliy-huquqiy shakl bo'yicha bir turda emasligi;

- belgilangan makroiqtisodiy maqsadlar uchun, qoidaga ko'ra, bir turdagi maqsadlardan foydalanilishi va ularning har bitta fondga 2-3 tadan to'g'ri kelishi;

- fondlar uchun uzoq muddatli investitsion faoliyat xosligi;

- fondlarning investitsiyalari fond bozorlariga faol ta'sir etishi mumkinligi;

- suveren fondlarni boshqarish samaradorligini baholash fond faoliyatining boshqa investitsion maqsadlarini hisobga olmasdan risk va daromadlilikni baholashga asoslanishi.

Bir qancha iqtisodchi-olimlarning ilmiy asarlarida taqdim etilgan suveren fondlar tasniflarini tahlil qilish natijalari bunday fondlarning yakuniy shakllangan tasnifi yo'q deb xulosa chiqarishga imkon beradi, chunki fondlarning turlari va shakllari uzluksiz rivojlanishda bo'ladi.

P.A.Kazakevich suveren fondlarni beshta belgi bo'yicha, ya'ni tashkil qilish maqsadlari bo'yicha, mablag'larni shakllantirish manbalari bo'yicha, fondlarni to'ldirish tamoyili bo'yicha, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha, suveren fondlarning byudjet tizimiga integratsiya tamoyili asosida ajratib ko'rsatgan¹⁰⁰.

A.V.Levchenko mavjud tasnifni funksional belgi bilan to'ldirdi va suveren fondlarning maqsadli yo'nalganligini aniqlashtirdi va shu tariqa fondlarning barqarorlashtirish, zaxira to'plash, strategik va rivojlantirish funksiyalari kabi yiriklashtirilgan funksiyalarini ajratib ko'rsatdi.¹⁰¹

Yuqoridagi suveren fondlar mohiyati va tasniflanishi haqidagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi 15.2-jadvalda keltirib o'tamiz.

E.A.Vasin o'zining tadqiqotlari davomida suveren fondlarning yuqoridagi tasnifda keltirilgan fondlarning kompensatsiya maqsadi barqarorlashtirish maqsadini takrorlaydi, chunki byudjet mablag'lari inqiroz davrida turli inqirozga qarshi chora-tadbirlar uchun ham foydalanilishi mumkin degan fikrni ilgari surgan. Qayta taqsimlash va daromad maqsadlari esa fond portfelining investitsion qiymatini oshirish va daromadlilikni maksimallashtirish vazifasiga asoslanishini ko'rsatib o'tgan.

¹⁰⁰ Казакевич П.А. Организационные аспекты деятельности суверенных фондов благосостояния // Российский экономический интернет-журнал. 2009. №1. С. 2.

¹⁰¹ Левченко А.В. Суверенные инвестиционные фонды как стабилизаторы национальных экономик // Вестник Финансового университета. 2011. № 1. С. 67—75.

Taraqqiyot fondlarining tasniflanishi¹⁰²

Tasniflash guruhi	Taraqqiyot fondlarining turlari
Fond mablagʻlarini shakllantirish tartibi va manbasi boʻyicha	• tabiiy resurslar eksportidan kelib tushadigan daromadlar hisobidan shakllantiriladigan fondlar • xomashyo boʻlmagan tovarlar eksporti hisobidan toʻlov balansining ijobiy saldosi va byudjet profitsiti boʻyicha shakllantiriladigan fondlar • boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladigan fondlar
Jamgʻariladigan aktivlar turi boʻyicha (aktivlar tarkibi boʻyicha)	• pul mablagʻlari (milliy va xorijiy valyutada) • keng spektrdagi moliyaviy instrumentlar • qimmatbaho metallar (oltin) • boshqa aktivlar
Fondni boyitish (toʻldirish, qoʻshish) tamoyili boʻyicha	• tabiiy resurs narxiga qaram boʻlgan holda koʻpaytirish: - narx oʻzgarishi boʻyicha - fond hajmi boʻyicha • tabiiy resurs narxiga qaram boʻlmagan holda koʻpaytirish
Fond aktivlarini ishlatish va joylashtirish yoʻnalishi boʻyicha	• tashqi qarzni qoplash (reja boʻyicha va rejadani tashqari) • ichki narxlarni subsidiyalash • aholi toʻlovlarini amalga oshirish • investitsion loyihalarni moliyalashtirish • resurs konlarini topish va qazishni moliyalashtirish
Investitsiya strategiyalaridan foydalanish boʻyicha	• rivojlanish strategiyalari • aktivlik • konservativlik • agressivlik • aralash
Fond aktivlari rentabelligiga koʻra	• yuqori rentabelli fondlar • oʻrtacha darajadagi rentabellik • past rentabelli fondlar
Mablagʻlarni sarflash yoʻnalishi boʻyicha	• milliy bozorga yoʻnaltirilgan • xalqaro bozorga yoʻnaltirilgan • aralash model

¹⁰² Муаллиф томонидан тузилди.

Fond mabag'larini boshqarish shakli bo'yicha	• davlat organlari • xususiy boshqaruv kompaniyalari
Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha	• mustaqil yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan fondlar: - qonun yoki normativ aktlar asosida tashkil etilgan - umumiy korporativ qonunchilik me'yorlar asosida • mustaqil yuridik shaxs bo'lmagan fondlar
Byudjet tizimiga integratsiyasi tamoyili bo'yicha	• byudjet tizimi tarkibiga kiritiladigan fondlar • byudjet tizimi tarkibiga kiritilmaydigan fondlar

E.A.Vasin o'zining izlanishlari natijasida 3ta maqsadini alohida ajratib ko'rsatgan¹⁰³:

- barqarorlashtirish maqsadi (inqiroz davrida fond mablag'laridan foylanib inqirozga qarshi faoliyat yuritish);

- daromadli investitsiyalash maqsadi (kengroq doiradagi moliyaviy vositalardan foydalanish hisobiga xalqaro zaxiralar bilan taqqoslaganda yuqoriroq darajada daromadlilik olish);

- taraqqiyot maqsadi (qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar eksportidan kelib tushadigan daromadlar hisobiga iqtisodiyotning ichki tarmoqlarini rag'batlantirish, iqtisodiyotda "uzun pullar" manbalarini shakllantirish).

Muayyan bir mamlakatda qo'llanadigan fondlarning mablag'larini shakllantirish va foydalanish qoidalari turli omillarning ta'sir darajasiga bog'liq. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: tabiiy-iqlim omillari, mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy holati, demografik vaziyat, pul-kredit va byudjet siyosatini amalga oshirish samaradorligi, shuningdek, suveren fondning o'ziga xosligi va bajaradigan vazifalari.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning diversifikatsiya darajasi pastligi, iqtisodiyotning xomashyoga bog'lanib qolganligi tufayli inqirozli davrlarni bartaraf qilish uchun suveren fondlarga zarurat yuzaga keladi. Ayrim mamlakatlarda, misol uchun, Xitoy va Singapurda suveren fondlar paydo bo'lishi tovarlar eksporti hajmining o'sishi va tashqi iste'molchiga bog'liqlik yuqoriligi bilan asoslanadi.

¹⁰³ Васин Е.А. Повышение эффективности управления суверенными фондами в Российской Федерации: дис... канд. эк. наук : 08.00.10 / Васин Евгений Александрович. М., 2015. 17-с.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni, shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirish maqsadida 2006 yilda tashkil etilgan bo'lib, 2020 yilda ustav kapitalini 25 mlrd AQSH dollariga yetkazish belgilangan.

Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishdagi strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra suveren fondlar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tamoyillarini ifodalab beramiz:

- strategik koordinatsiya tamoyili. Ushbu tamoyil shuni anglatadiki, suveren fondlarning maqsad va vazifalari soliq-byudjet va pul-kredit tizimi bilan bog'langan, shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirishning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rejalari bilan munosabatda bo'lishi lozim;

- mablag'larni shakllantirish va foydalanish to'liqligi tamoyili: byudjetning konyunktura omiliga bog'liqligini pasaytirish uchun barcha konyunktura daromadlarini boshqarish kerak, ularning bir qismini emas;

- boshqaruvda maqsadlarni belgilash tamoyili. Suveren fondlar belgilangan, aniq va tushunarli maqsadlar va vazifalarga erishish uchun tashkil etilishi lozimligini anglatadi. Fondning o'zi uchun suveren fond tashkil qilishga ruxsat etilmaydi;

- samarali boshqaruv tamoyili: suveren fondlar oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga samarali erishish uchun har bir boshqaruv qatnashchisining javobgarliklarini mos ravishda taqsimlagan va vakolatlarni chegaralagan holda tushunarli va shaffof boshqaruv strukturasini tashkil qilish zarurligi ko'zda tutiladi;

- ijtimoiy javobgarlik tamoyili: ushbu tamoyil shuni anglatadiki, suveren fondlarning mablag'lari asosiy foyda oluvchilar – butun aholi manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati maqsadlariga erishishga yo'naltirilishi lozim;

— samarali investitsiyalash tamoyili shuni talab qiladiki, suveren fondlarning mablagʻlari ishlab chiqilgan investitsiya strategiyalariga muvofiq va investitsiyalash potensial ehtimoliy risklarini hisobga olgan holda joylashtirilishi lozim;

— mustaqillik tamoyili: ushbu tamoyil shuni anglatadiki, suveren fondlarni boshqarishda suveren fondlar mablagʻlarini shakllantirish, foydalanish va investitsiyalashning siyosiy konyunkturadan mustaqil boʻlishi taʼminlanishi lozim;

— shaffoflik tamoyili, yaʼni suveren fondlar faoliyati investitsion hamjamiyat va aholining fondlar operatsiyalariga ishonchini oshirish uchun axborot jihatidan shaffof boʻlishi lozim.

15.2. Mamlakatimizda Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi faoliyatining tashkiliy xususiyatlari va huquqiy asoslari

Mazkur tadqiqotda suveren fondlarni boshqarish deganda suveren fondlarning mablagʻlarini shakllantirish va foydalanish qoidalarini va usullarini, investitsion strategiyani ishlab chiqish va takomillashtirish hamda ularni fondlar tashkil qilish maqsadlariga erishishga imkon beradigan holatga keltirish boʻyicha fond boshqaruvchisining faoliyati.

Bizningcha, suveren fondlar boshqaruvining funksional elementlari quyidagilar hisoblanadi: maqsadlarni belgilash, fond mablagʻlarini shakllantirish va foydalanish qoidalarini belgilash, fondning investitsion strategiyasini ishlab chiqish, fondni boshqarish tashkiliy strukturasini shakllantirish, fondning mablagʻlarini shakllantirish va foydalanish, fond mablagʻlarini investitsiya qilish, fond mablagʻlari bilan operatsiyalar hisobi va hisoboti, shuningdek, suveren fondlar faoliyatini nazorat qilish.

Suveren fondlar mablagʻlarini shakllantirish va foydalanish qoidalarini belgilash deganda qoʻyilgan vazifalar doirasida fondlarning mablagʻlarini eng toʻliq tarzda shakllantirish va foydalanish imkonini beradigan qoidalar ishlab chiqish va qoʻllash tushuniladi. Agar, masalan, fondlarning mablagʻlarini maksimal darajada asrash maqsadi

qo'yilgan bo'lsa, qoidalar buni ko'zda tutishi va bu maqsaddan chetga chiqishga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Suveren fondning investitsion strategiyasi bu – fond investitsion faoliyatining umumiy vazifalar va investitsiyalar mafkurasini, shuningdek, ularga erishishning eng samarali yo'llarini tanlashni belgilab beradigan maqsadlar tizimidir. Investitsion strategiya ishlab chiqish bu – suveren fond investitsion faoliyatining bosh rejasini ishlab chiqish bo'lib, unga rioya qilish uzoq muddatli istiqbolda investitsion maqsadlarga erishish va fond vazifalarini hal qilishga imkon beradi. Investitsion deklaratsiya fondning investitsion maqsadlari va vazifalariga erishish bo'yicha taktik rejani ifodalaydi hamda investitsion strategiya tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsion strategiyani amalga oshirish suveren fondlar faoliyatining muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Suveren fondlarni boshqarish tashkiliy strukturasini shakllantirish deganda shunday tashkiliy struktura tashkil qilish ko'zda tutiladiki, bunda boshqaruv strukturasining barcha muhim elementlari, vazifalar va vakolatlarni taqsimlash, shuningdek, boshqaruv qatnashchilari oldida majburiyatni fond missiyasini amalga oshirishga yo'naltirilayotgan eng yaxshi tarzda taqsimlanishi lozim.

Suveren fondlarning mablag'larini shakllantirish va foydalanish suveren fond mablag'larini shakllantirish, ularni fond mablag'lari hisobi bo'yicha alohida hisoblarga o'tkazish, shuningdek, mablag'larni fondning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirish o'zaro bog'liq jarayonini ifodalaydi.

Suveren fondlar mablag'larini investitsiyalash bu – investitsion daromad olish maqsadida fond mablag'larini manfiy natija olish riski bilan bog'liq har xil sinflar va turlarga joylashtirish jarayonidir.

Fond mablag'lari bilan operatsiyalar hisobi va hisoboti suveren fondlarning schetlardagi mablag'lar bilan operatsiyalar haqida axborotni aniqlash, o'lchash, to'plash va qayd qilish bo'yicha to'laqonli tizimni ifodalaydi. Hisob tizimining ish natijasi suveren fondning boshqaruvchisi uning asosida u yoki bu boshqaruv qarori qabul qiladigan obyektiv va to'liq axborot bo'lishi lozim. Qonun chiqaruvchi va ijroiya hukumat organlari, mamlakat fuqarolari, ichki va tashqi

auditorlar, fond investitsiyalarini potensial oluvchilar va boshqalar axborotdan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin.

Suveren fond faoliyati ustidan nazorat boshqaruv tizimining asosi funksiyalaridan biri hisoblanadi va fondning optimal faoliyatini ta'minlash maqsadida ko'rsatkichlar monitoringi ustidan kuzatishni ifodalaydi. Olingan nazorat natijalari asosida suveren faoliyatini moslashtiradi va boshqaruv qaror qabul qilinadi. Shunday qilib, nazorat bu amaldagi natijalarni maqsadli yoki kutilgan natijalar bilan taqqoslash yo'li bilan qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlaydigan jarayondir.

Suveren fondlarni boshqarishning asosida maqsadlarni belgilash yotishi lozim. M.Panovning fikriga ko'ra, maqsadlarni belgilash tizimning missiyasi, strategik ko'rsatmalar va hal etiladigan vazifalar xarakteriga muvofiq bosh maqsad va maqsadlar daraxti belgilashni ko'zda tutadigan boshqaruvning birlamchi bosqichini ifodalaydi.¹⁰⁴

Maqsadlarni belgilash iqtisodiy tizimlarni boshqarishda eng muhim jarayon hisoblanadi. Tizim tashkil qilishda maqsadlarni noto'g'ri tanlash shunga olib keladiki, hal etilishi lozim bo'lgan muammolar qolib boshqa muammolar hal etiladi. Maqsadni to'g'ri tanlash bu – boshqaruv maqsadiga erishishning garovidir.¹⁰⁵

Bizning nazarimizda, boshqarish doirasida funksional boshqaruv elementlari maqsadlar eng to'liq qondiriladigan va suveren fondlar oldiga qo'yilgan vazifalar hal etiladigan darajada uyg'unlashadigan boshqaruv suveren fondlarni samarali boshqarish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 2006 yil 11 maydagi PF–3751-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg'arma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda

¹⁰⁴ Панов М.М. Оценка деятельности и система управления компанией на основе KPI / М.М. Панов . М.: Инфра-М, 2013. С.25.

¹⁰⁵ Doran G.T. There's a S.M.A.R.T. way to write management's goals and objectives / G.T. Doran // Management Review. 1981. Volume 70. Issue 11 (AMA FORUM) . P. 35-36.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Jamg'arma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilib, yuridik shaxs huquqlariga, o'zining mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida hisobvaraqa, shu jumladan xorijiy valyutadagi hisobvarag'iga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan muhriga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi timsolida Jamg'arma muassisi hisoblanadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg'arma mablag'larini tasarruf etuvchi hisoblanadi.

Jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlatning Jamg'armaga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larini jamlash;

- iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va modernizatsiya qilishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;

- strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni, birinchi navbatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;

- yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnik jihatdan qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur'at va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishini ta'minlash;

- yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun muhim ustuvor ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun xorijiy texnologiyalar va uskunalarni sotib olishga

mablagʻlarni maqsadli yoʻnaltirgan holda respublikaning tijorat banklariga Jamgʻarmani boshqarish boʻyicha Kengash qarori bilan belgilangan tartibda kredit liniyalarini ochish;

- birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzulmasini shakllantirish boʻyicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarning amalga oshirilishini moliyalashtirish;

- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini imtiyozli asosda, shu jumladan keyinchalik Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan qoplash yoʻli bilan moliyalashtirish;

- respublikaning xalqaro kommunikatsiyalar tarmogʻiga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yoʻlaklari va jahon bozorlariga eng qisqa yoʻl bilan chiqishni taʼminlaydigan transport hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini modernizatsiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;

- davlatning tashqi qarzlarini boʻyicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin toʻlashni moliyalashtirish;

- xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qoʻshma moliyalashtirilishini tashkil etishni taʼminlash.

Jamgʻarmani boshqarish boʻyicha Kengash Jamgʻarmaning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi, uning tarkibi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Jamgʻarmani boshqarish boʻyicha Kengash:

- Jamgʻarma faoliyatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqadi;
- Jamgʻarmaning eʼlon qilingan ustav kapitalini qayta koʻrib chiqish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi, biroq u Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasini tashkil etish toʻgʻrisida” 2006 yil 11 maydagi PF-3751-son Farmonida belgilangan darajadan past boʻlmasligi kerak;

- Jamgʻarmaga mablagʻlar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozlarini koʻrib chiqadi hamda ularni navbatdagi yilga moʻljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit koʻrsatkichlarining asosiy

parametrlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturi bilan bog'liq holda belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritadi;

- qarz olgan korxonalarni qayta moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish) uchun tijorat banklariga Jamg'arma mablag'larini berish muddatlari va shartlari bo'yicha qarorlar qabul qiladi, xalqaro sarmoya bozorlarida amal qilayotgan foiz stavkalaridan kelib chiqib Jamg'arma tomonidan berilayotgan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalarining aniq miqdorlarini tasdiqlaydi;

- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlarni berish muddatlari va shartlari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

- davlatning tashqi qarzlarini bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga mablag'lar ajratib berish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga Jamg'arma mablag'laridan investitsiya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

- ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar va foizsiz kreditlarni ajratish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

- yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar berish to'g'risida qaror qabul qiladi;

- Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati, ayniqsa Jamg'arma mablag'larining maqsadli yo'naltirilganligi, tijorat banklariga moliyalashtirishni o'z vaqtida ochish hamda ularga berilgan mablag'larning qaytarilishini ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Jamg'arma mablag'larining ishlatilishi to'g'risida Jamg'arma ijro etuvchi direktorining hamda qarz olgan korxonalar tomonidan Jamg'arma mablag'laridan samarali foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib boradi;

- Jamg'armaga aktivlarni boshqarish, ekspertiza qilish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni jalb qiladi.

Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash vaqtida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxdan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan mablag'lar;

- davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish chog'ida hisobga olingan hajmlardan ortiqcha tushadigan mablag'lar;

- Jamg'armaning aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan Jamg'arma mablag'larining bo'sh qoldiqlarini joylashtirishdan keladigan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar.

Jamg'armaning mablag'lari uning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlarida xorijiy valyutada shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Jamg'arma hisobvaraqlariga tushgan mablag'larni ular tushgan kuni amalda bo'lgan Markaziy bankning almashuv kursi bo'yicha chet el valyutasiga konvertatsiya qiladi va Jamg'armaning valyuta hisobvarag'iga o'tkazadi.

Soliq va to'lovlarning ayrim turlari bo'yicha mablag'larni Jamg'arma hisobvarag'iga o'tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jamg'arma mablag'lari tushumi manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari har yili belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritiladi va Jamg'arma balansida aks ettiriladi.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

a) avvalo yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek transport va telekommunikatsiya sohasida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarda O'zbekiston Respublikasi ulushini qo'shma moliyalashtirish;

b) kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

d) yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

e) davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash;

f) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklariga xorijiy valyutada ochilayotgan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish hamda amalga oshirish;

g) ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo'li bilan moliyalashtirish;

h) yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunarlar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

i) birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat

dasturlari va loyihalarini, Davlat byudjeti va investitsiya dasturining tasdiqlangan parametrlari doirasida, grant asosida moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish);

j) tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo'shma moliyalashtirish;

k) Jamg'arma boshqaruvi va ijro etuvchi apparatining ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashga.

Mablag'larni berish muddati va shartlari Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilanadi. Jamg'arma tomonidan beriladigan kredit resurslari bo'yicha foiz stavkasi yiliga 6 foizgacha tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanadi.

Jamg'armaning kredit resurslari shartnomada belgilangan chet el valyutasida ajratiladi.

Tijorat banki marjasining eng yuqori chegarasi Jamg'arma va tijorat banki o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida har bir loyiha bo'yicha alohida belgilanadi.

Ajratilgan mablag'larning qaytarilishi tijorat banklari tomonidan kechiktirilgan holatlarda har bir kechiktirilgan kun uchun muddati kechiktirilgan to'lovlar bo'yicha qarzдорlik summasining 0,01 foizi miqdorida (qarzga olingan mablag'lar hajmining 10 foizidan oshmagan holda) penya undiriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladigan import kontraktlari bo'yicha avans to'lovlarini to'lash, qoidaga ko'ra, yetkazib beruvchi tomonidan qayta moliyalashtiruvchi tijorat bankiga birinchi darajali xorijiy bank tomonidan, avans to'lovini qaytarishga berilgan kafolatnomani taqdim etgan holda amalga oshiriladi.

Tijorat banklariga ajratiladigan kredit mablag'larining hajmi ularning buyurtmanomalari asosida belgilanadi va ushbu buyurtmanomalarda qarz oluvchi korxonalarning kredit olish uchun tijorat banki tomonidan ma'qullangan loyihalar mablag'larining umumiy miqdori aks ettiriladi.

Tijorat banklariga har bir loyiha (modernizatsiya, qayta qurish yoki ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish) uchun beriladigan kredit hajmi loyiha qiymati umumiy miqdorining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Qarz oluvchi korxonalar (tashkilotlar)ga kredit berish Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish shartlari, ko'rib chiqish tartibi va ekspertizasi to'g'risidagi Nizom va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning hujjatlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirib boriladi.

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tijorat banklarining buyurtmanomalarini ko'rib chiqish muddati ariza olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim. Ushbu muddatda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tijorat banki tomonidan taklif qilingan loyihani moliyalashtirish to'g'risida ijobiy qaror chiqaradi yoki tijorat bankiga yozma ravishda asoslangan raddiyanoma beradi.

Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashning ijobiy xulosasi qabul qilinganidan so'ng Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi 5 ish kuni mobaynida tijorat banki bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Kredit shartnomasida tijorat bankiga berilayotgan kredit resurslarining miqdori, foiz stavkasi va maqsadi (yo'naltirish manzili), muddati va shartlari, shuningdek tomonlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq huquq va burchlari hamda boshqa masalalar aks ettiriladi. Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'lari ularni birinchi darajali xalqaro moliya vositalariga joylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ishonchli boshqaruv uchun belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Jamg'arma mablag'lari bo'sh qoldiqlarining umumiy hajmi uning jami aktivlarining kamida qirq foizini tashkil etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki har chorakda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashga Jamg'arma mablag'larini ishonchli boshqarish natijalari, jumladan operatsiyalar bo'yicha daromadlilik, hisobot davrida olingan daromad miqdori, joylashtirilgan

Jamg'arma mablag'lari portfeli tarkibi, foiz stavkalarining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi har yili O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy banki, tijorat banklari va boshqa idoralardan olingan dastlabki ma'lumotlar hamda hisobot davrida o'tkazilgan tizimli monitoring asosida keyingi kalendar yil uchun Jamg'armaga mablag'lar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozi loyihasini ishlab chiqadi hamda uni Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tasdiqlashi uchun taqdim etadi.

Jamg'arma mablag'larining kelib tushishi va ulardan foydalanishning prognoz loyihalarini tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlashda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Investitsiya dasturining kelgusi yil parametrlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Respublikaning strategik resurslari bo'yicha jahon bozorlaridagi qulay narxlar natijasida hosil bo'ladigan prognozdan yuqori tushumlarning pul massasi hajmiga va inflyatsiya darajasiga ta'sirini bartaraf qilish maqsadida Jamg'arma mablag'laridan foydalanishning yuqori chegarasi asosiy makroiqtisodiy va pul-kredit ko'rsatkichlarining prognoz parametrlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Jamg'arma mablag'lari kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozlarida umuman prognoz qilinayotgan yil uchun, shu jumladan choraklar bo'yicha quyidagilar aks ettiriladi:

jumladan, har bir manba bo'yicha mablag' tushumlarining umumiy hajmi;

ustuvor investitsiyaviy va ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni, qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturlarini moliyalashtirish, olinayotgan uzoq muddatli kredit va investitsiyalarga xizmat ko'rsatish hamda Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyatini moliyaviy ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga mablag'lar ajratib berish bo'yicha sarf-xarajatlar.

Tijorat banklari tomonidan Jamg'arma mablag'larining maqsadga muvofiq bo'lmagan holda foydalanish holatlari aniqlanganda,

maqsadga nomuvofiq foydalanilgan mablagʻlarning umumiy hajmi muddatidan oldin undirib olinib, Jamgʻarma hisobvaragʻiga oʻtkaziladi hamda Jamgʻarma va tijorat banki oʻrtasida tuzilgan shartnomada belgilangan jarima sanksiyalari qoʻllaniladi.

Jamgʻarma mablagʻlarining Jamgʻarma ijro etuvchi direksiyasi tomonidan qonuniy va qatʻiyan maqsadli yoʻnaltirilishi ustidan nazorat Jamgʻarmani boshqarish boʻyicha Kengash tomonidan amalga oshiriladi. Jamgʻarmaning har yilgi auditi mustaqil xalqaro auditor tomonidan amalga oshiriladi, Jamgʻarma mablagʻlarining shakllantirilishi va foydalanilishi Oʻzbekiston Respublikasi hisob palatasi tomonidan tekshirib turiladi. Tijorat banklari tomonidan oʻz vaqtida qaytarilmagan Jamgʻarma mablagʻlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladi.

15.3. Iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlash maqsadida taraqqiyot jamgʻarmalari faoliyati boʻyicha ilgʻor xorij tajribalari

Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida suveren fondlarni shakllantirish tendensiyasi, shuningdek ularning hajmi va faoliyat geografiyasining kengayishi, bunday institutlarning paydo boʻlishi va ahamiyati, shuningdek, ayrim davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun amaliy instrument sifatidagi ishtiroki bu fondlarni oʻrganish dolzarbligini koʻrsatadi.

Bundan tashqari, bir qator davlatlarda suveren fondlarning faoliyat yuritishidan kelib chiqqan holda, obyektiv bozordagi kamchiliklarni bartaraf etish vazifasi (turli samaradorlik bilan) va “inflyatsiya”, inson kapitaliga davlat va investitsiyalarni jamgʻarish yoki davlat investitsiyalari orqali oshib ketish yoʻli bilan hal qilingan “ishchi” mexanizmlar va hokazo.

Suveren fondlar dastlab oʻtgan asrning oʻrtalarida tashkil etila boshlagan. Bu oʻtgan davrlarda ularning shakli, hajmi va maqsadlari intensiv rivojlana bordi. Birinchi suveren fond 20 asrning ikkinchi

yarmida Quvaytda tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda ularning 80dan ortig‘i dunyoda faoliyat yuritmoqda. 2007 yilda tashkil etilgan suveren fondlar instituti tashkil etilgan. Bu institut tomonidan bugungi kundagi suveren fondlar bir nechta parametrlar bo‘yicha reytingi e‘lon qilinib boriladi. Quyidagi jadvalda suveren fondlarning eng katta 10taligini ko‘rishimiz mumkin.

15.3-jadval

Jahondagi 10ta eng yirik suveren fondlari

№	Mamlakat	Suveren fondning nomi	Aktivi, mlrd AQSH doll	Tashkil etilgan yili	Mablag‘lar manbasi	Linaburg-Maduell Transparent lik indeksi
1	Norvegiya	Norvegiya global pensiya fondi (Government Pension Fund Global)	1058,05	1990	Neft	10
2	Xitoy	Xitoy investitsiya korporatsiyasi (China Investment Corporation)	941,4	2007	Non-Commodity	8
3	BAA, Abu-Dabi	Abu-Dabi suveren fondi (Abu-Dhabi Investment Authority, ADIA)	683	1976	Neft	6
4	Quvayt	Quvayt suveren fondi (Kuwait Investment Authority)	592	1953	Neft	6
5	Gonkong	Gonkong suveren fondi (Hong Kong Monetary Authority Exchange Fund)	522,6	1993	Non-Commodity	8
6	Saudiya Arabistoni	Saudiya Arabistoni suveren fondi (SAMA Foreign Holdings)	515,6	1952	Neft	4

7	Xitoy	Xitoy valyuta bozorini tartibga solish fondi (SAFE Investment Company)	441****	1997	Non-Commodity	4
8	Singapur	Singapur suveren fondi (Government of Singapore Investment Corporation, GIC)	390	1981	Non-Commodity	6
9	Singapur	Temasek Xoldingi (Temasek Holdings)	375****	1974	Non-Commodity	10
10	Saudiya Arabistoni	Davlat investitsiya fondi (Public Investment Fund)	360	2008	Neft	5

Dunyodagi suveren fondlarni moliyaviy holatini quyidagi ilovada ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Ilovada keltirilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

- dunyodagi har beshinchi davlat o‘zining suveren fondiga ega;
- Birlashgan Arab Amirliklari – uzoq yillar davomida suveren fondlar aktivlari bo‘yicha yetakchilik qilib kelgan. So‘ngi yillarda Xitoy fondlari moliyaviy va investitsiya hajmini jadal ravishda kengaytirmoqda. Buning xususiyatli jihati shundaki BAA suveren fondlari aktivlari xomashyo mahsulotlar realizatsiya natijasida shaklangan, Xitoy suveren fondlari asosan xomashyo mahsulotlariga bog‘liq bo‘lmagan zaxiralar hisobiga kengaymoqda;
- Dunyodagi suveren fondlar jami aktivlarining qariyb 90 foizini 25% davlatlardagi suveren fondlarda yig‘ilgan;
- Sobiq Sovet Ittifoqi davlatlaridan eng katta aktivlarga ega suveren fondlar Qozog‘iston va Rossiya Federatsiyasiga to‘g‘ri kelib,

bu davlatlarning suveren fondlari moliyaviy aktivlari bo'yicha yetakchi o'rinlarda turadi.

Suveren fondlar institutining yondashuvlariga ko'ra, suveren fondlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari sifatida ochiqlik darajasi, investitsion portfel daromadliligi darajasi va aktivlari hajmi hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, fond tashkil etilgan yili, ya'ni qisqa muddatlarda o'z aktivlar hajmini oshirish me'zoni kiritiladi.

Suveren fondlar faoliyati transparentligi yoki axborot shaffofligi darajasi tushunarli ko'rsatkichi sifatida farovonlik suveren fondlari instituti xodimlari – Karl Linaburg va Maykl Maduell tomonidan ishlab chiqilgan Linaburg-Maduell transparentlik indeksi (Linaburg-Maduell Transparency Index) ko'rsatkichidan foydalanish taklif etiladi.

Indeks Santyago tamoyillariga asoslangan shaffoflik o'nta asosiy tamoyillarini bajarish darajasi bo'yicha fondlarni ranglarga ajratishga asoslanadi. Har bir tamoyilni bajarganlik uchun suveren fond rangiga 1 punkt qo'shiladi. Bu tamoyillarni quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

15.4-jadval

**Linaburg-Maduell transparentlik indeksining
asosiy tamoyillari¹⁰⁶**

ball	Shartlari
+1	Fond faoliyati tarixi, tashkil topish sabablari, moliyaviy mablag'lari shakllantirish manbalari tavsifi, davlat mulki tarkibini taqdim etishi
+1	Fond yillik hisobotlarining mustaqil auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirilish natijalarini taqdim etishi
+1	Fondning Xolding kompaniyalar mulkidagi ulushi va xolding kompaniyalarning geografik joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etishi
+1	Fond investitsion portfelining bozor qiymati, fond daromadliligi, riski, shuningdek fond boshqaruv xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish
+1	Fond investitsiyalashning etika me'yorlariga rioya qilish majburiyati bilan investitsiya siyosatini amalga oshirish darajasi
+1	Fond faoliyati aniq maqsadlar va strategiyalar bo'yicha ish olib borishi

¹⁰⁶ Sovereign Wealth Funds: Generally Accepted Principles and Practices (Santiago Principles) [Электронный ресурс] / International Working Group of Sovereign Wealth Funds. 2008. Режим доступа: <http://www.iwgswf.org/pubs/eng/santiagoprinciples>.

+1	Fondning sho'ba korxona tashkilotlari va ularning bog'lanish ma'lumotlarini taqdim etishi (agar mavjud bo'lsa)
+1	Fondning mablag'larini boshqaruvchi tashqi menejerlarning mavjudligi (agar mavjud bo'lsa)
+1	Fondning o'z veb saytiga egaligi
+1	Fond bosh ofisining manzilini va bog'lanish ma'lumotlarini taqdim etishi. Masalan suveren fond faoliyati bo'yicha murojaatlar uchun faks va telefon raqamlari

Rossiya suveren fondlari indeksda beshga teng bo'lgan rangga ega. Ya'ni Rossiya fondlari faoliyati maksimal axborot shaffofligiga erishish uchun kamida beshta shaffoflik tamoyilini bajarish talab etiladi.

Suveren fondlarning transparentlik indeksi bo'yicha shaffoflik darajasini taxlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin bo'ladi:

- tabiiy resurslar hisobiga shakllangan suveren fondlar bilan xomashyoga bog'liq bo'lmagan suveren fondlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlangan;

- daromadlari resurs realizatsiyasiga bog'liq bo'lmagan suveren fondlar bog'liq bo'lgan fondlarga nisbatan ochiq, aksincha resurs realizatsiyasiga bog'liq bo'lgan fonlar bog'liq bo'lmagan fondlarga nisbatan yopiq ya'ni oshkoraligi past darajada;

- Suveren fondlarning "oshkoraligi" yoki "shaffofligi" geografik jihatlarga ega. Odatda, Yevropa, Amerika, Avstraliya suveren fondlari nisbatan ochiq. Bularga Ozarbayjon neft fondini, Norvegiya global pensiya fondi, Avstriyaning kelajak fondi va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Yaqin sharq mamlakatlari, Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi suveren fondlar nisbatan yopiq hisoblanadi. Bunga Venesuela makroiqtisodiy barqarorlik fondi, Nigeriyaning Suveren investitsiya boshqarmasi, Oman davlat rezerv fondi va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Fondlar faoliyatidagi farqlar bir qator omillarga bog'liq bo'ladi, shu jumladan, daromadlarning xarakteri, xarajatlar amalga oshirish mexanizmi va xarajatlarga qo'yilgan cheklovlar bilan bog'liq. Dunyo bo'ylab turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va

yondashuvlari o'z manfaatlaridan kelib chiqqat holda belgilanadi. Suveren fondlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya mexanizmlarini yaxshiroq anglash uchun ularning ayrimlari faoliyati bilan yaqindan tanishamiz.

Jahonda eng katta kapitalga ega bo'lgan suveren fond Norvegiyaning Global Davlat Pensiya fondi hisoblanadi. Bu fond Norvegiyaning pensiya tizimidagi ikkita fondan biridir. Bundan tashqari Davlat pensiya fondi ham bor.

Yuqorida aytib o'tilgan fond dastlab Davlat neft jamg'armasi deb nomlangan bo'lib 1990 yilda qonun bilan tashkil etildi va uning dastlabki moliyalashtirilishi 1996 yilda taqdim etildi. Shunday qilib, deyarli 90-yillarning o'rtalariga kelib, Norvegiya neft va gaz sohasidagi daromadlarning aksariyati milliy byudjetga tushdi va davlat qarzini to'lash uchun foydalanildi. 2006 yilda Norvegiya Neft jamg'armasi Global Davlat Pensiya jamg'armasi deb o'zgartirilgan.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, neft-gaz sohasidagi operatsion daromad hozirgi kunda eng yuqori ko'rsatkichdir va kelgusi o'n yilliklar davomida asta-sekin pasayib boradi. Shunday qilib, Fond birinchi bo'lib daromadlar oldida mavjud bo'lgan pasayish oqibatlarini bartaraf etish va neft bahosidagi o'zgarishlarning zararli oqibatlarini yumshatish uchun shakllantirildi. Vaqt o'tishi bilan Fondning strategiyasi quyidagi yo'nalishlar bilan xarakterlanadi: risk mukofotlarini olish, investitsiyalarni diversifikatsiya qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan investitsiyalarni yaratish, rentabellik, faol boshqarishning o'rtacha darajasi. Ushbu fond dunyodagi eng shaffoflardan biri sifatida tanilgan. Fond faoliyati bo'yicha yillik hisobotlarni muntazam nashr etmoqda, ovoz berish hisoboti, fond faoliyati va uning strategiyasini baholash mezonlari.

Jamg'armaning nomi "Global Davlat Pensiya jamg'armasi" deb nomlanishiga qaramasdan, ushbu jamg'arma nafaqa jamg'armasi hisoblanmaydi va pensiya to'lovlari hisobidan emas, balki neft tushumlari asosida shakllanadi. Biroq, uning nomini o'zgartirish kelajakdagi pensiya xarajatlarining kutilayotgan o'sishini moliyalashtirish uchun davlat daromadlarini tejashda poydevor rolini ta'kidladi.

Hozirda fondda rasmiy pensiya majburiyatlari mavjud emas. Uning investitsiyalari bir nechta aktivlar toifalarida taqsimlangan kapital mablag'larining yarmidan ko'pi Aksiyalarga, qolgan qismi esa qat'iy belgilangan daromad vositalariga investitsiya qilinadi. Geografik jihatdan investitsiyalar Yevropada (50%), Yaqin Sharq mamlakatlari, Amerika, Afrika (36%) va Osiyo va Okeaniyada (14%) ga qaratilgan. Fond mablag'lari 60ta mamlakatdagi 8500ga yaqin kompaniya Aksiylariga joylashtirilgan. Aktivlarning 60 foizi Aksiya va 40 foiz obligatsiyalarda joylashtirilgan. 2012 yil o'rtalarida Fond global qimmatbaho qog'ozlar bozorlarining 1 foizini tashkil qildi va Yevropaning eng yirik aksiyadori bo'ldi.

Bugungi kunda fondning investitsion strategiyasi chet mamlakatlarga optimal investitsiya me'yorlarini belgilagan holda kelajak avlod uchun Norvegiya milliy boylik daromadlarining uzoq muddatga o'sish darajasini saqlash hisoblanadi. Fond aktivlarining 60 % aksiyalarga, 35-40 % qat'iy belgilangan daromadli moliyaviy vositalarga, 5 % ko'chmas mulkka taqsimlanadi.

Fond dunyodagi eng shaffof, moliyaviy mablag'larining yaxshi diversifikatsiyalangan va investitsiya strategiyasi ega muvaffaqiyatli xizmat qilishda davom etmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari. Abu Dabi investitsiya agentligi (ADIA). 1976 yilda tashkil etilgan Abu Dabi investitsiya agentligi Abu Dabi Amirligi egalik qiluvchi ko'p qirrali suveren fond hisoblanadi. Fondning yillik hisobotlarida ta'kidlanganidek, fondning asosiy maqsadi Amirlikning kelajakdagi farovonligini ta'minlash uchun hukumat nomidan moliyaviy resurslarni yuqori daromadli sohalarga investitsiya qilishdir. ADIA Yaqin Sharqdagi va dunyodagi eng yirik suveren fondi bo'lib, uning asosiy manbai neft eksportidan tushadigan daromad hisoblanadi.

ADIA mustaqil yuridik shaxs bo'lib, o'zining belgilangan maqsadlariga erishish uchun o'zi mustaqil faoliyat yuritadi. Fond aktivlarining 80 foizi tashqi fond menejerlari tomonidan boshqariladi va qariyb 60 foizi strategik rivojlanishga sarflanadi.

ADIA 24dan ortiq aktivlar sinfiga ega bo'lgan va diversifikatsiya qilingan investitsion portfelni boshqaradi. Bunga aksiyalar, qat'iy

belgilangan daromadli moliyaviy vositalar, ko'chmas mulk, yuridik shaxslar va infrastruktura va boshqalar kiradi.

ADIANing ko'pgina investitsion faoliyati Shimoliy Amerika mamlakatlari (35% -50%), G'arbiy Yevropa va Skandinaviya davlatlari (25% -35%), Osiyoning rivojlangan davlatlari (10% -20%) hissasiga to'g'ri keladi.

Ushbu fond faoliyati transparentlik indeksi bo'yicha past ko'rsatkichga ega. Shu sababli hozirgi kunga qadar uning aktivlarining hajmi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Shunday qilib, 2012 yilning ikkinchi yarmida turli manbalarga ko'ra uning miqdori 600 milliard AQSH dollaridan 800 milliard AQSH dollarigacha oshgan. 2018 yilning birinchi yarmida Suveren investitsiya fondlari instituti tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra 683 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Transparentlik indeksi bo'yicha fond shaffofligi 6 ballga teng bo'lgan.

Singapur. Temasek Xoldingi. Temasek Xoldingi 1974 yilda 350 mln AQSH dollarlik dastlabki sarmoyalar bilan tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda xolding aktivlari davlat aktivlari, dividendlar, obligatsiyalar va davriy kapital qo'yilmalar hisobiga shakllantiriladi.

"Temasek" Xolding Moliya Vazirligi tomonidan tashkil etilgan kundan boshlab uzoq muddatli daromadlarga erishishga qaratilgan mustaqil, tijoriy investor sifatida faoliyat yuritadi. Hukumatga doimiy ravishda to'langan dividendlar. Temasek valyuta zaxiralarini boshqarish yoki iqtisodiyotni rivojlantirish majburiyatini olmagan. Jamg'arma o'z ta'sis etilgan kundan boshlab yillik 17% miqdorida uzoq muddatli rentabellikga erishdi. 2012 yil sentyabr oyidan boshlab fondning jami aktivlari taxminan 157,5 milliard dollarni tashkil etdi.

2018 yilning birinchi yarmida 375 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Transparentlik indeksi yuqori bo'lgan fondlardan hisoblanadi (transparentlik indeksi maksimal 10 ballga teng).

Temasekning investitsiya strategiyasi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Xitoy, Hindiston, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi iqtisodiyotining moliyaviy tuzilmalariga, infratuzilmasi va logistikasiga sarmoya kiritish yo'li bilan yuqori daromadlilik darajasiga erishish;

- telekommunikatsiya, media texnologiyalari, ko'chmas mulk va boshqalarga sarmoya kiritish orqali o'sib borayotgan iste'mol talabini qoplash;

- biznes loyihalarini, intellektual mulkni va raqobatbardosh ustunliklarni oshirishning boshqa manbalarini izlash orqali raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlash;

- kuchli raqobatbardosh kompaniyalarga, shuningdek, mintaqaviy va jahon lideri bo'lish uchun potensialga ega bo'lgan kompaniyalarga sarmoya kiritib, yangi lider kompaniyalarini rivojlantirish.

Temasek fondi portfelining balansi Osiyo va boshqa mintaqalar o'rtasida 70-30 atrofida taqsimlanadi, moliyaviy va sanoat investitsiyalari esa fond portfelining eng yirik tarmoqlari bo'lib qolmoqda.

Malayziya. Xazanax Natsional Barxad. Xazanax xolding strategik investitsiyalarni amalga oshiradi va davlat aktivlarini boshqaradi.

Xazanax 1993 yilda OAJ sifatida ro'yxatga olingan va Malayziya hukumati mulki hisoblanadi.

Ushbu suveren fond Malayziyaning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadigan Malayziyadagi ayrim strategik ahamiyatga ega sanoatning rivojlanishini rag'batlantirish vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Xazana - bu hosildorlikni oshirish ko'rsatkichlarini oshirish, mamlakat raqobatbardoshligini mustahkamlash va kvaziyalarga oid kompaniyalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga yordam beradigan muhim agentlik.

2004 yilda fond tomonidan kvazi-davlatga tegishli korxonalarni yangi haqiqat talablariga javob beradigan yuqori darajadagi ishlab chiqarish korxonalariga aylantirilishini faollashtirish bo'yicha dastur boshlandi. Bu 2020 yilga qadar Malayziya bir qator muhim sohalarda - iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy rivojlanish, psixologiya va madaniyat rivojlangan davlatga aylanishi uchun 2020 yilga kelib Vizyonning umumiy rivojlanish rejasining bir qismidir.

Fond Malayziyada va xorijda 50dan ortiq yirik kompaniyaga sarmoya kiritgan.

Jahonda suveren fondlarning zamonaviy farqlarini hisobga olgan holda, ularning funksiyalarini farqlashni hisobga olsak, umuman global moliyaviy tizimda so'nggi yillardagi asosiy tendensiya rivojlanayotgan

mamlakatlar suveren fondlari rolini kuchaytirishni barqarorlashtirish hamda ularga nisbatan munosabatlarning o'zgarishi, keyingi xatboshida.

Suveren fondlar xalqaro moliya bozorida jiddiy kuch bo'lib, 2012 yilda esa ularning nazorati ostida jami aktivlar 5 trillion dollardan oldindan to'langan.

Shu bilan birga, so'nggi yillardagi asosiy tendensiya suveren fondlar aktivlari o'sishining barqarorligi, shuningdek, ular bilan munosabatlardagi o'zgarishlar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning suveren jamg'armalari dunyodagi eng mashhur moliya va institutlarga aylandi, inqirozgacha bo'lgan davrda esa (2008 yilgacha) ular rivojlangan mamlakatlar tomonidan potensial tahdidlar nuqtai nazaridan tez-tez ko'rib chiqildi. Ushbu o'zgarish quyidagi sabablarga ko'ra bir nechta sabablarga asoslanadi.

Global inqirozning birinchi bosqichining asosiy natijalari sarmoyalar oqimining pasayishi, qarz mablag'lari qiymatining oshishi, bank kreditlarini vaqtincha qisqartirish va korporativ moliyalashtirish bo'ldi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida eksport hajmining pasayishi YaIMning keskin pasayishiga olib keldi. Banklarning balanslari xavotirli va noto'g'ri aktivlar tufayli doimiy ravishda keskinlashdi. Banklar yangi kreditlarni berishni qisqartirdi. Omonatchilarning banklarga bo'lgan ishonchi zaiflashdi, depozitlarni olib qo'yish boshlandi.

Xalqaro maydonda, 2010 yil oktyabr oyidan boshlab, Yevropa davlatlari qarz xuruji (Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya va Italiya) tahdidlariga duch kelib, suveren fondlardan (birinchi navbatda, Xitoy) moliya bozoridagi muammoni hal qilish uchun mablag' yig'ishni rejalashtirgan.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishining pasayishi va iqtisodiyotni rag'batlantirish uchun cheklangan fiskal va pul-kredit siyosati milliy hokimiyat va xalqaro moliya institutlarini yangi vositalarni izlashga majbur qildi. Natijada, Xalqaro valyuta jamg'armasi suveren fondlardan pul mablag'larini global iqtisodiyotni kreditlashni tiklash uchun shartlardan biri sifatida ko'rib chiqishni

boshladi. 2011-yil sentyabr oyida nashr etilgan jahon iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda fond suveren fondlarning global moliya tizimining barqarorligini ta'minlashdagi ijobiy rolini ta'kidlab o'tdi. XVF vakillari fikriga ko'ra, suveren fondlar investitsiyalarining uzoq muddatli xususiyati xususiy investorlarning moliyaviy bozorlarga bo'lgan ishonchini tiklash uchun asos bo'lishi mumkin.

Doimiy noaniqlik sharoitida va jahon iqtisodiyotida inqiroz hodisalari yuzaga kelishi va o'sishi holatlarida tartibga solish choralari samaradorligini oshirish zarurati sharoitida ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining boylik fondlari aktivlarini ko'paytirish bo'yicha choralar ko'rdilar. Shu bilan birga, rivojlanayotgan bozorlar asosan global iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish uchun muhim o'yinchilarga aylandi. Bu ko'p jihatdan ushbu mamlakatlarning ko'pchiligi moliyaviy inqirozdan ko'proq zarar ko'rganligi bilan izohlanadi, biroq ular nafaqat shifo topishlari mumkin, balki ijobiy iqtisodiy o'sishni kuzatish davom etmoqda.

Energiya va iste'mol tovarlari narxlarining yuqori bo'lishi, shuningdek, moliyaviy globalizatsiyani kuchaytirish Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida asosan neft va gaz eksport qiluvchi xorijiy aktivlarni tezkor ravishda to'plashga olib keldi.

Shu bilan birga, global o'zgarish omili ham oshdi. Xususan, 2012 yilda qayd etilganidek, Xalqaro valyuta jamg'armasi ijrochi direktorining o'rinbosari "Dunyo so'nggi bir necha yil ichida bo'lgani kabi hech qachon o'zgarmadi va deyarli 4 yil davom etgan joriy iqtisodiy inqiroz tub o'zgarishlar yuz berdi global moliyaviy tuzilmada". Uning so'zlariga ko'ra, oxirgi uch asr so'nggi yalpi ichki mahsulotda 4 barobar o'sishi bilan so'nggi qirq yil ichida eng tez o'sgan va o'rtacha yillik o'sish 3,6 foizni tashkil etgan. Savdo hajmining 12 barobar o'sishi, bankning 14 barobar o'sishi, shuningdek, pul taklifining o'sishi 40 barobar oshdi.

Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlar global iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun iqtisodiy rivojlanish o'rnini egallashdi. Shunday qilib, 2007 yildan 2012 yilgacha bo'lgan davrda XVF ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiyotning rivojlanishi global nominal YaIMning 29 foizini tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar global nominal YaIMning 71 foizini tashkil qilgan.

Dunyo amaliyoti shuni ko'rsatadiki, suveren fondlar yordamida bir qator davlatlar kelajakda xomashyo ziyonni qoplash uchun samarali mexanizmni yaratdilar. Ya'ni, byudjet davrida suveren fondlarda mablag' to'plash orqali byudjet-soliq siyosatida sifatni yaxshilash ta'minlandi, shu bilan birga iste'mol qilinadigan tabiiy resurslarni sotishdan tushadigan daromadlar o'zgaruvchan va cheklangan bo'lib, xususan, byudjet xarajatlarini daromadlardan tushirish hisobiga moliya siyosatining sifatini oshirdi.

Bundan tashqari, suveren fondlarning samarali ishlashi milliy valyutani real jihatdan mustahkamlashdan qochib, milliy eksportchilarning raqobatbardoshligini ta'minlashga imkon beradi. Suveren fondlar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini osonlashtiradigan funksiyalarni amalga oshirishi, shuningdek, mablag'larni maqsadli sarflashning oshkoraligini ta'minlashi mumkin.

Shu bilan birga, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'plab suveren fondlar boshqaruv muammolari bilan bir qatorda, boshqaruvning sifati bilan bog'liq masalalar bilan bir qatorda, davlatning bozordagi o'rini bosa oladigan vaziyatni bartaraf etish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan optimal ko'rsatkich va funksiyalarning doirasini shakllantirmoqda. tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.

Umuman olganda, suveren fondlar mablag'larini samarali boshqarish, umuman olganda, umuman olganda jahon iqtisodiyotining rivoji, davlat va moliya bozorlarining rivojlanish tendensiyalari haqida aniq tasavvurni ta'minlashning mumkin emasligi sababli juda murakkab vazifadir.

Masalan, Venesuelada barqarorlik jamg'armalarining faoliyati kutilgan natijalarga to'liq erishmadi. Buning sababi menejmentdagi xatolar, mablag'larni to'plash va ulardan foydalanish qoidalaridagi ba'zi o'zgarishlar bo'lib, ular oxir-oqibat ushbu maqsadlarga erishish uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Shunday qilib, eng yaxshi yutuqlar dastlab fondlar faoliyatini tartibga soladigan aniq qoidalar o'rnatgan va keyinchalik ularga qat'iy rioya qilgan mamlakatlar tomonidan erishildi. Bu, birinchi navbatda, Norvegiya, Alaska kabi mamlakatlar.

Qoidalar noaniq va majburiy bo'lmagan hollarda va hukumatlar mablag'larni o'z xohishiga ko'ra sarflash imkoniga ega bo'lishgan

bo'lsa, to'plangan mablag'lar odatda yetarlicha samarali sarflanmadi, bu esa dastlab belgilangan maqsadlarga erishishga imkon bermadi.

Shunday qilib, suveren fondlarning shakllanishi kutilgan natijalarga olib kelmadi, birinchi navbatda, pul mablag'larini jamlash davlat investitsiyalari emas, iste'molchilar ehtiyojlariga sarflangan mamlakatlarda. Iqtisodiy rivojlanishning dastlabki darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun bunday siyosat ularni "qashshoqlik tuzog'idan" chiqarishga imkon bermaydi. Xomashyoning jahon narxlarining beqarorligi tufayli, davlat investitsiyalarining ortishi uchun kelajakdagi xomashyo qazib olishga urinishlar ayrim davlatlarni jiddiy byudjet va qarz xurujiga olib keldi (masalan, 1970-1980 - Nigeriya).

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Suveren fondlarning iqtisodiy mohiyati.
2. Davlatning samarali makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosatida suveren fondlarining roli.
3. Suveren fondlarni qolgan davlat moliya zaxiralaridan farqi nimada?
4. Suveren fondlar haqidagi nazariy qarashlarning rivojlanish bosqichlari.
5. Suveren fondlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Suveren fondlarning tasniflanishi.
7. Suveren fondlarni tashkil etish maqsadiga ko‘ra turlari.
8. Suveren fondlar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tamoyillari.
9. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tashkil etishning huquqiy asoslari.
10. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan loyihalarni moliyalashtirish yo‘llari.
11. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi daromadlari shakllanish manbalari.
12. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi moliyaviy mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari.
13. Suveren fondlari faoliyat samaradorligini baholash mezonlari.
14. Suveren fondlari faoliyat samaradorligini baholashning kompleks ko‘rsatkichlar tizimi.
15. Suveren fondlari faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi.

TESTLAR

1. “Suveren fond” atamasini ilk bora qo‘llagan iqtisodchi olim kim?
 - a) A.Rozanov;
 - b) K.Klimbetov;
 - d) S.Yu.Vitte;

e) E.X.Xansen.

2. Qaysi iqtisodchi olim suveren fondlar faoliyatini bir tomondan, “Davlatning sikllarga qarshi siyosati”, boshqa tomondan esa – davlat inqirozga qarshi boshqaruv funksiyasini amalga oshirish bilan izohlagan.

- a) S.Yu. Vitte;
- b) E.X. Xansen;
- d) R.F. Xarrod;
- e) V.T.Ving.

3. Suveren fondlarni mamlakatda pul massasini tartibga solish uchun vosita sifatida e’tirof etgan olim...

- a) S.Yu. Vitte;
- b) E.X. Xansen;
- d) R.F. Xarrod;
- e) V.T.Ving.

4. Quyidagilardan qaysi biri suveren fondlarning asosiy xususiyatlari qatoriga kiritilmaydi?

- a) fondlarning investitsiyalari fond bozorlariga faol ta’sir etishi mumkinligi;
- b) suveren fondlar tarkibining, jumladan, tashkiliy-huquqiy shakl bo’yicha bir turda emasligi;
- d) belgilangan makroiqtisodiy maqsadlar uchun, qoidaga ko’ra, bir turdagi maqsadlardan foydalanilishi va ularning har bitta fondga 2-3 tadan to’g’ri kelishi;
- e) fondlar uchun qisqa muddatli investitsion faoliyat xosligi.

5. Byudjet muvozanatini ta’minlash uchun shakllantiriladi va foydalaniladi. Ushbu fondlar mablag’lari sikllarga qarshi byudjet siyosati doirasida shakllantiriladi va foydalaniladi hamda likvidligi yuqori va ishonchli moliyaviy vositalarga investitsiya qilinadi.

- a) Barqarorlashtirish fondlari;
- b) Pensiya zaxira fondlari;
- d) Jamg’arma fondlar;
- e) Taraqqiyot fondlari.

6. Davlat pensiya ta'minoti xarajatlarini moliyalashtirish uchun yaratiladi Ushbu fondlarning mablag'lari asosan aksiyalar va boshqa yuqori riskli investitsiyalarga joylashtiriladi. Bunday fondlarning investitsiyalash vaqt doirasi aniq bo'lib, uzoq muddatli xarakterga ega hisoblanadi.

- a) Barqarorlashtirish fondlari;
- b) Pensiya zaxira fondlari;
- d) Jamg'arma fondlar;
- e) Taraqqiyot fondlari.

7. Milliy farovonlikni avlodlar o'rtasida adolatli taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Byudjetning bozor konyunkturasiga bog'liq daromadlari, shuningdek, oltin-valyuta zaxiralari bir qismi fondlarda kelajak avlodlarga yetkazish va mablag'larni ko'paytirish maqsadida samarali investitsiyalashdir.

- a) Barqarorlashtirish fondlari;
- b) Pensiya zaxira fondlari;
- d) Jamg'arma fondlar;
- e) Taraqqiyot fondlari.

8. Fond mablag'larni investitsiyalash va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish hisoblanadi. Taraqqiyot fondlarining mablag'lari qoidaga ko'ra, mamlakat ichkarisida ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarga, asosan, transport infratuzilmasi, ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiya qilinadi.

- a) Barqarorlashtirish fondlari;
- b) Pensiya zaxira fondlari;
- d) Jamg'arma fondlar;
- e) Taraqqiyot fondlari.

9. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg'armasi qaysi me'yoriy hujjat asosida tashkil etilgan.

- a) 2006 yil 11 maydagi PF-3751-sonli Farmoni;
- b) 2007 yil 7 iyundagi VMK-110-sonli Qarori;
- d) 2006 yil 16 maydagi PQ-350-sonli Qarori;
- e) 2006 yil 12 iyundagi F-2520-sonli Farmoyishi.

10. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg‘armasi qaysi tashkilot huzurida tashkil etilgan.

- a) Moliya vazirligi;
- b) Vazirlar Mahkamasi;
- d) Markaziy bank;
- e) Iqtisodiyot vazirligi.

11. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg‘armasining yuqori organi hisoblangan boshqarish bo‘yicha Kengash tarkibi kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) Moliya vazirligi;
- b) Vazirlar Mahkamasi;
- d) Prezident;
- e) Oliy majlis.

12. Jamg‘arma mablag‘lari bo‘sh qoldiqlarining umumiy hajmi uning jami aktivlarining kamida nechcha foizini tashkil etishi lozim.

- a) 30 %;
- b) 40 %;
- d) 50 %;
- e) 60 %.

13. Jamg‘arma mablag‘larining shakllantirilishi va foydalanilishi qaysi tashkilot tomonidan tekshiriladi?

- a) Moliya vazirligi;
- b) Vazirlar Mahkamasi;
- d) Hisob palatasi;
- e) Davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi.

14. Jahonda birinchi suveren fondi qachon va qayerda tashkil etilgan?

- a) 1959 yilda Abu-Dabi suveren fondi (Abu-Dhabi Investment Authority, ADIA);
- b) 1948 yilda Norvegiya global pensiya fondi (Government Pension Fund Global);

d) 1968 yilda Xitoy investitsiya korporatsiyasi (China Investment Corporation);

e) 1987 yilda Singapur suveren fondi (Government of Singapore Investment Corporation, GIC).

15. Quyidagilardan qaysi fond moliyaviy mablagʻlari tabiiy boyliklar hisobiga shakllantirilmagan.

a) Abu-Dabi suveren fondi (Abu-Dhabi Investment Authority, ADIA);

b) Norvegiya global pensiya fondi (Government Pension Fund Global);

d) Xitoy investitsiya korporatsiyasi (China Investment Corporation);

e) Quvayt suveren fondi (Kuwait Investment Authority).

XVI BOB. KRIPTOVALYUTALAR BOZORI VA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALAR

16.1. Kriptografiya va kriptovalyutalar haqida tushuncha

So‘nggi yillarda kriptovalyutalar moliya bozorida shiddat bilan rivojlanayotgan asosiy tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda.

Kriptovalyutalar – shunday to‘lov vositasiki, bunday to‘lov tizimining egasi ham, ichkaridan yoki tashqaridan biror boshqaruvchisi mavjud emas. Bunday tizimning asosiy xususiyati ham bevosta markazlashtirilmagan tartibda ekanligidadir.

Kriptovalyutalarni bir tomondan o‘ziga xos g‘oyaga asoslangan pullarning yangi ko‘rinishi sifatida, ikkinchi tomondan esa nima bilan savdo qilishlariga ahamiyat bermay, faqatgina foyda olishni ko‘zlovchi spekulyantlar uchun juda qiziqarli bo‘lgan urfdagi, o‘zgaruvchan (volatil) moliyaviy aktivlardan biri sifatida aniq farqlab olishimiz lozim.

Insonlarning dunyo haqidagi qarashlarini yuqori tezlikda kechuvchi jarayonlar qanchalik o‘zgartirmaydi deysiz-a? Ko‘pincha insonlar, huddi baliq qarmoqqa bog‘langan yaltiroq xo‘rakka talpinganidek, urfdagi hodisa ortidan kelajak uchun barcha narsalari bilan risk qilishga tayyor bo‘lishadi. Ayniqsa, bunda ularning ham fikrlari ko‘p bo‘lsa.

Kriptovalyutalar – raqamli yoki virtual valyuta hisoblanib, ularda xavfsizlik uchun **kriptografiya (grekcha so‘z, maxfiy belgilar bilan yozilgan xat)**dan foydalaniladi. Kriptografiya – bu ma’lumotni ko‘zda tutilmagan foydalanuvchilardan himoyalash yo‘lida, axborotni o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oya va usullar yig‘indisidir. Tarixiy jihatdan, kriptografiya maxfiy ma’lumotlar, asosan, maxfiy xizmat va razvedka idoralari tomonidan maxfiy ma’lumotlardan himoya qilish uchun ishlatilgan. Ushbu sohadagi olimlarning ko‘pchiligi, har qanday hukumat yoki bank kabi boshqa vositachilar bilan bog‘lanmagan

avtonom raqamli valyutaning o'zi yashaydigan maxfiylik va erkinlik tufayli foydali va qulay deb hisoblaydilar. Bunday tizimda pulni boshqa joyga o'tkazilishi, mahalliy va xalqaro miqyosdagi hududlar davlat tartib-qoidalarini chetlab o'tgan holda osonlik va tezda amalga oshirilishi mumkin. AQSHda kriptografiya asoschisi Horst Fietsel tomonidan "Digital Encryption Standard" (DES) ning 1975-yil 17-martda Federal Reyestriga kiritilishi bilan qabul qilinadi.

Ushbu tizim xavfsizlik xususiyati tufayli kriptovalyutalarini soxtalashtirish murakkab hisoblanadi. Kriptovalyutaning alohida xususiyatlaridan biri uning muomilaga kiritilish jarayonidir. Ya'ni, u hech qanday markaziy hokimiyat tomonidan berilmaydi va uni davlat aralashuvi yoki manipulyatsiyasidan holi hisoblanadi. O'z o'rnida Kriptovalyutalarda ham kamchiliklar ham mavjud. Shuningdek, ularning moliya bozoridagi dastlabki rivojlanish bosqichlari, xavf-xatarlari, imkoniyatlari va ularning kelajakdagi holati kriptovalyutalar bozorini alohida jihatini asoslaydi.


Kriptografik pullarning kelajagini bashorat qilish oson emas, chunki rasmiy tuzilmalar sohasida ayniqsa juda ko'p ishlar qilinishi kerak. Shu bilan birga, banklar va boshqa moliya institutlari kelajakda moliyaviy bitimlar uchun alternativ sifatida kriptovalyutalarni ko'ra olishi kerak. So'nggi yillarda jahon moliya bozorida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shuningdek, valyuta instrumentlari sifatida ishlatiladigan vositalarni, savdo operatsiyalarini iloji boricha osonlashtirish va qulaylashtirish, bozor ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarishlarini va rivojlanishni talab etmoqda. Tovar ayriboshlanishi uchun foydalaniladigan vositalar pul deb ataladi. Pul - bu o'zaro kelishuv vositasi bo'lib, bozorning barcha ishtirokchilari buni amalga oshirishda ishtirok etadilar. Insoniyat va jamiyat, iqtisodiy munosabatlar, bozorlar tobora rivojlanib borishi sababli, murakkab tovar almashinuvi vositalariga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan, shifrlangan valyutalarning joriy etilishi xalqaro to'lov tizimini bir necha yil avval tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada kengayishiga sabab bo'lmoqda.

16.2. Blokcheyn texnologiyalari

Blokcheyn texnologiyalar – kriptovalyutalarni asosini tashkil etuvchi texnologiyalar bo‘lib, moliya bozorini taraqqiy etishini yangi bosqichga olib chiquvchi, raqamli innovatsion texnologiyalar bo‘lgan, kriptografik tizim orqali himoyalangan va kiberxavfsizlikning yuqori darajasiga ega texnologiyalardir. Tranzaksiyalar bloklarda qayd etiladi, har bir blok o‘zidan oldingi blok bilan bog‘lanadi va natijada bloklar zanjiri hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan bloklar zanjiri esa **“Blokcheyn”** (Blockchain) deb ataladi. Blokcheyn texnologiyalarning xususiyati ularning markazlashmaganligi va taqsimlanganligidir (B, C, 1-rasm) va aynan shu xususiyati bilan an‘anaviy markazlashgan (A, 1-rasm) to‘lov tizimlaridan farqlanadi.

Blokcheyn texnologiyalarni yaratuvchi va ularni yangilab borish bilan shug‘ullanuvchilar maynerlar deb ataladi. Maynerlar (Miners) buning uchun mukofotga ega bo‘ladilar. Hozirgi kunda Mayning (Mining) bilan shug‘ullanuvchilar soni keskin ortmoqda. Mayning bu kriptovalyutani murakkab matematik formulalar orqali yaratish (qazib olish)dir. Buning natijasida ular mukofot (Bitkoyn)ga ega bo‘ladilar. Ma’lumotlarga ko‘ra, Moskvada oxirgi 2017 yilda videokartalar sotuvi 3 marta ko‘payib, bozordagi talab taklifdan ortib ketishi kuzatilgan. Moskva axborot texnologiyalar departamenti ma’lumotlariga ko‘ra 2017 yilning 1 kvartalida videokartalar o‘rtacha 9300 rublda baholangan, bu esa 2016 yil IV choragiga nisbatan 6%ga arzon bo‘lsa, shu yilning I choragiga nisbatan esa 9%ga qimmatroqdir. “Yandeks Market” ma’lumotlariga ko‘ra Rossiyada videokartalar narxi 2017 yil yanvar oyida o‘rtacha 13997 rublni, may oyida esa 17 040 rublni tashkil etgan. “Marvel-distributsiya” kompaniyasi departamenti direktori A. Kirichevskiy so‘zlariga ko‘ra, joriy davrda videokartalarga bo‘lgan talab keskin ko‘tarilib, bunday holat oxirgi 10 yilda kuzatilmaganligini hamda buning natijasida 200-600\$ narxdagi yuqori unumdorlikka ega kartalar defitsiti yuzaga chiqayotganligini va ularni sotib olish navbati 3–4 oyga cho‘zilayotganligini ta’kidlab o‘tdi. Bunday ko‘rsatkichning boisi mayning bilan shug‘ullanuvchilarning sonini keskin ortganligidir.

Bunda ularga kuchli kompyuterlar kerak bo‘ladi. Mayning bilan shug‘ullanuvchilarni yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar haqida ogohlantirish befoyda, ular baribir buni inobatga olishmaydi. Xuddi XVII asrda shu kabi dalillarni inobatga olmasdan “tulip” lola o‘simligi piyozlari bilan oldi-sotdi qilishga qattiq kirishgan gollandlar kabi.




16.1-rasm. Global to‘lov tizim sxemalari

Kriptoalyutalar mustaqil tizim hisoblanib, ular mutlaq avtonom va hech kimning yordamiga muhtoj emas, ya’ni bir markazlashgan tizim orqali boshqarilmaydi va shu xususiyati bilan an’anaviy to‘lov tizimlaridan farq qiladi. 15.1- rasmda an’anaviy to‘lov texnologiyalari (A) va blokcheyn texnologiyalarning (B, S) global tizim sxemasi tasvirlangan. Markazlashgan to‘lov tizimida tizim Markaziy bank tomonidan tijorat banklari orqali boshqariladi. Unda Markaziy bankning asosiy roli to‘lovlarning haqqoniyligi va xavfsizligini ta’minlashdan iborat. Markazlashmagan yoki taqsimlangan tizimda esa bunday markaziy bo‘g‘inga ehtiyoj yo‘q. Chunki to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlar tizimning barcha ishtirokchilarida mavjud bo‘lib, ular oshkora hisoblanadi va tizim ishtirokchilari tomonidan tasdiqlanadi.

16.3. Kriptoalyuta turlari va Bitkoyn

Bugungi kunda dunyo bo'yicha 2396ta kriptoalyutalar ro'yxatga olinib, ularning jami bozor kapitallashuvi 204.09 mlrd AQSH dollariga teng.¹⁰⁷ 16.2-rasmda kriptoalyutalarning bozor kapitallashuvi ulushlarda tasvirlangan.

Blokcheyn texnologiyalarda kriptoalyutalarni bir hamyondan boshqasiga mablag' o'tayotganini ko'rib turish mumkin, ammo uni taqiqlab ham, bloklab ham bo'lmaydi. Shuningdek kriptoalyutalarning soni chegaralangan bo'ladi va ularning inflyatsiyaga uchramasligiga sabab bo'ladi. Masalan, taxminan 2040-yilga borib maynerlar tomonidan 21,000,000 Bitkoyn topiladi, so'ng to'xtatiladi. Undan keyin nima bo'lishi haqida taxminiy tasavvurlargina mavjuddir.



16.2-rasm. Kriptoalyutalarning bozor kapitallashuvi (11.10.2018)

Kriptoalyutalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning maxfiyligidir, ya'ni anonim ismlar orqali ularning kimga tegishli ekanligini aniqlab bo'lmaydi. Natijada noqununiy pul aylanmasi,

¹⁰⁷ <https://www.investing.com/crypto/currencies> (11.10.2018)

giyohvand moddalar uchun, terrorizmni moliyalashtirish uchun yaxshi to'lov vositasiga aylanib qolishi mumkin. Kriptoalyutalarning yana bir xususiyati ularning nomarkazlashgan tizimga egaligi tufayli ularda vositachilar bo'lmaydi, shu tufayli o'zaro ikki shaxs o'rtasida bitim tez va kamroq xarajatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq xato amalga oshirilgan to'lovlarni ortga qaytarishning imkoni mavjud emas. Bugungi kunda dunyoda eng yuqori qiymatga ega TOP 20 kriptoalyutalar ro'yxati 15.1-jadvalda keltirilgan.

15.1-jadval¹⁰⁸

Eng yuqori qiymatga ega TOP 20ga kiruvchi kriptoalyutalar haqida ma'lumot (11.10.2018y holatiga)

№	Kriptoalyuta nomi	Belgisi	Narxi (dollar)	Bozor kapitallashuvi (mlrd dollar)	24 soatlik aylanmasi hajmi (mln dollar)
1	Bitcoin	BTC	\$61550.54	\$1162,4	\$35825
2	Ethereum	ETH	\$4,510.78	\$533	\$ 20663
3	XRP	XRP	\$1.20	\$16.88	\$626.81
4	Bitcoin Cash	BCH	456.26	\$7.98	\$472.71
5	EOS	EOS	5.3937	\$4.89	\$738.11
6	Stellar Lumens	XLM	0.2205	\$4.19	\$53.89
7	Litecoin	LTC	52.644	\$3.10	\$373.30
8	Tether	USDT	0.98204	\$2.69	\$3.12
9	Cardano	ADA	0.07696	\$2.01	\$54.67
10	Monero	XMR	102.61	\$1.71	\$179.70
11	TRON	TRX	0.022635	\$1.51	\$172.33
12	IOTA	MIOTA	0.51961	\$1.46	\$32.51
13	Dash	DASH	169.14	\$1.42	\$220.99
14	Binance Coin	BNB	9.8204	\$1.15	\$31.92
15	NEO	NEO	16.51	\$1.08	\$189.65
16	Ethereum Classic	ETC	9.97	\$1.05	\$233.73
17	NEM	XEM	0.09466	\$0.851	\$11.48
18	Tezos	XTZ	1.2862	\$0.780	\$2.01
19	VeChain	VET	0.0121	\$0.674	\$13.39
20	Dogecoin	DOGE	0.005471	\$0.628	\$13.18

¹⁰⁸ <https://coinmarketcap.com/ru/all/views/all/>

Bitkoyn 2009 yilda yaratilgan eng birinchi yaratilgan blokcheyn texnologiyalar asosida yaratilgan kriptovalyuta hisoblanadi. Eng qiziqarlisi, o'zini Satoshi Nakamoto deb nomlovchi Bitkoyn tizimi yaratuvchisi deyarli anonym shaxs hisoblanib, u 2011 yildan so'ng g'oyib bo'ldi va hattoki Internetdan ham yo'qolib qoldi. Albatta bunday holatni tushunish mumkin, bu inson haqiqatda o'z hayotidan xavfsirayotgan bo'lishi mumkin.

Biroq kutilmaganda o'tgan yil avstraliyalik Kreyg Rayt omma oldida aynan u Bitkoyn kriptovalyutasini yaratuvchisi ekanligini oshkor etdi. U o'z fikrlarini 3ta – BBC, GQ va Economist nashrlariga intervyu berish orqali bildirdi. BBC bilan uchrashuvda Rayt Bitkoyn tizimi dastlabki rivojlanishni boshlayotgan davrda yaratilgan, kriptografik kalitlar qo'llanilgan elektron imzoni qoldirdi. Aynan ushbu kalitlar birinchi partiya Bitkoynlarni yaratishda ham qo'llanilgan. 2009 yil yanvar oyida Bitkoynlar Xolu Finney kriptografikasiga o'tkazilgan va bu kriptovalyuta bilan amalga oshirilgan birinchi bitim hisoblangan.

Raytning ta'kidlashicha, u Satoshi Nakamoto nomidan foydalanishga chek qo'yishga qaror qilib, aynan u Bitkoyn yaratuvchisi ekanligini isbotlovchi axborotni e'lon qilishni va'da berdi. U shuningdek kriptovalyutalarni vujudga keltirishda unga katta ko'lamdagi yaratuvchilar jamoasi yordam berganligini aytib o'tdi. O'tgan yili dekabr oyida Wired va Gizmodo jurnallari tekshiruv natijalarini nashr qilishdi, unda Bitkoyn yaratuvchisi Rayt ekanligi aytilgan. Shundan so'ng Avstraliya hukumati Raytning uyida tintuv o'tkazishdi. Rayt esa bu tintuvlar soliqlarni to'lanishi bilan bog'liq tekshiruvlar sababli ekanligini ma'lum qildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yil 21-oktyabrda Nakamoto Bitkoyn orqali 5.9 mlrd AQSH dollariga ega bo'ldi. Umuman olganda, 2018 yilning oktyabr oyida 17 million 311 ming dona Bitkoyn muomilada bo'lgan. Biroq, maynerlar tomonidan topiladigan Bitkoynning maksimal miqdori 21 million donani tashki etadi. Muomalada bo'lgan Bitkoynlarning 34.28 foizini top-1000 Bitkoynning anonim egalari egalik qiladi. Barcha Bitkoyn anonim egalarining 90 foizi 0.1 BTC kam miqdorga egalik qiladi. 2010 yil 22 may oyida Laszlo Haynkez 2 ta Papa John's Pizza pitsalari 10000 BTC ayriboshladi va bu birinchi qonuniy tovar ayriboshlanishi uchun Bitkoynning ishlatilishi edi. Usha vaqtda 10000 BTCning narxi

41\$ edi. 2021 yil oktyabr oyi holatiga 10000 BTC taxminan 650.67 mln dollarga teng bo'lgan.

16.4-rasmda Bitkoyn narxining so'nngi yilda, pandemiya davrida o'zgarish dinamikasi tasvirlangan. Unga ko'ra, Bitkoynning narxi 2016 yildan 2017 yilning yanvariga qadar juda sekin miqdorda o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2017 yilning 2-choragidan boshlab Bitkoynning narxi yuqori sur'atlarda ko'tarila boshlangan va 2017 yilning dekabr oyida esa maksimal nuqtaga erishdi. Biroq, keying 2018-yil boshidan keskin tushish kuzatilgan. 2018-yil oktyabr oyida esa 6500 dollar atrofida kuzatilgan. 2021 yilda esa 10 barobarga oshganligini (65000 dollar) govohi bo'ldik. Tahlil natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak narxi yuqori tebranuvchan bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin.



16.4-rasm. Bitkoyn narxining so'nngi 1 yilda o'zgarish dinamikasi

Bugungi kunda dunyoda 500dan ortiq kriptovalyuta birjalari mavjud bo'lib, Binance, KuCoin, Huobi Pro, Chagelly, Bittrex, Poloniex, Bitfinex, Bitmex, Cryptopia kabilar dunyodsagi eng yirik kriptovalyuta birjalari hisoblanadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR


1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Kriptovalyutalarning iqtisodiy mohiyati va yuzaga kelishi.
2. Kriptovalyutalarning bozor moliya bozorida ahamiyatli jihatlari.
3. Kriptovalyutalarning turlari.
4. Blokcheyn texnologiyalar.
5. Bitkoin va uning yaratilishi
6. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda kriptovalyutalarning ahamiyati.

2. Kriptovalyutalarning afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha T-sxemani to'ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1	1
2	2
3	3
...	...

3. Moliya bozorida banklar ishtiroki bo'yicha klaster shakllantiring.



TESTLAR

1. Kriptovalyutalarga berilgan to‘g‘ri berilgan tarifni toping.

- a) xavfsizlik uchun kriptografiyadan foydalaniladigan raqamli yoki virtual valyuta hisoblanadi;
- b) Xavfsizlik tizimi yuqori bo‘lmagan elektron pullar hisoblanadi;
- d) Markaziy boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan valyutalar;
- e) Barcha javoblar to‘g‘ri.

2. Hech qanday markaziy hokimiyat tomonidan berilmaydigan va uni davlat aralashuvi yoki manipulyatsiyasidan holi hisoblanadigan to‘lov tizimlari -...

- a) kriptovalyutalar;
- b) xorijiy valyutalar;
- d) elektron pullar;
- e) naqd pullar.

3. Kriptovalyuta asosini tashkil etuvchi texnologiyalar nima deb ataladi?

- a) Blokcheyn texnologiyalar;
- b) Birja kompyuterlari;
- d) Valyuta texnologiyalari;
- e) Terminallar.

4. Blokcheyn texnologiyalarning xususiyatlari to‘g‘ri keltirilgan qatorni ko‘rsating.

- a) Markazlashtirilganligi;
- b) Markazlashmaganligi va taqsimlanganligi;
- d) Yagona tizimga egaligi;
- e) Barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Bitkoinning narxi baland bo‘lganligi tufayli uni kichik birliklarda ifodalash uchun qanday birlik ishlatiladi?

- a) Bitkoin Cash;
- b) Satoshi;
- d) Cash;
- e) One Coin.

6. Bitcoin nechanchi yilda yaratilgan?

- a) 2008-yil;
- b) 2009-yil;
- d) 2010-yil;
- e) 2011-yil.

7. Blokcheyn texnologiyalarni yaratuvchi va ularni yangilab borish bilan shug'ullanuvchilar bu ...

- a) Kreatorlar;
- b) Distribyuterlar;
- d) Kriptograflar;
- e) Maynerlar.

8. Eng birinchi yaratilgan blokcheyn texnologiyalar asosida yaratilgan kriptovalyuta hisoblanadi.

- a) Bitkoyn;
- b) Bitcoin Cash;
- d) Litecoin;
- e) TRON.

9. Yaratilishi mumkin bo'lgan Bitkoynning maksimal miqdori qancha?

- a) 21000000;
- b) 2100000;
- d) 210000;
- e) 2100000000.

10. Blokcheyn texnologiyalarning xususiyati nimada?

- a) Markazlashmaganligida;
- b) Taqsimlanganligida;
- d) Markazlashganida;
- e) A va B javoblar.

XVII BOB. MOLIYA BOZORINI TARTIBGA SOLISH

17.1. Moliya bozorini tartibga solishning zarurligi va nazariy jihatlari

Moliya va uning alohida segmentlari hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozori, valyuta bozori, hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha yangiliklar, mish-mishlar, dunyo miqyosida yoki alohida mamlakatdagi siyosiy yoki iqtisodiy holatlarning o'zgarishi, fors-major holatlari (katastrofalar, avariylar, ob-havo bilan bog'liq holatlar) moliyaviy intrumentlar bahosida ham o'z aksini ko'rsatadi. O'z navbatida bu jihatlarda bozor ishtirokchilari, investorlar, emitentlar moliyaviy holatiga bevosita ta'sir qiladi. Baholardagi bunday keskin reaksiya yuqoridagilardan tashqari qonunchilikka zid xatti-harakatlar, turli ko'rinishdagi moliyaviy firibgarliklar uchun asos hisoblanadi.

Moliya bozoridagi holat nafaqat alohida kompaniya va investorlar, balki yaxlit iqtisodiyot, davlatlar, mintaqalar, butun jahondagi holatga bog'liq. Moliya bozorlarini qonunchilikka zid xatti-harakatlar va firibgarliklardan himoya qilish masalasi jahon hamjamiyati uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Aynan shuning uchun moliya bozori rivojlangan barcha davlatlarda birinchi navbatda davlat tomonidan tartibga solishni ham o'z ichiga olgan tartibga solish tizimi shakllangan. Moliya bozorini tartibga solishning eng qat'iy tizimlaridan biri AQSHda qo'llaniladi. Mamlakatda moliya bozorida faoliyatning barcha jihatlari barcha detallari bilan qonunchilik asosida tartibga solingan va unga amal qilish bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatilgan.

Moliya bozorini tartibga solish – moliya bozori barcha ishtirokchilari (banklar, moliyaviy vositachilar, emitentlar, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari va boshqalar) faoliyatini tartibga solishdir. Unda moliya institutlari faoliyati turli davlat organlari tomonidan tartibga solinishi mavjudligi holatlarida o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tartibga solish amaliyoti qo'llaniladi.

Moliya bozorini tartibga solishda ichki va tashqi mexanizmlardan keng foydalaniladi.

Ichki tartibga solish ichki me'yoriy hujjatlar (ustav, faoliyatni amalga oshirish qoidalari, faoliyatga doir standartlar, etika qoidalari va boshqalar) asosida moliya bozori ishtirokchilari faoliyati tashkil etilishini nazarda tutadi.

Moliya bozorini tartibga solishning tashqi mexanizmlari sifatida megaregulyator va makroregulyator keng qo'llaniladi. Moliya bozorini megaregulyator orqali tartibga solish xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan talablar, tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Makroregulyator esa bevosita davlat tomonidan tartibga solishni nazarda tutadi va odatda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilanadi. Jamoatchilik tashkilotlari orqali moliya bozorini tartibga solish amaliyoti ham jahon amaliyotida tashqi mexanizm sifatida keng qo'llaniladi.

Moliya bozorlarini tartibga solishning bosh maqsadi bozorning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash uchun ishtirokchilar huquqlarini himoya qilishdir. Bunda maqsaddan kelib chiqqan holda belgilanadigan vazifalar quyidagilardan iborat:

- moliya bozori va uning barcha ishtirokchilari samarali ishlashi uchun sharoit yaratish;

- moliya bozoridagi tartibni saqlab turish;

- moliya bozorining barcha ishtirokchilarini alohida shaxslarning firibgarliklaridan, jinoyatlaridan, umumiy holda noqonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish;

- moliya bozorining barcha segmentlarida moliyaviy instrumentlar bo'yicha baholar shakllanishini erkin talab va taklif asosida tashkil etish;

- pul mablag'larini qayta taqsimlash mexanizmi sifatida moliya bozori va uning yangi segmentlari rivojlanishini rag'batlantirish;

- moliya bozori ishtirokchilari zimmasidagi majburiyatlar (masalan, axborotlarni oshkor qilish bo'yicha)ning bajarilishi bo'yicha nazoratni amalga oshirish qilish va boshqalar.

Moliya bozorining regulativ infratuzilmasi moliya bozorining normal ishlashini ta'minlovchi tizimlardan biridir. Unga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tartibga soluvchi organlar (davlat tartibga soluvchi organlari va o'zini o'zi tartibga soladigan tashkilotlar);
- tartibga soluvchi funksiyalar va jarayonlar (registratsiya, litsensiya, attestatsiya, nazorat);
- huquqiy infratuzilma (moliya bozori ishlashi uchun me'yoriy-huquqiy baza);
- moliya bozoridagi kasbiy etika;
- amaliy odatlar va an'analar.

Moliya bozorini tartibga solish davlat va o'zini o'zi tartibga solishga bo'linadi. O'z navbatida qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish to'g'ridan-to'g'ri (ma'muriy) va bilvosita (iqtisodiy) tartibga solishga ajratiladi.

Davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri (ma'muriy) tartibga solish moliya bozori ishtirokchilariga nisbatan majburiy talablarni belgilash, faoliyat turlarini litsenziyalash (bank faoliyati, qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat, sug'urta faoliyati, investitsiya fondlari faoliyati va boshqalar), qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, oshkoralik va bozor ishtirokchilarining o'zaro teng holatda xabardorligini ta'minlash va hokazolar orqali amalga oshiriladi.

Moliya bozorini bilvosita (iqtisodiy) tartibga solish esa byudjet-soliq siyosati, pul-kredit siyosati, xususiylashtirish (davlat mulkini boshqarish) siyosati kabilar vositasida amalga oshiriladi.

Umumiy holda moliya bozorini tartibga solishda davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi (17.1-jadval).

17.1-jadval

Moliya bozorini tartibga solishda davlatning funksiyalari

№	Funksiyalar	Funksiyalar tavsifi
1	Strategiyani belgilash	Moliya bozorini rivojlantirish konsepsiyasi uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqiladi
2	Huquqiy tartibga solish	Moliya bozori faoliyati bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi
3	Ma'muriy funksiya	Moliya bozori ishtirokchilari faoliyati bevosita ma'muriy tartibga solinadi

4	Rag'batlantirish	Moliya bozorini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga bo'sh pul mablag'larini jalb qilish maqsadida barcha moliyaviy instrumentlardan foydalanish iqtisodiy dastaklar orqali rag'batlantiriladi
5	Nazorat	Moliya bozori ishtirokchilari tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olinadi
6	Arbitraj	Moliya bozori ishtirokchilari o'rtasida nizoli vaziyatlar hal qilinadi

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, davlat moliya bozorini tartibga soluvchi institut ekanligidan tashqari moliya bozorining muhim ishtirokchisi hamdir. Bunda davlat qimmatli qog'ozlar emitenti hamda yirik investor sifatida moliya bozori ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan davlatning o'zi ham moliya bozorida ma'lum bir majburiyatlarga va huquqlarga ega bo'ladi.

Moliya bozorida davlat tomonidan tartibga solishdan tashqari o'zini o'zi tartibga solish amaliyoti ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda tartibga solish o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. O'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar sifatida faoliyat turlari bo'yicha moliya bozori ishtirokchilarining ixtiyoriy professional birlashmalari faoliyat ko'rsatadi. Bunday birlashmalar o'z a'zolari tomonidan professional faoliyatni amalga oshirishda bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlarni, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish bo'yicha standartlarni belgilaydi va ularga amal qilinishini nazorat qilib boradi.

O'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar moliya bozori ishtirokchilarining professional faoliyatni amalga oshirishlari uchun sharoitlarni ta'minlash, faoliyatni amalga oshirish qoidalariga amal qilinishi ustidan nazorat qilish, professional ishtirokchilar mijozlari manfaatlarini himoya qilish kabi masalalarni hal qiladi. Buning uchun esa o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar davlat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga zid bo'lmagan moliya bozorida professional faoliyatni amalga oshirish bo'yicha standartlar va qoidalarni tasdiqlash huquqiga ega hisoblanadi. Ular tomonidan

tasdiqlangan standartlar va qoidalar a'zolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Jahon amaliyotida o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar faoliyatining asosi moliya bozorini tartibga solish bo'yicha davlat vakolatlarining bir qismini ularga o'tkazish hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar o'z a'zolarining faoliyatini nazorat qilishda, mutaxassislarni o'qitishda va malakasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida moliya bozorini tartibga solish bo'yicha davlat organlari xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, moliya bozorini rivojlantirishda professional ishtirokchilar manfaatdorligini kuchaytiradi, professional faoliyat standartlari va qoidalariga rioya qilish ta'minlanadi.

17.2. Moliya bozorini tartibga solish amaliyoti

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solishi moliya bozori amaliyotida ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatlar kesimida moliya bozorini tartibga solishda xilma-xillik kuzatilsada, davlat tomonidan tartibga solish amaliyoti ma'lum darajada umumiylik kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida xalqaro va milliy amaliyotda moliya bozorini tartibga solish amaliyotini ko'rib chiqamiz.

Moliya bozorini tartibga solishda davlat barcha mamlakatlarda hattoki bozor iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan davlatlarda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunda moliya bozorini tartibga solishda davlatning ishtiroki qonun ijodkorligi faoliyati, me'yoriy-huquqiy tartibga solish, bevosita tartibga solish mexanizmlari hisoblangan faoliyatni litsenziyalash, attestatsiyadan o'tkazish kabi amaliyotlardan foydalanish, qonunchilikka rioya qilinishi bo'yicha nazorat kabilar vositasida amalga oshiriladi.

Moliya bozorining tarkibiy qismi sifatida qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha turli tashkilotlar faoliyat yuritishi asosida mamlakatlarni beshta yirik guruhga ajratish mumkin. Har bir guruh haqida quyida to'xtalib o'tamiz¹⁰⁹.

¹⁰⁹ Закиров Э. Зарубежный опыт регулирования рынка ценных бумаг. //Бизнес-эксперт. Т., 2015, №8.

Birinchi, guruh mamlakatlarida fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish organlari bevosita qonunchilik hokimiyatiga yoki davlat yuqori mansabdor shaxslariga bo'ysunuvchi nisbatan mustaqil institutlardir. Bunga bevosita mamlakat prezidentiga bo'ysunuvchi AQSH Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari bo'yicha komissiyasi misol bo'ladi. Avstraliyada fond bozori faoliyatini tartibga solish Avstraliya Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar komissiyasi hamda Avstraliya prudensial nazorat kengashi, Polshada Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Vengriya moliyaviy nazorat boshqarmasi Vengriyada moliya bozori regulyatori hisoblanadi.

Ikkinchi, guruh mamlakatlarda davlat tartibga solish funksiyalarini moliya vazirliklari bajaradi. Bunda moliya vazirligi tarkibida milliy fond bozorini boshqarishga javobgar maxsus bo'linmalar belgilanadi. Angliyada moliyaviy xizmatlar va moliya bozori ishtirokchilari tizimi moliya bozori yagona regulyatori – Buyuk Britaniya moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi Moliyaviy xizmatlar idorasi nazorat zonasiga kiradi. Bunday holat Shvetsiyada ham mavjud bo'lib, Shvetsiya moliya vazirligi huzuridagi mustaqil agentlik sifatida faoliyat ko'rsatuvchi Davlat moliya inspeksiyasi moliya bozorini tartibga solishni amalga oshiradi. Niderlandiyada fond bozorini tartibga solish funksiyalari Moliya bozori boshqarmasiga yuklatilgan.

Uchinchi, guruh mamlakatlarda fond bozorini tartibga solish bilan markaziy banklar shug'ullanadi. Niderlandiyada Moliya bozori boshqarmasi fond bozorida professional faoliyat ustidan bevosita nazoratni amalga oshiradi. Umumiy holda mamlakat moliya bozorining barcha sektorlarini nazorat qilish Niderlandiya Markaziy banki vakolatlariga kiradi. Rossiya Federatsiyasida yaqin vaqtlargacha fond bozorini federal tartibga solish Moliya bozori federal xizmati va boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshirilardi, lekin 2013 yil 1 sentyabrdan bunday tuzilma bartaraf etilib, ularning funksiyalari moliya bozorining yagona megaregulyatoriga o'tkazilgan. Rossiyada megaregulyator rolini bajarish Rossiya bankiga yuklatildi.

To'rtinchi, guruh mamlakatlarda fond bozorini tartibga solish bo'yicha nazorat va boshqa funksiyalar tartibga soluvchi yagona organdan tashqari mahalliy hokimiyat organlari maxsus bo'linmalariga ham yuklatilgan. Bunday amaliyot Germaniyada qo'llaniladi.

**Xorijiy mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozorini
tartibga solish organlari¹¹⁰**

Davlat nomi, vakolatli davlat organi / megaregulyator mavjudligi	Asosiy funksiyalari
AQSH , Qimmatli qog‘ozlar va fond birjalari bo‘yicha komissiya/ megaregulyator mavjud emas	- brokerlik firmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ular faoliyati ustidan nazorat qilish - fond bozorida huquqbuzarliklarni aniqlash va sanksiyalar qo‘llash - qo‘shib olishlar ustidan nazorat qilish -qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi va savdosini tartibga solish -investorlar manfaatlarini himoyalash -birjalar, brokerlar va dilerlar, investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari va boshqalar faoliyatini tartibga solish -axborotlar oshkor qilinishi ta‘minlanishi nazorati
Buyuk Britaniya , Moliyaviy xizmatlar bo‘yicha idora/ megaregulyator amal qiladi	-moliya bozori ishtirokchilarini litsenziyalash -iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlovchi normativlar kiritish va qo‘llash -moliya bozori ishtirokchilari faoliyati nazorati va doimiy monitoringi -litsenziyalangan muassasalar haqida ma‘lumotlar bazasini yuritish -investitsiyalashning qulay mexanizmlari xususida investorlarni xabardor qilish -investorlar uchun kompensatsiya mexanizmlarini yaratish
Germaniya , Moliya bozorini tartibga solish bo‘yicha Federal xizmat / megaregulyator amal qiladi	-moliyaviy xizmatlar bozorida faoliyatni litsenziyalash -litsenziyalarni to‘xtatib turish yoki chaqirib olish -moliyaviy tashkilotlar faoliyati ustidan nazorat

¹⁰ Закиров Э. Зарубежный опыт регулирования рынка ценных бумаг // Бизнес-эксперт. Т., 2015, №8.

	-moliyaviy tashkilotlar to'lovga layoqatliligini tekshirish - moliyaviy tashkilotlar moliyaviy holatini tahlil qilish -korporativ boshqaruv professionalizmini baholash -insayderlik bitimi va manipulyatsiyasiga yo'l qo'ymaslik
Janubiy Koreya , Moliyaviy xizmatlar bo'yicha komissiya / megaregulyator amal qiladi	- qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish -fond bozorida axborotlar ochiqligini ta'minlash - QQB ishtirokchilari mutaxassislari attestatsiyasi -QQB professional ishtirokchilarini litsenziyalash - brokerlik firmalarini ro'yxatdan o'tkazish va ular faoliyati ustidan nazorat qilish - fond bozorida huquqbuzarliklarni aniqlash va sanksiyalar qo'llash
Rossiya Federatsiyasi , Rossiya Banki / megaregulyator amal qiladi	-qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi registratsiyasi -QQB emitentlari, professional ishtirokchilari nazorati -qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish -fond bozorida axborotlar oshkor qilinishini ta'minlash -QQB ishtirokchilari mutaxassislari attestatsiyasi - QQB professional ishtirokchilarini litsenziyalash -O'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarni litsenziyalash
Qozog'iston , Moliya bozori va moliyaviy tashkilotlarni nazorat qilish qo'mitasi / megaregulyator amal qiladi	-davlat tomonidan tartibga solish masalalari bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish -nodavlat qimmatli qog'ozlar chiqarish, muomalasi va qoplash tartibi va shartlarini belgilash va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish -faoliyat turlari bo'yicha lisenziyalar berish, litsenziyani to'xtatib turish, qayta yangilash va mahrum qilish -markaziy depozitariy, yagona registrator va litsenziat rahbar xodimlariga nomzodlar belgilash

Beshinchi, guruh mamlakatlarda fond bozorini tartibga solish bilan bir vaqtning o'zida bozorning alohida segmentlariga ixtisoslashgan bir necha organlar shug'ullanadi. Bunday amaliyot asosan fond bozorida tijorat banklari faol ishlaydigan mamlakatlarda, masalan Fransiyada rivojlangan.

Fond bozorini tartibga solishning shakllari va metodlari xilma-xilligidan kelib chiqqan holda uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlar misolida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarishga nisbatan umumiy yondashuvlarning ko'pligiga qaramasdan har bir mamlakatda fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish institutlarining shakllanishi va rivojlanishi o'z xususiyatlariga ega.

O'zbekistonda moliya bozorini tartibga solish faoliyat sohalaridan kelib chiqqan holda turli tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi. Xususan, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi, shuningdek Moliya vazirligi tizimidagi Moliya bozori va davlat aktivlari bo'yicha daromadlar tushumini nazorat qilish boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Sug'urta kompaniyalari faoliyati esa Moliya vazirligi tizimidagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan, tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar esa Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi.

Umumiy holda yagona muvofiqlashtiruvchi organ mavjud emasligi sababli mamlakatimizda ham ayni paytda markazlashgan tartibda megaregulyator orqali tartibga solish amaliyotini joriy etish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Chunki oxirgi 20-25 yil davomida xorijiy mamlakatlarda yagona muvofiqlashtiruvchi organ orqali moliya bozorini tartibga solish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday amaliyot qimmatli qog'ozlar, moliya, sug'urta va mikromoliyalash xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish, monopoliyalarni cheklash, ehtimoliy spekulyatsiyalarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliya bozorini tartibga solishga obyektiv zaruratni qanday izohlaysiz?
2. Moliya bozorini tartibga solish usullari.
3. Moliya bozorida o'zini o'zi tartibga solish.
4. Moliya bozorini davlat tomonidan tartibga solish.
5. Moliya bozorini tartibga solishda davlatning funksiyalari.
6. Mamlakatimizda moliya bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organlari.
7. Moliya bozorini tartibga solishda megaregulyator qo'llanilishi.
8. Moliya bozorini tartibga solish bo'yicha AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya tajribalari.

2. Moliya bozorini davlat tomonidan tartibga solish va o'zini o'zi tartibga solish amaliyotidagi o'zaro farqli jihatlar hamda umumiy xususiyatlar bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Davlat tomonidan tartibga solish	Umumiy xususiyatlar	O'zini o'zi tartibga solish
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

3. Moliya bozorini tartibga solishda davlatning funksiyalari bo'yicha mos tavsif javoblarni belgilang.

№	Funksiyalar	Funksiyalar tavsifi
1	Strategiyani belgilash	Moliya bozori ishtirokchilari tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olinadi
2	Huquqiy tartibga solish	Moliya bozorini rivojlantirish konsepsiyasi uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqiladi
3	Ma'muriy funksiya	Moliya bozori ishtirokchilari o'rtasida nizoli vaziyatlar hal qilinadi

4	Rag‘batlantirish	Moliya bozorini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida barcha moliyaviy instrumentlardan foydalanish iqtisodiy dastaklar orqali rag‘batlantiriladi
5	Nazorat	Moliya bozori ishtirokchilari faoliyati bevosita ma‘muriy tartibga solinadi
6	Arbitraj	Moliya bozori faoliyati bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi

TESTLAR

1. Moliya bozorini tartibga solishda davlatning rivojlantirish konsepsiyasi, uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqilishi bilan bog‘liq funksiyasi ...

- a) strategiyani belgilash funksiyasi;
- b) ma‘muriy funksiya;
- d) rag‘batlantirish funksiyasi;
- e) nazorat funksiyasi.

2. Moliya bozorini tartibga solishda davlatning arbitraj funksiyasida – ...

- a) moliya bozori ishtirokchilari o‘rtasida nizoli vaziyatlar hal qilinadi;
- b) moliya bozori faoliyati bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi;
- d) moliya bozori ishtirokchilari faoliyati bevosita ma‘muriy tartibga solinadi;
- e) moliya bozori ishtirokchilari tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olinadi.

3. Moliya bozorini tartibga solishda tashqi mexanizmlar sifatida nimalar qo‘llaniladi?

- a) megaregulyator va makroregulyator;
- b) ichki me‘yoriy hujjatlar;
- d) ustav, faoliyatni amalga oshirish qoidalari;
- e) faoliyatga doir standartlar, etika qoidalari.

4. Moliya bozorini xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan talablar, tamoyillar asosida tartibga solish amaliyoti - ...

- a) megaregulyator orqali tartibga solish;
- b) makroregulyator orqali tartibga solish;
- d) faoliyatni amalga oshirish qoidalari belgilash;
- e) faoliyatga doir standartlar, etika qoidalari orqali tartibga solish.

5. Moliya bozorini tartibga solishda makroregulyator orqali tartibga solish amaliyotida - ...

- a) bevosita davlat tomonidan tartibga solishni nazarda tutadi va odatda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilanadigan;
- b) o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tartibga solish amaliyoti qo'llaniladi;
- d) moliya bozori ishtirokchilari faoliyati tashkil etilishini nazarda tutadi;
- e) ichki tartibga solish ichki me'yoriy hujjatlar asosida.

6. Moliya bozorining regulyativ infratuzilmasi – bu ...

- a) moliya bozorining normal ishlashini ta'minlovchi tizimlardan biridir;
- b) pul mablag'larini qayta taqsimlash mexanizmi;
- d) moliya bozoridagi tartibni saqlab turish;
- e) moliya bozori ishtirokchilari zimmasidagi majburiyatlar.

7. AQSHda qimmatli qog'ozlar bozorini qaysi organ tartibga soladi?

- a) qimmatli qog'ozlar va fond birjalari bo'yicha komissiya;
- b) moliyaviy xizmatlar bo'yicha idora;
- d) moliya bozorini tartibga solish bo'yicha Federal xizmat;
- e) moliyaviy xizmatlar bo'yicha komissiya.

8. Buyuk Britaniyada qimmatli qog'ozlar bozorini qaysi organ tartibga soladi?

- a) qimmatli qog'ozlar va fond birjalari bo'yicha komissiya;
- b) moliyaviy xizmatlar bo'yicha idora;

- d) moliya bozorini tartibga solish bo'yicha Federal xizmat;
- e) moliyaviy xizmatlar bo'yicha komissiya.

9. Germaniyada qimmatli qog'ozlar bozorini qaysi organ tartibga soladi?

- a) qimmatli qog'ozlar va fond birjalari bo'yicha komissiya;
- b) moliyaviy xizmatlar bo'yicha idora;
- d) moliya bozorini tartibga solish bo'yicha Federal xizmat;
- e) moliyaviy xizmatlar bo'yicha komissiya.

10. Quyidagi davlatlarning qaysi birida moliya bozorini tartibga solishda megaregulyator mavjud emas?

- a) AQSH;
- b) Germaniya;
- d) Buyuk Britaniya;
- e) Janubiy Koreya.

XVIII BOB. MOLİYAVIY TEXNOLOGIYALAR MOHIYATI: YUZAGA KELISH SHART- SHAROITLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

18.1. Moliyaviy texnologiyalar pul oqimlarini boshqarishga qaratilgan raqamli texnologiyalar

Moliyaviy texnologiya - bu moliyaviy muammolarni hal qilish yo‘llarini o‘ylab topish jarayoni. Umuman olganda, o‘z faoliyatidagi boshqa barcha muammolar korxonalarning moliyaviy muammolarida o‘z ifodasini topadi. Moliyaviy texnologiyalar moliyaviy xizmatlar va texnologiya sektorlari chorrahasida joylashgan dinamik segmentdir. Unda texnologik startaplar va bozorning yangi ishtirokchilari hozirda an’anaviy moliyaviy xizmatlar sektori tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlarga innovatsion yondashuvlarni qo‘llashadi. Moliyaviy texnologiyalar segmenti tez rivojlanib, an’anaviy qiymat zanjiridagi narsalarning odatiy tartibini buzadi.

Segmentdagi kompaniyalar so‘nggi texnologiyalar va faoliyatning yangi yo‘nalishlaridan foydalangan holda, moliyaviy xizmatlar sohasidagi o‘yinchilar o‘rtasida o‘rnatilgan chegaralarni yo‘qotib, raqobat rasmini qayta shakllantirmoqda. Moliyaviy texnologiyalar ekotizimiga startaplar, texnologiya kompaniyalari, moliyaviy institutlar va infratuzilma ishtirokchilari kabi elementlar kiradi.

Ushbu innovatsion sektorning ahamiyati juda yuqori. Bu sohaga investitsiya oqimining ortib borayotganidan dalolat beradi: agar 2015-yilda “Moliyaviy texnologiyalar” texnologiyalarini rivojlantirishga 19 milliard dollar sarflangan bo‘lsa, 2016-yilda investitsiyalar hajmi to‘rt barobar oshib, 88 milliard dollarga yetdi. Moliyaviy texnologiyalar texnologiyasini moliya sohasida qo‘llashning asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish zarur:

1. P2P kreditlash bankning chakana kreditiga muqobil sifatida. Bu yo‘nalishning mazmun-mohiyati aholiga boshqa jismoniy shaxslardan qarz olish va o‘zlari kredit berish imkonini beruvchi maxsus platformadan (smartfonga o‘rnatilgan ilova) foydalanishdan iborat. 2007 yildan beri AQShning P2P kreditlash bozori hajmi 15-20% ga o‘tdi. Ushbu o‘tishning sababi an‘anaviy bank bilan solishtirganda foiz stavkalarining kichikroq farqidir. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu platformalar (maxsus ilovalar) qarz oluvchilar tomonidan defolt xavfini o‘z zimmasiga olmaydi.

2. Raqamli banking – mobil va onlayn platformalar yordamida moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish imkoniyati, bu bankning mijoz bilan ishlash sifatini oshiradi, vaqt va xarajatlarni tejaydi. Ta’kidlash joizki, ushbu tizimlar nafaqat mijoz bilan ishlashni soddalashtiradi, balki shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini va shaxsiylashtirishni yaxshilaydi, shuningdek, tezlik va sifatni oshiradi.

3. Blokcheyn – tranzaksiyalar bo‘yicha ma’lumotlarni saqlash imkonini beruvchi ixtisoslashtirilgan texnologiya bo‘lib, faqat tizim ishtirokchilarining o‘zlari resurslarida ishlaydi. Aslida, tranzaksiyalar jurnali foydalanuvchilar tomonidan bank yoki to‘lov tizimi shaklida markaziy kontragent ishtirokisiz saqlanadi. Buning yordamida tranzaksiyalar narxi 10-20 baravar, ularni amalga oshirish xarajatlari esa 40-60 foizga kamayadi. Bu texnologiya to‘lov tizimlarida faol foydalaniladi (masalan, bitcoin), lekin har qanday ma’lumot almashish uchun foydalanish mumkin.

4. Bitcoin noyob to‘lov tizimi va valyutadir. Bitkoinning asosiy sifati uning markazlashtirilmaganligi bo‘lib, hisob-kitoblar va to‘lovlarni pul-kredit organlari nazoratisiz amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu hisob birligi foydalanuvchilari blokcheyn texnologiyasiga asoslangan maxsus kompyuter dasturlari yordamida o‘z valyutalarini yaratadilar. Kriptovalyuta bugungi kunda onlayn to‘lovlar uchun faol foydalanilmoqda va investitsiya vositasidir. Uning asosida bir xil tamoyillar - altkoinlar asosida qurilgan ko‘plab yangi valyutalar yaratiladi.

5. Elektron to'lov tizimlari kreditor sifatida. 2008 yil inqirozidan keyin banklar kreditlash operatsiyalari hajmini kamaytirgandan so'ng ushbu yo'nalish faol rivojlana boshladi. PayPal va Square kabi to'lov tizimlari ushbu hisob-kitob tizimining platformasidan foydalangan tovarlar sotuvchisidan (qarz oluvchidan) foiz yoki komissiya oladi.

18.2. Moliyaviy texnologiyalar yuzaga kelishiga obyektiv zarurati

Hozirgi vaqtda moliyaviy xizmatlar bozorining eng tez o'sib borayotgan segmenti moliyaviy texnologiyalar deb ataladigan bo'lib, uni birinchi taxminiy deb ta'riflash mumkin. Ammo, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'pincha tashkiliy va mahsulot innovatsiyalari bilan birga keladi) ushbu bozor ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar modellari. Ushbu texnologiyalar moliya bozorining an'anaviy ishtirokchilari (banklar, investitsiyalar, sug'urta va boshqa kompaniyalar) tomonidan ham, ulardan foydalanish uchun maxsus yaratilgan moliyaviy va texnologik tuzilmalar tomonidan ham faol joriy etilmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi tashkilotlar ham ushbu bozorga faol kirishmoqda. Koreyaning elektronika ishlab chiqaruvchisi Samsung va Amerikaning Google internet-kompaniyasi tomonidan yaratilgan Samsung Pay va Google Pay to'lov tizimlari, Rossiyada esa "Vkontakte", "webmoney" va "Odnoklassniki" ijtimoiy tarmoqlari tomonidan pul o'tkazmalari xizmatining ishga tushirilishi bu tendentsiyaning yorqin misolidir.

Moliyaviy va texnologik sohaning jadal rivojlanishiga qaramay, bugungi kunda uning faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy nashrlar juda kam.

Fintech moliyaviy xizmatlar kompaniyalari uchun yuqori strategik ahamiyatga ega. Masalan, banklarda IT xarajatlari barcha xarajatlarning 15-20% ni tashkil qiladi va shuning uchun mehnat xarajatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. An'anaga ko'ra, banklar 4,7–9,4% bilan barcha tarmoqlar bo'yicha eng yuqori IT investitsiyalariga ega, sug'urtachilar

esa 3,3% va aviakompaniyalar 2,6% AT ga investitsiya qiladilar. Moliyaviy xizmatlarda ATning strategik ahamiyati yuqori bo'lganligi sababli, ATdan foydalanish moliyaviy xizmatlar sohasida uzoq tarixga ega bo'lib, banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy vositachilar dastlabki adapterlardir. Xususan, 1959 yilda Arlington/Ogayoda avtomatlashtirilgan bankomatning (ATM) joriy etilishi (Yevropadagi birinchi bankomat 1967 yilda Londondagi Barclays Bank tomonidan ishga tushirilgan), 1971 yilda NASDAQning jismoniy savdosidan elektron savdosiga o'tish, uy bankining joriy etilishi, 1981 yilda Citibank va Chase Manhattan orqali, 1994 yilda Stenford kredit ittifoqi tomonidan birinchi internet-banking obyektlarining ishga tushirilishi, shuningdek, 1999 yilda Norvegiya Fokus banki tomonidan mobil bankingning birinchi taqdim etilishi o'tgan asrda fintechning dastlabki rivojlanishining asosiy bosqichlarini belgilaydi.

Moliyaviy texnologiyalarni tashkil etish tamoyillari:

1). Tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga tashqi omillar ta'sirining tengligi;

2). Moliyaviy vositalarning ma'lum bir muvozanati (narxlar, foiz stavkalari, stavkalar va komissiyalar va boshqalar).

3). Har bir xo'jalik yurituvchi subyektning mustaqil harakatlarini tartibga solish uchun qonunchilik va me'yoriy hujjatlardan foydalanish.

4). Raqobat iqtisodiy shart-sharoitlar va rivojlanishning sharti sifatida. Natijada, eng samarali ishlab chiqarish quvvatlari ustunlikka ega bo'ladi.

5). Tadbirkorlik faoliyatini o'z-o'zini moliyalashtirish.

Moliyaviy texnologiyalar ijtimoiy ishlab chiqarishga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir qiladi:

- takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;
- iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish;
- iqtisodiyotni moliyaviy rag'batlantirish.

–

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliyaviy texnologiyalar mohiyati?

2. Moliyaviy texnologiyalar yuzaga kelishiga obyektiv zarurati.
3. Raqamli banking – mobil va onlayn platformalar.
4. Blokcheyn – tranzaksiyalar bo'yicha ma'lumotlarni saqlash.
5. Bitcoin noyob to'lov tizimi va valyuta.
6. Elektron to'lov tizimlari.
7. P2P kreditlash.

2. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo'nalishlaridagi o'zaro farqli jihatlar hamda umumiy xususiyatlar bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Moliyaviy texnologiyalar yuzaga kelishiga obyektiv zarurati	Raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo'nalishlari	Moliyaviy texnologiyalar
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

3. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar tartibga solishda davlatning funksiyalari bo'yicha mos tavsif javoblarni belgilang.

№	Funksiyalar	Funksiyalar tavsifi
1	Strategiyani belgilash	Moliya bozori ishtirokchilari tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olinadi
2	Huquqiy tartibga solish	Moliya bozorini rivojlantirish konsepsiyasi uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqiladi
3	Ma'muriy funksiya	Moliya bozori ishtirokchilari o'rtasida nizoli vaziyatlar hal qilinadi
4	Rag'batlantirish	Moliya bozorini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga bo'sh pul mablag'larini jalb qilish maqsadida barcha moliyaviy instrumentlardan foydalanish iqtisodiy dastaklar orqali rag'batlantiriladi
5	Nazorat	Moliya bozori ishtirokchilari faoliyati bevosita ma'muriy tartibga solinadi
6	Arbitraj	Moliya bozori faoliyati bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi

TESTLAR

1. ... filiali bo'lmagan, mijozlarga to'liq mobil va raqamli infratuzilmada kreditlar bilan xizmat ko'rsatuvchi banklar.

- a) neobanklar
- b) raqamli banklar
- c) universal banklar
- d) super banklar

2. - bu ma'lumotlarni yozish va saqlash bloklaridan tashkil topgan tarqatilgan ma'lumotlar bazasi.

- a) blockchain
- b) virtual ma'lumot saqlash tizimi
- c) billing
- d) ma'lumotlar bazasi

3. - aqlli mashinalarni, ayniqsa, aqlli kompyuter dasturlarini yaratish fan va texnologiyasi.

- a) sun'iy intellekt
- b) blockchain
- c) raqamlashtirish
- d) kraudfanding

4. - bu tranzaktsiyalarni tekshirish uchun banklardan foydalanmaydigan raqamli to'lov tizimi.

- a) kriptovalyuta
- b) kriptobirja
- c) valyuta
- d) raqamli hamyon

5. - bu bir raqamli valyutani boshqasiga yoki turli jahon valyutalariga sotish va almashish uchun platforma.

- a) kriptovalyuta birjasi
- b) birja
- c) kriptovalyuta almashinuvi
- d) kriptovalyuta savdosini amalga oshirish shaxobchasi

6. Sun'iy intellekt, BigData, RPA, blockchain -

- a) raqamli texnologiyalar
- b) moliyaviy texnologiyalar
- c) startaplar
- d) billing

7. Har xil texnologik startaplar va ilg'or moliyaviy xizmatlarni sotadigan yirik kompaniyalar

- a) fintech kompaniyalar
- b) korporatsiyalar
- c) moliyaviy kompaniyalar
- d) texnologik kompaniyalar

8. Internet tarmog'i yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradigan bank bu -

- a) virtual bank
- b) bank klient
- c) an'anaviy bank
- d) neomobil banking

9. Hayotning turli sohalariga, iqtisodiyot, tibbiyot va boshqa jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy qilish bu -

- a) raqamlashtirish
- b) raqamli iqtisodiyot
- c) raqamli texnologiyalardan foydalanish
- d) virtual reallik

10. Berilayotgan ma'lumotlarning yagona standarti -

- a) EDI (Electronic Data InterExchange)
- b) B2B
- c) B2C
- d) C2C

XIX BOB. RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ROLI

19.1. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar

Kundalik turmush tarzimizda elektr energiyasi, tabiiy gaz va boshqalar uchun kommunal to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish, yo'l harakati qoidalarini buzgan bo'lsak, qoidabuzarlik bo'yicha jarimani belgilangan vaqtda to'lash, olingan kreditlar bo'yicha muddatli to'lovlarni kechiktirmasdan to'lash, soliq majburiyatlarimizni o'z vaqtida bajarish kabilarga vaqt jihatidan har doim ham imkoniyatimiz bo'lavermaydi. Bunday sharoitda navbat kutishlar, har xil byurokratik to'siqlar esa qo'shimcha ovoragarchiliklarga sabab bo'ladi. Natijada esa eng qimmat bo'lgan vaqtimizni va asabimizni yo'qotishga ham to'g'ri kelishi mumkin. Boshqa tomondan kimdandir pul mablag'i yoki biror bir mahsulot olishimiz keraku, masofa uzoq. Uni biror bir shaxsdan yoki transport vositasidan yuborish hamda qabul qilib olish yana qo'shimcha sarf-xarajat, ortiqcha vaqt sarfi kabi ovoragarchiliklarga sabab bo'ladi. Bunday holatlarda noqulay ahvolga tushmaslik uchun siz-bizga raqamli iqtisodiyot yordamga keladi. Ya'ni ishxonadan yoki uyimizdan chiqmagan holda internet vositasida raqamli iqtisodiyot xizmatlaridan foydalangan holda barchasiga arzimagan qisqa vaqt ichida ulgurishimiz mumkin. Buning uchun respublikamizda raqamli iqtisodiyot ko'lamini va yo'nalishlarini yanada kengaytirishimiz talab etiladi.

Moliyaviy texnologiya yoki fintech (inglizcha Financial Technology) - moliyaviy xizmatlar bozorida banklar va vositachilar kabi an'anaviy moliya institutlari bilan raqobat qilish uchun texnologiya va innovatsiyalardan foydalanadigan kompaniyalardan iborat bo'lgan soha¹¹¹. Hozirgi vaqtda ko'plab texnologik startaplar ham, taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlarni yaxshilash va optimallashtirishga harakat qilayotgan yirik tashkil etilgan tashkilotlar ham moliyaviy texnologiyalar tarkibiga kiradi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan har bir ixtiro turmush tarzini yaxshilashga qaratilishi sir emas. Iqtisodiyotdagi sanoat inqilobi aholi

¹¹¹ Fintech: moliyaviy texnologiyalar, bilish uchun yangi dunyo Xose Albert || Kripto-valyutalar(<https://www.criptolog.com/uz/moliya-texnologiyalari-fintech/>)

farovonligini ta'minlash va bandlik masalalarini hal qilishda o'ta muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, XXI asrda yuz bergan iqtisodiyotdagi raqamli inqilob esa iqtisodiy taraqqiyotni va jamiyatni yangi yo'nalish sari boshladi. Bunda davlat – biznes – aholi o'rtasidagi munosabatlarni Internet tarmog'i orqali inson omili ta'sirini pasaytirgan holda masofaviy tashkil etish ustuvorlik qila boshladi. Natijada iqtisodiyotning raqamlashuvi natijasida raqamli iqtisodiyot amal qila boshladi.

Bugungi kunga kelib respublikamizda ham tovarlarga onlayn buyurtmalar berish va xaridlarni amalga oshirish, soliqlar, kreditlar, kommunal to'lovlar, turli xil jarimalar bo'yicha to'lovlarni kompyuter va mobil telefonlar vositasida internet tizimi orqali amalga oshirish - kundalik turmush tarzimizga kirib ulgurdi. Shuningdek bank plastik kartalaridan dastlab milliy doirada o'tkazmalar amalga oshirish imkoniyatlaridan aholi keng foydalangan bo'lsa, bugungi kunga kelib xorijiy bank kartalaridan o'tkazmalar amalga oshirish imkoniyatlari ham taqdim etila boshlandi. Shuningdek, oxirgi ikki yil davomida bankka bormasdan turib kreditlar olish imkoniyatlari ham taqdim etildi va bundan biznes hamda aholi samarali foydalanib kelmoqda. Yuqorida keltirilgan jihatlar raqamli iqtisodiyotda o'ziga xos amaliyotlar hisoblanib, unga qo'shimcha ravishda shuni ham qayd etish lozimki, davlat xizmatlari agentligi orqali davlat xizmatlarning qisqa vaqt ichida ko'rsatib kelinayotganligi ham bunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur amaliyotlar natijasida aholiga va biznes vakillariga ortiqcha ovoragarchiliklarsiz, qo'shimcha qulayliklar yaratilgan. Keltirilgan mazkur jihatlar raqamli iqtisodiyotning kichik bir qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Umuman raqamli iqtisodiyot turmush tarzini osonlashtirishga qaratilgan iqtisodiyotdir. Bunda nafaqat aholi va biznes o'rtasidagi munosabatlar, balki davlat bilan munosabatlarni raqamli iqtisodiyot asosida tashkil etish butun milliy iqtisodiyotning raqamlashuviga xizmat qiladi.

19.2. Raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo'nalishlar

Umumiy holda raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo'nalishlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Biznes bilan iste'molchi, qisqacha (B2C);
- Biznes bilan biznes, qisqacha (B2B);
- Biznes bilan davlat, qisqacha (B2G);
- Iste'molchi bilan iste'molchi, qisqacha (C2C);
- Davlat bilan biznes, qisqacha (G2B);
- Iste'molchi bilan biznes, qisqacha (C2B);
- Davlat bilan iste'molchi (G2C)

Raqamli iqtisodiyot avvalo biznes bilan iste'molchi (B2C) o'rtasida yuzaga keladi va rivojlanadi. Bunda ko'proq iste'molchini jalb qilish maqsadida biznes qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etadi. Jumladan internet orqali buyurtma olish va yetkazib berish xizmati yo'lga qo'yiladi. Bu borada supermarketlar, internet do'konlar faoliyati ham milliy doirada, ham xalqaro doirada faoliyat yuritayotganligini alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Biznes subyekti va iste'molchi (xaridor) bir-biri bilan uchrashmagan holda oldi-sotdi munosabati ma'lum bir elektron savdo maydoni orqali amalga oshiriladi. Bunga Amazon, Alibaba kabi gigant kompaniyalar garchi o'zlari tomonidan biror bir tovar ishlab chiqarilmasada, aynan raqamli iqtisodiyot tufayli savdo maydoni vazifasini o'tab berayotganligini alohida qayd etib o'tish zarur. O'z-o'zidan mazkur holatda pul muomalasi ham elektron tarzda amalga oshirilganligi uchun belgilangan tartibdan chetga chiqish kuzatilmaydi. Bundan tashqari aholi tomonidan mikroqarzlar, mikrokreditlar olish amaliyotlari ham bunday tasnifdagi raqamli iqtisodiyotga misoldir.

Biznes bilan biznes (B2B)da raqamli iqtisodiyot o'zaro tovar oldi-sotdi munosabatlarini internet orqali elektron tashkil etishga asoslanadi. Tovarlar va hujjatlar biznes subyektlari o'rtasida harakatlanishi biznes uchun ham qulaylik vazifasini o'tab beradi. Bu borada 2020 yil 1 yanvardan mamlakatimizda elektron hisobvara-fakturaga o'tildi. Mazkur amaliyot ham bevosita biznes subyektlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning yashirin iqtisodiyotdan holi amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida soliq bazasining aniq hisoblanishiga ham zamin yaratadi. Biznes subyektlari tomonidan onlayn bank kreditlarini rasmiylashtirish, onlayn sug'urtalash xizmatlaridan

foydalanish kabilar ham biznes bilan biznes o'rtasidagi raqamli iqtisodiyot amaliyotiga misol bo'la oladi.

Raqamli iqtisodiyotda biznes bilan davlat (B2G) munosabatlari elektron davlat xaridlarida namoyon bo'ladi. Bizga ma'lumki, davlat tashkilotlari, jumladan budjet tashkilotlari o'z iste'moli uchun biznes subyektlaridan tovar va xizmatlarni xarid qilishlariga to'g'ri keladi. Bunday xaridlarni elektron tarzda tashkil etish orqali auksion, tenderlarni subyektiv omillarsiz amalga oshirish raqamli iqtisodiyotdagi o'ziga xos ustuvorliklardan biridir. Mazkur amaliyot o'z navbatida davlat budjeti xarajatlarining manzilliligi va shaffofligini oshiradi.

Iste'molchi bilan iste'molchi (C2C) o'rtasidagi munosabatlarning elektron tartibda amalga oshirilishi ham raqamli iqtisodiyotda alohida o'ringa ega. Bunda ma'lum bir shaxs ma'lum bir elektron tizim yoki platforma orqali o'zi egalik qilayotgan tovarni boshqa shaxslarga taklif qiladi va o'zaro kelishilgan holda savdo amalga oshiriladi. Bunda ma'lum bir sayt yoki platforma vositachi bshlib xizmat qiladi. Respublikamizda mazkur amaliyotga OLX savdo platformasini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Shuningdek, mahalliy va xalqaro darajada pul mablag'larini jo'natish va qabul qilish bo'yicha o'tkazmalarni amalga oshirish amaliyotlari ham iste'molchi bilan iste'molchi o'rtasidagi raqamli iqtisodiyot munosabatlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu amaliyot ham banklar, ham Western Union, Zolotaya korona kabi pul o'tkazish tizimlari orqali amalga oshirilishi natijasida pul mablag'larini yuborish va qabul qilish ma'lum bir daqiqalarda, past darajadagi xarajat hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat bilan biznes (G2B) o'rtasidagi munosabatlarni elektron hamda masofaviy tarzda o'rnatish raqamli iqtisodiyotda nihoyada muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda elektron hukumat joriy etilishi natijasida davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan biznes subyektlari o'rtasidagi munosabatlar elektron tarzda amalga oshirilishi yo'lga qo'yiladi. Bunda biznes subyektlarining davlat ro'yxatidan o'tishi, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishi, faoliyatini litsensiyalash, yer ajratish, qurilishga ruxsat olishi, elektr energiyasi va gaz ta'minotiga ulanishi kabilar elektron murojaatlar asosida masofaviy hal qilinadi. Mazkur jihat o'z-o'zidan sansalorlik va korrupsiya holatlarining oldi olinishiga xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki aholi ham davlat xizmatlarining bevosita iste'molchisi hisoblanadi. Bunda davlat tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni internet tarmog'i orqali elektronlashtirish raqamli iqtisodiyotdagi alohida yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Bu amaliyotda davlat bilan iste'molchi, qisqacha G2C deb ataladi. Bugungi kunda davlat xizmatlari agentligi orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarni internet orqali joriy etish ham vaqt, ham mablag' jihatidan aholiga qulaylik taqdim etadi. Bunda tug'ilganlik haqidagi guvohnoma olishdan tortib, pensiya tayinlanishi bo'yicha hujjatlar ham elektron murojaatlar, elektron to'lovlar asosida amal qiladi.

Iste'molchi bilan munosabatlarni internet tizimi orqali elektron tashkil etish raqamli iqtisodiyotning eng asosiy talablaridan va quylayliklaridan biridir. Shu nuqtai nazardan iste'molchi bilan biznes (C2B) tartibida ham raqamli iqtisodiyot amal qiladi. Bunda ma'lum bir internet saytidagi savdo platformasida ma'lum bir tovarni sotib olish yuzasidan iste'molchi o'z talablarini ilgari suradi. Bunda tovarning narxi, ishlab chiqarilgan sanasi va boshqalarni iste'molchi belgilab beradi. Biznes subyekti esa iste'molchi talabi asosida tovarni yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi. Natijada biznes subyekti tomonidan iste'molchi talabidagi tovarni yetkazib berish va iste'molchi tomonidan esa elektron to'lov amalga oshirish yuz beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron to'lov tizimlari ham muhim hisoblanadi. Bunda yuqorida ko'rib chiqilgan har bir yo'nalish bo'yicha yetkazilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat bo'yicha to'lov aynan elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi. Respublikamizda ham Payme va Click kabi to'lov tizimlari tovar oldi-sotdi munosabatlarida, kredit, jarimalar bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarda keng qo'llanilmoqda. Bu o'z navbatida aholining naqd pulga bo'lgan talabini pasaytirishga va pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan jihat asosida ta'kidlash mumkinki, raqamli iqtisodiyot jamiyatda quyidagilarga imkon beradi:

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida turli xil ovoragarchiliklarning oldini olinishi natijasida vaqt sarfi va ortiqcha xarajatlar sarfi kamayishiga erishiladi.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida odamlar emas, hujjat va tovarlar harakatlanadi. Natijada korrupsion holatlarning oldi olinishiga erishiladi.

Uchinchidan, elektron hukumat, elektron do‘konlar, raqamli moliya institutlari, raqamli ta’lim kabilar faoliyati rivojlanadi. Natijada tovar va xizmatlar harakati internet tarmog‘i vositasida rivojlanadi.

To‘rtinchidan, elektron to‘lov tizimlari qo‘llanilishi tufayli naqd pul muomalasi hajmi keskin qisqaradi. Bu o‘z navbatida yashirin iqtisodiyot faoliyat doirasi qisqarishiga, inflyatsiya darajasi pasayishiga, davlat budjetining solikli daromadlari oshishiga imkon beradi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi o‘z navbatida istiqbolda naqd puldan voz kechish masalasi ko‘rib chiqilishiga ham olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan quyidagilarga e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi nuqtai nazaridan elektr ta’minotidagi uzilishlarga butunlay barham berish talab etiladi. Mazkur natijaga erishish umuman iqtisodiyotning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, internet tezligi va qamrovini oshirish orqali undan foydalanuvchilar sonini oshirib borish lozim. Bunda tarmoqning afzallik tomonlaridan maksimal foydalanish talab etiladi.

Uchinchidan, aholining internet va raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlaridan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish lozim bo‘ladi. Bunda avvalo qulayliklar nuqtai nazaridan raqamli iqtisodiyot targ‘ibotlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, raqamli iqtisodiyot ko‘lamini oshirish nuqtai nazaridan aviachiptalar, temir yo‘l chiptalari, konsert-tomoshalar chiptalarini faqat elektron tartibda sotish, notariat va davlat xizmatlari agentligi tomonidan ko‘rasatilayotgan xizmatlarni ham internet orqali QR kodlar vositasida tashkil etish lozim.

AMALIYOT DARSU UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo‘yicha qisqacha izoh yozing.

8. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar rolini qanday izohlaysiz?

9. Raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo‘nalishlari.
10. Biznes bilan biznes, qisqacha B2B.
11. Biznes bilan davlat, qisqacha B2G.
12. Iste’molchi bilan iste’molchi, qisqacha C2C.
13. Davlat bilan biznes, qisqacha G2B.
14. Iste’molchi bilan biznes, qisqacha C2B.

2. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo‘nalishlaridagi o‘zaro farqli jihatlar hamda umumiy xususiyatlar bo‘yicha quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar	Raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo‘nalishlari	Moliyaviy texnologiyalar
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

3. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar tartibga solishda davlatning funksiyalari bo‘yicha mos tavsif javoblarni belgilang.

№	Funksiyalar	Funksiyalar tavsifi
1	Strategiyani belgilash	Moliya bozori ishtirokchilari tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olinadi
2	Huquqiy tartibga solish	Moliya bozorini rivojlantirish konsepsiyasi uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqiladi
3	Ma’muriy funksiya	Moliya bozori ishtirokchilari o‘rtasida nizoli vaziyatlar hal qilinadi
4	Rag‘batlantirish	Moliya bozorini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida barcha moliyaviy instrumentlardan foydalanish iqtisodiy dastaklar orqali rag‘batlantiriladi
5	Nazorat	Moliya bozori ishtirokchilari faoliyati bevosita ma’muriy tartibga solinadi
6	Arbitraj	Moliya bozori faoliyati bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi

TESTLAR

1. Moliya-bank tizimida raqamli iqtisodiyot faoliyatining yangi turlari ko'rsatilgan qatorni toping

- a) internet-banking, masofaviy xizmat ko'rsatish, internet-savdo, virtual-ofis
- b) virtual ofislar, ko'chma kassalar, internet-treyding
- c) internet-kim oshdi savdolari, depozit qutilarini joriy qilish
- d) internet-treyding, internet-marketing, naqd to'lovlar

2. Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni qaysi tashkilot amalga oshiradi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
- c) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
- d) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi

3. Benchmark – bu ?

- a) bozorni baholash uchun olingan mo'ljaldir
- b) O'z narxida sotiladigan instrumentdir
- c) ikki barobar foyda keltirish uchun olingan mo'ljaldir
- d) katta diskont qo'llash uchun mo'ljaldir

4. Birinchi bo'lib "Markus" iste'mol kreditlari platformasini ishga tushirgan bank

- a) JPMorgan Chase
- b) "Gold" Sachs Investment Bank
- c) Bank of America
- d) Wells Fargo

5. ...internet tarmog'i yordamida mobil telefon (smartfon) orqali bank xizmatlaridan foydalanishning zamonaviy usulidir

- a) Mobil banking
- b) Crowdfunding
- c) P2P kreditlari
- d) Sug'urta

6. FinTech nimani anglatadi?

- a) moliyaviy texnologiya

- b) eng zo‘r texnologiya
- c) yakuniy texnik xususiyatlar
- d) investitsiya kompaniyalari

7. Bitcoin qachon muomalaga kiritilgan?

- a) 2009
- b) 1990
- c) 2015
- d) 2005

8. FinTech haqiqatan ham kundalik hayotimizning bir qismiga aylandi. FinTech hali qaysi sohada foydalanilmagan?

- a) Lotareya
- b) Sug‘urta
- c) Fond bozori
- d) Moliyaviy xizmatlar

9. Kriptovalyutalar qanday tuzilmada ishlaydi?

- a) tarqoq (markazlashmagan)
- b) bir yagona markazlashgan
- c) har bir davlat banki
- d) har bir davlat maxsus birja

10. Bitcoin asoschisi kim?

- a) Satoshi Nakamoto
- b) Bill Geyts
- c) Stiv Jobs
- d) Carl Marks

XX BOB. MOLIYA BOZORIDA INTELLEKTUAL TIZIMLAR

20.1. Moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirishda intellektual tizimlardan foydalanish

Bugungi kunda innovatsion bank, bank innovatsiyalari va innovatsion raqamli bank mahsulotlari haqida gap ketar ekan, ularni joriy etishda alohida ahamiyatga ega “moliyaviy texnologiyalar” tushunchasini ham alohida tasniflash va tavsiflash talab etiladi. Masalan, Findexable ekspertlari “moliyaviy texnologiyalar” (fintech) tushunchasiga quyidagicha ta’rif bermoqdalar – bu moliyaviy xizmatlar sohasida texnologik jihatdan ta’minlangan innovatsiya bo‘lib, moliyaviy muassasalarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan yangi biznes modellari, ilovalar, jarayonlar va mahsulotlarni o‘z ichiga oladi¹¹².

Fikrimizcha, ushbu tushunchani “Smart” va “moliyaviy instrumentlar” kabi so‘zlar bilan boyitib alohida (yangi) tasniflash belgisi, ya’ni “Smart raqamli moliyaviy texnologiyalarni Smart raqamli moliyaviy bozorning malakali (professional) ishtirokchisi bo‘lmish Smart raqamli bank (neobank) tovar sifatidagi tasniflash belgisi”, asosida 20.1-jadvalda keltirilganidek zamonaviylashtirib kengaytirish maqsadga muvofiq¹¹³.

Bunda Smart raqamli moliyaviy instrumentlar (SRMI) va Smart raqamli moliyaviy xizmatlar (SRMX)ning har bir turi va guruhiga mos keluvchi Smart raqamli moliyaviy texnologiyalar operatsion platforma(tizim)lari neobank operatsiyalari biznes-platformasiga birlashtirilgan bo‘lishi¹¹⁴ nazarda tutiladi. Demak, O‘zbekistondagi zamonaviy raqamlashtirish sharoitida 20.1-jadvaldagi tasnif belgisi tarkibiga kirganlarni o‘z ichiga olgan banklarni raqamli transformatsiyalashning evolyutsion-modulli modelini qo‘llash maqsadga muvofiq.

¹¹² Findexable Limited. The global fintech index city rankings report 2020. www.findexable.com

¹¹³ Abduraximova D.K. O‘zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

¹¹⁴ Ushbu g‘oya "Fido-Biznes" MCHJ ishlanmasi asosida ilgari surilgan.

Smart raqamli moliyaviy texnologiyalarning yangi belgi bo'yicha tasnifi ¹¹⁵

Smart raqamli moliyaviy instrumentlar (SRMI) guruhlar	Smart raqamli moliyaviy xizmat (SRMX) turlari	SRMTlar operasion platformalarining (axborot-texnologik vositalar) turlari
Elektron qimmatli qog'ozlar guruhi	EQQlar bilan bog'liq xizmat turlari	EQQ muomalasi va ular bilan bog'liq xizmatlar uchun raqamli platforma
Elektron ssuda va kreditlar guruhi	ESKlar bilan bog'liq xizmat turlari	ESK muomalasi va ular bilan bog'liq xizmatlar uchun raqamli platforma
Pul-to'lov va hisob-kitob guruhi *	PHlar bilan bog'liq xizmatlar	PH operatsiyalari va xizmatlari uchun raqamli platforma
Kripto-valyutalar guruhi	KVlar bilan bog'liq xizmat turlari	KV muomalasi va ular bilan bog'liq xizmatlar uchun raqamli platforma

*valyuta va ularni ayirboshlash bitimlari, naqd pulsiz hisob-kitblar (akreditiv, invoices,...), pul o'tkazmalari, depozit bitimlari, xisob-kassa bitimlari, trust va boshqa wealth management bitimlari

Banklarni raqamli transformasiyalashning evolyusion-modulli modelda raqamli transformasilanuvchi bankning moliyaviy imkoniyat(moliyaviy ko'rsatkich)lari, geografias va mijozlari soniga qarab umumiy shinaga ko'p sonli ixtisoslashgan dasturiy tizim(ta'minot)lar bog'langan bank-platformasini evolyusion ravishda kengaytirib va kuchaytirib borish (ya'ni optimal sonli va quvvatli dasturiy ta'minot turlarning umumiy shinaga bog'lab bank-platformasini qurish) asosida shakllantirilishi mumkinligi uning ijobiy xossasi (tarafi) deb qaraladi. Bunda modullar sifatida transformasiyalanuvchi bankning hohishiga qarab turli xorijiy ixtisoslashgan dasturiy ta'minot (tizim) turlari qo'llanilishi mumkin.

Banklarning evolyusion rivojlanishini boshqa olimlar ham shu kabi guruhlashtirmoqdalar. Xususan, Bret King kelajakdagi banklarni bank 4.0 deb nomlab, unga quyidagicha ta'rif beradi: "bank 4.0 plastik karta ishtirokisiz to'lovlarni hisoblab, so'ng amalga oshiradigan avtomobillarga yoki o'z xarajat va daromadlarini mustaqil hisoblab, ularni amalga oshiruvchi transport vositalariga qo'riladi. Bank 4.0, Alexa va Siri kabi aqlli ovozli yordamchilar orqali mijoz topshirig'iga

¹¹⁵ Smart raqamli moliyaviy texnologiyalar(SRMT)ni raqamli moliyaviy bozorning malakali ishtirokchisi bo'lmish raqamli bank (neobank) tovari sifatidagi tasniflash belgisi asosan ishlab chiqildi.

ko‘ra to‘lash, bron qilish, bitimlar tuzish, so‘rash, saqlash yoki investisiyalar amalga oshiradilar. U ma‘lum bir aniq moslamalar emas, balki har qanday kichik qurilmalarga biriktirilishi mumkin”¹¹⁶. Umuman olganda, “bank 4.0” tushunchasi “industriya 4.0” tushunchasi¹¹⁷ bilan bog‘liq. Demak, banklar kundan kunga moddiy mavjud tuzilmadan, virtual tuzilmalarga o‘tish davrini boshdan kechirmoqda. Ularning kelajagi esa sun‘iy intellekt, blokcheyn va virtual reallik kabi yuqori texnologiyalar yordamida inson ishtirokisiz amalga oshiriluvchi tizim bo‘ladi. Ushbu tizim alohida bir tizim emas, balki ishlab chiqarish ekotizimining ajralmas qismi sifatida, bank, innovatsion vositachi, konsultant, sug‘urta va boshqa xizmatlar maxsus dasturlar orqali boshqariluvchi texnologiyalar yordamida faoliyat yuritiluvchi makro Smart tizimning subtizimiga aylanadi¹¹⁸.

Bunda Sh.Shoha‘zamiyning ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyasi qoidalari asosida Smart raqamli moliyaviy instrumentlar bozori va Smart raqamli moliyaviy xizmatlar bozori uchun umumiy bo‘lgan Smart raqamli banklarning yaxlit Smart raqamli bank (neobank) operasialari biznes-platfomalari (Rbp) raqamli makroregulyatori (RM) tomonidan boshqarilishi va nazorat qilinishi eng samarali va rasional echim bo‘ladi deb aytish mumkin.¹¹⁹ Ushbu echim asosida (Smart raqamli respublika (SRR) multi-ilmiy kontsepsiya nuqtai nazaridan) Smart raqamli moliyaviy texnologiyalar bozorini (uning yuqoridagi 20.1-jadvalda berilgan yangi tasniflash belgisiga ko‘ra) 20.1-rasm shaklida sxematik ifodalovchi model¹²⁰ ko‘rinishida keltirish mumkin.


¹¹⁶ King B. Bank 4.0 Banking Everywhere, Never at a Bank – Singapore: Marshall Cavendish Business, 2018. – 384 p.

¹¹⁷ Шваб К. Четвертая промышленная революция – М.: Эксмо, 2016. – 138 с.

¹¹⁸ Abduraximova D.K. O‘zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

¹¹⁹ Shoha'zamiy Sh.Sh. tomonidan yaratilgan Smart raqamli respublika kontsepsiyasiga asosan yaratildi. Shoha'zamiy Sh.Sh. Трактат о смарт цифровой республике. Monografiya. – Tashkent: innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 352 s.

¹²⁰Keltirilgan modelda: VF – SRMXB, SRMIB va SRM faoliyatlariga bir vaqtda ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar; VSR – SRMXB indikatorlari bo'yicha chiqish va SRMga kirish ko'rsatkichlari; vse – SRMIB indikatorlari bo'yicha chiqish va SRMga kirish ko'rsatkichlari. FFR va FFE – SRM tomonidan ishlab chiqilib SRMXB va SRMIB funktsiyalariga ta'sir etuvchi ichki omillar. FSR va FSE – SRM tomonidan ishlab chiqilib SRMXB va SRMIB tuzilmalariga ta'sir etadigan ichki omillar. SRM tashqi omillar(VF)ni hisobga olgan holda, VSR va vse asosida ichki omillar (FFR, ffe, FSR, FSE) ishlab chiqishdan iborat bo'lgan makroiqtisodiy va makromoliyaviy muvozanatlaydigan mexanizm funktsiyasini bajaradi.



20.1-rasm. Umumiy Smart raqamli makroregulyator orqali RMXB va RMIBning o‘zaro bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatish modeli¹²¹

Mohiyatiga ko‘ra, 20.1-rasm shaklidagi model davlat regulyasiyasiga asoslangan o‘zini-o‘zi rivojlantirishning murakkab dinamik tizimi hisoblanadi. Ideal holat uchun raqamlashtirilgan moliya tufayli raqamli moliyaviy texnologiyalar bozori tarkibidagi raqamli moliya xizmatlari ko‘rsatiladigan raqamli moliyaviy xizmatlar bozori va raqamli moliya instrumentlar muomalada bo‘luvchi raqamli moliya instrumentlar bozori (RMIB) ekvivalent kategoriyalardir¹²², demak, (RMTB holati mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalarni ekvivalent ravishda (“barometr” sifatida) aks ettiradi. Bunda mazkur bozorlar ular uchun bir xil tashqi omillar ta’sirida bo‘ladi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, neobanklarni "Smart raqamli bank" deb nomlab, ularni zarur davlat xizmatlari yoki xizmat ko‘rsatish korxona va tashkilot bazalariga integrasiya qilingan inson ishtirokisiz mustaqil ishlashga qodir tizim deyish mumkin. Bunda “Smart (SMART – abbreviaturadagi so‘z)” so‘zi amerikalik olim Piter Druker tomonidan ilkbor kiritilgan bo‘lib, “specific” (aniq), “measurable” (o‘lchamli), “achievable” (egallab bo‘ladigan), “realistic” (haqiqatga yaqin), “time” (vaqt bilan belgilangan) so‘zlarining birinchi (bosh) harflaridan yig‘ilgan bo‘lib “aqlli” ma’nosida qo‘llaniladi¹²³.

¹²¹ Abduraximova D.K. O‘zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

¹²² Шоҳаъзамий Ш.Ш. Концепция сущности рынка ценных бумаг// Молия. – Ташкент, 2009. – №1. – С. 82-91; Шоҳаъзамий Ш.Ш. Экономическая системология: концепция и применение. – Т.:Iqtisod-moliya, 2010.– 420 с.; Шоҳазамий Ш.Ш. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 352 с.

¹²³ Drucker P.F. The Practice of Management. E-public education., 2010. - 620 p.; Шоҳазамий Ш.Ш. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. – Ташкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. – 352 с.

Raqamli banklarning faoliyati boshqarilishida albatta professional qaror qabul qiluvchi insonlar ishtirok etadi. Ushbu mutaxassislar faqat bank faoliyati yo‘nalishida yuqori malaka va kuchli bilimlagina emas, balki multiilmiy dasturlar asosida tayyorlangan mutaxassislar bo‘lishlari talab etiladi. Bu borada Sh.Shoha‘zamiyning quyidagi ta‘rifida keltirilgan mutaxassis aynan to‘g‘ri keladi: “kiber-iqtisodchi – bu ... milliy Smart raqamli ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy-xuquqiy-texnologik tizimda ishlashga qodir bo‘lgan aqlan va jismonan sog‘lom multimalakali multimutaxassisdir ...”¹²⁴. Aynan ushbu kontekstda "Smart bankir" tushunchasi ham ma‘noga ega.

20.2. Masofaviy bank tizimining ahamiyati

Xalqaro moliya bozorini tahlil qilar ekanmiz, avvalo masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish mamlakat makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga ta‘sirini kuzatishimiz mumkin. Bunda ikki omilli korrelyasion tahlil asosida, Jahon bankining 2017 yil uchun 160 ta mamlakatlar va hududlarning makroiqtisodiy va masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Ushbu tahlilda faqatgina 1 yillik ko‘rsatkichlaridan foydalanilganligi sababli, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik Spirmannning ranglar korrelyasiyasi asosida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu tahlilda quyidagi ko‘rsatkichlar guruhidan foydalanildi:

1. Raqamli tranzaksiyalar amalga oshirgan yoki qabul qilgan aholi ulushi (RT) – YAIM, aholi jon boshiga YAIM, inflyasiya va ishsizlik;

2. Internet orqali to‘lov amalga oshirgan yoki xarid qilgan aholi ulushi (IT) – YAIM, aholi jon boshiga YAIM, inflyatsiya va ishsizlik;

3. Mobil telefon yoki Internet yordamida moliyaviy muassasadagi hisobraqamidan foydalangan aholi ulushi (MTI) – YAIM, aholi jon boshiga YAIM, inflyasiya va ishsizlik.

Tanlab olingan ko‘rsatkichlar korrelyasiya tahlili natijalari 20.2-jadvalda keltirilgan va quyidagicha talqin qilinadi.

Aholining raqamli moliya mahsulotlaridan foydalanuvchilar ulushi va YAIM va aholi jon boshiga YAIM ko‘rsatkichlari o‘rtasida kuchli to‘g‘ri bog‘liqlik, inflyasiya va asosiy moliyaviy barqarorlikka to‘sqinlik qiluvchi xarakatsiz kreditlar ulushi bilan kuchsizroq bo‘lsa-

¹²⁴ Шохазамий Ш.Ш. Трактаг о сарт цифровый республике. Монография. – Ташкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. – 352 с.

da, teskari bog‘liqlik mavjud. Jumladan, raqamli tranzaktsiyalar amalga oshirgan yoki qabul qilgan aholi ulushi, Internet orqali to‘lov amalga oshirgan yoki xarid qilgan aholi ulushi, mobil telefon yoki Internet yordamida moliyaviy muassasadagi hisobraqamidan foydalangan aholi ulushi bilan YAIM bilan bog‘liqlik 31,2-50,2%ni tashkil etgan bo‘lsa, mamlakatlarning aholi jon boshiga YAIM bilan bog‘liqlik 64,0-87,7%ni tashkil etdi.

20.2- jadval


Spirman ranglar korrelyatsiyasi usuli orqali mamlakatlar makroiqtisodiy va innovatsion bank mahsulotlaridan foyladanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlili¹²⁵

Ko‘rsatkich nomi	Mamlakatlar guruhi	RT, %da	IT, %da	MTI, %da
YAIM summasi (AQSh doll.da) bilan bog‘liqlik	Barcha mamlakat va xududlar (157-160)	0.4233	0.5017	0.3715
	Yuqori daromadli malakatlar qamrovi (43ta)	0.3795	0.4775	-
YAIM jon boshiga, summasi (AQSh doll.da bog‘liqlik)	Barcha mamlakat va xududlar (157-160)	0.8381	0.8768	0.6402
	past o‘rtacha va past daromadli mamlakatlar (58-61)	0.3280	0.4378	-0.2732
	Yuqori o‘rtacha daromadli mamlakatlar (36)	-	0.4080	0.4245
	Yuqori daromadli malakatlar (43)	0.7392	0.6660	0.4958
Iqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlar	Barcha mamlakat va xududlar (149-153) inflyasiya %da	-0.3399	-0.3698	-0.2502
	Barcha mamlakat va xududlar (147) ishsizlik, %da		-0.1693	
NPL (harakatsiz kreditlar) bilan bog‘liqlik	Barcha mamlakat va xududlar (108-110)	-0.3282	-0.3736	-0.2924
	Past o‘rtacha va past daromadli mamlakatlar (38)			0.3871
	Yuqori daromadli mamlakatlar (40)	-0.4726	-0.4819	-0.5084

Bunda eng kuchli bog‘liqlik Internet orqali to‘lov amalga oshirgan yoki xarid qilgan aholi ulushiga, ya’ni mos ravishda 50,2% va 87,7%ga to‘g‘ri keldi. Buni 20.2-rasmda ham ko‘rish mumkin. Mazkur 20.2-rasm o‘zgaruvchilar o‘rtasida korrelyasiya mavjudligini va ular o‘rtasida

¹²⁵ Abduraximova D.K. O‘zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

chiziqli funktsional bog‘liqlik o‘rnatish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Tahlil qilinayotgan juft ko‘rsatkichlarning yuqori qiymatlari uchun ko‘rsatkichlarning tarqalishi kengroq, lekin chiziqli munosabat saqlanib qoladi.



20.2-rasm. Aholi jon boshiga YAIM va Internet orqali to‘lov amalga oshirgan yoki xarid qilgan aholi ulushi o‘rtasidagi korrelyasion bog‘liqlik¹²⁶

Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab guruhlashtirilganda mazkur ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zgarmoqda. Past, past o‘rtacha va yuqori o‘rtacha daromadli mamlakatlarda YAIM summasi va raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik ahamiyatga ega emas. Ammo yuqori daromadli 43 ta mamlakat uchun bog‘liqlik kuchi 38-48%ni tashkil etadi.

Barcha mamlakat va xududlar kesimida aholi jon boshiga YAIM summasi va raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud (64,02-87,7%gacha). Biroq ularning kuchi yuqori daromadli mamlakatlar uchun 50-74%ni, yuqori o‘rtacha daromadli mamlakatlarda – 40-42%ni, past o‘rtacha va past daromadli mamlakatlarda – 33-44%ni tashkil qiladi. Bunda yuqori o‘rtacha daromadli mamlakatlarda raqamli tranzaksiyalar amalga oshirgan yoki qabul qilgan aholi ulushi va aholi jon boshiga YAIM summasi o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik ahamiyatga ega emas. Past o‘rtacha va past daromadli mamlakatlarda mobil telefon yoki Internet yordamida

¹²⁶ Abduraximova D.K. O‘zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘ycha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

moliyaviy muassasadagi hisobraqamidan foydalangan aholi ulushi va aholi jon boshiga YAIM summasi o'rtasida teskari bog'liqlik bor (-27,3%).

Inflyasiya bilan kuchsiz teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, u 25-37%ni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich o'rtasida rivojlanish darajasiga qarab guruhlanganda bog'liqlik statistik ahamiyatga ega emas. Raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasi mamlakatning ishsizlik darajasiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo NPL – xarakatsiz kreditlarning kredit portfelidagi ulushi ko'rsatkichi bilan raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasi o'rtasida 29,2%dan 37,4%gacha teskari bog'liqlik mavjud. Yuqori o'rtacha daromadli mamlakatlarda ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik statistik ahamiyatga ega emas. Past o'rtacha va past daromadli mamlakatlarda faqatgina mobil telefon yoki Internet yordamida moliyaviy muassasadagi hisobraqamidan foydalangan aholi ulushi va NPL o'rtasida kuchsiz to'g'ri bog'liqlik mavjud (38,7%). Yuqori daromadli mamlakatlarda ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik mavjud va Spirman koeffitsienti barcha ko'rsatkichlar uchun 50%ga yaqin. Bunda barcha ko'rsatkichlar o'rtasidagi eng kuchli bog'liqlik aynan Internet orqali to'lov amalga oshirgan yoki xarid qilgan aholi ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Yuqorida amalga oshirilgan korrelyasion tahlil natijalariga asosan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Umuman olganda, raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasi va YAIM o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab kuchayib boradi.

2. raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasi va aholi jon boshiga YAIM ko'rsatkichlari o'rtasida etarli darajada kuchli bog'lanish mavjud. Ya'ni, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

3. raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish darajasi har doim ham mamlakat moliyaviy barqarorligi uchun xizmat ko'rsatmasligi mumkin. Bu yuqorida harakatsiz kreditlar misolida ko'rib o'tildi. Moliyaviy tizim va infrastruktura yuqori rivojlangan holda raqamli moliya mahsulotlaridan foydalanish Nplni kamaytirishga xizmat qiladi, aks holda banklar moliyaviy holatiga yomonlashuviga ham olib kelish xavfi mavjud.

Moliyaviy texnologiyalar orqali takomillashtirilgan bank mahsulotlari keng joriy etilgan rivojlanayotgan 5 ta mamlakatda muammoli aktivlar so‘nggi yildagi iqtisodiy inqirozga qaramay barqaror tushib borish dinamikasiga ega.

20.3-jadval

Moliya texnologiyalari keng tarqalgan rivojlanayotgan mamlakatlarda muammoli kreditlar (NPL) o‘shish sur‘ati tahlili¹²⁷

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	o‘rtacha yillik ko‘rsatkich, %da
Braziliya	4	3	3	2	
yillik o‘shish, %da		85	102	72	14
Chili	2	2	2	2	
yillik o‘shish, %da		98	110	76	6
Xindiston	10	9	9	8	
yillik o‘shish, %da		95	98	86	7
Peru	5	3	3	4	
yillik o‘shish, %da		70	103	123	2
Rossiya	10	10	9	9	
yillik o‘shish, %da		101	92	94	4


20.3-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, NPL eng kami 2 foizdan (Peru) Braziliya 14 foizgacha kamayganligini ko‘rish mumkin. Bunda Hindiston kabi yirik va aholi daromadi bo‘yicha tengsizlik juda kuchli bo‘lgan mamlakatda ham ushbu ko‘rsatkichning tushib borayotganligi juda katta samara deya baholash mumkin.

Hayratlanarlisi shundaki, har doim ham moliyaviy rivojlanganlik darajasi mamlakat yoki hududning uning raqamli moliyaning rivojlanish darajasiga monand bo‘lavermas ekan. Masalan, Earnst&Yuang halqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan hisoblab chiqilgan Global fintex qo‘llanishi indeksi (Global FinTech Adoption Index) ko‘rsatkichi asosida shaharlar ketma-ketligi (tutgan o‘rni) Global moliyaviy markazlar ketma-ketligidan farq qiladi. Masalan, dunyo bo‘yicha eng fintex keng tarqalgan xudud bu kremniy vodiysi joylashgan San-Fransisko ko‘rfazi (80,136) bo‘lsa, ushbu xudud moliyaviy markazlar ichida 12-o‘rinda turadi xolos. Demak, moliyaviy

¹²⁷ Abduraximova D.K. O‘zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

texnologiya iqtisodiyotning yoki moliya tizimi rivojlanishining keyingi bosqichi emasligidan dalolat bermoqda.


Xo'sh, dunyo moliyaviy arxitekturasini va umuman moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan fintexlarning ommalashib borishiga nima sabab bo'lmoqda? Moliyaviy texnologiyalarning keng tarqalishida Internet paydo bo'lishi katta turtki bo'lganligi shubhasiz. Lekin, 2008-2009 yillardagi krizis davrida Apple kompaniyasi tomonidan yangi turdagi mobil qurilmani taklif etishi krizisdan so'ngi moliya tizimi arxitekturasini o'zgarishiga asosiy impuls bo'ldi.



20.3-rasm. 2016-2021 yillarda jahondagi foydalanilayotgan smartfonlar soni, mlrd. dona¹²⁸

20.3-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, 2016 yildan 2021 yilgacha smartfonlar soni har yili 7,4-10,3%gacha o'sib, 2021 yilga kelib dunyo aholisining deyarli yarmida smartfonlar mavjudligini ko'rish mumkin. Bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 1,4 barobar ko'paygan.

¹²⁸ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b..



20.4-rasm. 201-2024 yillarda smartfonlar orqali amalga oshirilgan mobil to'lovlar bo'yicha ma'lumotlar va prognozlar¹²⁹

20.4-rasmda 2017-2020 yillarda amalga oshirilgan mobil to'lovlar hajmi har yili 1,5-2,7 barobarga oshib borib, 2021-2024 yillarda har yili 1,2-1,3 barobargacha yillik o'sish kutilmoqda. Bu esa 2017 yilga nisbatan 2020 yilda 6,6 barobar smartfonlar orqali to'lovlar amalga oshirilgan bo'lsa, 2024 yilda 2020 yilga nisbatan 2 barobar oshishi kutilmoqda. Bu esa smartfonlardan foydalanuvchilar soniga ko'ra, smartfonlar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi tezroq o'sib borayotganligi, insonlar to'lovlar amalga oshirishda smartfonlarga ko'proq murojaat etish yanada ommalashib borayotganligini anglashimiz mumkin.

20.4- jadval


2015-2019yy.da ayrim rivojlangan davlatlarga moliyaviy texnologiyalarning kirib borish dinamikasi (aholisi soniga %da)¹³⁰

Mamlakat nomi	2015	2017	2019	O'sish
Avstraliya	13%	37%	58%	45%
Kanada	8%	18%	50%	42%
Gongkong	29%	32%	67%	38%
Singapur	15%	23%	67%	52%
Buyuk Britaniya	14%	42%	71%	57%
AQSh	17%	33%	46%	29%
Mamlakatlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich	16%	31%	60%	44%

¹²⁹ Diagramma Statista ma'lumotlar bazasidagi ko'rsatkichlar asosida muallif tomonidan tuzildi

¹³⁰ Diagramma Earnst&Young kompaniyasi Global FinTech Adoption Index 2019 hisobotida keltirilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


20.4-jadval ma'lumotlariga asosan jahonning rivojlangan mamlaktalarida moliyaviy texnologiyalarning rivojlanish tezligini ko'rish mumkin. Bunda 2015 yilda AQSh 14%, Kanadada 8% Singapurda 15%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 46%,50% va 67%ni tashkil qilmoqda. Bu borada etaklilik 2015 yilda Gonkongga (29%), 2017 yilda Avraliya (37%), 2019 yilda esa Buyuk Britaniyaga (71%) tegishli bo'lmoqda.



20.5-rasm. 2014-2019 yillarda jahonda moliyaviy texnologiyalarga kiritilgan jami investsiyalar soni va summasi bo'yicha ma'lumotlar ¹³¹

20.5-rasmdagi diagramma ma'lumotlaridan boshlang'ich holatidan qat'iy nazar mamlakatlar samarali islohotlar orqali moliya texnologiyalarini keng joriy etishda yuqori marralarga erishishi mumkinligini ko'rish mumkin.

¹³¹ Diagramma KPMG kompaniyasining "Pulse of Fintech 2019" nomi xisobotidagi ma'lumotlar asosida tayyorlandi. <https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/xx/pdf/2020/02/pulse-of-fintech-h2-2019.pdf>



20.6-rasm. 2010-2020¹³² yillarda jahonda ochilgan va faoliyat yuritib kelayotgan neobanklar soni ¹³³

20.6-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jahonda neobanklar ochilishi dinamikasi kun sayin oshib bormoqda. 2020 yildagi ko'rsatkich esa, bugungi kunda har 5 kunda 1 ta neobank ochilayotganligini anglatadi. Ularning an'anaviy banklariga nisbatan quyidagi ustunliklari:

- hisobraqam ochishning sodda va tezkor jarayoni;
- tezkor va komissiyasiz xalqaro to'lov va o'tkazmalar;
- o'z mablag'lari xarakatini kuzatish va hisobraqamlarni optimal agregasiyalash imkoniyati;
- arzon kredit va boshqa mahsulotlaridan iborat.

Banklarning koronavirus pandemiyasi davrida Deloitte kompaniyasi tadqiqotlariga asosan 2020 yilda banklarning 60% filiallarini yopishga yoki ish soatlarini qisqartirishga, 11% banklar hisobraqam ochish usulini o'zgartirishga, 6% banklar esa yangi mijozlarga hisobraqam ochish yoki xizmat ko'rsatishni qisqartirishga majbur bo'lganlar. Bozordagi talabga javoban jahondagi banklarning 40%dan ziyodi aloqasiz to'lov limitlarini oshirdilar, 34%i butunlay raqamli jarayonlarni yulga ko'yidilar, 23%i esa mijozlarni raqamli identifikasiya qilish usullarini joriy etdilar ¹³⁴.

¹³² Mazkur grafikda 2020 yil dekabr oyigacha ochilgan neobanklar soni kiritilgan.

¹³³ Grafik Jahon banki tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar asosida tayyorlandi. Manba: <https://minfin.com.ua/2020/12/24/57548026/>

¹³⁴ The Deloitte Center for Financial Services. 2020 banking and capital markets outlook. www.deloitte.com

Demak, xulosa qilib, moliyaviy texnologiyalarga boʻlgan eʼtibor muayyan vazifalarni hal qilish zarurati bilan bogʻliq:

- bozordagi raqobatning kuchayishi;
- moliyaviy xizmatlar narxining tushishi;
- isteʼmolchilar uchun masofadan xizmat koʻrsatish mexanizmlarini joriy etish va xizmatlar bozoriga kirishdagi turli toʻsiqlarning kamligi;
- axborot shaffofligini oshirish.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirishda intellektual tizimlardan foydalanish obyektiv zaruratni izohlang.

2. Smart raqamli moliyaviy texnologiyalarning yangi belgi bo'yicha tasnifi.

3. . Umumiy Smart raqamli makroregulyator orqali RMXB va RMIBning o'zaro bog'liqligi.

4. Raqamli banklarning faoliyati boshqarilishi.

5. Masofaviy bank tizimining ahamiyati.

6. Moliya texnologiyalari keng tarqalgan rivojlanayotgan mamlakatlar.

7. Jahonda ochilgan va faoliyat yuritib kelayotgan neobanklar.

8.

2. Moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirishda intellektual tizimlarining afzalliklari va kamchiliklaridan kelib chiqqan holda T-sxema shakllantiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari

TESTLAR

1. Bank yoki to'lov tashkiloti bilan to'lov xizmatlari ko'rsatish uchun agentlik shartnomasini tuzgan, bank hisoblanmaydigan yuridik shaxs ...

- a) to'lov agenti
- b) to'lov subagenti
- c) to'lov tashkiloti
- d) to'lovchi

2. To'lov tizimi ishtirokchilarining pulga doir o'zaro talablari va majburiyatlarini yig'ish, taqqoslash hamda hisobga o'tkazish jarayoni

- a) kliring
- b) benefitsiar

- c) netting
- d) to'lov xizmati

3. Moliyaviy siyosat deganda nima tushuniladi?

- a) moliyadan foydalanishning metodlari, uni tashkil qilishning amaliy shakllari va metodologik printsiplarining majmui
- b) davlatning vazifalari va funksiyalari ham o'zgartirish
- c) milliy xo'jalik taraqqiyotida davlatning rolini oshirish
- d) markazlashgan va markazlashmagan fondlarni tashkil etish, taqsimlash va sarflash

4. Axborotni yashirish maqsadida, kodlar va shifrlarni yaratish uchun matematikadan foydalanish bu -

- a) kriptografiya
- b) billing
- c) xavfsiz elektron bitim
- d) blokcheyn

5. Raqamli texnologiyalarining rivojlanishi nechta bosqichdan iborat?

- a) 3 bosqichdan
- b) 2 bosqichdan
- c) 4 bosqichdan
- d) 1 bosqichdan

6. – internet tarmog'i yordamida mobil telefon (smartfon) orqali bank xizmatlaridan foydalanishning zamonaviy usulidir.

- a) mobil banking
- b) online banking
- c) virtual banking
- d) raqamli hamyon

7. Byudjetga oid fintech ilovalari qaysilar?

- a) Mint, Good Budget va Personal Capital
- b) Mybudget, Paypal
- c) Gofundme, Kickstarter
- d) Etoro, finviz.com

8. Crowdfunding ilovalari qaysilar?

- a) Gofundme, Kickstarter
- b) Mint, Good Budget va Personal Capital
- c) Etoro, finviz.com
- d) Mybudget, Paypal

9. ... - bu kompaniya yoki kompaniya bo'linmasi o'z tovar/xizmatlarini korporativ mijozlarga, ya'ni boshqa kompaniyalarga sotishini anglatadi.

- a) B2B
- b) B2C
- c) B2A
- d) C2B

10. ... - bu kompaniyalar tomonidan jismoniy shaxslarga tovarlar/xizmatlar sotishni anglatadi.

- a) B2C
- b) B2B
- c) B2A
- d) C2C

XXI BOB. ROBO-MASLAHATCHILAR (ROBO-ADVISORS)

21. Robo-maslahatchilarning mazmun-mohiyati va ahamiyati

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularning qo'llanilishi ijobiy holat sifatida baholanadi va yuqori samaradorlikka erishish vositasi sifatida qaraladi. Mamlakatimizda moliya institutlari, moliya bozori ishtirokchilari, ayniqsa, institutsional investorlar sifatida investitsiya fondlari, tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari faoliyatida moliyaviy texnologiyalardan foydalanish moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, kapital bozorini rivojlantirish, institutsional investorlar kapitallari va xizmatlari, shuningdek, aholi jamg'armalarini kapital bozoriga keng ko'lamda jalb qilishda robo-maslahatchilardan foydalanish bugungi kunda samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Xalqaro kapital bozori amaliyotda institutsional investorlar tomonidan robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish yuqori moliyaviy resurslar shakllantirish imkonini beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda kapital bozori va institutsional investorlar faoliyatini o'rganish ularning robo-maslahatchilar salohiyatidan keng foydalanishga ehtiyoji borligini ko'rsatadi.

Institutsional investorlar faoliyatini o'rganish va faoliyat samaradorligini oshirish kapital bozorini rivojlantirishga yordam beradi. O'z navbatida, institutsional investorlarning ko'rsatkichlarini yaxshilashda robo-maslahatchilarning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda robo-maslahatchilar investitsiya fondlariga raqobatchi sifatida moliya bozorida keng foydalaniladi. Robo-maslahatchilar bu investorlarga moliyaviy maslahat berish uchun avtomatlashtirilgan algoritmlardan foydalanadigan mexanizatsiyalashgan platformalar hisoblanadi. Robo-maslahatchilar

nafaqat foydalanishdagi qulaylik va arzon narxlardagi maslahatlarni taqdim etishadi, balki riskni hisobga olgan holda ishlashda ham samaradorlikka ega¹³⁵.

Robo-maslahatchilar investitsiya faoliyati bo'yicha maslahat olishda inson moliyaviy maslahati kontekstida paydo bo'ladigan manfaatlar to'qnashuvidan xavotir oladigan investorlar orasida munosib alternativ variant sifatida ko'riladi¹³⁶.

Robo-maslahatchilar segmentida xususiy investorlar o'zlarining ko'lamini va riskka bo'lgan moyilligiga qarab investitsiya hajmlarini tanlashi mumkin bo'lgan avtomatlashtirilgan onlayn portfellarini taklif qiluvchi xususiy aktivlarni boshqarish provayderlaridan iborat. Wealthfront, Schwab Intelligent Portfolios, Betterment kabi provayderlar xususiy kompaniyalarga va institutsional investorlarga o'z pullarini (juda oz miqdordan boshlab) oldindan tuzilgan algoritmlar tomonidan avtomatik ravishda boshqariladigan oldindan mavjud bo'lgan portfellarga investitsiya qilishga imkon beradi. Ushbu xizmatlarning afzalligi o'z portfeli rivojlanishini doimiy ravishda shaxsiy monitoring qilolmaydigan yoki buni istamaydigan investorlarning passiv roli hisoblanadi. Bunday avtomatlashtirilgan investitsiya xizmatlari boshlang'ich kapitali kam bo'lgan va o'ziga xos investitsiya nou-xaularisiz yuqori daromad olish imkoniyatini beradi, bu esa an'anaviy banklar tomonidan taqdim etilayotgan klassik investitsiyalarga ziddir. Robo-maslahatchilar segmentida moliyaviy ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan onlayn portfellar boshqaruvidagi aktivlarni ko'rsatadi. Avtomatlashtirilgan va tavsiyalarga asoslangan maslahat funksiyalari bo'lmagan onlayn brokerlar ushbu segmentga kiritilmagan¹³⁷.

¹³⁵ Ran Tao, Chi-Wei Su, Yidong Xiao, Ke Dai, Fahad Khalid. Robo advisors, algorithmic trading and investment management: Wonders of fourth industrial revolution in financial markets // Technological Forecasting and Social Change, Volume 163, February 2021, 120421

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0040162520312476>

¹³⁶ Lukas Brenner, Tobias Meyll. Robo-advisors: A substitute for human financial advice? // Journal of Behavioral and Experimental Finance, Volume 25, March 2020, 100275

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2214635019301881>

¹³⁷ www.statista.com –statistik ma'lumotlar taqdim etuvchi Statista rasmiy biznes ma'lumotlari platformasi veb-sayti; <https://www.statista.com/outlook/dmo/fintech/personal-finance/robo-advisors/worldwide>

Robo-maslahatchilar algoritmlar va qoidalariga asoslangan raqamli investitsiya bo'yicha maslahat va portfelni boshqarish xizmatlarini taklif etadi. Robo-maslahatchilarning eng keng tarqalgan xususiyatlari quyidagilar:

1. Iqtisodiy samaradorlik. Robo-maslahatchilar, asosan, birja savdo fondlari (ETF) deb ataladigan passiv indeks fondlaridan foydalanadilar. Passiv investitsiyalar va ma'lum bir ma'lumot indeksini takrorlash orqali robo-maslahatchilar qimmat aktiv mablag'lardan qochishga va ijobiy ko'rsatkichlarga erishishga harakat qiladi.

2. Obyektivlik. Algoritmlar ma'lum bir xususiyatlar asosida investitsiya portfelini shakllantirish uchun mijozning ma'lumotlaridan foydalanadi. Insonning his-tuyg'ulari yoki hissiyotlari qaror qabul qilishning obektiv va oqilona jarayoniga ta'sir qilmasliklari uchun chiqarib yuborilgan. Ushbu g'oya shoshilinch xulosalardan qochish va shu bilan odamlar uchun xos bo'lgan investitsiya harakatlaridan qochish maqsadida qilingan.

3. Shaffoflik. Robo-maslahatchilar shaffof narxlar bilan standartlashtirilgan investitsiya xizmatlarni taklif qilishadi. Xarajatlar internetda e'lon qilinadi va har qanday vaqtda ularga kirish mumkin¹³⁸.

Robo-maslahatchilar bu raqamli platformalar bo'lib, foydalanuvchilarga yordam beradigan interaktiv va aqlli komponentlarni qamrab oladi hamda bank va investitsiya mahsulotlari sohasida konsaltingning avtomatik jarayonidan foydalanish orqali mijozlarga maslahatlar berish uchun IT texnologiyasidan foydalanadi. Robo-maslahat xizmatlari an'anaviy maslahat xizmatlaridan farq qiladi. Robo-maslahat xizmatlari mijozni miqdoriy baholash va mijozlar portfelini boshqarishga bog'liq¹³⁹.

¹³⁸ Cam-Duc Au, Philippe Krahnhof. The Role of Robo-Advisors in the German Banking Market - Critical Analysis on Human versus Digital Advisory Services. // Conference Paper, May 2020. <https://www.researchgate.net/publication/342549761>

¹³⁹ Krzysztof Waliszewski, Marta Zięba-Szklarska. Robo-advisors as Automated Personal Financial Planners – SWOT Analysis. // Journal of Finance and Financial Law, Wrzesień/September 2020, vol.3(27):155–173. https://www.researchgate.net/publication/346514903_Robo-advisors_as_Automated_Personal_Financial_Planners_-_SWOT_Analysis

Bugungi kunda robo-maslahatchilardan investitsiya faoliyatida foydalanish institutsional investitsiyalarni boshqarishning bir usuli sifatida ham qaralmoqda. Strategiyalarni boshqarish bo'yicha miqdoriy yondashuvlar investitsiya banklari va institutsional investitsiya menejerlari tomonidan qo'llanilib kelinadi, biroq robo-maslahatchilar xizmatlari institutsional darajadagi pulni samarali boshqarish imkoniyatini beradi¹⁴⁰.

21.2. Investitsiya faoliyatida robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari

Institutsional investorlar faoliyatini rivojlantirish va ular bilan raqobatlashish maqsadida robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish amaliyoti tobora kengaymoqda. Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar kiritishda banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlariga alternativ variant sifatida robo-maslahatchilardan foydalanilayotgan bo'lsa-da, ba'zan yirik institutsional investorlar (asosan, investitsiya fondlari va banklar) o'z faoliyatida iste'molchilarga qo'shimcha xizmat turi sifatida robo-maslahatchilar faoliyatini yo'lga qo'yayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli bugungi kunda kapital bozorida institutsional investorlar va robo-maslahatchilarning faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Kapital bozorida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda an'anaviy inson maslahatchilariga arzon alternativ sifatida ishlab chiqilgan robo-maslahatchilar mijozlar portfelini avtomatik ravishda yaratish va boshqarish uchun algoritmardan foydalanadigan onlayn platformalardir.

Robo-maslahatchilar global moliyaviy inqirozdan keyin moliyaviy texnologiyalar bo'yicha startap (fintech start-up) sifatida ish boshlagan bo'lsalar-da, so'nggi yillarda ular juda ommalashmoqda, ayniqsa, an'anaviy moliya institutlari o'zlarining robo-maslahat xizmatlarini taklif qila boshladilar. Masalan, AQShning eng yirik brokerlik kompaniyalaridan biri Charlz Shvab (Charles Schwab) 2015-yilda "Intelligent Portfolios" nomli robo-maslahat xizmatini ishga

¹⁴⁰ The future of advisory: exploring the impact of robo on wealth management. A Finextra white paper produced in association with EPAM, September 2016.

https://www.epam.com/content/dam/epam/free_library/whitepapers/The_Future_of_Advisory.pdf

tushirdi. Shuningdek, 2015-yilda dunyodagi eng yirik aktivlar boshqaruvchi kompaniya BlackRock Future Advisor robo-maslahat kompaniyasini o'ziga qo'shib oldi. Shuningdek, robo-maslahat xizmatlari o'zlarining avtomatlashtirilgan maslahat xizmatlarini taklif qila boshlagan Bank of America va Wells Fargo singari bank gigantlarining ham e'tiborini tortganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.¹⁴¹

Robo-maslahatchilar investitsiyalarni boshqarish bo'yicha onlayn xizmatlar turi bo'lib, ular insonning minimal aralashuvi bilan moliyaviy maslahat berish uchun matematik algoritmlardan foydalanadilar. Ular o'zlarining algoritmlaridan mijoz aktivlarini imkon qadar samarali tarzda boshqarish va taqsimlashda foydalanadilar.

Robo-maslahatchilar risklarni kamaytirish, moliyaviy holat va investitsiyalarning rentabelligi to'g'risida ma'lumot olinadigan onlayn so'rovnomalardan foydalanadilar. Ushbu so'rovnomalar mijozlar ishtirokida o'tkaziladi. Robo-maslahatchilarning bir necha xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

1. Portfelni boshqarish. Robo-maslahatchilar investorlarning qiziqishlari asosida ularga maqbul portfellarni yaratadilar. Odatda, portfellar mablag'larni aksiyalarga yo'naltirishga qaratilgan Zamonaviy portfel nazariyasi asosida boshqariladi. Robo-maslahatchilar, odatda, mablag'larni riskli va risk darajasi past aktivlarga ajratadilar va bu investorlarning maqsadlari va risk darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Robo-maslahatchilar portfelni nazorat qiladi va uni muvozanatda ushlashga harakat qiladi.

2. Soliq bo'yicha xarajatlarni kamaytirish. Soliq to'lovlaridan qochish, odatda, soliq yilining oxiriga qadar amalga oshiriladigan kapitaldan olinadigan soliqlarni o'zida olib qolish maqsadida qimmatli qog'ozlarni zararga sotish orqali amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlarni zararga sotish orqali investorlar qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromad uchun soliq to'lashdan qochishadi. Bunda

¹⁴¹ Facundo Abraham, Sergio L. Schmukler, Jose Tessada. Robo-Advisors: Investing through Machines. // Research & Policy Briefs, World Bank Group. No. 21, February 2019;
<http://documents1.worldbank.org/curated/en/275041551196836758/pdf/Robo-Advisors-Investing-through-Machines.pdf>

to'lanadigan soliq miqdoridan ko'ra ko'riladigan zarar miqdori kam bo'ladi va qimmatli qog'ozlarni zararga sotishdan tushum soliqqa tortilmaydi. Shu sababli bu usul qimmatli qog'ozlar egalari uchun foydali hisoblanadi. Robo-maslahatchilar jarayonni avtomatlashtiradilar, bu esa foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.¹⁴²

Robo-maslahatchilarning bir qancha afzalliklarini ta'kidlash mumkin.

1. Arzon. Robo-maslahatchilar an'anaviy investitsiyalarni boshqarish xizmatlarini ko'rsatuvchi insonlarga - moliyaviy maslahatchilariga qaraganda ancha past narxlarda xizmat taklif qilishadi. Bunday turdagi dasturlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan minimal miqdor moliyaviy rejalashtiruvchilar tomonidan talab qilinadigan o'rtacha xizmat haqidan ancha past hisoblanadi, ya'ni robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish arzonga tushadi.

2. Foydalanish oson va xavfsiz. Robo-maslahatchilar mobil telefonlar yoki veb-ilovalar orqali investorlarga turli xil aktivlar sinflariga qulay tarzda sarmoya kiritishga imkon beradi. Bundan tashqari, ular foydalanuvchilarga moslashuvchanlik va xavfsizlikni ta'minlaydigan portfelni boshqarish imkoniyatini ham taqdim etadi. Robo-maslahatchilar investitsiyalarni boshqarish bo'yicha inson maslahatchilarga qaraganda arzonroq va tezroq xizmatlarni taklif qilsalar ham ularga to'liq shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif qilish uchun zarur bo'lgan subyektivlik yetishmaydi.¹⁴³

Robo-maslahatchilar investorlarga va foydalanuvchilarga savdo-sotiqni amalga oshirish va portfellarni yaratish uchun zarur bo'lgan resurslar va vositalar taqdim etadi, shuningdek, ularning investitsiyalarini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi. Robo-maslahatchilar investorlarga ko'proq moslashuvchanlik, arzon narxlar va yuqori nazoratni taklif qilsa-da, ularga inson maslahatchilari tomonidan taqdim etiladigan tajriba va subyektivlik yetishmasligini ta'kidlab o'tish lozim.

¹⁴² <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/knowledge/trading-investing/robo-advisors/>

¹⁴³ <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/knowledge/trading-investing/robo-advisors/>

Robo-maslahatchilarni risk darajasi past yoki riskli deyish noto‘g‘ri, ya’ni robo-maslahatchilar tomonidan boshqariladigan portfelning riskliligi to‘liq investorning qiziqishlariga bog‘liq. Robo-maslahatchilar investorlarga turli xil risklilik darajasi va xronologiya bo‘yicha turli takliflarni taqdim etishadi.

Risk qilishga moyil bo‘lgan investorlar riskli portfelni tanlashlari mumkin (masalan, ko‘proq aksiyalar, davlat obligatsiyalari), aksincha, riskdan qochgan investorlar past volatillikda past rentabellikni taklif qiladigan portfelni tanlashlari mumkin (portfelda risk darajasi past qimmatli qog‘ozlarning nisbatan yuqori ulushi mavjud bo‘ladi). Har bir individual investorning riskga bo‘lgan moyilligini baholash orqali robo-maslahatchilar individual portfellarni shakllantirishi mumkin.



21.1-rasm. Robo-maslahatchilarni tanlashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar¹⁴⁴

¹⁴⁴ <https://investadisor.com/what-is-robo-advisor-investing/> -

Robo-maslahatchilar sohasida juda ko‘p kompaniyalar mavjud bo‘lib, foydalanuvchi o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib eng mos keladigan robo-maslahatchini tanlashi bir muncha qiyinchilik tug‘diradi. Quyida robo-maslahatchini tanlashda e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar keltirib o‘tilgan (1-rasm).

21.3. Robo-maslahatchilar bo‘yicha xorij tajribasi

Barcha robo-maslahatchilar tomonidan investitsiya imkoniyatlari teng ravishda yaratilmagan. Mavjud barcha xususiyatlarni ko‘rib chiqmasdan investitsiya kiritish riskli hisoblanadi. Shuning uchun har qanday investor pulni boshqarish uchun robo-maslahatchilarni tanlashdan avval ular o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishi zarur (1-jadval).

21.1-jadval

Robo-maslahatchilar o‘rtasidagi asosiy farqli jihatlar¹⁴⁵

№	Robo-maslahatchilarning farqli jihatlar	Izoh
1.	Investitsion yondashuv	Robo-maslahatchilar aktiv va passiv investitsion yondashuvni taklif etadi
2.	Investitsiya turi	Investitsiya qilishning eng keng tarqalgan turi birja savdolari bilan shug‘ullanuvchi fondlar (ETF)ga kiritiladigan investitsiyalardir
3.	Xususiyatlari va xizmat turlari	Ko‘pchilik robo-maslahatchilar tomonidan muvozanatlashgan portfel, soliq yo‘qotishlarining oldini olish, nafaqaga chiqish kabilar bo‘yicha o‘z xizmatlarini taklif etadi
4.	Hisobraqam turlari	Bugungi kunda ko‘pchilik robo-maslahatchilar tomonidan IRA (Roth IRA va SEP IRA), UTMA, biznes hisobraqamlari kabilar taklif etiladi
5.	Minimum investitsiya miqdori	Robo-maslahatchilar tomonidan past darajadagi (masalan, M1 Finance-100\$, Wealthfront-500\$, Axos Invest-500\$), hattoki, nol qiymatdagi (Betterment – 0 \$) investitsiya minimumlari mavjud
6.	Maslahat berish va xaridorlarga xizmat ko‘rsatish	Maslahat berish va xaridorlarga xizmat ko‘rsatishning raqamli, mobil, matn yoki xodim ko‘rinishidagi turlari mavjud
7.	To‘lovlar	Maksimal to‘lovlar kapitalning 1-1.5% qismini tashkil etadi.
8.	Naqd pullarni boshqarish va kredit	Robo-maslahatchilar tomonidan ushbu turdagi xizmatlar ham taqdim etiladi

¹⁴⁵ <https://www.roboadvisorpros.com/differences-between-robo-advisors/>

Quyida robo-maslahatchilar o'rtasidagi asosiy 8 ta farqli jihatlar berilgan:

1. Investitsion yondashuv: passiv va aktiv

Robo-maslahatchining investitsion yondashuvi muhim ahamiyatga ega, chunki bu foydalanuvchining pulni boshqarish uslubiga ta'sir qiladi. Ko'pgina robo-maslahatchilar passiv investitsion yondashuvni taklif qilishadi.

Passiv investitsion yondashuvda platformalar (robo-maslahatchilar) S&P 500, xalqaro aksiyalar indeksleri, obligatsiyalar indeksleri va boshqa shu kabi investitsiya indekslarining ko'rsatkichlariga mos kelish uchun foizi past bo'lgan mablag'lardan foydalanadi. Robo-maslahatchilarning ushbu yondashuvdan foydalanishlarining sababi shundaki, aksariyat aktiv yondashuvni tanlagan fond menejerlari xalqaro indekslarda ko'rsatkichlarini yaxshilay olmaydi. Passiv yondashuvga ega robo-maslahatchilar foydalanuvchilar uchun risk darajasi past bo'lgan portfelni shakllantirishda juda qulay hisoblanadi.

Yana bir farq qiluvchi omil shundaki, ba'zi robo-maslahatchilar aktiv yondashuvdan foydalanadilar. Ushbu robo-maslahatchilar faol tarzda investitsiyalarni amalga oshiradi, shuningdek, xalqaro indekslar ko'rsatkichlariga mos kelish uchun inson moliyaviy maslahatchilari yordamidan ham foydalanadi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, bunda investitsiya strategiyasi bozor sharoitidan kelib chiqqan holda o'zgarishi mumkin. Bugungi kunda Personal Capital, Elm Partners, Merrill Edge, T Rowe Price va Titan Invest kabi robo-maslahatchilar aktiv investitsion yondashuvni taklif qilishadi.

Ko'pgina platformalar moliya bozorlaridagi o'zgarishdan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olishda yondashuvdan qat'iy nazar diversifikatsiya qilingan investitsiya portfelini taklif etadi.

2. Investitsiyalar turlari

Investitsiyalarning turlari har bir platformada turlicha bo'ladi. Mavjud investitsiyalarning eng keng tarqalgan turi bu birja savdolari bilan shug'ullanuvchi fondlar (ETF)ga investitsiyalar hisoblanadi.

Ko'pchilik robo-maslahatchilar xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar birja savdolari bilan shug'ullanuvchi fondlar (ETF)ga investitsiyalarni taklif qilsa-da, robo-maslahatchilarda qo'shimcha investitsiya imkoniyatlari ham mavjud. Ba'zi raqamli investitsiya platformalarida ko'chmas mulk, tovar va investitsiyalarning muqobil turlari mavjud. Ba'zida individual aksiyalar mavjud. Shaxsiy kapital to'g'ridan-to'g'ri indekslash yordamida individual aksiyalarga sarmoya kiritish imkoniyatini taqdim etadi. Betterment va Wealthfront shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri indekslashni taklif qiladi, bu ETF egalik qilishiga qaraganda arzonroq va moslashuvchan bo'lishi mumkin.

3. Xususiyatlari va xizmat turlari

Taklif etilayotgan xizmat turlari robo-maslahatchilar orasida eng muhim farqlardan birini tashkil qilishi mumkin, chunki maqsadga erishishda yordam beradigan xizmatlarni tanlash juda muhimdir. Ba'zi robo-maslahatchilar soliq yo'qotishlarini oldini olish bo'yicha xizmatlarni taklif qilishadi.

4. Hisobraqam turlari

Ko'plab robo-maslahatchilar IRA hisob raqamlarini taklif qilishadi. Ba'zi robo-maslahatchilar faqat an'anaviy yoki Roth IRA dan foydalanishlari mumkin.

5. Minimum investitsiya miqdori

Oldindan sarmoya kiritish uchun ko'p pul bo'lmasa-da, ko'pgina robo-maslahatchilar investitsiyalarning eng kam miqdorlarini taklif qilishadi (masalan, M1 Finance-100\$, Wealthfront-500\$, Axos Invest-500\$, Betterment – 0 \$).

6. Maslahat berish va xaridorlarga xizmat ko'rsatish. Raqamli, mobil, matn (Betterment) va inson maslahatlari variantlarini topish mumkin. Odatda telefon bilan aloqa qilish soatlari dushanbadan jumagacha bo'lgan ish kunlari orasida bo'ladi, FidelityGo kabi robo-maslahatchilar 24/7 rejimi faoliyat ko'rsatadi.

7. To'lovlar. To'lovlar o'rtacha umumiy kapitalning 0.89 foizini tashkil etadi, hattoki, yuqori darajadagi avtomatlashtirilgan boshqaruvga ega robo-maslahatchilarda 1,0-1,5% gacha bo'ladi.

Namunaviy to'lov tuzilmalariga quyidagilar kiradi:

8. Naqd pullarni boshqarish va kredit

Robo-maslahatchilarda yangi, odatda, banklar tomonidan taqdim etiladigan bir nechta xizmatlar mavjud. Bularga kredit va naqd pullarni boshqarish xizmatlari kiradi. Barcha robo-maslahatchilar ham foydalanuvchiga to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun bunday holat foydalanuvchini xavotirga solmasligi lozim. Foydalanuvchi o'zining moliyaviy holatidan va portfelidan kelib chiqqan holda robo-maslahatchilarni tanlashlari zarur.

21.2-jadval


Xalqaro robo-maslahatchilar to'g'risida ma'lumot¹⁴⁶

№	Robo-maslahatchilar nomi	Komissiya to'lovi	Komissiya to'lovisiz boshqariladigan yillik investitsiya miqdori
1.	WealthSimple	0.4-0.5%	10000\$ gacha
2.	Wealthfront	0.25%	500\$dan 5000\$gacha
3.	Betterment	0.25%	-
4.	Ellevest	0.25%	-
5.	SoFi Automated Investing	0%	-

Robo-maslahatchilar segmentida boshqariladigan aktivlar 2021-yil yakunida 1,426 trln. AQSh dollariga yetishi taxmin qilinmoqda. Boshqariladigan aktivlarning yillik o'sish sur'ati 18,83% ni tashkil qilishi kutilmoqda, natijada 2025-yilga qadar 2,845 trln. AQSh dollari miqdoridagi bozor aylanmasi prognoz qilinmoqda. Robo-maslahatchilar segmentida foydalanuvchilar soni esa 2025-yilga borib 478 886 foydalanuvchilarni tashkil qilishi kutilmoqda. Robo-maslahatchilar segmentida bitta foydalanuvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha aktivlar 2021-yil yakunida 4873 AQSh dollarini tashkil qilishi kutilmoqda. Xalqaro ko'rsatkichlarga e'tibor qaratsak, robo-maslahatchilar orqali boshqariladigan aktivlarning eng yuqori darajasiga AQSh erishgan (2021-yil yakunida 999,036 mlrd. AQSh dollari bo'lishi prognoz qilingan)¹⁴⁷.

¹⁴⁶ <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/knowledge/trading-investing/robo-advisors/> -

¹⁴⁷ <https://www.statista.com/outlook/dmo/fintech/personal-finance/robo-advisors/worldwide>



21.2-rasm. Dunyo bo'ylab robo-maslahatchilar tomonidan boshqariladigan aktivlar hajmi, trln. AQSh dollari¹⁴⁸

Dunyo bo'yicha robo-maslahatchilar tomonidan boshqariladigan aktivlar hajmiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu ko'rsatkich 2015-yilda 0,1 trln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 8,1 trln. AQSh dollarini tashkil etgan (2-rasm).

Robo-maslahatchilarning investorlar faoliyatida o'rni bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

1. Institutsional investorlarning rivojlanishi kapital bozorini samarali shakllantirishga imkon beradi. O'z navbatida, institutsional investorlar faoliyat samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularni, shu jumladan, robo-maslahatchilarni qo'llash ijobiy natijalarga erishishda yordam beradi.

2. Robo-maslahatchilar turli investorlar va aholi mablag'larini keng qamrovda jalb qilish uchun qulay imkoniyatlarga ega, chunki arzon va qulay xizmat, ishonchli boshqaruv, past darajadagi risk hamda uncha katta bo'lmagan moliyaviy resurs bilan investitsiya faoliyatini boshlash imkoniyati robo-maslahatchilarning asosiy afzalliklari

¹⁴⁸ <https://www.statista.com/statistics/741512/aum-of-robo-advisors-globally/>

hisoblanadi. Ba’zida robo-maslahatchilarning institutsional investorlar bilan raqobatga kirishishi ham kapital bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Robo-maslahatchilarning portfelni boshqarish va soliq bo‘yicha xarajatlarni kamaytirishdagi imkoniyatlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Soliq yuki va soliq stavkasi baland bo‘lgan mamlakatlarda robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish investorlarni kapital bozoriga keng ko‘lamda jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

4. Rivojlanayotgan mamlakatlar kapital bozorida institutsional investorlar faoliyatini rivojlantirishda robo-maslahatchilar amaliyotidan samarali foydalanish uchun xalqaro tajribani o‘rganish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini milliy amaliyotga moslashtirish zarur.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Robo-maslahatchilar (robo-advisors) foydalanish obyektiv zaruratni izohlang.
2. Robo-maslahatchilarning mazmun-mohiyati va ahamiyati.
3. Robo-maslahatchilar investitsiya faoliyati bo'yicha maslahat olish.
4. Investitsiya faoliyatida robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.
5. Robo-maslahatchilar risklarni kamaytirish.
6. Robo-maslahatchilar investorlarga va foydalanuvchilarga savdo-sotiqni amalga oshirish va portfellarni yaratish.
7. Robo-maslahatchilarni tanlashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlari.
8. Robo-maslahatchilar o'rtasidagi asosiy farqli jihatlari.
9. Robo-maslahatchilar bo'yicha xorij tajribasi

2. Robo-maslahatchilarning afzalliklari va kamchiliklaridan kelib chiqqan holda T-sxema shakllantiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari

TESTLAR

1. Quyidagilardan qaysi biri "Robot jarayonlarni avtomatlashtirish" funksiyasi tarkibiga kirmaydi?

- a) Mijozlarga maslahat berish
- b) Reglamentga muvofiqlikni boshqarish
- c) Elektron pochta va chatbotlar orqali aloqa va marketing
- d) Statistika va ma'lumotlarni yig'ish

2. ERP qanday tizim?

- a) ERP so'z qisqartmasi inglizcha "Enterprise Resource Planning System" so'zlarining bosh harfidan olingan bo'lib, "korxona resurslarini rejalashtirish tizimi" degan ma'noni bildiradi
- b) Mijozlarga maslahat berish tizimi
- c) Elektron pochta va chatbotlar orqali aloqa va marketingi

d) Investision vositachilar boshqarish tizimi

3. ERP tizimlar boshqa tizimlardan nimasi bilan farqlanadi?

a) ERP tizimlar korxona resurslarini biron-bir qismini emas, balki uning barchasini boshqarish uchun mo'ljallangan

b) ERP tizimlar korxona resurslarini bir qismini boshqarish uchun mo'ljallangan

c) ERP tizimlar korxona resurslarini bir qismini boshqarish uchun mo'ljallangan

d) ERP tizimlar korxona resurslarini moliyaviy resurslarini boshqarish uchun mo'ljallangan

4. ... mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish uchun maxsus dasturdir.

a) CRM tizimlari

b) ERP tizimlar

c) CAP tizimlar

d) KPI tizimlar

5. ... samaradorlikning muhim ko'rsatkichi — maqsadlarga erishishga yordam beruvchi ko'rsatkichlarni shakllantirishga qaratilgan tashkilotlarning baholash metodikasi.

a) KPI

b) ERP

c) CRM

d) CAP

6. ... bu shunday qulay vositaki mijozlar yoki hamkorlar bilan aloqa ma'lumotlarini saqlashga, sotish imkoniyatlarini aniqlashga, xizmat ko'rsatishdagi muammolarni aniqlashga va marketing kompaniyalarini boshqarishga imkon beradi

a) CRM

b) ERP

c) KPI

d) CAP

7. Blokcheyn texnologiyalarning xususiyati nimada?

a) Markazlashmaganligida

- b) Taqsimlanganligida
- c) Markazlashganida
- d) Yagona tizimga egaligi

8. Eng birinchi yaratilgan blokcheyn texnologiyalar asosida yaratilgan kriptovalyuta hisoblanadi.

- a) Bitkoyn
- b) Bitcoin Cash
- c) Litecoin
- d) TRON

9. Blokcheyn texnologiyalarni yaratuvchi va ularni yangilab borish bilan shug'ullanuvchilar bu ...

- a) Kreatorlar
- b) Distribyuterlar
- c) Kriptograflar
- d) Maynerlar

10. Bitkoyning narxi baland bo'lganligi tufayli uni kichik birliklarda ifodalash uchun qanday birlik ishlatiladi?

- a) Bitkoin Cash
- b) Satoshi
- c) Cash
- d) One Coin

XXII BOB. MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VA KROUDEFANDING¹⁴⁹

22.1. Muqobil moliyalashtirish bozorini ilmiy-nazariy asoslari

Jahonda ilgʻor xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti oʻz rivojlanishida moliyalashtirish masalasida turli murakkablik va muammolarga duch kelmoqda. Jahon moliyaviy inqirozi butun dunyoning bank-moliya bozoriga juda katta taʼsir koʻrsatdi. Ilgʻor xorijiy mamlakatlar banklari oʻzlarining risklarini kamaytirish maqsadida investitsiyalar va kapital qoʻyilmalarini keskin tarzda qisqartirmoqda va albatta, biznes vakillari buni oʻzlarida sezilarli darajada his etdilar. Bunday sharoitda moliyalashtirishning anʼanaviy usullari va manbalariga nisbatan ularning muqobil variantlarini qidirib topish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatdan olib qaralganda, muammoning diqqatga sazovorligi shundaki, jahon amaliyotida allaqachonlardan buyon moliyalashtirishning muqobil variantlaridan yetarli darajada foydalanib kelinmoqda. “Ilgʻor xorijiy mamlakatlarda muqobil moliyalashtirish bozori 20 yildan beri mavjud boʻlib, ulkan rivojlanishga erishdi. AQSHda muqobil moliyalashtirish bozori 44,3 mlrd. dollarga, Yevropada 36,0 mlrd. dollarga, Osiyo muqobil moliyalashtirish bozori esa 361,0 mlrd. dollarga baholanmoqda”. Ilgʻor xorijiy mamlakatlari tajribasi yuqori investitsiyaviy qiymatga ega muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish zarurligini koʻrsatmoqda.

Jahonda globallashuv sharoitida muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish va takomillashtirish borasida bir qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy-tadqiqotlarda muqobil moliyalashtirish bozori va uni moliya bozorining ajralmas qismi sifatida faoliyatini takomillashtirish, muqobil moliyalashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarni jalb qilish, mazkur

¹⁴⁹ Mazkur bob B.Murodovning “Oʻzbekistonda muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish” mavzusida iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferatidan olindi.

faoliyatni muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish, milliy muqobil moliya bozorlarini halqaro muqobil moliya bozorlariga integratsiyasini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarning muqobil moliyalashtirish bozori va risklarni inobatga olgan holda, yetarli darajada barqaror emasligi, rivojlangan mamlakatlar muqobil moliyalashtirish bozorining aylanmasi boshqa davlatlar bilan tafovutning kattaligi, muqobil moliyalashtirish bozorlarining ishtirokchilar uchun qo'yilgan talablarning farq qilishi tufayli o'zaro integratsiyani ta'minlashning qiyinligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan muqobil moliyalashtirish bozoridan investitsiyalarni jalb qilishda mavjud salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotganligi sababli mazkur masala bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotidagi barqarorlikni ta'minlashda kapital oqimini oshirish, bu jarayonda muqobil moliya bozorini jadal rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham islohotlarning hozirgi yangi bosqichida muqobil moliya bozorini yangi bosqichga ko'tarish uchun muhim huquqiy asoslar yaratilib, institutsional qadamlar tashlanmoqda. "O'z navbatida, 2019 yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi bor-yo'g'i 17,6 foizni tashkil qildi. Jahon banki ekspertlari iqtisodiyotda monetizatsiya koeffitsiyenti 40 foizdan kam bo'lsa to'lovsizlik muammosini hal qilib bo'lmasligi isbotlanib, davlat budjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtirish esa qat'iy cheklangan va u doim qat'iy maqsadli xarakterga ega bo'lib kelgan". Bir paytning o'zida "Bank-moliya tizimini rivojlantirish uchun keskin choralar ko'rishimiz lozimligi, bank-moliya tizimi raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank-moliya mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqadadir".

Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ta'minlashda zamonaviy moliyaviy texnologiyalar va tadbirkorlik subyektlari loyihalarini

moliyalashtirishning kraudfanding va boshqa muqobil mexanizmlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614-son “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-son “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 iyuldagi VM-468-sonli “Toshkent shahrining Yashnobod tumanidagi innovatsiya texnoparki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifa va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlashga mazkur darslik muayyan darajada xizmat qiladi.

“Muqobil moliyalashtirish bozori” iborasi keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda sekin-astalik bilan qo‘llanilib kelinayotgan iboralardan biri hisoblanadi. U hozircha, asosan, tor va shu muammo bilan qiziquvchi hamda shug‘ullanuvchi mutaxassislar doiralari-dagina ishlatilmoqda, xolos. Uning o‘zbek iqtisodiy (moliyaviy) termina-logiyasiga kirib kelgani va ishlatilayotganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Buning ustiga, bu masalaga tez-tez murojaat qilish hollari ham deyarli uchramay turibdi. Bu bozorning mohiyatini aniqlash masalasiga, eng avvalo, uningajralmas jihatlarini ifodalovchi “muqobil”, “moliyalashtirish” va “bozor” kabi so‘zlar orqali qanday ma’no-mazmun va mohiyat ifodalangan bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratish lozim. Biroq, bizningcha, ular ham yetarli emas. Bu yerda “muqobil moliyalashtirish” va “moliyalashtirish bozori” iboralarining ham nimani anglatishi e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Shuning uchun “muqobil moliyalashtirish bozori”ning mazmun-mohiyatini ifodalash, bir paytning o‘zida, dastlab keltirilgan mustaqil uch so‘z

mazmun-mohiyatini mexanik tarzda qo‘shilishidan hosil bo‘lmaydi. Nazarimizda, bu o‘rinlarda o‘sha uch so‘zga qo‘shimcha ravishda yana keyin keltirilgan “muqobil moliyalashtirish” va “moliyalashtirish bozori” iboralarining ham qo‘shib hisoblash va undan so‘ng tegishli mohiyatni ifodalovchi ta’rifni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, ularni umumlashtirib va umumiy kesishuv nuqtalarini hisobga olgan holda, fikrimizcha, “muqobil moliyalashtirish bozori”ning mazmun-mohiyatini ifodalashga xizmat qiluvchi quyidagi ta’rifni berish mumkin: “Moliyalashtirish bozorining tarkibiy qismi bo‘lgan, o‘zida moliyalashtirishning noan’anaviy ikki va undan ko‘proq bo‘lgan variant (shakl)larini taklif qiluvchi moliyaviy manba (mablag‘)lar bozoriga muqobil moliyalashtirish bozori deyiladi”. Bu ta’rifda unga xos bo‘lgan: a) “muqobil moliyalashtirish bozori”ning umumiy moliyalashtirish bozorining bir qismi ekanligi; b) bu bozorning o‘zida noan’anaviy moliyalashtirishning ikki va undan ko‘proq bo‘lgan variant (shakl)larining taklif etilishi; v) “muqobil moliyalashtirish bozori”ning turli belgilariga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi noan’anaviy moliyaviy manba (mablag‘)lar bozoridan iborat ekanligi kabi asosiy jihat (belgi, xususiyat)lar o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston sharoitida muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirishning obyektiv zarurligi, birinchi navbatda, quyidagilar bilan belgilanadi: a) ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyalashtirish mamlakatimizda juda qiyinchilik bilan amalga oshirilmoqda; b) mavjud moliyalashtirish manbalarining ko‘lami va hajmi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash ehtiyojlaridan ortda qolmoqda; v) shu jarayonlarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalanish nuqtai-nazaridan ham bozor iqtisodi talablari darajasida deb bo‘lmaydi; g) bu jarayonlarda hanuzgacha an’anaviy variantlardan foydalanib kelinmoqda; d) mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyalashtirishda dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida ko‘p yillardan buyon qo‘llanilib kelinayotgan moliyalashtirishning yangi,

muqobil moliyalashtirish instrumentlaridan yetarli darajada foydalanilmasdan kelinyapdi;

“Muqobil moliyalashtirish bozori”ning ahamiyati, qisqacha, quyidagi-larda namoyon bo‘lishi mumkin: a) O‘zbekistonda ham madaniylashgan “muqo-bil moliyalashtirish bozori” tarkib topsa va rivojlansa, bu eng avvalo, boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda, moliyalashtirish bozorining kengayishiga olib keladi; b) “muqobil moliyalashtirish bozori”ning vujudga kelishi, barqaror tarkib topishi va rivojlanishi “moliyalash-tirish”ning diversifikatsiyalashuvini oshiradi, bu esa, o‘z navbatida, tegishli jarayonlarning risklashuv darajasini kamaytiradi; v) moliyalashtirish bozorining alohida segmenti hisoblanishi mumkin bo‘lgan “muqobil moliyalashtirish bozori”da, boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda, moliyalashtirish manbalarining bahosi, shunga mos ravishda pasayadi va h.k.;

Muqobil moliyalashtirish bozori an’anaviy bank yoki kapital bozori moliyasidan “dezintermediatsiya” (vositachilarni moliyalashtirish zanjiri—dan chiqarib yuborish) orqali farq qilib, yangi texnologiya asosida uchinchi tomon sarmoyasini investorlar va kreditorlar o‘rtasida bog‘laydi yoki uni jalb qiladi. Bu, o‘z navbatida, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi va moliya bozori samaradorligini oshiradi. Muqobil moliyalashtirish bozorining qanday faoliyat ko‘rsatishini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).

Rivojlanayotgan muqobil moliyalashtirish bozori vositalari ba’zan bir-biriga mos keladi va bir-birining xususiyatlarini birlashtira oladi. Masalan, bu o‘rinda muqobil moliyalashtirish shakllaridan bo‘lgan P2P kreditlash (peer-to-peer lending) va kraudfanding (crowdfunding) bozor krediti sifatida qaralishi mumkin.

Muqobil moliyalashtirish bozorining rivojlanishini rag‘batlantirish quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin: a) aholining katta qismi yoshlar bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda (O‘zbekiston esa shunday mamlakatlar sirasiga kiradi) ijtimoiytarmoq moliyaviy tizimlarni va muqobil moliyalashtirish platformalarini ommaviy ko‘payishiga olib keladi; b) ijtimoiy munosabatlarni umumiy

intellektualizatsiya qilish va intellektual internetni yoki tarmoq intellektini shakllantiradi.

Dunyo iqtisodiy (moliyaviy) adabiyotlarida bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi, shu jumladan, kichik va o‘rta biznes subektlari uchun bank cheklovlarining turli sabablari tasvirlangan. Xususan, M.Bhardining fikriga ko‘ra, kichik va o‘rta biznesning moliyaviy inqirozi banklar tomonidan kreditlar ajratilmasligi sabablidir. Zero, ularning tadqiqotlariga ko‘ra, banklar iqtisodiyotning zaif (inqirozli) holatida kredit shartlarini oshirish (og‘irlashtirish)ga moyildirlar.

Muqobil moliyalashtirish bozori manbalarining kengayishi va ular rivojlanishining asosiy sababi moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyingi zaif (nochor) iqtisodiy holatdir. G.Bruton va boshqalar esa muqobil moliyalashtirish manbalarining kengayishi va shunday bozorning tarkib topishi va o‘rishini an’anaviy moliyaviy tizim tomonidan moliyalashtirishning cheklanganligi bilan izohlaydilar. Bundan tashqari, muqobil moliyalashtirish tashabbuslari, asosan, onlayn tarzda rivojlanadi. Internet esa bu orqali o‘zini innovatsion platforma sifatida namoyon etadi.

R.Vardop va boshqalarning fikricha, an’anaviy moliyalashtirishdan farqli o‘laroq, moliyalashtirishning muqobil shakl (variant)lari qarz beruvchi va qarz oluvchilar uchun potensial foyda keltiradi. Umuman olganda esa kreditor (biznes yoki iste’molchi)lardan olingan daromad (qaytgan pul) an’anaviy moliyaviy institutlar taqdim etadigan foiz stavkalariga nisbatan yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, risklilik va foyda nuqtai nazaridan muqobil moliyalashtirishning foydaliligi hali yetarli darajada aniq emas. Shunga qaramay, moliyalashtirishning muqobil shakl (variant)lari sarmoyadorlar va qarz beruvchi (korxonalar va iste’mol-chi)larga qo‘shimcha investitsiya va kredit berish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bir paytning o‘zida, an’anaviy tijorat banklaridan kapital (mablag‘, resurs)ni jalb qilish uzoq davom etadigan jarayon bo‘lishi mumkin. Holbuki, turli muqobil moliyalashtirish manba (mablag‘)lari o‘zlarining ko‘rib chiqish tezligi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, darslikda muqobil moliyalashtirish bozorining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan P.Pinotti, N.Allen va boshqalarning ham nazariyalari o'rganilgan va ular asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan. Ulardan kelib chiqadigan va prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan xulosa quyidagidan iborat: O'zbekistonda muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish: a) ijtimoiy-iqtisodiy muhitning yaxshilanishiga; b) moliyalashtirishdagi muammolarni, ma'lum darajada, ijobiy tomonga hal bo'lishiga olib keladi va u bozor iqtisodi barcha subyektlarining manfaatlariga birdek xizmat qiladi.

22.2. Kraudfanding moliyalashtirish

O'zbekistonda keyingi 3-4 yil davomida, jumladan, iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining moliyalashtirish mexanizmlarini isloh qilishni taqozo etmoqda. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda muqobil moliyalashtirish va ulardan foydalanishda muammolarning mavjudligi ham uni isloh qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, ushbu muammoni hal etishda jahonning rivojlangan mamlakatlarida muqobil moliyalashtirish borasida to'plangan tajribalarni chuqur tahlil etish va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari tajribasini o'rganish va tahlil qilish alohida ahamiyatga ega.

Butun dunyoda investitsion resurslarga ega bo'lish bilan bog'liq bo'lgan murakkabliklarning oldini olish yoki ularni hal qilish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari moliyalashtirishning muqobil manbalariga murojaat qilishga majbur bo'lishmoqdaki, ular, o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda tobora muhim rolni o'ynamoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi bilan internet-texnologiya-larning rivojlanishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Ularni moliyalashtirish sohasida tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi, an'anaviy kreditlash bilan taqqoslaganda, pul

mablagʻlarini tez, oddiy va shaffof jalb qilishga imkon beradigan onlayn-instrumentlarga kirish imkonini bermoqda. Ana shunday muhim muqobil moliyaviy instrumentlardan biri kraudfanding hisoblanadi. Kapitalni jalb qilishga ehtiyoj sezuvchi tadbirkorlar, uni jalb qilish manbai boʻlgan omonatchilar va vositachilarning hamkorligiga kraudfanding deyiladi. Hozirgi paytda butun dunyoda kraudfandingning bozor moliyaviy tizimi sifatida faol shakllantirilishi sodir boʻlmoqda. Amalga oshirilgan xorijiy tadqiqotlarda 2020 yilning oʻrtalariga kelib muqobil moliyalashtirish manbalarining, shu jumladan, kraudfandingning kichik va oʻrta korxonalarni moliyalashtirishda ahamiyatining keskin oshishini tasdiqlovchi bashoratlar mavjud .

Kraudfanding salohiyatining sezilarli boʻlganligi uning rivojlanishi uchun tegishli muhitni yaratishni taqozo etadi. Koʻplab mamlakatlarda kraudfanding, bir vaqtning oʻzida shaffoflik muammosini hal etish va investorlar manfaatlarini himoya qilish bilan birgalikda, moliyalashtirish instrumentini joriy etish nuqtai-nazaridan, tartibga soluvchi organlar tomonidan eʼtiborni jalb qilmoqda. Kraudfandingga nisbatan qiziqishning ortib borayotganligi yana shu bilan belgilanadiki, hukumatlar darajasida u yangi ish oʻrinlarini yaratish va makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash usuli sifatida qaralmoqda.

Kembrij universiteti qoshidagi “Muqobil moliyalashtirish markazi” maʼlumotlariga koʻra 2013-2017 yillarda Amerika qitʼasi muqobil moliyalashtirish bozorining hajmi 10 barobardan koʻproqqa ortgan, yaʼni 4,6 mlrd. AQSH dollaridan 44,3 mlrd. AQSH dollariga yetgan.

Shu davrda Osiyo Tinch okeani mintaqasi boʻyicha muqobil moliyalashtirish bozorining jalb qilingan mablagʻlari hajmi 50 barobardan koʻproqqa ortgan, yaʼni 6,0 mlrd. AQSH dollaridan 361,0 mlrd. AQSH dollariga yetgan. Osiyo Tinch okeani mintaqasida Xitoy davlatida muqobil moliyalashtirish bozorining Osiyo Tinch okeani mintaqasidagi boshqa davlatlarga nisbatan eng katta hajmga ega ekanligini yaqqol koʻrishimiz mumkin.

Oxirgi 10 yilliklar xorijiy huquq sohasida kraudfanding bitim-lari ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va mexanizmlarni tartibga soluvchi normativ bazaning shakllanayotganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, muqobil moliyalashtirish manbalari bozorining eng yirigi bo'lgan Buyuk Britaniyada kraudfanding bilan bog'liq bo'lgan faoliyat qattiq tartibga solingan va uni amalga oshirish maxsus ruxsatsiz mumkin emas. Bundan tashqari, 2014 yildan boshlab britaniyalik investorlar bitimlarda kraudfanding riskini to'liq idrok etmagan insonlar ishtirok etishining oldini olish uchun maxsus sertifikatsiyalash tartibiga rioya qiladilar .

AQSHda esa 2012 yilning 5 aprelida JOBS (Jumpstart Our Business Startup) qonuni kuchga kirgan bo'lib, u aksionerlik kraudfandinggi uchun normativ bazani o'rnatdi va akkreditatsiya qilinmagan investorlarni belgiladi. Unga ko'ra har qanday amerikalik kraudfanding loyihasi cheklanmagan investorlar hisobidan 12 oy davomida maksimum 1,0 mln. AQSH dollari to'plashi mumkin. Biroq, investorlarga o'zlarining umumiy yillik omonatiga nisbatan cheklanma o'rnatilgan – u 2 000 AQSH dollaridan yoki yillik daromad 100,0 ming AQSH dollaridan oshmasa, 5 foiz va bu yillik daromad 100,0 ming AQSH dollaridan oshadigan bo'lsa, uning 10 foizidan oshmasligi kerak. Oxirgi holatda bir investor umumiy yillik omonatining summasi ham 100,0 ming AQSH dollaridan oshmasligi lozim . Fransiyada esa loyihaga qo'yilishi lozim bo'lgan summa bir xususiy shaxs uchun 250,0 yevrodan oshmasligi zarur. Shuningdek, bu mamlakatda kompaniya tomonidan kraudfanding yordamida to'planishi lozim bo'lgan maksimal summa 300,0 ming yevrodan oshmasligi kerak. Yaponiyada kraudfanding bozorining o'z-o'zini tartibga solishi katta ahamiyat kasb etadi. Japan Securities Dealers Association muqobil moliyalashtirishdan foydalanayotgan kompaniyalarning skriningi va investorlarning xavfsizligi hamda kraudplatformalarning faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarning monitoringini amalga oshiradi.

Rossiya Federatsiyasida kraudfanding amalda tartibga solinmaydigan faoliyatga aylanib qolgan. Shuning uchun ham bu mamlakatda bu soha bo'yicha nazorat-tartibga soluvchi tuzilmani shakllantirish muammosi o'tkir muammolardan biriga aylangan. Bunda tartibga soluvchi choralarni ishlab chiqishda faqatgina tadbirkorlar va investorlar emas, balki moliyaviy muassasalar ham manfaatdordir. Zero, ular kraudfanding platformalari tufayli foydasining bir qismidan mahrum bo'lib qolmoqdalar. Ishonchli onlayn-birlashmali tuzilmalar va pullarni o'tkazish bo'yicha xavfsiz tizimlarning mavjud bo'lmaganligi kraudfanding platformalari va an'anaviy moliyaviy muassasalarning integratsiyalashuvi zarurligini taqozo etmoqda.

22.3. O'zbekistonda muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirishning asosiy muammolari

O'zbekistonda kraudfanding muqobil moliyalashtirish manbai yoki shunday bozorning elementi sifatida deyarli tarqalmagan. Buning sababi faqat tartibga solish va standartlashtirish masalalarida emas, balki muqobil moliyalashtirishning bunday ko'rinishi to'g'risidagi ma'lumot-larning yetarli emasligida hamdir. Ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari shunday moliyalashtirish usulining bor ekanligini hatto bilmaydilar.

Kichik biznes loyihalariga kraudfanding, kraudinvesting, kraudlending (P2P) va bank krediti orqali mablag'larni jalb qilishda ma'lum bir afzallik va kamchiliklar mavjud.

Startaplarni (boshlang'ich) moliyalash-tirish uchun kraudfanding platformasidan foydalanish samaraliroq. Chunki mablag' yig'ishning ushbu turidan foydalanishning afzalliklari ko'proq. Shu bilan birga, agar loyiha kerakli miqdordagi mablag'ni to'plamasa ham, kraudfanding mahsulot va tovarni ommalashtirish usuli, ommaviy iste'molchi yoki innovatsiyalar foydalanuvchisini qo'llab-quvvatlash vositasi,

shuningdek, tovar ishlab chiqaruvchilar uchun iste'molchilarning xohish-istaklarini o'rganish usuliga aylanishi mumkin.

Kraudfandingning o'ziga xosligi shundaki, u an'anaviy ma'nodagi kreditlash bilan almashtirilishi mumkin emas. U ko'p funksiyali moliyaviy instrument hisoblanadi. Fikrimizcha, agar kraudfandingga davlat tomonidan e'tibor beriladigan bo'lsa, u kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda impuls beruvchi tramplenga aylanishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda kraudfanding platformalari va bank sektorining o'zaro olib boradigan faoliyat yo'nalishlari mavjud. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, banklar qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholashda o'zlarining tahlillari doirasiga ushbu qarz oluvchilarning kraudfanding maydonlaridagi faoliyati tahlilini ham kiritishlari mumkin. Mazkur holatda, agar loyiha kerakli pul miqdorining kamida yarmini to'plasa, kredit riski kamayadi va bank yetishmayotgan qismini qo'shimcha moliyalashtirishi mumkin.

Muqobil moliyalashtirish bozorining ishlash mexanizmi tadbirkor platforma tanlashidan boshlab loyihadan foyda olish jarayonigacha shaffof va o'rtada birorta vositachisiz amalga oshirilishiga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, moliyalashtirish jarayonini tranzaksion xarajatlarsiz amalga oshirishga imkon yaratadi va o'z navbatida mahsulot yoki xizmatlar tanarxida o'z aksini topadi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR


1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Muqobil moliyalashtirish va kroudfanding iqtisodiy mohiyati va yuzaga kelishi.
2. Muqobil moliyalashtirish bozorini ilmiy-nazariy asoslari.
3. Muqobil moliyalashtirish bozorining ishlash mexanizmi.
4. Muqobil moliyalashtirish bozori manbalari.
5. Amerika qit'asi muqobil moliyalashtirish bozori
6. Osiyo Tinch okeani mintaqasida muqobil moliyalashtirish bozori.
7. O'zbekistonda muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirishning asosiy muammolari

2. Muqobil moliyalashtirish va kroudfanding afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha T-sxemani to'ldiring.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1	1
2	2
3	3
...	...

3. O'zbekistonda muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish bo'yicha klaster shakllantiring.



TESTLAR

1. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi aksiyador o'tkazmalarini bajaradi, boshqa faoliyatlar hisobini yuritadi va aksiyadorga hisobraqamdan ko'chirma va hujjatlarni taqdim etadi?

- a) transfer agent
- b) asosiy anderrayter
- c) investitsiya maslahatchisi
- d) kastodian

2. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi Fond faoliyatini kuzatib boradi, boshqaruvchi kompaniya va boshqa xizmat ko'rsatuvchilar bilan shartnomalarni ma'qullaydi?

- a) direktorlar kengashi
- b) administrator
- c) asosiy anderrayter
- d) investitsiya maslahatchisi

3. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi fond aktivlarini aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida alohida saqlaydi, fond aktivlarini tartibga soladi?

- a) kastodian
- b) transfer agent
- c) asosiy anderrayter
- d) investitsiya maslahatchisi

4. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi fond ustavida belgilangan maqsad va siyosatga muvofiq, fond portfelini boshqarish vazifasini bajaradi?

- a) investitsiya maslahatchisi
- b) asosiy anderrayter
- c) transfer agent
- d) kastodian

5. Investitsiya fondlarining qaysi tashkiliy tuzilmasi fond aksiyalarini to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa firmalar (broker-dilerlar) orqali sotadi?

- a) asosiy anderrayter
- b) investitsiya maslahatchisi
- c) transfer agent
- d) kastodian

6. Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi O‘zR qonuniga ko‘ra, “Investorlarning pul mablag‘larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo‘yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs – aksiyadorlik jamiyati – ...

- a) investitsiya fondi
- b) jamg‘arma
- c) kredit
- d) valyuta fondi

7. Investitsiya aktivlarni ishonchli boshqaruvchi faoliyati

a) qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida tushuniladi

b) Investorlarga vositachilarni jalb etmay turib, qimmatli qog‘ozlar savdosini maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalangan holda tashkil etilgan faoliyat turi

c) muayyan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish narxlarini oshkora e‘lon qilish orqali o‘z nomidan va o‘z hisobidan qimmatli qog‘ozlarga doir oldi-sotdi bitimlarini tuzish faoliyatidir

d) aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan xizmatlar ko‘rsatish faoliyati.

8. KPI tizimini amaliyotga tadbqiq etish uchun qanday algoritmgga amal qilish kerak bo‘ladi?

a) KPI tizimini tadbqiq etish bo‘yicha puxta reja ishlab chiqish, KPI tizimini tadbqiq etish bo‘yicha huquqiy asosni yaratish, KPI tizimi bo‘yicha avtomatlashtirilgan dastur yaratish, KPI tizimini amaliyotga tadbqiq etish, KPI tizimi samaradorligini monitoring qilish.

b) KPI tizimini tadbqiq etish bo‘yicha huquqiy asosni yaratish, KPI tizimi bo‘yicha avtomatlashtirilgan dastur yaratish, KPI tizimini amaliyotga tadbqiq etish, KPI tizimi samaradorligini monitoring qilish.

c) KPI tizimini tadbqiq etish bo‘yicha puxta reja ishlab chiqish, KPI tizimi bo‘yicha avtomatlashtirilgan dastur yaratish, KPI tizimini amaliyotga tadbqiq etish, KPI tizimi samaradorligini monitoring qilish.

d) KPI tizimini tadbiq etish bo'yicha puxta reja ishlab chiqish, KPI tizimini tadbiq etish bo'yicha huquqiy asosni yaratish, KPI tizimi bo'yicha avtomatlashtirilgan dastur yaratish, KPI tizimini amaliyotga tadbiq etish.

9. KPI tizimini tadbiq etish bo'yicha puxta reja ishlab chiqish...

a) mas'ullarni belgilash, tashkilotni aniqlash, amaliyotga tadbiq etish muddatlarini belgilash va boshqalar

b) mos modelni tanlash, huquqiy bazani takomillashtirish, strukturani optimallashtirish, KPI bo'yicha hisobot shakllarini ishlab chiqish va boshqalar

c) tanlangan KPI modeli bo'yicha dastur ishlab chiqish, dastur bo'yicha mas'ullarni o'qitish va boshqalar

d) tizimning ishlashi va natijadorligi bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, ko'rchatkichlar to'g'ri yoki xato tanlanganligini o'rganish, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va boshqalar

10. KPI tizimini tadbiq etish bo'yicha huquqiy asosni yaratish

a) mos modelni tanlash, huquqiy bazani takomillashtirish, strukturani optimallashtirish, KPI bo'yicha hisobot shakllarini ishlab chiqish va boshqalar

b) mas'ullarni belgilash, tashkilotni aniqlash, amaliyotga tadbiq etish muddatlarini belgilash va boshqalar

c) tanlov asosida tashkilot va hududlarni ajratish, qolganlarda ham bosqichma bosqich joriy etish, tizimning ishlashi, maqsadi bo'yicha xodimlar malakasini oshirish va boshqalar

e) tizimning ishlashi va natijadorligi bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, ko'rchatkichlar to'g'ri yoki xato tanlanganligini o'rganish, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va boshqalar

XXIII BOB. MOLIYAVIY TASHKILOTLARDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR XUSUSIYATLARI VA ULARNI JORIY ETISH

23.1. Moliyaviy tashkilotlar moliyaviy texnologiyalar yaratuvchisi va taklif qiluvchisi sifatida.

Oxirgi 10-15 yillikda innovatsion bank mahsulotlari bozorida bank-moliya institutlaridan boshqa ishtirokchilar paydo bo'ldilar va o'z mahsulotlarini faol taklif qilmoqdalar. Yangi neobank ishtirokchilar va startaplarni A.V.Ribakov 3 turga bo'lib o'rganishni taklif qiladi¹⁵⁰. Ular:

1. FinTech kompaniyalar (Payme, WeFinance, Ripple);
2. Neobanklar (TBC, Tinkoff, Anorbank);
3. Yirik texnologik kompaniyalar (Google, Facebook)¹⁵¹.

2007 yilda AQSh ipoteka bozorida boshlangan va keyinchalik jahon moliyaviy krizis keltirib chiqargan bankning sifatsiz aktivlari ta'sirida, insonlarning bankka va uning mahsulotlariga bo'lgan ishonchi tushib ketdi. Ushbu krizisgacha APPLE kompaniyasi tomonidan smartfonlarning ishlab chiqilishi va PayPal kabi loyihalarning muvaffaqiyati sababli, insonlar o'z to'lovlarini amalga oshirishda banklardan emas, balki ko'proq ijtimoiy tarmoqlardan foydalana boshladilar. Natijada amerikaliklarning bor yo'g'i 28%i Citybankga ishonch bildirgan bo'lsalar, Amazon va Googlega bo'lgan ishonchlari mos ravishda 71% i 64%ni tashkil qildi¹⁵². Ya'ni, kommunikasion texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning kengayishi va bankka bo'lgan ishonksizlik natijasida nobank tizimi va kompaniyalarning moliyaviy mahsulotlari ommalashib bordi. Bunda turli aloqa vositalaridan keng foydalanish kengayib bordi.

¹⁵⁰ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

¹⁵¹ Рыбаков А.В. Цифровизация классических банков//Control Engineering Россия. – Москва, 2019. – №3 (81), С. 26-30.

¹⁵² Let's Talk Payments LLC, "Survey Shows Americans Trust Technology Firms More Than Banks and Retailers" (25 June 2015): <http://letstalkpayments.com>

Aloqa vositasi orqali (device) ko'rsatiladigan xizmatlar turlari¹⁵³

Xizmat nomi	Xizmat mazmuni
“Mijoz – bank” tizimi	Real vaqt rejimida har qanday bankdagi hisobraqamni kuzatib borish imkonini beradigan uzoq dasturi. Mijoz o'z mablag'lari bilan operasialarni amalga oshirish uchun bank filialiga tashrif buyurishi shart emas. Ushbu tizim doirasida foydalanuvchilar o'z hamkorlari bilan va joriy hisobvaraqlari doirasida hujjat, axborot va pul mablag'larini almashishlari mumkin. Axborot World Wide Web orqali uzatiladi. Hisob-kitoblar bo'yicha operasialarni amalga oshirishda internetga ulanish kifoya.
Internet-banking	Bu bank mijoziga Internet orqali o'z hisobvaraqlarini kuzatish va ularni boshqarish imkonini beruvchi masofaviy bank texnologiyasidir
PC-banking	Masofaviy bank xizmatlarini off-layn rejimida amalga oshirishdir. Funktsional jihatdan Internet-banking va PC-banking butunlay bir xil-yagona interfeys, hujjatlarning umumiy turlari, umumiy ekran va bosma shakllar, umumiy biznes mantiqi, umumiy ma'lumotnomalar, buxgalteriya dasturlari bilan ishlashning umumiy mexanizmlari va axborotni himoya qilishning umumiy mexanizmlari qo'llab-quvvatlanadi
Phone-banking	Barcha bank xizmatlarining majmuini amalga oshiradi. Bank hisobraqam va kartalariga kirish fon rejimida ishlaydigan telefondan amalga oshiriladi. Operasiyani bajarish uchun mijoz telefon yordamida tizim (bank serveri) bilan aloqa o'rnatadi va telefon yordamida operatsiya haqida xabar yuboradi.
WAP-banking	Mijozga mobil telefondan hisob va kartani boshqarish operasialarini kanali orqali bajarilishini ta'minlaydi. WAR protokolini (Wireless Application Protocol) qo'llab-quvvatlovchi mobil telefondan foydalanib, mijoz bank xizmatlarini oladi.
SMS-banking	Zamonaviy mobil telefonlar, ularning asosiy vazifasi-ovozli aloqadan tashqari, ko'plab qo'shimcha va teng darajada muhim vazifalarni bajaradi, ulardan biri SMS-xabarlardir. SMS-quvvatlash barcha mobil telefonlarda mavjud, shuning uchun SMS-banking har bir kishi uchun mavjud. SMS-xabarlar orqali bank xizmatlarini amalga oshiruvchi SMS-banking uyali aloqa mavjud bo'lgan joyda mavjud.
Mobile-banking	Kompyuter yoki smartfon yordamida Internet-banking mijozlarga orqali ko'rsatish mumkin bo'lgan bir xil bank xizmatlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Mobil bank "cho'ntakdagi bank" tamoyiliga asosan ishlash imkonini beradi.

¹⁵³ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

23.1-jadvalda turli aloqa vositasi orqali (device) ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bugungi kunda ushbu bank mahsulotlarini banklar va nobank kichik va yirik kompaniyalar taklif etmoqdalar. Bank faoliyati ekspertlari va olimlari esa ularni eng muhim raqobatchilar sifatida qarashni va o'z faoliyatlarini transformasiya qilishlari lozimligi to'g'risida bong urmoqdalar ¹⁵⁴.

"Deloitte" moliyaviy xizmatlar markazi olib borgan tadqiqotiga asoslangan holda, banklar kelajagini bashorat qilar ekan, banklar o'z o'rinlarini saqlab qolishlari uchun "2020 yil fintech kompaniyalar ularning eng yaqin do'stlari bo'lishi" va "bank mahsulotlari innovatsiyalari mijozlarning moliyaviy farovonligiga yo'naltirilishi, kreditlar, to'lovlar va aktivlarni boshqarishga xizmat qilishi" zarurligi qayd etmoqda¹⁵⁵. Bugungi kunda ularning bashorati nechog'li to'g'ri ekanligiga amin bo'lib turibmiz.

2015 yil dekabr oyida AQShning qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyasi (SEC) tomonidan Overstock.com kompaniyasining Internet orqali raqamli aktsiyalarni chiqarish bo'yicha arizasi qabul qilinib, ruxsat berildi. Bunda kompaniya ushbu qimmatli qog'ozlarni chiqarish uchun blokcheyn texnologiyasini qo'lladi. Bungacha u emissiya qilinganda Sesdan ruxsatnoma olinishi talab etilmaydigan xususiy obligasiyalar emissiyasini blokcheyn orqali amalga oshirgan edi ¹⁵⁶.

A.Prigojinning ta'kidlashicha, innovatsion bank – bu unda biznes-jarayon va texnologiyalar mukammal yo'lga qo'yilgan, boshqaruvning barcha bo'g'inlari uchun batafsil uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilgan, belgilangan KPI ko'rsatkichlarning barchasi amalda qo'llaniladigan, doimiy rivojlanib boradigan va yangi mahsulotlar (xizmatlar) va ularni sotishning yangi kanallari joriy etilib boriladigan, mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatiladigan va ularning bank xizmatlaridan qoniqishi yuqori bo'lgan, bank raxbariyati tomonidan

¹⁵⁴ Skinner Ch.Digital bank: strategies to launch or become a digital bank – Singapore: Marshall Cavendish Business, 2014. – 316 p.

¹⁵⁵ The Deloitte Center for Financial Services. 2020 banking and capital markets outlook. www.deloitte.com

¹⁵⁶ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.
<https://www.sec.gov/Archives/edgar/data/1130713/000104746915008523/a2226515zs-3a.htm>

rivojlanishning loyiha va vazifalari faol qo'llab quvvatlanadigan bankdir¹⁵⁷.

Ushbu ta'rif "innovatsion bank" tushunchasini to'liq tasvirlab bermasa-da, unda bank innovatsion faoliyat olib borishi uchun zarur chora-tadbirlar ro'yxati keltirilib, fikrimizcha, aynan ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish har qanday bankning raqamli innovatsion faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

23.2-jadval

Neobank, an'anviy bank va dijital banklar solishtirma tahlili ¹⁵⁸

Neobank	An'anviy bank	dijital bank
Neobank barcha operatsiyalar mobil ilova orqali yoki veb-xizmati orqali amalga oshiriluvchi to'liq onlayn jarayon	An'anviy bank xizmatlari bank binolarida bank xodimi va mijozlar shaxsiy rasmiy uchrashuvlar asosida amalga oshiriladigan jarayon.	Har ikkala holat kuzatilishi mumkin
Neobank mijoz va bankir yuzma-yuz emas, balki vositachi, asosan, dastur orqali ish olib boradigan virtual bank	An'anviy bankda bitimlar shaxsiy uchrashuv orqali amalga oshiriladi.	Har ikkala holat kuzatilishi mumkin
Neobank xizmatlari mijozlarga ancha arzonroq tushadi	An'anviy bank xizmatlari ko'plab operatsion xarajatlari va daromad keltirmaydigan aktivlari sababli ancha qimmatroqqa tushadi	Odatda an'anviy banklardan arzonroq
Neobanklar o'z litsenziyasiga odatda ega emas (O'zbekistondan tashqari)	An'anviy banklar o'z litsenziyasiga ega	O'z litsenziyasiga ega
Byurokratiya darajasi past	Byurokratiya darajasi yuqori	Har ikkala holat kuzatilishi mumkin
Vaqt sarfi kam	Vaqt sarfi yuqori	An'anviy banklarnikidan odatda kamroq vaqt sarflaydi
Bitimlar va amaliyotlarni uzluksiz amalga oshirish imkoni mavjud	Xodimlar ish vaqti bilan chegaralanadi	Bitimlar va amaliyotlarni uzluksiz amalga oshirish imkoni mavjud
Xarajatlarni kuzatib borish imkoniyati mavjud	Xarajatlarni kuzatib borish cheklanganligi	Xarajatlarni kuzatib borish imkoniyati mavjud

¹⁵⁷ Пригожин А.И. Нововведения: стимулы и препятствия. - М.: Политиздат, 1989. - 270 с.

¹⁵⁸ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

23.2-jadvalda "neobank", "an'anviy" va "dijital bank" tushunchalari tahlili keltirilgan.

Tinesh basin "Neo bank axborot texnologiyalari va sun'iy aql yordamida bank xizmatlarini soddalashtirishning yangi kontsepsiyasini taklif etadi" deya ta'kidlaydi ¹⁵⁹.

Terri Bredford an'anaviy banklar, raqamli banklar va neobanklar mohiyatan bir vazifani anglatadi. Ammo ularning xizmat ko'rsatish kanallari va vositalari bir-biridan farq qiladi deya hisoblaydi ¹⁶⁰.

Blajevich, A. A., Ryabchenko, A. A. "neobank – an'anaviy banklardan farqli o'laroq, minimal komissiyalar evaziga yuqori foizlar va sifat taklif etuvchi faqatgina zamonaviy raqamli platformalarda faoliyat ko'rsatuvchi modernizatsiyalashgan bank" deya ta'rif berishgan¹⁶¹.

I. A. Dvoeglazova esa, "neobanklar – banklarning kelajagi bo'lib, 10-15 yildan so'ng an'anviy banklarni ularning barcha filial va katta xodimlar Shtatlari bank bozordan siqib chiqaradi" deya ta'kidlaydi ¹⁶².

Yuqoridagi ta'riflarga qo'shilgan holda, neobank tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Neobank – bu mutloqo masofadan mobil ilova yoki Internet banking orqali xizmat ko'rsatishga moslashtirilgan zamonaviy moliyaviy texnologiyalar yordamida mijozlarga arzon va tezkor xizmat ko'rsatuvchi tizim.

Umuman, an'anaviy banklarning raqamli banklarga o'tish jarayonini o'rganish ulardagi bank mahsulotlarining o'zgarishi bilan belgilanadi. 3-jadvalda an'anaviy banklarning raqamli banklarga o'tishida moliyaviy texnologiyalar turlarini qo'llash bosqichlari va istiqbollari tizimlashtirilgan holda keltirilgan.

¹⁵⁹ Tinesh Bhasin, "What do neo banks offer and should you try them?" dated June 01, 2020, Available at: <https://www.livemint.com/money/personal-finance/what-do-neo-banks-offer-and-should-you-try-them11591032340062.html>

¹⁶⁰ Bradford T. Neobanks: Banks by Any Other Name?//Federal Reserve Bank Of Kansas City. – Kansas City, 2020. – August 12. – P.1-6.

¹⁶¹ Блажевич, А. А., Рябченко, А. А. Необанк как новое направление финансовых инноваций в Российской Федерации//Вестник института экономических исследований. – Донецк, 2018. – № 4. – С. 160-168.

¹⁶² Двоеглазова, И. А. Банки будущего: интеграция с ИТ-сервисами или мультимедийный бизнес//Молодой исследователь Дона. – Ростов-на-Дону, 2018. – № 3 (12). – С. 161-164.

Banklarni raqamlashtirish bosqichlari¹⁶³

№	Bosqich nomi	Bosqich mazmuni
1-bosqich	Raqamli kanallarning paydo bo'lishi	ATM tarmoqlari, internet-banking, mobil-banking, chatbot. Biznesda raqamli o'zgarishlar boshlanadi. Ekotizim markazida qulay vaqtda istalgan mavjud kanallar orqali bank bilan o'zaro aloqa qilishni istagan foydalanuvchi.
2-bosqich	Raqamli mahsulotlarning paydo bo'lishi:	Big Data, kontaktsiz to'lovlar, virtual kartalar, sun'iy aql, mashinani o'rganish. Ilg'or zamonaviy dasturiy ta'minot yordamida mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini soat sayin qondirishga mo'ljallangan E2E (end to end) mahsulotlari yaratiladi.
3-bosqich	To'liq raqamli xizmat tsiklini yaratish.	Banklar nafaqat an'anaviy mahsulotlariga raqamli xizmatlarni qo'shib, yangi raqamli bizneslarni yaratmoqda, balki biznes modellarini butunlay o'zgartirib, biznes chegaralarini kengaytirmoqda. Raqamli vositalardan foydalanish ularni chinakam global bo'lishiga imkon beradi.
4-bosqich	Raqamli miyani (Digital Brain) yaratish	Raqamli miya barcha biznes segmentlari, bo'limlari, mahsulot liniyalari va xizmatlaridagi ma'lumotlarni doimiy avtomatik ravishda o'rganib boradi, bu esa tashkilotga o'z imkoniyatlari haqida yuqori bilim beradi.
5-bosqich	"Raqamli DNK" yaratish	Bankning hayot tsikli davomida strategik qarorlar qabul qilish uchun yangi koordinata tizimi.

Ushbu 23.3-jadval ma'lumotlari bank mahsulotlari istiqbolida inson ta'siri va omilini deyarli ishtirokisiz taklif e'tilishini anglatmoqda.

¹⁶³ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

Yuqoridagi farqlardan kelib chiqib, moliyaviy texnologiyalarni qo‘llovchi dijital bank - ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ham masofadan (Internet va mobil aloqa orqali) xizmat ko‘rsatadigan bank deya ta’riflash mumkin.

23.4- jadval

Moliya texnologiyalari va raqamli banking ta’sirining

SWOT tahlili ¹⁶⁴

Ustunliklar (Strengths)	Kamchiliklar (Weaknesss)
-har qanday joyda va vaqtda foydalanish mumkinligi; -vaqt xarajatining kamligi; - kichik sarf-xarajatli tezkor tranzaktsiyalar; - yuqori daromadlilik.	- 45dan katta yoshdagilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish xoxishining pastligi; - kompyuter, smartfon, internetga ulanishi kabi texnik talablarning bajarilishi lozimligi; - tarmoqdagi tizimli kamchiliklarning mavjudligi.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Xavf-xatarlar (Threats)
- barcha bank xizmatlarini raqamli texnologiyalar yordamida masofadan amalga oshirish; - xukumat tomonidan to‘g‘ri strategiya tanlanishi va samarali islohotlar amalga oshrilishi "raqamli bank mahsulotlari"ning kichik va o‘rta biznesni rivojlanishiga, kambag‘allikni kamaytirishga, iqtisodiy jarayonlarning tezlashishi hisobiga iqtisodiy o‘rishga olib keladi; - mobil smartfonlardan foydalanuvchilarning ko‘pligi, mazkur xizmatlar bozorini kengaytirishga imkon beradi; - axborot texnologiyalar sohasidagi doimiy rivojlanish.	- fishing, yolg‘on ma’lumot yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni keng tarqatish imkoniyati; - raqamli rejimda kiberxavflar bo‘yicha muammolarning mavjudligi; - xukumat yoki bank tizimi raxbarlari tomonidan samarasiz noto‘g‘ri strategiya yoki qaror qabul qilish ushbu qarorlar asoratini tezlashtirib va kengaytirib yuborishi mumkin.

Innovatsion bank mahsulotlari ayniqsa, Rbmning samaralari 2 xil: ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkinligini esda tutmoq lozim. Yuqorida keltirilgan samarlarda faqat ijobiy natija haqida so‘z ketmoqda. Ammo

¹⁶⁴ Abduraximova D.K. O‘zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

4-jadvalda amalga oshirilgan SWOT-tahlil ushbu mahsulotlarning salbiy ta'siri ham mavjudligini ko'rsatmoqda. Ya'ni mamlakatda tanlangan noto'g'ri strategiya yoki qarorlar ta'sirini raqamli mahsulotlar salbiy oqibatlarini kengaytirib yuborishlari mumkin. Halqaro valyuta fondi ekspertlari "mamlakatlar moliyaviy texnologiyalari imkoniyatlaridan innovatsiya va integratsiyani rag'batlantirish, shuningdek, tengsizlikni kamaytirish maqsadida qo'llaydilar" deb hisoblaydilar¹⁶⁵.

23.2. Moliyaviy tashkilotlarda moliyaviy texnologiyalar orqali sarf-xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari.

Bankning samarali faoliyati uchun bank xarajatlarini kamaytirish kerak degan g'oyani ilgari suruvchi tadqiqotchi S.I.Mindrin "bank likvidliligi va bank aktivlari tegishli sifati talablariga rioya qilgan holda bank biznesini yuritish va bank personalini unumdorligini oshirish uchun yangi raqmlashtirilgan iqtisodiyot nomli yangi ekomuxitga samarali moslashish uchun bank biznes modelini tubdan transformasiya qilish kerak" deya hisoblaydi¹⁶⁶.

Ushbu qarashning isbotini olish uchun xalqaro va milliy banklar raqamli transformasiyalarini tahlil qilgan holda olishimiz mumkin. Buning uchun ushbu tadqiqot doirasida:

1. DBS (Singapur)
2. Sberbank (Rossiya)
3. O'zsanoatqurilishbank (O'zbekiston)

kabi yirik va o'z faoliyatini butunlay transformasiya qilgan yirik banklar faoliyati tahlilini amalga oshiramiz.

DBS (Development Bank of Singapore - Singapur taraqqiyot banki)

¹⁶⁵ МВФ. Годовой Отчет за 2020 года. <https://www.imf.org>

¹⁶⁶ Миндрин С.И. Трансформация банковской бизнес-модели. Актуальные бизнес-модели, лучшие практики. - ЛитРес: Самиздат, 2019 – 760 с.

DBS – aktivlari bo'yicha Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng yirik bank. Euromoney 2018-2020 yillarda "jahonning eng yaxshi banki" deya e'tirof etgan.¹⁶⁷ Bosh ofisi Singapurda joylashgan, 18ta mamlakatlarda 280ta filiallarda 26,0 mingdan ziyod xodimlar 10,0 mln. mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

23.5- jadval

DBS strategiyasi elementlari ¹⁶⁸

T/r	Elementlar strategiyasi	Izoh
1	Zamonaviy tizimlarni joriy etish	masalan, serverlardan "bulut"ga o'tish
2	<i>NoOps va DevOps tamoyillari asosida barcha jarayon va amaliyotlarni avtomatlashtirish</i>	<i>NoOps (No Operations) —yangi texnolo-giyalar bilan atlarini minimal xarajatli avtonom rejimda boshqarish tamoyili. DevOps (development operations;) — bu ishlab chiqarish va atga mutaxassislar birgalikda faoliyatlarini sifatli mahsulot yaratish uchun integrasiya qilishlari bo'yicha metodologiya.</i>
3	Yuqori samarali agile jamoalarini rivojlantirish	Tezkor qarorlar qabul qiluvchi, tashqi omillarga moslashuvchi yuqori darajada samarali guruhni shakllantirish
4	"Loyihalar"dan "platformalar"ga o'tish	loyihalar emas, maxsulotlar boshqarish va moliyalashtirish tizimiga o'tish
5	Faoliyat tuzilmasini qayta tashkillashtirish	DevOps metodologiyasi asosida barcha jarayonlarni avtomatlashtirish, ichki xodimlar va tashqaridan xizmatlarni jalb etish. Bugungi kunda 15% yonlanma xizmatlar (outsourcing) mavjud.

U 2009 yildan faoliyatini transformasiya qila boshlagan. 2010 yilda bank tomonidan yangi strategiya shakllantirildi va o'zgartirish uchun beshta asosiy elementga asos bo'ldi (1-jadvalga qarang).

Ushbu sa'y-xarakatlar asosida bank moslashuvchan texnologik echimlarni kengaytirdi: konfiguratsiyali tizim, veb va mobil banking

¹⁶⁷ Ma'lumotlar Euromoney jurnalining rasmiy saytidan olingan <https://www.euromoney.com>

¹⁶⁸ DBSning rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://www.dbs.com>

platformalari, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan arxitektura va ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari joriy etildi. Bank mijozlarning ehtiyojlari va talablarini tezkor qondirib bordi va zarur boshqa tizimlarga API kabi texnologiyalar yordamida integrasiyalanib, mijozlarga xizmatlardan masofadan foydalanish imkonini yaratdi.

Bunda texnologiya va amaliyotlar departamentlari bazasida yagona T&O (texnologiya va amaliyotlar) bo'limi, ya'ni yangi Finacle korporativ tizimi yaratildi va DBS barcha odatiy bank operatsiyalarini qayta joriy etdi.

Bank Singapurda birinchi bo'lib Call-markazida nutq tahlillari amalga oshirdi. Natijada, mijozlar ehtiyojlari yaxshiroq tushuna boshlandi va uning muammolarini bashoratlay olish imkoniga tug'ildi.


Kompaniyada inson psixologiya va umuminsoniy qadriyatlari asosida mahsulotlarni yaratish tamoyiliga binoan HCD (human-centered design) tizimi yaratildi. Natijada, 2011 yilga nisbatan 2012 yilda mijozlarning ijobiy murojaatlari 45% ga oshdi va salbiy murojaatlari 17% ga kamaydi.

Olib borilgan izchil taqdiqot va o'rganishlar natijasida (2-jadval), bank tomonidan nafaqatki talabga, balki mijozlarning potentsial hoxishlari bashoratlanib, bozorda mavjud bo'lmagan yangi mahsulotlar ishlab chiqila boshlandi. Bunda bank turli startaplar bilan hamkorlik qilib boradi. Masalan, DBS Asia X (DAX) innovatsion markazi, JIM virtual rekruter, restoranlar bilan hamkorlikda chatbot, neyrop kartalashtirish dermatoglikfikasi texnologiyalari yordamida mahsulotlar taklif qildi. DBS Group Holdings Ltd moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili. Aktsiyadorlar tarkibi korporativ muassasalardan tashkil topganligiga qaramasdan, ushbu korxonalar orqali bilvosita davlat ulushi 47,83%ni tashkil etadi. Bank mahsulotlarini yaratishda atni izchil kiritib borishi yuqori natijalarga olib keldi. 2014 yilda DBSni Bloomberg dunyodagi eng kuchli ettinchi bank deb topdi va Osiyodagi savdo operatsiya va aktivlari bo'yicha uchinchi bankka aylandi. Masalan, 2017 yilda bank raqamli mijozlari 42%ni tashkil etdi, ulardan olingan daromad jami daromadning 63% ni, foydaning 72% ni tashkil etdi.

2009-2019-yillarda dbsda amalga oshirilgan transformasiyaning moliyaviy natijalari¹⁶⁹ trln. AQSh dollari.da

Ko'rsatkichlar	2009	2019	Ўсш, %да
Aktivlar	258,6	649,9	251,3%
Kredit	130,6	371,2	284,2%
Depozit	183,4	464,9	253,4%
Kapital	25,4	54,6	215,4%
sof foyda	2,0	6,4	320%

23.6-jadvalga asosan, 2009-2019 yillar davomida aktivlar 251,3%, kreditlar 284,2%, depozitlar 253,4%, kapital esa 215,4% o'sgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadi, 2009-2019 yillarda aktivlar yillik o'rtacha 8,8%ga, kreditlar 10,2%, depozitlar 8,9%, kapital 7,5%ga o'sib borgan.



23.1-rasm. 2009-2020yillarda DBS moliyaviy guruhi muammoli kreditlar (NPL), aktivlar rentabelligi (ROA) va o'zlik kapitali rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁷⁰

23.1-rasmida 2009-2017-yillar davomida aktivlar rentabelligini 0,8%-0,9%gacha, kapital rentabelligini 8,4%-10%gacha oshirishga, muammoli kreditlar ulushini 2,9%-1,7%ga tushgan. 2018-2019 yillarda rentabellik yanada oshishiga va moliyaviy barqaror faoliyat yuritishga erishilgan. Ammo 2020 yilda aktivlar rentabelligi 0,73 ga, ya'ni

¹⁶⁹ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

¹⁷⁰ DBS rasmiy saytida berilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi. <https://www.dbs.com>

64,3%gacha tushib ketgan. 2020 yilda o'zlik kapitali rentabelligi esa 8,64 gacha yoki 65,5%ga tushib ketgan. NPL 2018-2020 yillarda 1,5-1,6 ni tashkil qilgan. Bunda koronavirus tufayli rentabellik tushishi muammoli kreditlar oshishiga sabab bo'lmagan.


Rentabellik ko'rsatkichlari tushib ketishiga esa sof foyda tushib ketishi sabab bo'lgan. Pandemiya tufayli 2020 yilda sof foyda 4,7 trln. AQSh dollariga yoki 26,1%ga kamaygan. Umuman, bank sof foydasi o'zgaruvchan egri chiziqli dinamikaga ega. Sababi raqamli mahsulotlar yuqori investisiyalarni talab etadi. Masalan, 2010-2014-yillar har yili DBS 480 million AQSh doll. texnologiyalarga sarfladi. 2015 yilda tushum 10,8 mlrd. AQSh doll.dan AT-infrastrukturasiga 5 mlrd. AQSh doll. Investisiya kiritilgan.

"Sberbank"OAJ transformasiyasi va uning faoliyatiga ta'siri. "Sberbank"OAJ Rossiya va MDHning aktivlar xajmiga ko'ra eng yirik banki - 2020 yil yakuniga ko'ra 14,09 mingta bo'limlari, bir necha virtual platforma va mobil ilovalarga ega, halqaro va milliy xalqaro kompaniya va virtual tizimlar bilan hamkorlik qiluvchi yirik ekotizim. Ustav kapitalining 50%+1ta aktsiya Markaziy bankga, 45%i norezidentlarga tegishli.

Bank 2007 yildan transformasiya qilina boshlandi. Avvaliga har 5 yil, keyin har 3 yil uchun rivojlanish strategiyalari ishlab chiqildi. Bunda ilg'or texnologiyalar kiritishga alohida e'tibor qaratildi, ya'ni uzluksiz masofadan xizmat ko'rsatish uchun "Sberbank onlayn", skoring tizimiga asoslangan "kreditlar fabrikasi" loyihasi, kredit sug'urtasi mahsuloti, VIP mijozlarga xizmat kabi yangi bank mahsulotlari yo'lga qo'yildi.

2018-2020 yillarda transformasiya yo'lida kompaniya dunyodagi eng yirik agile o'zgarishlardan birini amalga oshirdi va unda moliyaviy mahsulot ishlab chiqarishga yondashuvini va ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirdi. Natijada, 2019 yil yakunlariga ko'ra, jami faol chakana mijozlari sonining (95,4 mln. kishi) 71%i (67,8 mln. kishi), faol korporativ mijozlarning (2,5 mln.) 84%i (2,1 mln.) uning raqamli texnologiyalaridan foydalanadi.

Sberbankning yillar davomidagi faoliyatini qisqacha ko'rib chiqish uchun quyidagi 23.2-rasmga qarang:



23.2-rasm. "Sberbank" OAJ raqamli transformatsiyalanish bosqichlari ¹⁷¹

Bugungi kunda Sberbank tomonidan 23.2-rasmdagi 4-bosqich va 5-bosqich amaliyotlari keng joriy etilmoqda.

Guruh kompaniyalarida Sber texnologiya strategiyasini amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi, va zamonaviy bulutli platformasini Platform V, SberCloud mahsulotlarini ishga tushirdi. Sun'iy intellekt qo'llanilishi bitimlar narxini yarmiga kamaytirdi. Jismoniy shaxslar 40% murojaatlar chat-botlar orqali qayta ishlanadi, "7 minutda kredit" bo'yicha masofadan 100,0 mlrd. rubl atrofida kreditlar berildi.

Barcha ekotizim xizmatlari katta ma'lumotlar va sun'iy aql yordamida yagona raqamli texnologiya platformasida qurilgan. Unda nafaqat moliyaviy xizmatlar, balki oziq-ovqat etkazib berish, taksi buyurtma berish, ta'lim va boshqalarni ham olishlari mumkin.


Sberbank rivojlanishini ifodalovchi 23.7-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan 10 yil mobaynida bank aktivlari, kreditlari va kapitali deyarli 3,5 barobar, depozitlari 3,3, sof foydasi 2,4 barobar oshgan.

¹⁷¹ Abduraximova D.K. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. T.:TMI, 2021. 56 b.

2011-2020-yillarda Sberbank OAJda amalga oshirilgan transformasiyaning moliyaviy natijalari ¹⁷² mlrd.rubl

Ko'rsatkichlar	2011	2020	2020/2011
Aktivlar	10419	36016	345,7%
Kredit	6389	23386	366,0%
Depozit	7877,2	25 766	327,1%
Kapital	1300,6	5046,5	388,0%
sof foyda	315,9	761	240,9%

Sberbankning 2011-2020 yillardagi faoliyat tahlili (23.3-rasmga qarang), 2013-2014 yillardagi Rossiyadagi inqiroz ushbu bankga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi anglatadi. Ammo 2015 yildan bank faoliyatida o'sish bo'lgan. Masalan, 2013-2015 yillar davomida rentabellik ko'rsatkichi 19,34%dan 9,39%gacha tushgan bo'lsa, 2015-2019 yillarda ushbu ko'rsatkich 18,87%gacha ko'tarilgan.



23.3-rasm. 2011-2020 yillarda Sberbank rentabellik va muammoli kreditlar ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumot ¹⁷³

Bugungi kunda Sber ekotizimi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oshib bormoqda. Masalan, 2020 yilning 2-choragida Sbermarket platformasidagi buyurtmalar soni 2019 shu davriga nisbatan 17 barobar, va Sitimobilda 2020 yilning 2-choragida tovarlar umumiy

¹⁷² Sberbank rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi. <https://www.sberbank.ru>

¹⁷³ Sberbank rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi. <https://www.sberbank.ru>

aylanmasining 2,8 barobarga oshgan. Joriy davrda 8 ta platformasi mavjud.

"O'zsanoatqurilishbank" ATB transformasiyasi va uning faoliyatiga ta'siri. "O'zsanoatqurilishbank" ATB (O'zSQB) respublika bo'ylab 42 ta filial, 89ta xizmat ko'rsatish markazlari va 1ta VAKOLATXONAgaga ega. Bank 50 turdagi bank xizmatlarini 1,2 mln.dan ziyod mijozga ko'rsatadi.

O'zR Prezidentining "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" 12.05.2020 y.dagi PF-5992-son Farmoni doirasida "O'zSQB" ATB ni (50% davlat ulushi saqlangan holda) xususiylashtirish belgilab berilgan. Ushbu qaror ijrosi bo'yicha "O'zSQB" ATB va xalqaro moliya korporasiyasi (XMK) o'rtasida bank faoliyatini transformasiyalash bo'yicha kelishuv imzolandi.

23.8- jadval

Uzsqb transformasiya va transformasiyagacha strategiyalari bo'yicha solishtirma ma'lumotlar¹⁷⁴

t/r	XMK tavsiyalari asosida strategiya	t/r	Bankning o'z strategiyasi (2016-2020)
1.	Kredit portfelini diversifika-siyalash: korporativ/ ko'b/chakana segmentlari - 40%/40%/20% 2022y.gacha	1.	Diversifikasiyalashgan va muvozanatlashgan faoliyat yuritish.
2.	xizmat ko'rsatish sifatini oshirish	2.	Samarali boshqaruv tizimi
3.	Jarayonlar reinjeniringi va raqamlashtirish	3.	Asosiy samaradorlik ko'rsat-kichlarini oshirish
4.	Filiallar tizimini qayta tashkillashtirish	4.	Bank reputasiyasini mustahkam-lash va unga ishonchni oshirish
5.	Resurs bazasini diversifika-tsiyalash		
6.	Risk-menejmentni rivojlantirish		
7.	Korporativ boshqaruvni takomil-lashtirish		

Bank va xalqaro moliya korporasiyasi bilan hamkorlikda yaratilgan transformasiya dasturiga asosan bankning 4-jadvalda ko'rsatilganidek, asosiy 7 ta yo'nalishlari bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi. 4-jadvalga asosan bank strategiyalari tahlili,

¹⁷⁴ O'zsanoatqurilishbank rasmiy veb-saytidagi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://sqb.uz>

transformasiya strategiyasida aniq va zamon talabiga muvofiq vazifalar belgilanganini ko'rsatmoqda. Bunda jarayonlarni raqamlashtirish strategiya darajasida bajarilishi zamon talabidir.

DBS misolida raqamli transformasiya qimmat jarayon ekanligiga guvoh bo'ldik. Bu borada O'zSQB ham transformasiya jarayonida XMK 75,0 mln AQSh doll. va xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporasiyasidan 25 mln. AQSh doll. jalb qilinishi ko'zda tutilgan.

Mazkur mablag'lar bilan 2019-2021 yillarda bank tomonidan masofadan xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lum bir muvaffaqiyatlarga erisha oldi. Masalan, "Joyda" ilovasi uchun 300,0 ming AQSh doll. investisiya kiritildi. 1 yil davomida ushbu platformadan 340 mingta foydalanuvchi foydalandi. 498,4 mlrd. so'm onlayn kredit, 551 mlrd. so'm o'tkazmalar, 88,7 mlrd. so'm 1438ta omonatlar va 3,2 mlrd. so'm sug'urta polislari realizasiya qilindi.

23.9- jadval

2017-2020 yillarda O'zbekistonning yirik 5 banki MXF soni solishtirma tahlili¹⁷⁵

	Bank nomi	2017	2018	2019	2020	o'rtacha o'sish,%da
1	TIF Milliy banki	653	911	1 710	1 253	
	yillik o'sish,%da	100	139,6	187,7	73,3	125,14
2	AT "O'zSQB"	118	174	809	1 707	
	yillik o'sish,%da	100	147,8	465,5	211,1	231,1
3	"Agrobank" ATB	1 346	1 893	1 440	2 465	
	yillik o'sish,%da	100	140,6	76,1	171,2	121,97
4	"Ipoteka-bank" ATIB	86	140	968	1 418	
	yillik o'sish,%da	100	163,1	692,9	146,4	275,61
5	AT Xalq banki	855	2 671	1 114	2 244	
	yillik o'sish,%da	100	312,4	41,7	201,5	163,91

¹⁷⁵ Markaziy bank rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. <https://cbu.uz>

23.9-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi yirik banklarga taqqoslaganda, O'zSQB 2020 yilda Mxks ga ko'ra Xalq banki va Agrobankdan keyingi 3-o'rin, yillik o'rtacha o'sish bo'yicha 2-o'rinni egallagan. O'zSQB 2019 yilda MXKS 4,5 barobardan ziyod oshib ketdi.

2019 yilda bank tomonidan masofadan kredit berish joriy etilmagani va kredit siyosatida ko'ra barcha kreditlarni berish 5-7 bosqichda amalga oshirilganini ko'rish mumkin. 2020-2021-yillarda bankda skoring tizimi ishga tushirilgan va avtomatlashtirilgan tarzda kreditlash jarayoni sababli jismoniy shaxslarga masofadan 2-bosqichli kredit taqdim etish tizimi yo'lga qo'yilgan. 2020-2021 yillarda kredit siyosatlarida anderrayter paydo bo'lgan, qarzdorlikni so'ndirish hisobiga undirish qarzdorning garov va boshqa mol-mulkiga qaratish jarayoni filial tomonidan mustaqil amalga oshirish, bu esa kreditlash jarayonining soddalashayotgani va liberallayotganidan dalolat beradi.

23.10- jadval

Transformasiya natijasida O'zsqbning asosiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar¹⁷⁶

T/r	Ko'rsatkich nomi	2018	2020	2018/2020
1.	Sof foyda	236,9	798,2	336,9%
2.	Aktivlar	30 501	49 045	160,8%
3.	Kapital	2 848	6 704	235,4%
4.	Kredit	27 293	39 898	146,2%
5.	Depozit	4 833	11 437	236,6%

Transformasiya natijalarini bankning asosiy ko'rsatkichlari absolyut qiymatining tahlilida ham ko'rishimiz mumkin. 2018-2020 yillar davomida bankning barcha ko'rsatkichlari 1,5-3barobar oshgan.

Yuqorida keltirilgan tahlil mahlumotlarini 23.11-jadvalda birlashtiramiz. Shuningdek, boshqa ko'rsatkichlarni va tahlillarimizning asosiy ko'rsatkichi bo'lmish operasion xarajatlarning boshqa xarajatlarga nisbati qiymatini ham tahlil qilamiz:

¹⁷⁶ O'zsanoatqurilishbank rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. <https://sqb.uz>

O‘zsanoatqurilishbank, Sberbank va DBSning 2018-2020 yillarda moliyaviy holati ko‘rsatkichlari taqqoslama tahlili¹⁷⁷ foizda

Ko‘rsatkichlar	DBS			Sberbank			O‘zSQB		
	2020	2019	2018	2020	2019	2018	2020	2019	2018
NIM	1,62	1,89	1,85	5,5	5,4	5,9	4	3	2,6
CIR	42,2	43	44	34,6	35,8	35,2	26	45,2	54
ROA	0,75	1,13	1,05	2,3	3,1	3,2	1,9	2,3	0,65
ROE	9,1	13,2	12,1	16,1	20,5	23,1	12,3	12,7	7,7
LDR	80	89	88	93,31	92,92	94,59	349	327	564,7
NPL	1,6	1,5	1,5	4,3	4,3	3,8	1	1,5	1,3

23.11-jadval ma’lumotlariga asosan, har uchala banklar misolida banklarda amalga oshirilgan transformasiya jarayonlari va yaratilgan innovatsion mahsulotlar bank faoliyati rivojiga quyidagi samarani olib keladi: operasion xarajatlarni kamaytiradi; raqamli bank mahsulotlar arzonligi hisobiga ularga bo‘lgan talab oshadi, natijada bank aktivlari va passivlarini oshirishga; bank risklarini samarali boshqarish imkonini oshiradi, ammo har qanday bozorga hos bo‘lgan xususiyatlarni va ko‘rsatkichlarni yaxshilamaydi, ammo ularning oqibatini kengaytirishi yoki tezlashtirish mumkin (ushbu jadvalda Uzsqbning LDR (564,7-349%) Sberbankning NPL (3,8-4,3%) ko‘rsatkichlari misolida buni ko‘rish mumkin); bankka bo‘lgan ishonch va bank mahsulotidan qoniqish xissini oshiradi; tizimli xato va kamchiliklarni aniqlash va tezda bartaraf etish imkonini yaratadi.

Eng asosiysi amalga oshirgan tadqiqotimiz,amalga oshirilgan raqamli transformasiya natijasida banklarning deyarli barcha ko‘rsatkichlari yaxshilinishi bilan birga har uchala bank imsolida ham operasiyan xarajatlarining ulushi tushib borganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda transformasiya bor yo‘g‘i 3 yil sarflangan O‘zsanoatqurilishbankda yuqori samara berganini, ya’ni operasion xarajatlar ulushini 2018 yilgi 54 foizdan 2020 yilga kelib 26 foizgacha tushirilishiga erishilgan.

¹⁷⁷ Banklar ochiq ma’lumotlari yordamida hisob-kitoblar asosida muallif tomonidan tuzildi.

AMALIYOT DARSİ UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Quyidagi nazorat savollari bo'yicha qisqacha izoh yozing.

1. Moliyaviy tashkilotlar moliyaviy texnologiyalar yaratuvchisi va taklif qiluvchisi sifatida.
2. Aloqa vositasi orqali (device) ko'rsatiladigan xizmatlar turlari.
3. Neobank, an'anviy bank va dijital banklar solishtirma tahlili.
4. Banklarni raqamlashtirish bosqichlari.
5. Moliya texnologiyalari va raqamli banking ta'siri.
6. Moliyaviy tashkilotlarda moliyaviy texnologiyalar orqali sarf-xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari.
7. DBS strategiyasi elementlari.

2. Moliya texnologiyalari va raqamli banking ta'sirining SWOT tahlilini amalga oshiring

Ustunliklar (Strengths)	Kamchiliklar (Weaknesss)
Imkoniyatlar (Opportunities)	Xavf-xatarlar (Threats)

3. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo'nalishlaridagi o'zaro farqli jihatlar hamda umumiy xususiyatlar bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

Moliyaviy texnologiyalar yuzaga kelishiga obyektiv zarurati	raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo'nalishlari	moliyaviy texnologiyalar
1	1	1
2	2	2
3	3	3
...	...	...

3. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar tartibga solishda davlatning funksiyalari bo'yicha mos tavsif javoblarni belgilang.

№	Funksiyalar	Funksiyalar tavsifi
1	Strategiyani belgilash	Moliya bozori ishtirokchilari tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olinadi
2	Huquqiy tartibga solish	Moliya bozorini rivojlantirish konsepsiyasi uni amalga oshirish dasturlari ishlab chiqiladi
3	Ma‘muriy funksiya	Moliya bozori ishtirokchilari o‘rtasida nizoli vaziyatlar hal qilinadi
4	Rag‘batlantirish	Moliya bozorini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlariga bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida barcha moliyaviy instrumentlardan foydalanish iqtisodiy dastaklar orqali rag‘batlantiriladi
5	Nazorat	Moliya bozori ishtirokchilari faoliyati bevosita ma‘muriy tartibga solinadi
6	Arbitraj	Moliya bozori faoliyati bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi

TESTLAR

1. Texnologiya so‘zining ma‘nosi nima?

- a) texnologiya so‘zi yunonchadan tarjima qilganda san‘at, mahorat, ko‘nikma degan ma‘noni anglatadi
- b) texnologiya so‘zi turkchadan tarjima qilganda yagona maqsad yo‘lida bir vaqtning o‘zida degan ma‘noni anglatadi
- c) texnologiya so‘zi yunonchadan tarjima qilganda, quyilgan maqsadga erishish degan ma‘noni anglatadi
- d) barcha harakatlar majmuasi degan ma‘noni anglatadi

2. Sun‘iy tizimlar bu:

- a) inson tomonidan yaratilgan tizimlardir
- b) tabiatda yoki jamiyatda inson ishtirokisiz yuzaga kelgan tizimlar
- c) ta‘biy va sun‘iy tizimlarni o‘z ichiga oladi
- d) «mashina – inson - operator» majmui

3. Elektron tijoratning yo‘nalishlari: iste’molchi ma’muriyatga. To‘g‘ri javobni belgilang.

- a) C2A
- b) C2C
- c) B2B
- d) B2C

4. Elektron tijoratning yo‘nalishlari: biznes ma’muriyatga. To‘g‘ri javobni belgilang.

- a) B2A
- b) C2C
- c) B2B
- d) B2C

5. Tashkilot axborot tizimi bu:

- a) korxona doirasida axborot jarayonini to‘liq qoplagan bo‘lib, ularni to‘liqligini va ularni barchaga etkazib berish imkoniga ega bo‘ladi
- b) eng keng tarqalgan axborot tizimi bu yagona hisoblash mashinasi negizida bo‘lib, u ham o‘z navbatida bitta protsessordan iborat bo‘ladi
- c) bir kishiga mo‘ljallangan axborot tizimi
- d) korxona bo‘limi xodimlari axborotlardan birgalikda foydalanishadi

6. Internet tarmog‘ida real vaqtda axborotlar (xabarlar) almashish xizmati qanday ataladi?

- a) chat
- b) elektron pochta
- c) forum
- d) proksi

7. Ko‘pgina axborotlarni o‘zida jamlagan Internet sahifalari yig‘indisi qanday nomlanadi?

- a) veb portal
- b) gipermatn
- c) veb sayt
- d) veb hujjat

8. Provayder serveriga foydalanuvchilarning veb-saytlari yoki boshqa axborotlarini joylashtirishga yordam beradigan xizmat qanday ataladi?

- a) xosting
- b) veb portal
- c) proksi
- d) domen

9. Elektron raqamli imzoni yaratishga mo'ljallangan kalit nima deb ataladi?

- a) elektron raqamli imzo yopiq kaliti
- b) shifrlash vositasi
- c) elektron raqamli imzo ochiq kaliti
- d) kodlash vositasi

10. DNS so'zining yoyilmasi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating?

- a) Domain Name System
- b) Domain Nomer System
- c) Domain None System
- d) Domain Naim System

11. Paketni manzili bo'yicha yetkazish ma'suliyatini qaysi-bayonnoma zimmasiga oladi?

- a) IP
- b) TCP
- c) HTTP
- d) FTR

12. ERP (Enterprise Resources Planning) tizimlarining maqsadi nima?

- a) ichki biznes–jarayonlarini optimallashtirish hisobiga raqobat ustunliklariga erishishga qaratilgan
- b) tashqi biznes–jarayonlarini optimallashtirish hisobiga raqobat ustunliklariga erishishga qaratilgan
- c) ichki reja–jarayonlarini optimallashtirish hisobiga raqobat ustunliklariga erishishga qaratilgan
- d) tashqi reja–jarayonlarini optimallashtirish hisobiga raqobat ustunliklariga erishishga qaratilgan

13. CRM (Customer Relationships Management) tizimlarining maqsadi nima?

- a) mijozni tashkilot sohasiga «integrasiya qilish» ga imkon beradi
- b) mijozdan tashkilot sohasiga «integrasiya qilish» uchun imkon beradi
- c) kompyuterdan tashkilot sohasiga «integrasiya qilish» ga imkon beradi
- d) kompyuterdan tashkilot sohasiga «integrasiya qilish» uchun imkon beradi

14. Qarorlar qabul qilishni qoʻllab–quvvatlash tizimi tarkibida qaysi asosiy komponentalar bor?

- a) maʼlumotlar bazasi, modellar bazasi va maʼlumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)
- b) modellar bazasini boshqarish tizimi (MdBBT)
- c) foydalanuvchi hamda kompyuter oʻrtasidagi interfeysni boshqarish tizimidan iborat boʻlgan dasturiy kichik tizim
- d) kompyuter oʻrtasidagi interfeysni boshqarish tizimi

15. Biznesni boshqarish tizimlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

a) ishlab chiqarish, reklama, savdo, dizayn, xizmat ko'rsatish va boshqalarga taalluqli sohalarda o'z tashkiliy strategiyasini qurish

b) ishlab chiqarish, reklama, savdo, dizayn, xizmat ko'rsatish va boshqalarga taalluqli sohalarni o'zgartirish va tugatish

c) ishlab chiqarish, reklama, savdo, dizayn, xizmat ko'rsatish va boshqalarga taalluqli sohalarni tugatish

d) ishlab chiqarish, reklama, savdo, dizayn, xizmat ko'rsatish va boshqalarga taalluqli sohalarda faoliyatini to'xtatish

16. Elektron hujjat aylanishi tizimi nima uchun mo'ljallangan?

a) Tashkilotdagi ish yuritishning mavjud tizimini takomillashtirish uchun mo'ljallangan

b) Tashkilotdagi ish yuritishning mavjud tizimini rejalashtirish uchun mo'ljallangan

c) Tashkilotdagi ish yuritishning mavjud tizimini qisqartirish uchun mo'ljallangan

d) Tashkilotdagi ish yuritishning mavjud tizimini maqbullashtirish uchun mo'ljallangan

17. Korxonalar moliyaviy mexanizmi bu—:

a) korxonalarda moliyaviy munosabatlarni samarali amalga oshirish jarayoni

b) korxona moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish jarayonidir

c) korxonalarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir

d) bu moliyaviy resurslardan foydalanish usullari hamda korxonalar moliyasini tashkil qilish shakllari hisoblanadi

18. Elektron (raqamli) hamyon -

a) elektron pullarni saqlash va turli to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi o'rnatilgan chipli smart-karta yoki boshqa elektron vosita.

- b) smartfon yoki kompyuterda o'rnatilgan dasturiy ta'minot.
- c) ma'lum sinfdagi predmetlarni o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha umumlashtirishdir
- d) Bu jamiyat farovonligi bo'lib, u ma'lum davr ichida jamiyat barcha a'zolarining ijod davri davomiyligi yig'indisi bilan o'lchanadi

19. Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri berilgan qatorni toping

- a) moliya bozorida raqobatni rag'batlantirish
- b) ma'lum sinfdagi predmetlarni o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha umumlashtirishdir
- c) dunyo bozori instrumentlarini o'zlashtirish
- d) eski texnologiyalarda qolish

20. - ma'lumotlar bloklarining uzluksiz zanjiri, ya'ni bir butun ma'lumotlar bazasi bo'lib, unda kriptovalyutalar bilan amalga oshirilgan barcha ma'lumotlar saqlanadi.

- a) Blokcheyn
- b) Bayopik
- c) Branch
- d) Biznes-model

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuni,
3. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni,
4. "O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi. 3-modda.
5. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni, 25-modda.
6. Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliadori. The economics of money, banking and financial markets. UK. Pearson, 2013, P. 3.
7. Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. – USA. Prentice Hall, 2012. – P 2.
8. Roy A.D. Safety First and the Holding of Assets. *Econometrica*, 20(3):431–449, 1952.
9. Graham B. The intelligent investor. Harper Collins, 2003.
10. Crouhu M., Galai D., Mark R. Risk management. – N.Y.: McGraw Hill, 2001
11. Bernoulli D. Exposition of a new theory on the measurement of risk. *Econometrica: Journal of the Econometric Society*, pages 23–36, 1954.
12. F.A. Sortino and L.N. Price. Performance measurement in a downside risk framework. *Journal of investing*, (FALL 1994), 1994.
13. F.H. Knight. Risk, uncertainty and profit. Houghton Mifflin Company, 1921.
14. Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins, Financial Markets and Institutions, US Prentice Hall, 2012. P. 255
15. Frederic S.Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. – 7th ed. USA: Pearson, 2012. P. 496.
16. G. Hübner. The generalized Treynor ratio. *Review of Finance*, 9(3):415–435, 2005.

17. G. Szego. Measures of risk. *European Journal of Operational Research*, 163(1):5–19, 2005.
18. H. Markowitz. Portfolio Selection. *The Journal of Finance*, 7(1):77–91, 1952.
19. H.M. Markowitz. Foundations of portfolio theory. *Journal of Finance*. 1991. P.469–477.
20. H.M. Markowitz. Portfolio selection: efficient diversification of investmens. Blackwell Publishing, 1991.
21. Indicators of financial stability. Compilation Guide – Washington, DC, USA: International Monetary Fund, 2007.
22. Irving Fisher. *The Nature of Capital and Income*. Macmillan, 1906.
23. J. Danielsson, H.S. Shin, and J.P. Zigrand. The impact of risk regulation on price dynamics. *Journal of Banking and Finance*, 2004.
24. J. Hull. *Options, futures and other derivatives*. Prentice Hall, 2000.
25. K. Dowd. *An Introduction to Market Risk Measurement*. J. Wiley Hoboken, NJ, 2002.
26. L.A. Stout. Why the Law Hates Speculators: Regulation and Private Ordering in the Market for OTC Derivatives. *Duke Law Journal*, 48(4): 1999. P. 701–786.
27. M. Musiela and M. Rutkowski. *Martingale Methods In Financial Modelling*. Springer, 2005.
28. M. Rubinstein. Markowitz’s “Portfolio Selection”: A Fifty-Year Retrospective. *The Journal of Finance*, 57(3), 2002. P. 1041–1045.
29. M. Rubinstein. Markowitz’s “Portfolio Selection”: A Fifty-Year Retrospective. *The Journal of Finance*, 57(3), 2002. P. 1041–1045.
30. M.H. Kabir and M.K. Hassan. The Near-Collapse of LTCM, US Financial Stock Returns, and the Fed. *Journal of Banking and Finance*, 29(2):441–460, 2005.
31. Nicolas Blancher, Srobona Mitra, Hanan Morsy, Akira Otani, Tiago Severo, and Laura Valderrama. *Systemic Risk Monitoring (SysMo) Toolkit – A User Guide*. IMF Working paper, July 2013.
32. P. Glasserman. *Monte Carlo Methods in Financial Engineering*. Springer, 2004.
33. Paul Blustein, “Ben Graham’s Last Will and Testament”, *Forbes* (August 1, 1997), pp.43-45; and James B.Rea, “Remembering Benjamin Graham-Teacher and Friend”, *Journal of Potfolio*

Menegement, 3, no.4 (Summer 1997), pp/62-72; Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.-M.: Infra M, 1999.-ss.579-580. \

34. R.G. Hagstrom. The Warren Buffett Way. Wiley, 2005.

35. R.T. Rockafellar and S. Uryasev. Optimization of conditional value-at-risk. Journal of Risk, 2(3):21–41, 2000.

36. Solnsev O.G., Pestova A.A., Mamonov M.E., Magomedova Z.M. Experience in Developing Early Warning System for Financial Crisis and the Outlook for the Banking Sector in Russia in 2012. // Journal of the New Economic Association, № 12, 2011], URL: <http://www.forecast.ru/ARCHIVE/Analitics/EcoAs/CMASF12-2011.pdf>

37. Tobin. Liquidity preference as behavior towards risk. The Review of Economic Studies, pages 65–86, 1958.

38. W. Jiang. A nonparametric test of market timing. Journal of Empirical Finance, 10(4):399–425, 2003.

39. W.F. Sharpe. Mutual Fund Performance. The Journal of Business, 39(1):119–138, 1966.

40. Weber E.J. A Short History of Derivative Markets. University of Western Australia, 2008. r.6 URL: http://www.uwa.edu.au/__data/assets/pdf_file/0003/94260/08_10_Weber.pdf.

41. Alimardonov E. va boshq. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida moliya bozori barqarorligini ta'minlash: nazariy-konseptual va amaliy jihatlar. Monografiya. – T.: Akademnashr, 2012. B. 132.

42. Karimov A. I. O'. Aholining bo'sh pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilish mexanizmlari samaradorligi tahlili //Ekonomika i finansy (Uzbekistan). – 2021. – №. 10 (146). – S. 35-40

43. Burenin A. N. Rinok sennix bumag i proizvodnix finansovix instrumentov: Uchebnoye posobiye. – M.: 1 Federativnaya Knigotorgovaya Kompaniya, 1998. –166,167 s.

44. Буренин А.Н. Рынок ценных бумаг и производных финансовых инструментов: Учебное пособие. М.: 1 Федеративная Книготорговая Компания, 1998. 172 с.

45. Гусева И.А. Финансовые рынки и институты. М.: Юрайт, 2018. С. 105.

46. Де Ковни Ш., Такки К. Стратегии хеджирования. М.: ИНФРА–М, 1996. С.101,102.

47. Деривативи. (Серия “Реутерс для финансистов”)/Пер.с англ. М.: Алпина Паблишер, 2002. 17 с.

48. Долан Е.Дж., Кемпбелл К.Д. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. М. ; СПб., 1993. С. 15.

49. Закиров Е. Зарубежный опыт регулирования рынка ценных бумаг. //Бизнес-эксперт. Т., 2015, №8.

50. Косарева Н.Б. Основы ипотечного кредитования. М.: ИНФРА-М, 2007. С.5.

51. Qo‘shimcha ma’lumot uchun: R. Cont and P. Tankov. Financial Modelling with Jump Processes. CRC Press, 2004.

52. Monetar siyosatning 2018 - yil uchun asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2017-yil

53. Karimov A.I. Aholining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish orqali qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish. . Monografiya.-T.: Iqtisod-moliya. 2021 y., – 136 b.

54. Sattarov B.K. O‘zbekistonda ipoteka qimmatli qog‘ozlari bozorini shakllantirish yo‘llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish taqdim etilgan diss.avtoreferati. Toshkent – 2012. – B. 8.

55. Uilyam Sharpning ramiy veb sahifasi: www.stanford.edu/wfsharpe/

56. <https://big4auditorcarousel.wordpress.com/category/audit-fees/>

57. <https://www.babypips.com/learn/forex/make-money-trading-forex>

58. <https://www.bankrate.com/rates/interest-rates/treasury.aspx>

59. <https://www.bbva.com/en/foreign-currency-market-work/>

60. <https://www.instaforex.com/oz/gold>

61. <https://www.statista.com/statistics/264661/domestic-market-capitalization-worldwide-top-10/>

GLOSSARIY

O'ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	MAZMUN-MOHİYATI TALQINI
Aksiya	Equity	– o'z egasining Aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, Aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz;
Axborotni oshkor qilish	Disclosure of information	– qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni olish maqsadidan qat'iy nazar, axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta'minlash;
Veksel	Bill	– veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz;
Davlat qimmatli qog'ozlari	Government securities	– O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;
depo hisob-varag'i	securities account	– deponentning qimmatli qog'ozlarini saqlash va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig'indisi;
depo hisob-varag'idan ko'chirma	The custody account statement	– deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, depozitariy tomonidan beriladigan hujjat;
depozitar operatsiyalar	depository operations	– hisobga olish registrlarida depozitariylar tomonidan depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar;
depozit sertifikati	certificate of deposit	– bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz;

Depozitariy ning hisob- ga olish regisrlari	The depo- sitary registers	– depozitariyda qimmatli qog‘ozlarni saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish bo‘yicha depozitar operatsiyalar standartlari bilan belgilangan yozuvlar tizimi;
Deponent	The depo- sitor	– depozitariyda depo hisobvarag‘iga ega bo‘lgan shaxs;
Investitsiya aktivlari	investment assets	– qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e’tirof etiladigan boshqa mol-mulk;
Investor	Investor	– qimmatli qog‘ozlarni o‘z nomidan va o‘z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
Korporativ obligat- siyalar	corporate bonds	– ochiq Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;
noemissiyav iy qimmatli qog‘ozlar	non-equity securities	– ushbu Qonunga muvofiq emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar tushunchasiga oid bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar;
Obligatsiya	Bond	– obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz;
taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog‘ozlar	Bearer securities	– qimmatli qog‘ozlarni taqdim etishning o‘zi mulkiy huquqlarni realizatsiya qilish uchun kifoya qiladigan qimmatli qog‘ozlar;
fond birjasi	Stock Exchange	– ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtda va belgilangan joyda o‘rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o‘tkazish orqali faqat qimmatli qog‘ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs;
egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar	the name of the owner of the secu- rities	– mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o‘z egasining ro‘yxatdan o‘tkazilishini talab etadigan qimmatli qog‘ozlar;
Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar	issue of securities	– bitta chiqarilishi doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar;

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri	Safeguarding of the Unified State Register	– ro'yxatdan o'tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining ro'yxati;
emitent	the issuer	– emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs;
Emitentning opsi	the issuer's option	– emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini opsiyada ko'rsatilgan muddatda qat'iy belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz;
O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari	Debt obligations of the Republic of Uzbekistan	– emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag'lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar;
qimmatli qog'ozlar	Securities	– hujjatlar bo'lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi;
qimmatli qog'ozlar bozori	securities market	– yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi;
qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari	The participants of the securities market	– qimmatli qog'ozlar emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda birjalar;
qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi	Professional securities market participant	– qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

qimmatli qog'ozlar bozori professional ishti-rokchisining mijozi (mijoz)	Professional securities market participant (client)	– deponent yoki qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs;
qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat	Professional activities in the securities market	– qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi;
qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar	securities transactions	– qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, meros qilib olish, ularni ustav fondiga kiritish va qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa aktlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar garovi;
qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers	The futures on securities	– o'zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz;
qimmatli qog'ozlarni joylash-tirish	The place-ment of securities	– qimmatli qog'ozlarni bitimlar tuzish orqali ularning dastlabki egalariga berish;
Qimmatli qog'ozlar markaziy depozi-tariysi	The central securities depository	– depozitariylarda depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlash, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi;
qimmatli qog'ozlar-ning muomalasi	circulation of securities	– qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar;
qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchi	The nominal holder of securities	– qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda boshqa shaxsning (qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning) topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlarni saqlash, hisobga olish va ularga bo'lgan huquqlarni tasdiqlashni amalga oshiruvchi depozitariy;

qimmatli qog'ozlarni chiqarish	securities	– yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining obyekti sifatida qimmatli qog'ozlar paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlari;
qimmatli qog'ozlar egasi	the owner of the securities	– qimmatli qog'ozlar o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;
qimmatli qog'ozlar egalari reyestri	The register of securities holders	– ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlarning nomi, miqdori, nominal qiymati va toifasi, shuningdek reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan ro'yxati;
qimmatli qog'ozlar emissiyasi	The issue of securities	– emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish;
qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi	The securities prospectus	– emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat;
qimmatli qog'ozlar-ning hosilalari	derivative securities	– o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsiyonlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar.

M U N D A R I J A

KIRISH	3
I bob. MOLIYA BOZORINING NAZARIY ASOSLARI.....	5
1.1. Moliya bozorining iqtisodiy mohiyati, ahamiyatli jihatlari, tarkibiy qismlari.....	5
1.2. Moliya bozori modellari.....	9
II bob. PUL BOZORI	17
2.1. Pul bozorining iqtisodiy mohiyati, vujudga kelishi va qo'llanish xususiyatlari	17
2.2. Pul bozori ishtirokchilari	18
2.3. Pul bozori instrumentlari.....	21
III bob. OBLIGATSIYALAR BOZORI	29
3.1. Obligatsiyalar muomalasi nazariy jihatlari	29
3.2. Obligatsiyalar qiymati va daromadliligini baholash	34
IV bob. AKSIYALAR BOZORI	46
4.1. Aksiyalarning qo'llanishi va aksiyalar bozori o'ziga xos xususiyatlari	46
4.2. Aksiyalar qiymati va daromadliligini baholash	54
V bob. HOSILAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI	70
5.1. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari	70
5.2. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning rivojlanish tarixi	73
5.3. Forvard shartnomalarining mohiyati va ularda aktivlarning forvard narxini aniqlash usullari	77
5.4. Fyuchers shartnomalarining mohiyati va ularning o'ziga xos jihatlari	82
5.5. Opsionlar mohiyati va qo'llanilishi.....	85
5.6. Svoplar va ularning qiymatini baholash	94

VI bob. IPOTEKA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI	102
6.1. Ipoteka bozori faoliyatining nazariy jihatlar.....	102
6.2. Ipoteka bozori modellari va qo‘llanish xususiyatlari .	105
6.3. Mamlakatimizda ipoteka bozori amaldagi holati	107
VII bob. XORIJIY VALYUTA BOZORI	113
7.1. Xorijiy valyutalar bozori tashkiliy jihatlar.....	113
7.2. Valyuta bozorida savdoni amalga oshirish tartibi	116
VIII bob. XALQARO QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI.....	124
8.1. Xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy mohiyati, qo‘llanish xususiyatlari va turlari	124
8.2. Xalqaro obligatsiyalar va ular muomalasini tashkil etish.....	126
8.3. Xalqaro aksiyalar va ular muomalasini tashkil etish	129
IX bob. QIMMATBAHO METALLAR BOZORI.....	139
9.1. Qimmatbaho metallar bozori xususiyatlari, ishtirokchilari	139
9.2. Oltin bozori amal qilish mexanizmi	141
X bob. MOLIYA BOZORI TAHLILI	154
10.1. Moliya bozori tahlilining tashkiliy xususiyatlari	154
10.2. Fundamental tahlil	155
10.3. Moliya bozori texnik tahlili.....	160
10.4. Trend turlari va shakllari.....	165
10.5. Yapon shamlari turlari va modellari.....	167
XI bob. MOLIYA BOZORI RISKLARI VA PORTFELNI BOSHQARISH.....	176
11.1. Moliya bozori risklari: mohiyati, asosiy turlari va baholash usullari	176
11.2. Portfel nazariyasi: Markovisgacha va undan keyingi baholash usullari	185
XII bob. FOND BIRJALARI VA FOND BOZORI ISHTIROKCHILARI.....	198

12.1. Fond birjasi funksiyalari va tashkiliy tuzilmasi	198
12.2. Fond birjasi infratuzilmasi va birja savdolari qatnashchilari	202
12.3. Fond birja savdolari mexanizmi. Birja auksioni turlari.....	211
XIII bob. MOLIYA BOZORIDA BANKLAR VA NOBANK KREDIT INSTITUTLARI	221
13.1. Moliya bozorida banklarning ishtiroki	221
13.2. Aksiyadorik tijorat banklari aksiyalar emitenti sifatida	224
XIV bob. INVESTITSIYA VA PAY FONDLARI	230
14.1. Investitsiya fondlarining iqtisodiy mohiyati, paydo bo'lishi va ahamiyatli jihatlari	230
14.2. O'zbekistonda investitsiya va pay fondlari faoliyat mexanizmi.....	233
14.3. Pay fondlari faoliyat mexanizmi	236
XV bob. MOLIYA BOZORIDA SUVEREN FONDLAR	246
15.1. Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda suveren fondlar faoliyatining nazariy jihatlari	246
15.2. Mamlakatimizda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatining tashkiliy xususiyatlari va huquqiy asoslari	256
15.3. Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash maqsadida taraqqiyot jamg'armalari faoliyati bo'yicha ilg'or xorij tajribalari	267
XVI bob. KRIPTOVALYUTALAR BOZORI VA BLOKCHEYN TEKNOLOGIYALAR.....	285
16.1. Kriptografiya va kriptovalyutalar haqida tushuncha	285
16.2. Blokcheyn texnologiyalari.....	289
16.3. Kriptovalyuta turlari va Bitkoyn.....	289
XVII bob. MOLIYA BOZORINI TARTIBGA SOLISH	296

17.1. Moliya bozorini tartibga solishning zarurligi va nazariy jihatlari.....	296
17.2. Moliya bozorini tartibga solish amaliyoti	300
XVIII bob. MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR MOHIYATI: YUZAGA KELISH SHART-SHAROITLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	309
18.1. Moliyaviy texnologiyalar pul oqimlarini boshqarishga qaratilgan raqamli texnologiyalar.....	309
18.2. Moliyaviy texnologiyalar yuzaga kelishiga obyektiv zarurat.....	311
XIX bob. RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ROLI	316
19.1. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar	316
19.2. Raqamli iqtisodiyotdagi asosiy yo‘nalishlari	318
XX bob. MOLIYA BOZORIDA INTELLEKTUAL TIZIMLAR	325
20.1. Moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirishda intellektual tizimlardan foydalanish.....	325
20.2. Masofaviy bank tizimining ahamiyati	329
XXI bob. ROBO-MASLAHATCHILAR (ROBO-ADVISORS)	342
21.1. Robo-maslahatchilarning mazmun-mohiyati va ahamiyati.....	342
21.2. Investitsiya faoliyatida robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.....	345
21.3. Robo-maslahatchilar bo‘yicha xorij tajribasi	349
XXII bob. MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VA KROUDFANDING	358
22.1. Muqobil moliyalashtirish bozorini ilmiy-nazariy asoslari	358
22.2. Kraudfanding moliyalashtirish.....	364
22.3. O‘zbekistonda muqobil moliyalashtirish bozorini rivojlantirishning asosiy muammolari.....	367

XXIII bob. MOLIYAVIY TASHKIOTLARDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR XUSUSIYATLARI VA ULARNI JORIY ETISH	373
23.1. Moliyaviy tashkilotlar moliyaviy texnologiyalar yaratuvchisi va taklif qiluvchisi sifatida	373
23.2. Moliyaviy tashkilotlarda moliyaviy texnologiyalar orqali sarf-xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari	380
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	398
GLOSSARIY.....	402

**S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherkuziyeva, A.Karimov,
D.Abduraximova, S.Omonov**

MOLIYA BOZORI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALAR

Darslik

Тошкент – « DIADEMA NUR SERVIS » ООО – 2023

Muharrir: A. Tog'ayev
Tex. muharrir: F. Tog'ayeva
Musahhiha: O. Muxammadiyeva
Kompyuterda
sahifalovchi: G. Tog'ayeva



№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.
Bosishga ruxsat etildi: 03.09.2023. Bichimi 60x841 / 16.
Shartli bosma tabog'i 20,5. Nashr bosma tabog'i 20,25.
Adadi 100. Buyurtma № 13.

«Nihol print» Ok da chop etildi.
Toshkent sh. , M. Ashrafiy ko'chasi, 99/101.